

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

# **MADANIYATSHUNOSLIK ASOSLARI**

Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun qo'llanma

**Mualliflar:** *M. Abdullayev, E. Umarov, A. Ochldiyev, A. Yo‘l-doshev, A. Abdullayev.*

**Taqrizchilar:** *G. Hamidova* — falsafa fanlari doktori, professor,  
*A. Ergashev* — filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Mas’ul muharrir:** *Yo. Toirov* — falsafa fanlari doktori, professor.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Oliy o‘quv yurtlararo muvofiqlashtiruvchi kengashining 2004-yil 31-yanvaridagi 4-sonli qaroriga binoan tavsiya etilgan.

Zamon talablariga har tomonlama javob beradigan yuqori malakali, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish mustaqillik yo'lidani borayotgan jamiyatimizning eng oliy maqsadidir. Zero, barkamollikning yuksak mezonini insonning chinakam ma'naviyati va ma'rifat sohibi bo'la olishi bilan belgilanadi. Respublikamiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi jamiyat hayotining barcha sohalarida tub sifat o'zgarishlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Bu vazifani hal etish ko'p jihatdan fuqarolarning madaniy-ma'rifiy faolligini tinmay oshirib borish va kamol toptirish bilan uzviy bog'liqdir. Kishilarning yaratuvchanlik qobiliyatini, axloqiy fazilatlarini, ijodiy ko'tarinkiligini, iste'dodlarini to'la namoyon eta olish fazilati madaniy faoliyat asosida ro'yobga chiqadi. Inson omili tushunchasi tarkibiga kiradigan bu fazilatlar jamiyatning ham, alohida shaxsning ham barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bularsiz kishilarning ijtimoiy hayot va tarixiy jarayonda ongli, samarali ishtirok etishi, umuman, ma'naviy shakllanishi va kamol topishini tasavvur etib bo'lmaydi. Darhaqiqat, «buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma'rifatli, ayni paytda, o'zining o'tmishi, ulug' qadriyat-lari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Bunday insonni tarbiyalash esa ijtimoiy fani-mizning muqaddas burchidir... Vatan tarixi va madaniyati, jug'rofiyasi va iqtisodini, qadimiy urf-odatlarimizni har tomonlama o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Bog'chalardan tortib oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimlarida mazkur fan va bilimlarni o'qitishga muhim siyosiy vazifa sifatida qaralmog'i lozim»<sup>1</sup>.

So'z inson haqida bo'ladimi, madaniylashuv jarayoniga tegishlimi, tafakkurning boyligi to'g'risidami, qadriyatlarining boyib borishi xususidami, bulardan qat'iy nazar, jamiyat ma'naviy hayotining mana shu tomonlarini chuqur va har tomonlama egallash va o'rganish ma'naviy mustaqillikning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Bu jarayonlarni nazariy

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. — T.: «O'zbekiston», 1995, 55, 204-b.

jihatdan umumlashtirish hamda madaniyat mavjudligi va uning rivojlanish qonuniyatlarini chuqur o'rganish milliy istiqlol mafkurasini anglab yetishning muhim qirralaridandir.

O'quv yurtlarimizda o'qitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlar zimmasiga talaba-yoshlarning ma'naviy dunyosini milliy istiqlol g'oyalari ruhida shakllantirish hamda ularning erkin fikrlashi va madaniy-ma'ri-fiy faolligini oshirish, barkamol avlodga xos fazilatlarni tarkib toptirish mas'uliyati yuklanadi. E'tiboringizga havola etilayotgan risola shu maqsadda yaratildi. Unda respublikamizda keyingi yillarda yaratilgan madaniyat nazariyasi va tarixiga oid asarlarda ilgari surilgan fikrlardan ijodiy foydalanildi.

Qo'llanma falsafa fanlari doktorlari, professorlar **M. Abdullayev**, **E. Umarov** («Kirish», «Madaniyatshunoslikning bahs mavzui va funksiyalari», «Madaniyat to'g'risida ilmiy-nazariy konsepsiyalar», Ikkinchi bob, Ilova), **A. Ochildiyev** («Madaniyat tushunchasi, uning mohiyati va funksiyalari»), **A. Yo'ldoshev** («Madaniyat va tabiat», «Jamiyat va madaniyat», «Madaniyat va sivilizatsiya», «Shaxs va madaniyat»), iqtisod fanlari nomzodi, dotsent **A. Abdullayev** («Iqtisodiy madaniyat»)lar tomonidan tayyorlandi.

## MADANIYATSHUNOSLIKNING BAHS MAVZUI VA VAZIFALARI

Har bir fan o'zi ilmiy tadqiq etadigan muammolar sohasiga egadir, binobarin, fan mavzuini aniqlash u o'rganadigan faoliyat doiralari, uning o'ziga xos tomonlarini belgilab olish demakdir. Shunday ekan, fan o'z maqsadi, muammolari, manfaatlari sohasini, tajribasi, tekshirish usullari, asosiy nazariy va amaliy masalalarini aniq belgilab olib, shular asosida olam, uning hodisalari, ular o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabatlarni qarab chiqadi, ularni o'zining bahs mavzui va tekshirishlari doirasiga olib kiradi.

Madaniyatshunoslik jamiyat ma'naviy taraqqiyotining umumiy qonunlari, ularni harakatga keltiruvchi kuchlar, insonning madaniy-tarixiy jarayonda hamda madaniyat sohasida tutgan o'rni haqidagi fandir. Madaniyatshunoslikning bahs mavzui (predmeti) quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

- madaniyatning mohiyati, mazmuni, tuzilishi, asosiy funksiyalari;
- madaniyatning tarixiy taraqqiyot qonunlari, madaniy vorislik jarayonlari, madaniy merosdan foydalanish tamoyillari;
- madaniyatning milliy-etnik o'ziga xosligi, millatlar va mintaqalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda, uyg'unlashtirishda madaniy aloqalar hamda umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati;
- shaxsning ma'naviy shakllanishi va kamol topishida, insoniy munosabatlarni oliyjanoblashtirishda madaniyatning o'rni.

Har bir fanga izoh berilganda, odatda, unga bilimlar tizimi ekanligidan kelib chiqib yondashiladi. Fan haqiqatlar, dalillar, kuzatishlar, g'oyalarning oddiy yig'indisi emas, balki jamiyat va insoniyat amaliy faoliyati jarayonida to'plangan, sinovdan o'tgan bilimlar tizimidir.

Shu nuqtai nazardan, madaniyatshunoslikni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- birinchidan, madaniyatshunoslikda har bir masala boshqa ma'naviy va moddiy ahamiyatga molik muammolar bilan mantiqan bog'lanib, bir butun tizimning tarkibiy qismi sifatida olib qaraladi;
- ikkinchidan, madaniyatshunoslik ma'naviy hodisalarning umumiy jihatlari nazariy xulosalaydi, ilmiy konsepsiyalar yaratadi, shu negizda konkret hodisalarga yondashadi;

— uchinchidan, madaniyatshunoslik tizim sifatida butunni tashkil etadigan bo'laklar yaxlitligidan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, madaniyatshunoslik madaniyatni o'rganganda uni jamiyat hayotining boshqa sohalari doirasida olib tekshiradi;

— to'rtinchidan, madaniyatshunoslik muayyan monizm, ya'ni yaxlit bir nazariy asosga suyanadi va shu nuqtai nazardan madaniyat hodisalarini tekshiradi. Madaniyatni qadriyat deb hisoblash va shu yo'l bilan fikr yuritish madaniyatshunoslikdagi monizمنى bir ko'rinishidir. Buni boshqa fanlar sohasida ham ko'rsa bo'ladi. Chunonchi, D. I. Mendeleyev ana shu tartibdagi monizmga suyanib turib, o'ziga qadar bo'lgan bilimlarni bir tizimga solganligi ma'lum.

— beshinchidan, insonning olamni ma'naviy o'zlashtirishi, madaniy faoliyat ko'rsatishi rang-barang va cheksizdir. Shunga ko'ra, madaniyatshunoslik muntazam tarzda yangidan-yangi dalillarni, voqea-hodisalarni tahlil etadi. Binobarin, ma'naviy-madaniy taraqqiyot sari insoniyat tomonidan olg'a qo'yilgan har bir qadam ayni madaniyatshunoslik uchun ham kashfiyotdir.

Fan uchun dalil havodek zarur bo'lganidek, fikr ham uning qanoti hisoblanadi. Bu sohada samaraga erishmoq uchun, bir tomondan, dalillarni obyektiv tarzda idrok etish lozim, bu esa madaniyatshunoslikda konkret va umumiy tasavvurlar hosil qilishga imkon beradi. Boshqa tomondan, bu hodisalar to'g'risida ayni nazariy, mavhum fikr yuritish ham talab qilinadi. Madaniyatshunoslik fan sifatida qonunlar, kategoriyalar, umumiy tushunchalar tizimidir.

Madaniyatshunoslik falsafiy yo'sindagi fan bo'lganligi bois muayyan g'oyaviy asosga tayanib ish ko'radi, bunday yondashuv ijtimoiy fikrlar tarixida turlicha qarashlarning mohiyatini belgilashda muhim rol o'ynagan. Olamning madaniy manzarasi haqida fikr yuritganda madaniyat to'g'risida vujudga kelgan qarashlarning bir qismida u, ya'ni, «madaniyat» «olam ruhi», «ilohiyotning zuhur etilishi», yoinki, «shaxsiy kechinma natijasi», deb talqin etilgan. Madaniyat mutlaq ruh taraqqiyoti, yoinki, madaniyat hodisalarini yaratadigan subyekt — ijodkorning sof ma'naviy olamidan boshqa narsa emas, deb baholanadi.

Moddiy reallikni asos qilib oladigan dunyoqarash esa insonning tashqi olamga, tabiatga bo'ladigan ma'naviy-amaliy faoliyati obyektiv zaruriyat, yuzaga keladigan qadriyat esa kishilarning real ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi, degan fikrni ilgari suradi. Bunday dunyoqarash madaniy faoliyat ko'rsatishning obyekti — rang-barang olamdир, degan tushuntirish usuliga suyanadi. Insoniyat taraqqiyoti uchun ahamiyatli hodisalarni e'tirof etish madaniyatshunoslik sohasidagi ilmiy konsepsiyaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Madaniyatshunoslik fanida uning ilmiy tushunchalari — kategoriya-lari to'g'risidagi masala alohida o'rin tutadi. Binobarin, har bir fan o'zi tadqiq etadigan obyektni ilmiy-mantiqiy jihatdan asoslashda muayyan kategoriya va tushunchalarni ishlab chiqadi va ularga suyanib ish ko'radi. Madaniyatshunoslik fan sifatida shakllanar ekan, falsafa va boshqa fanlarning «madaniyat», «ijodiy faoliyat», «san'at» singari kategoriya-laridan samarali foydalanib keladi. Ayni vaqtda, uning o'ziga xos kategoriyalari ham tarkib topgan. Ular sirasiga keng ma'noda «madaniy qadriyat», «madaniy-tarixiy jarayon», «ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish», «ma'naviy ravnaq», «madaniyat subyekti va obyekti», «madaniy dalil», «madaniy meros», «madaniylik darajasi», «madaniy vorislik» va boshqalarni kiritish mumkin.

Madaniyatshunoslik kategoriyalari va tushunchalari mazmunan inson tomonidan madaniyat mahsulotlarini yaratish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish bilan uzviy bog'liqdir. Ular tarixan turli davrlarda amalga oshirilgan faoliyatning asosiy xususiyatlarini, shuningdek, har bir ijtimoiy tuzumda bu sohada yuzaga kelgan yangiliklarni, o'zgarishlarni o'zida ifoda etadi.

Madaniyatshunoslik ilmiy uslub (metod)lardan keng foydalanadi. Madaniyatshunoslikning ilmiy uslubi shu sohada erishilgan bilimlar bo'lib, fan rivojlanishi jarayonida ularning yangi ko'rsatma, yondashuv, yo'l-yo'riq va tamoyillarga aylangan majmuidir.

Bu uslubning birinchi jihati shundaki, madaniyatshunoslik sohasida olib boriladigan tadqiqotlar, avvalambor, insonparvarlik g'oyalariga suyanishi kerak. Bunda o'rganilayotgan davr (madaniyat)ning o'ziga xosligi, turli ijtimoiy aloqalar, kishilar xulqi, tafakkuriga xos ziddiyatlarni ko'rsatish nazarda tutiladi. Bularning barchasi madaniyat to'g'risidagi nazariy tasavvurlar doirasida olib qoraladi, tadqiq etiladi.

Madaniyatshunoslik uslubining ikkinchi jihati o'rganilayotgan madaniyat va uning tushunchalarini boshqa madaniyatlar bilan qiyoslashni taqozo qiladi. Tekshirilayotgan madaniyat kelib chiqishi jihatidan o'tmish yoki hozirgi kunga tegishli bo'lishi mumkin. Chunonchi, antik madaniyatni hozirgi zamon bilan, o'rta asr madaniyati bilan; Renessans madaniyatini antik, o'rta asr va hozirgi zamon bilan taqqoslash; Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixini Yaqin va O'rta Sharq yoki ellinizmga solishtirish. Bunday usul qo'llanilganda, falsafa, mantiq, sotsiologiya, tilshunoslik, psixologiya, tarix va boshqa fan sohalaridagi qarashlardan, ularning «makon», «borliq», «belgi», «shakl», «nusxa», «tizim», «ijtimoiy munosabat» kabi tushunchalaridan ijodiy foydalaniladi.

Madaniyatshunoslik uslubining uchinchi jihati madaniyatning ijtimoiy barqarorligi, uning yashovchanligini ta'minlaydigan asosiy qatlamlar, ularning tuzilishi, xususiyatlari va tabiatini tadqiq etadi. Chunonchi, Markaziy Osiyo Uyg'onish davri madaniyati o'rganilganda unda tasavvuf, diniy va dunyoviy jihatlar, xalq madaniyati taraqqiyotiga xos ziddiyatlar, ellin yoki arab madaniyatiga munosabat kabi masalalar yoritiladi. Yoki o'rta asrlar Yevropa madaniyati tahlil etilganda, xristian dunyoqarashi; antik, majusiylilik va xristianlik an'analari, urf-odatlar o'rtasidagi ziddiyatlar, o'zaro ta'sirlar; yozma va og'zaki madaniyat o'rtasidagi aloqadorlik; antik kolonial va xristian davlatchiligiga xos o'zaro aloqadorlik, qarama-qarshilik kabi asosiy jihatlar belgilab olinadi. Bunda yetakchi madaniy namunalarni aniqlash qiyoslash hamda umumlashtirishning asosiy sharti qilib olinadi.

Madaniyatshunoslik uslubining to'rtinchi qatlami tashqi g'oyaviy-mafkuraviy yo'nalish va hodisalarning uning strukturasi, shuningdek, madaniy jarayonga ta'sirini tushuntirib berishni ko'zda tutadi. Darhaqiqat, bid'at, boshboshdoqlik, siyosiy zo'ravonlik, mafkuraviy biqlik, milliy mahdudlik, millatparastlik kabi salbiy hodisalar madaniyatga o'z ta'sirini o'tkazib turadi, holbuki, ziddiyatli omillarsiz madaniyat rivojlanmaydi. Shuning uchun madaniyat, madaniy jarayonlarni o'rganishda masalaning bu jihatini e'tibordan soqit qilish aslo mumkin emas.

Madaniyatshunoslik fanining o'ziga xos xususiyatlari boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uni qiyoslash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Gap shundaki, madaniyat muammolari falsafa, etika, estetika, tarix, sotsiologiya, etnografiya, san'atshunoslik, psixologiya kabi o'nlab fanlar tekshiradigan sohalarining ham ma'lum bir qismini tashkil etadi. Shunday ekan, madaniyatni tadqiq etishda ular o'rtasidagi o'ziga xos tomonlar nimadan iboratligini bilib olish, shuningdek, ular bilan madaniyatshunoslik o'rtasidagi aloqadorlik masalasini ko'rib chiqish muhimdir.

**Madaniyatshunoslik va falsafa.** Falsafa madaniyatni o'rganganda, umuman, madaniy-tarixiy jarayonning mazmuni, muammoning dunyoqarash sohasi, ijtimoiy taraqqiyotda uning tutgan o'rnini ochishga asosiy e'tiborni qaratadi.

Falsafada inson o'zining madaniy mohiyati bilan namoyon bo'ladi, falsafa uchun madaniyat inson faoliyati mahsuli va natijasidir. Falsafa voqelikning qaysi bir sohasiga murojaat etmasin, unda hamma vaqt insoniy ma'no va mazmunni ko'radi, uni madaniyat sohasiga olib kiradi. Falsafa hatto tabiatga murojaat etganda ham uni kimyoviy, biologik

yoki fizikaviy emas, balki insoniylik mazmuni, muayyan madaniy qadriyat ekanligi jihatidan olib tekshiradi. Shuning uchun madaniyat falsafiy jihatdan o'zida insoniy kuch va munosabatlarni gavdalantiradigan predmetli voqelik tarzida namoyon bo'ladi. Bu haqda keyingi sahifalarda keng ma'lumot beriladi.

**Madaniyatshunoslik va sotsiologiya.** Sotsiologiya madaniyatni ijtimoiy borliqning bir bo'lagi tarzida olib o'rganadi, jamiyatda madaniyat obyektlarini yaratish, o'zlashtirish, taqsimlash, ularni boshqalarga yetkazishning konkret shakllari hamda usullari; madaniy hayotning barqaror hamda o'zgaruvchan jarayonlari, ularning mohiyati va tabiatini belgilaydigan mexanizmlar hamda omillar; konkret ijtimoiy birlik yoki tizimning madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, ular tomonidan madaniyatni o'zlashtirganlik darajasi kabi muammolarni tadqiq etadi.

Sotsiologiyada madaniyat taraqqiyotining umumijtimoiy qonuniyatlari, jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida turli tabaqalar va sotsial guruhlarning madaniy holatining o'ziga xosligi qarang chiqiladi. Bunda, tabiiyki, quyidagilarga e'tibor beriladi: yaratilgan va foydalanadigan predmetlar, g'oyalar, tasavvurlar, ustuvor qadriyatlar; jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan ijtimoiy-madaniy me'yorlar; shu tartibdagi munosabatlarni tashkil etish, yashash qoidalari, usullari va h. k.

**Madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik.** Ma'lumki, adabiyotshunoslik badiiy adabiyotni ma'naviy madaniyatning konkret ko'rinishi sifatidagi taraqqiyot qonunlarini tadqiq etadigan ilm sohasidir. Shunday ekan, adabiyotshunoslik bilan madaniyatshunoslik o'rtasida o'zaro aloqadorlikning bo'lishi tabiiy bir holdir. Madaniyatshunoslikda adabiy asarlar, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, badiiy adabiyot asarlari, shuningdek, falsafa, fan kabi yaxlit ko'rinishdagi qadriyatlar deb e'tirof etiladi. Madaniyatshunoslik muayyan madaniyatning boshqasidan tafovuti, birining boshqasi bilan almashinishi, qaysi struktura ijtimoiy tizim va madaniyatning tabiatini belgilashi, madaniyat barqarormi, madaniyat qanday qilib va qay darajada shakllanadi, degan masalalar bilan qiziqadi. To'g'ri, bu muammolar bilan adabiyotshunoslik ham shug'ullanishi mumkin, lekin adabiyotshunoslik doirasida ular yordamchi masalalar tarzida qarang chiqiladi. Adabiyotshunoslik madaniyatni o'ziga xos tavsiflaydi, ayni paytda, undan farqli o'laroq, o'ziga tegishli metodlarga suyanib ish ko'rishga ham ehtiyoj sezadi. Bunday holda adabiyotshunoslikda jamiyatdagi sotsial struktura ham, kishilar psixologiyasi ham, til va simvolika xususiyatlari ham o'z tavsifini topishi mumkin.

Adabiyotshunoslik madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan fikr yuritganda voqelikning boshqa gumanitar fanlar qayd etadigan jihatlariga ham e'tibor beradi. Adabiyotshunoslarning vaqti-vaqti bilan sotsiologiya (qadimgi auditoriya va kommunikatsiya vositalari)ga, psixologiya (san'atni idrok etuvchilarning ruhiyatini tahlil qilish)ga, tilshunoslik va semiotika (adabiy til, leksika, ma'no tahlili)ga, dinshunoslik (badiiy asarning g'oyaviy asoslarini aniqlash)ga murojaat etishlarining boisi shunda.

Bunday tadqiqotlarda asosiy yo'nalish madaniyatshunoslik yo'sinida bo'lib, ilmning boshqa ko'rinishlariga aloqador tadqiqotlarni bir madaniy muammo atrofida birlashtirib muhokama etish imkoni vujudga keladi. Chunonchi, Markaziy Osiyo uyg'onish harakatlari davri yoki ma'rifatparvarlik g'oyalari shakllanishi sharoitida faoliyat ko'rsatgan kishilarning ruhiyatini, ularning badiiy in'ikosini muayyan diniy yoki dunyoviy madaniyatni yaxlit holda olib tahlil qilmasdan turib aniqlab bo'lmaydi. Adabiy asarlarning hayoti juda murakkab va ko'p qirrali bo'lib, unda ham madaniyat, ham inson ruhiyati, ham uning tili o'zaro qorishib ketadi. Bu esa madaniyatshunoslik bilan adabiyotshunoslik o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning barqarorligidan dalolat beradi.

Madaniyatni ilmiy o'rganish masalalari bilan tarix fani keng shug'ullanadi, lekin uni tarix xronologik izchillikda, ya'ni paydo bo'lish va rivojlanish jarayonida olib tekshiradi, jamiyat tarixining boshqa sohaları — iqtisodiy turmush, siyosiy muhit bilan birgalikda o'rganadi, madaniy hayotning mavqeini tarixan izohlaydi. Estetika esa ma'naviy va madaniy borliqni badiiy jarayonlar va estetik ong doirasida olib tahlil etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, madaniyatshunoslik bilan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar o'rtasidagi aloqalarni bir yoqlama tushumsh, faqat madaniyatshunoslikning ularga ta'sirinigina e'tirof etib, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va hamkorlikni e'tibordan soqit qilish ilmiy jihatdan noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Holbuki, madaniyatshunoslik fani madaniyat to'g'risidagi konkret fanlar — adabiyotshunoslik, kinoshunoslik, tasviriy san'at nazariyasi, fanshunoslik, teatrshunoslik kabi o'nlab ilmiy sohalar to'plagan tajribalarga suyanadi, ular negizida mazmunan boyib boradi. Albatta, madaniyatshunoslik mazkur fanlar tomonidan erishilgan yutuqlarning shunchaki, oddiy yig'indisi emas, balki umummadaniy taraqqiyotning nazariy va falsafiy umumlashmasidir.

Anglashiladiki, falsafa, sotsiologiya, adabiyotshunoslik va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar madaniyatni yaxlit, bir butun tizim sifatida

emas, balki faqat o'z mavzui va vazifalari doirasida olib tekshirish bilan chegaralanadi. Madaniyatshunoslik, ulardan farqli o'laroq, madaniyatni yaxlit va har tomonlama o'rganadi, uni asosiy tekshirish obyekti qilib oladi, tarixiy reallik sifatida qayd etadi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ta'sir etish qonuniyatlari negizida uni qarab chiqadi.

Hozirgi sharoitda madaniyatni ma'naviy amaliyot yig'indisi sifatida iqtisodiy tajriba va ijtimoiy-tarixiy jarayon bilan bog'lab o'rganishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Ayniqsa, uning mohiyatini bilish, ichki tuzilishi, yashab turishi, mavjudlik shakllari, jamiyat hayotining boshqa sohalari rivojlanishiga ta'siri, ayni vaqtda, ularga bog'liqligi masalalari keng o'rganilmoqda. O'zbek madaniyatshunoslik ilmda madaniy meros, ma'naviy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o'rni, mustaqillikning ma'naviy-axloqiy asoslarini ta'minlashda bu omillarning mavqeini ilmiy tahlil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yaqin o'tmishda partiyaviylik, sinfiylik, kommunistik mafkuraviylik, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik kabi g'ayriilmiy tamoyillar ta'sirida bir yoqlama o'rganilgan milliy madaniyatimizni xolisona tahlil etish, milliy istiqlol g'oyasi nuqtai nazaridan qarab chiqish o'ta dolzarb masaladir.

Madaniyatshunoslik fan sifatida bilimlar tizimidan iborat bo'lib, o'z tuzilishiga ko'ra madaniyat tarixi va madaniyat nazariyasi tarixini o'z ichiga oladi.

**Madaniyat tarixi** madaniyatshunoslikning tarkibiy qismi sifatida madaniyatning paydo bo'lishi va uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini maxsus o'rganadigan sohadir. U ayni tarix fani bilan uzviy bog'langan bo'lib, muayyan xalq tarixini o'rganishda uni xronologik hamda jamiyat turmushining boshqa sohalari bilan bog'liq holda tahlil etishga asoslanadi. Madaniyat tarixi asosiy e'tiborni madaniyatning kelib chiqishi va uning tarixiy rivoj topish qonuniyatlari to'g'risida konkret xulosalar chiqarishga qaratadi. Bunda madaniyat tarixi tabiiy-tarixiy jarayon sifatida, har bir jamiyatning konkret madaniyati esa inson faoliyati usullari va natijalarining tarixan shartlanganlik mahsuli tarzida olib qaraladi.

**Madaniyat nazariyasi tarixi** madaniyat to'g'risidagi tasavvurlar, qarash va konsepsiyalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi xususida fikr yuritadi. Shubha yo'qki, madaniyat to'g'risidagi fikrlar juda qadimda paydo bo'lgan, davrlar o'tishi bilan o'zgarishlarga duch kelgan, madaniyatning umumiy va asosiy xususiyatlari haqidagi qarashlar yangi tajriba va hodisalarni tadqiq etish negizida yanada boyib borgan.

Ma'lumki, madaniyat deyilganda, dastavval, insonning tabiatga ko'rsatadigan ta'siri, shuningdek, insonga ta'lim-tarbiya berish tushunilgan. Tarbiya faqat mavjud qonun-qoida va urf-odatlariga ko'r-

ko'rona rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishdangina iborat bo'lib qolmasdan, balki shu bilan birga, ularga rioya qilish istagini rag'batlantirishni ham o'z ichiga olishi kerak, deb e'tirof etilgan. Madaniyatni ikki yoqlama bunday tushunish har qanday jamiyatga xos xususiyat hisoblanadi. Chunonchi, qadimgi yunonlar «tarbiya ko'rgan («paydey»)liklari» bilan «madaniyatsiz» varvarlardan o'zlarini ustun qo'yanlar, Qadimgi Rimda esa «madaniyat» tushunchasi shahar turmush tarzini bildirgan.

Antik zamon mutafakkirlari fikricha, madaniyat inson faoliyati bilan bog'langan. Madaniyat eng umumiy malakalar, layoqatlar, bilimlarning ifodasi, shaxsning yuksak ijtimoiy tajribaga ega bo'lishi uning madaniyatni egallash darajasini bildiradi, degan mulohazalar tarqalgan. Qadimgi yunon mutafakkiri Demokritning fikricha, inson madaniyatning ijodkori bo'lib, uni o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida va tabiatga taqlid qilib yuzaga keltirgan<sup>1</sup>. O'rta asr Sharq ijtimoiy tafakkurining yirik namoyandalari — Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar ham madaniyat to'g'risida o'zlarning chuqur fikr-mulohazalarini meros qilib qoldirganlar. Forobiyning fikricha, har bir inson yetuklik sari intiladi, bunday fazilatga esa faqat shahar jamoasi orqali erishishi mumkin. «Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladi, — deydi u, — shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar»<sup>2</sup>.

Alisher Navoiy yetuk axloq va adolatli jamiyat, jamoa masalalarini qayd etish bilan birga, insonparvarlik ideallariga muvofiqlashish orqali ma'naviy va madaniy yuksaklikka erishish imkonligini, bu narsa insoniylik mezonini ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Yevropa ma'rifatparvarlik davri ingliz faylasufi F. Bekon ham shunday fikrni ilgari surib, madaniyat inson faoliyatining erkinligidir, degan edi. Uning fikricha, kimki o'z ishining ustasi bo'lsa, erkinlik bilan o'z maqsadlariga erisha oladi, har bir omilkor usta — o'z ijodining shohidir<sup>3</sup>.

Demak, har bir tarixiy davrda ma'naviy ehtiyojlarni qondirish zaruriyatidan madaniyat to'g'risidagi qarashlar kelib chiqqan, madaniyat turlicha talqin qilingan. Nima bo'lganda ham, madaniyatni turli-

---

<sup>1</sup> Qaralsin: Введение в культурологию. — М.: «Владос», 1996, С. 6

<sup>2</sup> *Abu Nasr Forobiy*. Fozil odamlar shahri. — T.: «Xalq merosi», 1993, 190-b.

<sup>3</sup> Yangi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi. — T.: «Sharq», 2002, 12-b.

tuman tarzda tavsiflash hamma zamonda amal qilgan, oqibat-natijada, rang-barang konsepsiya va nazariyalar yuzaga kelgan.

Shunday qilib, madaniyatshunoslik madaniyatning mohiyat-mazmuni, shakllari, o'zgarishlari va rivojlanishi, insoniyat ma'naviyatining o'ziga xosligi, madaniyatning falsafiy-tarixiy tahlili, madaniy jarayonlar va ma'naviy oqimlar taraqqiyoti qonunlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, madaniyatshunoslik fanining mazmun-mohiyati va vazifalarini belgilab olish mumkin. Madaniyatshunoslik mazmunan bir-biri bilan o'zaro bog'liq quyidagi asosiy qismlardan tashkil topadi:

- madaniyatning nazariy-metodologik muammolari;
- jahon madaniyati taraqqiyotining asosiy bosqichlari;
- Vatan madaniyatining tarixiy taraqqiyoti.

Madaniyatshunoslikning mazmun-mohiyati shunday tartibda qarab chiqilganda, uning nazariy-falsafiy masalalari ham, umuminsoniy va milliy qadriyatlar o'rtasidagi umumiy va xususiy jihatlar ham o'zaro bog'lanadi, jahon va Vatan madaniyati taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlarini yoritish ilmiy-falsafiy jihatdan o'zini oqlaydi.

Bunday yondashuv, ayni vaqtda, O'zbekistonda jamiyatni yangilash va rivojlantirishning o'ziga xos ma'naviy-axloqiy asoslaridan bo'lmish — vatanparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, madaniy merosni mustahkamlash va rivojlantirish singari xislatlarni, shuningdek, insonning o'z ijodiy imkoniyatlarini erkin namoyon qilish hamda yuksaltirish vazifalarini to'la aks ettiradi.

Ilmiy-falsafiy hamda nazariy muammolarni yoritish jarayonida madaniyatshunoslikning asosiy **funksiyalari** namoyon bo'ladi:

Birinchidan, mazkur fan madaniyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini ilmiy jihatdan yoritib borib, **gnoseologik** funksiyani bajaradi. Bunda madaniyat to'g'risida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy qarashlar, konsepsiyalar, yangidan-yangi adabiyotlar, yangi yo'nalishlar aniqlanadi, ularning mohiyati asoslanadi. Shu bilan madaniyatga, madaniy faoliyat masalasiga turlicha qarashlarning xususiyatlari, mafkuraviy-g'oyaviy negizlari aniqlanadi va ularni o'rganishning yangicha usullari vujudga keladi.

Ikkinchidan, madaniyatshunoslik **tarbiyaviy** funksiyani bajaradi. Odatda, «madaniyatli kishi» to'g'risidagi tasavvurlarimiz insonga xos turmush va kiyinish madaniyati, muomala madaniyati, an'analarni o'zlashtirish, san'at va adabiyotning mohiyatini tushunish, uning axloqiy-estetik salohiyatini chuqur idrok etish kabi sifatlar bilan izohlanadi.

Oʻz xalqining va oʻzga xalqlarning madaniy qadriyatlarini bilish, oʻzlashtirish, hurmatlash qobiliyatini tarbiyalash ham kishilarning madaniyat toʻgʻrisidagi tushunchalari bilan uzviy bogʻlanganligi maʼlum. Madaniyatshunoslikning tarbiyaviy funksiyasi bu sohada muayyan bilimlarning yolgʻiz oʻzi bilan emas, shu bilan birga egallangan nazariy-falsafiy qarashlar, axloqiy-estetik qadriyatlar kishilarning amaliy, kundalik faoliyatida reallikka aylanishini ham nazarda tutadi. Binobarin, madaniyat qoidalarining oddiy yigʻindisi emas, balki faoliyat usuli, moddiy va maʼnaviy neʼmatlarni vujudga keltirish hamda ularni, oʻzlashtirishgina emas, ayni paytda, ularni yangidan-yangi qadriyatlar bilan yanada boyitish, ularni taqsimlash, avloddan-avlodga etkazish kabi murakkab jarayon hamdir.

Uchinchidan, madaniyatshunoslik har bir insonda **ijodiy qobiliyatni** rivojlantirishni taqozo etadi. Madaniyatshunoslik bu sohada yangi dalillarni, hodisalarni tavsiflash yoki izohlash bilan cheklanmaydi, ayni vaqtda, ularning mohiyatini aniqlashga, chuqurlashtirishga yoʻnaltirilgan boʻladi. Madaniyatni oʻzlashtirish jarayonida insonning ijodkorlik mayllari, qobiliyatlari, ishtiyoqlari tarkib topadi, uning mohiyatli kuchlari rivojlanadi. Bunday maʼnaviy salohiyat va imkoniyat jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida faollik va yaratuvchanlik muhitini vujudga keltiradi.

Mustaqil respublikamizda taʼlim va madaniyatni isloh qilish hamda rivojlantirish, aqliy va maʼnaviy salohiyatni mustahkamlashga ustuvor yoʻnalishlar sifatida alohida eʼtibor berilayotganligi bejiz emas. Bino-barin, «maʼnaviy potensialni ildam rivojlantirmay turib, respublikaning chinakam mustaqilligini va ravnaq topishini taʼminlab boʻlmaydi»<sup>1</sup>.

Demak, madaniyatshunoslik madaniy tarixiy jarayonning turli bosqichlarini, madaniyatning ichki taraqqiyot qonunlari va tashqi omillarini ilmiy tushunchalar va kategoriyalar orqali yoritib beradi, ayni vaqtda, madaniy hodisa sifatida uning oʻzi ham muntazam ravishda boyib boradi, madaniyat haqidagi bilimlarni egallash esa insonning mohiyatli kuchlarini bilish, rivojlantirish, takomillashtirish imkonini beradi. Uning **maʼrifiy** ahamiyati milliy istiqlol gʻoyasining mohiyati va mazmunini tushuntirishdagi muhim nazariy va amaliy funksiyalarida oʻz aksini topadi.

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. Oʻzbekiston: milliy istiqlol, siyosat, mafkura. — T.: «Oʻzbekiston», 1993, 47-bet

## **MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Madaniyatshunoslik nimadan bahs yuritadi?
2. Madaniyatshunoslik ilmida qanday usullardan foydalaniladi?
3. Madaniyatshunoslikning falsafa, sotsiologiya, adabiyotshunoslik va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqasi qanday?
4. Madaniyat nazariyasi tarixi nimani o'rgatadi?
5. Madaniyat tarixi nimadan bahs yuritadi?
6. Madaniyatshunoslik qanday funksiyalarni bajaradi?

## **NAZORAT ISHI UCHUN MAVZULAR**

- Madaniyat nazariyasi — madaniyatshunoslikning tarkibiy qismi.
- Madaniyat falsafasining mazmuni va mohiyati.
- Markaziy Osiyo mutafakkirlarining madaniyat to'g'risidagi qarashlari.
- Madaniyatshunoslik va uning ijtimoiy-gumanitar bilimlar tizimida tutgan o'rni.

**MADANIYAT TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI, RIVOJLANISH  
OMILLARI VA FUNKSIYALARI**

Madaniyat murakkab va serqirra tarixiy hodisa bo'lib, yuqorida aytilganidek, har bir fan o'ziga xos tarzda madaniyat tushunchasini yaratadi. Shu tufayli hozirgi vaqtda ilmiy adabiyotlarda uning 250 dan ortiq ta'riflari uchraydi.

Ko'pgina xalqlarda madaniyat tushunchasi o'rinda lotin tilidan qabul qilingan cultura atamasi ishlatiladi. Cultura deganda dastlab tabiat obyektlarining inson mehnat faoliyatining natijasida o'zgarishi, boshqacha qilib aytganda, parvarish qilish, ishlov berish, dehqonchilik bilan shug'ullanish tushunilgan. Bu atamani yuqoridagi ma'noda ishlatish hozir ham uchraydi. Masalan, rus tilida «agrokultura» so'zida ana shunday mazmun ifodalanadi. Ammo, shuni ta'kidlash lozimki, lotincha atamani qabul qilgan xalqlarda ham keyingi vaqtlarda bu tushunchaga kengroq mazmun berilib, ma'rifatlilik, bilimlilik, tarbiya ko'rganlik ma'nolarida qo'llanila boshlangan.

Ijtimoiy-falsafiy tafakkurning keyingi bosqichlarida madaniyatni deyarli barcha xalqlarda, garchi turli shakllarda bo'lsa-da, mohiyat e'tibori bilan aynan ma'naviy faoliyat sohasi sifatida tushunish ustuvor bo'lib keldi. Faqat XIX asr o'rtalaridagina madaniyat tushunchasi kengroq ma'noda, ya'ni inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan barcha narsalarga nisbatan ishlatila boshlandi. Bunday holatda madaniyat tushunchasi inson tomonidan yaratilgan, bokira tabiat ustiga qurilgan «ikkinchi tabiat» ma'nosini kasb etadi. Ayni paytda, ushbu qarash madaniyatni inson faoliyatining ma'lum bir sohasi bilan bog'lab qo'yish kerak emas, chunki inson, uning faoliyati, insonlararo munosabat bor joyda madaniyat ham mavjud, degan xulosani keltirib chiqaradi.

Lekin madaniyatni «inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan barcha narsalar» deb tushunish ham yetarli va to'liq emas. Nega? Birinchidan, bunday yondashuv uni insondan tashqarida mavjud qandaydir hodisa sifatida tushunishga olib keladi. Ikkinchidan, madaniyat va jamiyat tushunchalarining nisbati oydinlashmaydi.

Madaniyat va jamiyat tushunchalarining farqi madaniyatni «inson tomonidan yaratilgan qadriyatlar majmui» deb tushunilganda ochiq ko'rinadi. Haqiqatan ham madaniyat insoniy mazmun va ma'no bilan sug'orilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar dunyosidir. Biroq madaniyatni faqat qadriyatlar majmui sifatida tushunish ham to'g'ri va

to'liq emas. Birinchidan, bunda yuqoridagi kabi madaniyat tayyor natijalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi, madaniyatning yaratilish jarayoni, uning rivojlanishi e'tibordan chetda qoladi. Ikkinchidan, u yoki bu hodisani ijobiy yoki salbiy deb qabul qilish tarixan belgilangan davrning, jamiyatning, ijtimoiy guruhlarining hukmron bo'lgan hayotiy prinsiplariga bog'liq bo'ladi.

Madaniyatga turlicha qarashlarning mohiyati to'g'risida keyingi sahifalarda atroflicha to'xtab o'tilishini nazarda tutib, unga quyidagicha ta'rif berish bilan chegaralanish mumkin, deb hisoblaymiz: **Madaniyat insonning faoliyati jarayoni, uning natijasida yaratilgan ma'naviy qadriyatlar bo'lib, o'z navbatida shaxsning shakllanishi va kamol topishida muhim omil hisoblangan ijtimoiy hodisadir.**

Madaniyat tushunchasida hayotning biologik shakllaridan farqli o'laroq, inson faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda bu faoliyatning tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichlaridagi, ma'lum bir tarixiy davrdagi, milliy va etnik rivojlanishdagi sifatiy o'ziga xoslik ham o'z ifodasini topadi. Masalan, biz «qadimgi davr madaniyati», «o'zbek madaniyati» kabi tushunchalarni yuqoridagi ma'nolarda ishlatamiz. Ayni paytda, «mehnat madaniyati», «muomala madaniyati», «nutq madaniyati», «siyosiy madaniyat», «ekologik madaniyat», «axloqiy madaniyat» kabi iboralarni ham qo'llaymizki, bunday hollarda madaniyat kishilarning ongi, xulqi va faoliyatining o'ziga xosligini ifodalagan bo'ladi. Bunga «shaxs madaniyati», «yoshlar madaniyati» kabi tushunchalar ham misol bo'la oladi.

Ilmiy adabiyotlarda madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish rasm bo'lgan. Madaniyatni moddiy va ma'naviyga bo'lish inson faoliyatining ikki asosiy sohasi, ya'ni moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liqdir. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalarini va natijalarini o'z ichiga oladi. Moddiy madaniyatning muhim elementlari ishlab chiqarish, transport, aloqa vositalaridir. Moddiy madaniyatga uy-joy, kiyim-bosh, uy-ro'zg'or buyumlari, iste'mol vositalari deb ataladigan hodisalar ham kiradi. Bularsiz ma'lum bir xalq madaniyati, uning tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlaridagi o'ziga xosliklari haqida to'g'ri fikr yuritish mumkin emas. Iste'mol vositalarini o'rganish ijtimoiy rivojlanishning ma'lum bir bosqichida turgan inson nimalarni iste'mol qilayotganligi to'g'risidagina emas, balki qanday iste'mol qilishi, uning ehtiyojlari qanchalik boy va taraqqiy etganligi haqida ham ma'lumot beradi. Albatta, moddiy madaniyatni faqat ishlab chiqarish va iste'mol vositalariga bog'lab qo'yish to'g'ri emas. Chunki moddiy madaniyat yuqoridagi

vositalarni yaratish va foydalanish sohasidagi faoliyat usulini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Aynan shunday faoliyat jarayonida insonning bilimi, tajribasi, kasb malakasi moddiy madaniyatning tarkibiy qismiga aylanadigan jismiy ko'rishga kiradi.

Ma'naviy madaniyat esa ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakllarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatning barcha sohalarini qamrab oladi. Ma'naviy madaniyat namoyon bo'lishining turli shakllari: har xil tasavvurlar va g'oyalar, nazariyalar va ta'limotlar, ilmiy bilimlar va san'at asarlari, axloqiy va huquqiy me'yorlar, falsafiy, siyosiy qarashlar, mifologiya, din kabilar ana shunday faoliyat natijasidir. Bularning barchasi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida turgan va o'zaro munosabatlarga kirishgan kishilar tomonidan yaratiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ma'naviy madaniyat ma'naviy faoliyat natijasi sifatida kelib chiqayotgan hodisalarnigina emas, balki ularning yaratilishi jarayonida kishilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni ifodalash uchun ham xizmat qiladi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatga mansub ash'yolar, hodisalarning turli maqsadlarga xizmat qilishi, demakki, ularning vazifalari, funksiyalaridagi farqlar yuqoridagi misollardan ham ko'rinib turibdi. Lekin bu farqlar nisbiy bo'lib, ularni aslo mutlaqlashtirib bo'lmaydi.

Birinchidan, unisi ham, bunisi ham madaniyat ekanligini unutmaslik kerak. Ikkinchidan, inson faoliyatining mahsuli bo'lgan ko'pgina hodisalar ham aqliy, ma'naviy, ham jismoniy mehnatning natijasi sifatida yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, moddiy madaniyat insonning ma'lum bir g'oyalari, bilimlari, maqsadlarining namoyon bo'lishidir. Ayni paytda, har qanday ma'naviy madaniyat mahsuli ham obyektivlashuvi, o'zining moddiy ifodasini (yozuv, nutq, rasm, haykal kabilarda) topmog'i lozim. Bunday obyektivlashuv jismoniy harakatni, kuch-quvvatni talab qiladi. Ba'zi hollarda, masalan, haykaltaroshlik san'atidagi kabi, bunday jismoniy harakat anchayin katta o'rin tutishi mumkin.

Har bir avlod madaniy rivojlanishni bo'sh joydan emas, balki ajdodlari yaratgan qadriyatlarni o'zlashtirishdan boshlaydi. Boshqa tomondan, bu o'zlashtirish o'ziga xos bir «xomashyo», yangi qadriyatlar yaratish, madaniyatni yangi bosqichga ko'tarish yo'lida tayanch vazifasini o'taydi. Agar mana shu ikki jarayon bo'lmas ekan, madaniyatning rivojlanishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Ikki jarayon — eskilik bilan yangilik o'rtasidagi obyektiv zaruriy bog'liqlik vorislik deb ataladi.

Madaniyatda vorislik haqida gap ketganda, taraqqiyotga xizmat qiladigan (progressiv) va rivojlanishga to'siq bo'ladigan (reaksion)

vorislikni bir-biridan farqlash lozim. Shuni ham unutmash kerakki, ma'lum bir davrdagina ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilib, keyingi davrda jamiyat taraqqiyotiga zid bo'lgan hodisalar ham uchraydi. Shuningdek, madaniyatda (ijobiy-pozitiv va salbiy-negativ) vorislik ham kuzatiladi.

Madaniyat o'z rivojlanishining har bir bosqichida davr natijalariga tayanadi. Agar madaniyat rivojlanishining keyingi bosqichlarida oldingi davr natijalari saqlanib qolsa, bunday vorislik ijobiy vorislik deyiladi. Oldingi davr natijalariga tayanish faqat ijobiy natijalarnigina saqlab qolish degani emas. Madaniyat tarixida ko'p asrlar davomida to'g'ri deb hisoblanib kelinib, keyin noto'g'riligi tasdiqlangan hodisalar ham ma'lum. Masalan, qadimgi yunon olimi Demokritning «atomlar olamning eng mayda, bo'linmas, oxirgi g'ishtchalaridir» degan qarashlarini olib ko'raylik. XX asr bo'sag'asida ilm-fan rivojlanishi bilan atomlar eng so'nggi g'ishtchalar emasligi, balki ular o'z navbatida yanada murakkabroq tuzilishga ega ekanligi aniqlandi. Lekin bu Demokrit qarashlari ilm-fan, kengroq aytganda, madaniyat rivojlanishida hech qanday rol o'ynamadi, deyishga asos bo'la oladimi? Aslo! Chunki atomlarning mavjudligi, ularning «olamning oxirgi g'ishtchalari» ekanligi haqidagi fikr bu «g'ishtcha»larni topishga va, ayni paytda, ularning «oxirgi» marra emasligini isbotlashga olib keldi. Bulardan shunday xulosa kelib chiqadiki, noto'g'ri tasavvurlarni tanqidiy o'zlashtirish, to'g'rilangan holda qabul qilish madaniy rivojlanishning muhim xususiyatidir.

Madaniyat rivojlanishidagi vorislik oldin erishilgan natijalarni saqlab qolish va ijodiy rivojlantirishning dialektik birligi sifatida yuzaga chiqadi. Ana shu jarayon natijasi o'laroq madaniyatning barqaror, konservativ elementlari yuzaga keladiki, odatda ularni ifodalashda an'analarning roli beqiyosdir. Madaniy an'analar tufayli kishilarning tajribasi to'planib, avloddan-avlodga o'tib boradi.

Madaniy an'analar kishilar birligining muayyanligini, o'zligini saqlab qolish imkonini beradi. An'analarsiz madaniyat bo'lishi mumkin emas. Madaniy an'analar deganda, ko'pincha marosimlar va urf-odatlarini tushunishadi. Bu unchalik to'g'ri emas. Birinchidan, kishilik jamiyati rivojlanishi davomida yuzaga kelgan har qanday marosim, urf-odat ham uzoq yashamasligi, demakki, an'anaga aylanmasligi ham mumkin. Ikkinchidan, madaniy an'analar tushunchasi marosimlar, urf-odatlar kabi hodisalarni ham o'z ichiga olgan holda ularga nisbatan kengroq mazmun kasb etadi. Chunki madaniy an'analar ulardan tashqari avloddan-avlodga o'tib, tarixan qaror topgan va ijtimoiy ongning tarkibiy qismiga aylangan g'oyalar va bilimlar, qadriyatlar, qarashlar va tasavvurlar, xulq va did me'yorlari kabi jarayonlarni ham o'z ichiga oladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, madaniyatning har bir sohasida an'ana o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarish, fan, san'at sohalaridagi an'analari o'zining takrorlanmas jihatlari bilan bir-biridan ajralib turadi.

Agar madaniyat faqat o'tmish natijalarini o'zlashtirish va takrorlashdan nariga o'tmaganda edi, madaniy rivojlanish haqida gap bo'lishi mumkin emas edi. Har bir avlod o'zidan oldingi natijalarga tayanib, ularni ijodiy rivojlantiradi, boyitadi, yangi, yuqoriroq bosqichga ko'taradi.

Madaniy merosga nisbatan mensimasdan qarash chuqur salbiy oqibatlariga, fojiaiy hollarga sabab bo'lishi, muhim madaniy yutuqlarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Boshqa tomondan, an'analarga ko'r-ko'rona sajda qilish esa madaniyatda turg'unlikni keltirib chiqaradi.

Jahon tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, madaniy merosga munosabat doimo ziddiyatli bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, turli ijtimoiy guruhlar paydo bo'lishi bilan madaniy merosga nisbatan ularning manfaatini ifoda etuvchi munosabat shakllangan. Buning natijasi o'laroq madaniy meros ma'lum bir ijtimoiy guruh, sinf manfaatlari, qiziqishlaridan kelib chiqib baholanadigan bo'ldi. Bunday baholashning oqibati o'laroq ko'plab tarixiy obidalar, yodgorliklar, san'at asarlari, ilmiy manbalar aksariyat hollarda ijtimoiy guruhlar manfaatiga zid hodisalar sifatida yo'q qilindi. Bunday fojiaiy hollar, ziddiyatlar kurashga, inqilobga aylanib ketgan davrlarda, ayniqsa, ko'plab sodir bo'ldi.

Tarixiy madaniyat merosga diniy munosabat, ya'ni diniy aqidalarga mos kelish-kelmasligidan kelib chiqqan holda bo'ladigan munosabat shaklini ham yaratadi. Dinlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi nuqtai nazaridan madaniyat tarixini shartli ravishda, jahon dinlari — zardushtiylik<sup>1</sup>, buddizm, xristianlik, islom yuzaga kelguncha va undan keyingi davrlarga bo'lish mumkin. Birinchi davrda insoniyat erishgan yutuqlar deyarli yo'qolib ketgan. Negaki, yuqoridagi jahon dinlari o'z hukmronligini o'rnatish yo'lida xalqlarning tarixiy va madaniy yodgorliklarini majusiy hodisalar sifatida yo'q qildi. Zero, madaniy an'analari saqlanib qolgan xalqni bo'ysundirish, e'tiqodini o'zgartirish mumkin emas edi.

---

<sup>1</sup> Zardushtiylik Turon va Eronda shakllangan hamda jahonning ko'pgina mamlakatlarida tarqalgan birinchi jahon dini bo'lib, unga e'tiqod qiluvchilarni islomga e'tiqod qilgan xalqlar quvg'in ostiga oladilar va shu tariqa milodning minginchi yillariga kelib zardushtiylik deyarli barham topdi.

Shuningdek, bu jahon dinlari uzoq vaqt o'zaro kurash olib bordi. Bu dinlarning hududiy barqarorligi yuzaga kelguncha bir necha yuz yillar o'tdi va ko'plab madaniyat durdonalari izzsiz yo'qolib ketdi.

Xalqimiz tarixiga murojaat etadigan bo'lsak ham, bunday fojiali hodisalar ko'plab ro'y berganligini, mustamlakachilik siyosati, qirg'inbarot urushlar oqibatida, diniy yoki sinfiy nuqtai nazardan baholash natijasida betakror madaniy merosimizdan judo bo'lganligimizni kuzatish mumkin.

Madaniyatimiz, milliy merosimizga yetkazilgan zarar haqida gap ketar ekan, bir narsaga alohida to'xtalish lozim. Ma'lumki, chorizm yurtimizni bosib olganidan so'ng xalqimizni tom ma'noda talash yo'lidan bordi va madaniyatimizga o'rnini aslo va hech qachon qoplab bo'lolmaydigan zarar etkazdi: ming-minglab osori-atiqalarimiz yo'q qilindi, Rossiyaga tashib ketildi yoki boshqa mamlakatlarga sotib yuborildi. Afsuski, bu jarayon Oktabr to'ntarishidan so'ng ham to'xtovsiz davom etdi. Afrosiyob, Tuproqqal'a, Sopollitepa, Qoratepa, Zartepa, Varaxsha va boshqa yodgorliklardan topilgan, ba'zan ochiq, ko'pincha yashirin ravishda yurtimizdan olib chiqib ketilgan, bugungi kunda Moskva, Sankt-Peterburg muzeylarining noyob eksponatlariga aylangan nodir qo'lyozmalar, arxiv hujjatlari, xalqimiz turmushidan hikoya qiluvchi, ham tarixiy, ham madaniy qimmatga ega bo'lgan turli xil jihozlar va idishlar, antik davr madaniyatiga oid haykalchalar, san'at asarlari va boshqa shu kabi qimmatbaho topilmalar bunga misol bo'la oladi.

Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlarimizni talon-taroj qilishga chek qo'yildi. Bugungi kunda esa respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov o'rinli ta'kidlaganidek, nafaqat mavjud noyob tarixiy yodgorliklarni, osori-atiqalarni asrab-avaylash, balki o'zbek xalqi yaratgan va milliy boylik bo'lgan san'at asarlarini izlab topish, ularni O'zbekistonga qaytarish ma'naviyat dasturimizning muhim bo'lagini tashkil etmog'i lozim.<sup>1</sup>

Oktabr to'ntarishidan keyingi davr madaniyatimiz rivojlanishi boshqa bir jihatdan ham g'oyat tahlikali va fojiaiy bo'lganligini ko'rish mumkin. Chunki bu davrda madaniyatga sinfiy nuqtai nazardan qarash ustuvor bo'lib keldi. Oktabr to'ntarishidan keyin yuzaga kelgan, o'timish madaniyatiga tayanmagan, uni butunlay yo'q qilgan holda yangi proletar madaniyatini yaratish shiori bilan chiqqan «Proletkult» tashkilotining

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: «O'zbekiston», 1995, 52-b.

faoliyati g'oyat salbiy bo'ldi. Garchand rasmiy bolshevik doiralari, ularning yo'lboshchisi tomonidan proletkultchilik harakati qoralangan bo'lsa-da, madaniy merosga sinfiy munosabatning saqlanib qolganligi oqibatida, unga «oqmi-qora» ruhida qarash o'zining mudhish basharasini namoyon qildi.

Buning oqibatida, birinchidan, me'morchilik majmualaridan tortib noyob qo'lyozmalargacha ko'pgina madaniyat yodgorliklari sinfiy zararli hodisalar sifatida yo'q qilindi. Ikkinchidan, madaniyatning ko'plab qatlamlari g'oyaviy-siyosiy «zararli» deb e'lon qilindi, ularni o'rganish taqiqlandi. Shunisi achinarliki, madaniyatga bunday munosabat yaqin-yaqingacha saqlanib keldi. Uchinchidan, yuqoridagilar yetmaganidek, Oktyabr to'ntarishigacha shakllanib ulgurgan, o'tmish yutuqlarini kelajak avlodlar sari eltuvchi va milliy-madaniy rivojlanishda bog'lovchi xalqa sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan ijodkor ziyolilarimizning atoli namoyandalari Fitrat, Cho'lpon, A. Qodiriy, Usmon Nosirlarning qismati g'oyat fojiali bo'lganligini eslash kifoyadir.

Ana shu hodisalarning natijasi o'laroq madaniyatdagi vorislik jarayonida ma'lum uzilish sodir bo'ldi. Madaniy merosimizdan uzilishimizga asrlar davomida foydalanib kelingan, madaniy merosimizning ajoyib namunalarini yaratilgan arab yozuvidan voz kechganligimiz, umuman imlomizning bir necha marta o'zgartirilishi ham sabab bo'ldi, albatta.

Prezidentimiz haqli ravishda ta'kidlaganidek, Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarning ko'pi bo'lgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum<sup>1</sup>.

Respublikamizda mustaqillik sharofati tufayli merosimizning ana shu qatlamlarini o'rganishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, xatolarga tomon ma'noda barham berilmoqda, asrlarga tengdosh milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz tiklanmoqda, madaniy merosimiz o'zining ulug'vor ruhi

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997, 140-b.

va salobati bilan xalqimiz ma'naviy dunyosining tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Diniy ruhda yozilganligi uchun o'rganilmay kelingan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Shayx Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandlarning sermazmun diniy-falsafiy asarlarining, hukmron sinf vakillari bo'lganligi uchun o'rganilishi man qilingan Amir Temur, Husayn Boyqaro, Bobur, Feruz kabi buyuk ajdodlarimizning adabiy-badiiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarining endilikda har tomonlama tadqiq etilayotganligi ana shu katta o'zgarishlardan nishondir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan oqilona siyosat madaniyatimizning ichki salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga sharoit yaratish bilan bir qatorda, uning xalqaro maydonda o'zligini namoyon qilishi uchun ham keng imkoniyatlar ochmoqda. Jumladan, san'atning xilma-xil yo'nalishlari taraqqiyotida muhim bosqich hisoblangan respublika miqyosidagi turli konkurslar va festivallardan tashqari «Teatr. Sharq-G'arb» xalqaro festivalining, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari XI xalqaro musiqa festivalining katta muvaffaqiyatlar bilan o'tkazilganligi fikrimizga dalil bo'la oladi.

Hozirgi paytda butun dunyoda madaniyatga umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan turib baho berish, uning diniy, sinfiy, milliy, mintaqaviy jihatlaridan qat'i nazar unga inson ruhiy, ma'naviy izlanishining mevasi, insonning o'z-o'zini anglashi, kamolotga intilishining bir bosqichi, ko'rinishi sifatida qarash, va shundan kelib chiqqan holda, ularni tabiiy-tarixiy rivojlanish davomida yuzaga kelgan oliy bir ijtimoiy ne'mat deb bilish ustuvor bo'lib bormoqda.

Madaniyatning rivojlanishiga turli ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Madaniyat taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi ichki omillar haqida gap ketganda, birinchidan, yuqorida biroz to'xtalganimiz, o'tmishda madaniyat rivojlanishida erishilgan yutuqlar, muvaffaqiyatlar, natijalarning, boshqacha qilib aytganda, vorislik jarayonining roli katta ekanligini ko'rsatish lozim. Bu jarayon madaniyat rivojlanishidagi keyingi bosqich xususiyatlarini, ko'lamini asosli ravishda belgilab beradi. Qadimgi, o'rta asrlar, yangi davr madaniyati yutuqlari bo'lmaganda va kishilar ularni ijobiy o'zlashtirmaganda edi, madaniyat rivojlanishining hozirgi darajasi ham yuzaga kelmagan bo'lur edi. Haqiqatan ham, Gippokrat, Ibn Sining tibbiy qarashlari, Aflotun, Arastu, Forobiy, Gegel, Feyerbaxning falsafiy ta'limotlari, Pifagor, Xorazmiy, Beruniy, Ulug'bek, Brunoning tabiiy-ilmiy izlanishlari, Suqrot, Xayyom, F. Petrarka, Navoiy-

ning o'ziga xos, takrorlanmas gumanistik g'oyalarisiz bu sohalaridagi hozirgi zamon yutuqlarini tasavvur ham qilish mumkin emas.

Ikkinchidan, turli madaniyat shakllarining o'zaro ta'siri ham umuman madaniyat rivojlanishiga keskin ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi mumkin. Masalan, fanda erishilgan yutuqlar madaniyatning boshqa sohalarining rivojlanishini tezlashtirishga xizmat qiladi. O'rta asrlarda madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan dinning madaniyatning boshqa jabhalariga ko'rsatgan ta'siri ham fikrimizga dalil bo'la oladi. Bu davrda, bir tomondan, din dunyoviy bilimlar, qarashlar rivojlanishiga to'sqinlik qilgan bo'lsa, boshqa tomondan, o'ziga xos takrorlanmas diniy-falsafiy qarashlar, adabiyot va san'at asarlari yuzaga keldi.

Madaniyat rivojlanishi har bir tarixiy davrda, bosqichda hal qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, texnik muammolardan tashqarida, ularning ta'sirisiz sodir bo'lishi mumkin emas. Madaniyat rivojlanishiga ta'sir qiladigan tashqi omillar masalasiga kelganda, avvalo, jamiyat iqtisodiyotining, xalq moddiy farovonligining, turmush darajasining roli katta ekanligini ta'kidlash lozim.

Dastlab iqtisodiyotning rivojlanishi va aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi oqibatida ma'naviy madaniyatning kamol topganligini alohida ta'kidlamoq lozim. Bu ajralish umuman madaniyatning shiddatli rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Jamiyat iqtisodiyotidagi yuksalishlar hamma vaqt madaniyat taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratadiki, buni quyidagilarda yaqqol ko'rish mumkin:

Birinchidan, bu rivojlanish ishlab chiqarish taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan yangi obyektiv bilimlar rivojlanishini taqozo qiladi va unga turtki beradi. Ikkinchidan, iqtisodiy yuksalishlar madaniyat, uning rivojlanishiga g'amxo'rlik qilishning moddiy-moliyaviy asoslarini kengaytiradi. Iqtisodiy inqirozlar esa, madaniyat rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi: madaniy dasturlarning qisqarishiga, ilm-fan, adabiyot va san'atning ahvoli og'irlashishiga olib keladi.

Madaniyat rivojlanishiga siyosatning ta'siri kattadir va u, ayniqsa, XX asrda buyuk ahamiyat kasb etdi.

Siyosatning madaniyatga ta'siri ham ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Masalan, «millatlarning yaqin kelajakda qo'shilib ketishi» to'g'risidagi g'oyalarga asoslangan holda siyosat yuritilishi sobiq SSSRda ko'pgina xalqlarning madaniy o'zligini yo'qotish darajasiga keltirib qo'ydi. Yoki boshqa bir misolni olaylik. Genetika, kibernetika kabi fanlar rivojlanishiga noto'g'ri siyosiy baho berilishi natijasida sobiq SSSRda bu fanlarning taraqqiyoti bir necha o'n yilga orqaga surib yuborildi.

Hozirgi paytda texnik vositalar madaniyat rivojlanishiga shiddatli ta'sir qila boshladi. Shundan kelib chiqqan holda madaniyat yutuqlarini yashin tezligida ommalashtirish, tarqata olish imkoniyatini yaratgan, yer yuzining turli burchaklarida dunyoga kelayotgan madaniyat namunalarini millionlarning ma'naviy ozig'iga aylantirayotgan ommaviy axborot vositalaridan — gazeta, jurnallar, radio, televideniye, video-texnika, kino kabi hodisalarning roli bu jarayonda ortib bormoqda.

Madaniyatning o'zi serqirra bo'lganidek, u bajaradigan funksiyalar ham xilma-xildir. Birinchi navbatda, madaniyatning bilish funksiyasini alohida ko'rsatish lozim. Har bir ijtimoiy guruh, millat, jamiyat madaniyatida tevarak olamni **bilish** natijalari aks etadi. Odatda, ma'lum bir davr madaniyatini shu davrda olamni anglash, bilish darajasidan kelib chiqqan holda baholaymiz. Olamni bilish natijalari aksariyat hollarda sof madaniyat chegarasini yorib chiqib, keng ma'nodagi tarixiy jarayonning tarkibiy qismiga, jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanib ketadi. Masalan, kosmik uchish apparatlarining yaratilish jarayonini olaylik. Kosmik uchish vositalarini yaratish, koinotga parvoz qilish insoniyatning azaliy orzusi edi. Nihoyat, kosmik uchish apparatlari yaratildi, inson koinotga parvoz qildi ham. Kosmonavtikaning keyingi rivojlanishi shunga olib keldiki, endi u jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, hatto harbiy jarayonlarning kechishiga faol ta'sir qiladigan bo'lib qoldi. Shu tariqa, loyihalar va chizmalardagina bo'lgan kosmik apparatlarning haqiqatan paydo bo'lishi uni fan, demakki, madaniyatga xos bo'lgan hodisadan ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatuvchi omilga aylantirib yubordi.

Kosmonavtikaning muhim iqtisodiy omilga aylanganligi, bir tomondan, uni doimiy takomillashtirish ulkan moliyaviy resurslarni jalb qilishni talab qila boshlaganligida ko'rinsa, boshqa tomondan, uning iqtisodiyot rivojlanishiga katta apparatlar yordamida gaz, neft va boshqa yerosti qazilma boyliklarini, dengiz va okeanlardagi baliq zahiralarni topish, hisobga olish, dunyoning turli chekkalari bilan bir zumda kosmik aloqa o'rnatish imkoniyatlari paydo bo'lganligi tufayli sodir bo'lmoqda. Vaqt kosmonavtikaning jamiyat iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsata olish imkoniyatlari tobora kengayib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Kosmonavtika taraqqiyoti ayni paytda harbiy qurol-aslahalar takomillashtirishiga ham keskin ta'sir qildi, ommaviy qirg'in qurollarini hatto kosmosga olib chiqish imkoniyati ham paydo bo'ldi. Kosmonavtikaning muhim iqtisodiy va harbiy omilga aylanganligi uni xalqaro munosabatlar, muzokaralarning muhim va doimiy obyektiga aylantirdi. Kosmosdan faqat tinch maqsadlarda va umuminsoniy taraqqiyot yo'lida foydalanish masalasi kun sayin dolzarb masala bo'lib bormoqda.

Tevarak olam sirlarini tushunishga intilish natijasida paydo bo'lgan bilimlar tizimi insoniyat rivojlanishining muhim omiliga aylanib ketganligi to'g'risidagi bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Madaniyat nafaqat tevarak olamni, balki insonni o'rab turgan ijtimoiy voqelikni bilishga intilish natijasi hamdir. Shu jihatdan olganda, madaniyat — inson, millat, jamiyatning o'z-o'zini anglashidir. Chunki madaniyatda ijtimoiy birliklarning ehtiyojlari va manfaatlari, o'ziga xosliklari, jahon tarixida tutgan o'rni, turli ijtimoiy tuzumlarga bo'lgan munosabati o'z ifodasini topadi.

Albatta, u yoki bu hodisa sof madaniyat doirasi, chegarasidan chiqib tarixiy taraqqiyotning elementiga aylanishi uchun ma'lum bir shart-sharoit mavjud bo'lishi kerak. Ya'ni, birinchidan, jamiyatning umumiy bilim darajasi yuzaga kelgan yangi bilimni qabul qilishga tayyor bo'lishi, ikkinchidan, uni tekshirib ko'rish, tasdiqlash yoki inkor etish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarga, ya'ni — qurollar, vositalar, moddiy-moliyaviy resurslarga ega bo'lishi lozim. Aks holda u hech qachon tarixiy rivojlanish elementiga aylanmay, ma'lum bir madaniy-ma'rifiy hodisa sifatida qolib ketaverishi ham mumkin. Masalan, buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniyning «g'arbiy yarim sharda quruqlik bor» degan fikrining taqdiri ana shunday yakun topdi. Jamiyatning bunday fikrlarni qabul qilishga tayyor emasligi tufayli o'sha paytda bu g'oya o'zining haqiqiy bahosini topmadi. Oradan bir necha asr o'tgandan so'ng g'arbiy yarim sharda quruqlik — materik borligi isbotlanib, keyinchalik bu materik Amerika nomi bilan yuritila boshlandi.

Bu hodisa insoniyatning o'zi yashab turgan ona-zamin to'g'risidagi tasavvurlarining butunlay o'zgarishiga olib keldi. Ayni paytda, g'arbiy yarim sharining «o'zlashtirilishi», garchi and ziddiyatli kechgan bo'lsa da, uni yagona insoniyat taraqqiyotining tarkibiy qismiga aylantirdi.

Madaniyatning bilish funksiyasi bilan axborot (informativ) funksiyasi uzviy bog'liqdir. Madaniyatning axborot funksiyasining mazmuni to'plangan ijtimoiy tajriba, bilim, malakani uzatishda ko'rinadi. Bu tajriba, bilim rivoyatlar, aqidalar, fan, adabiyot, san'at asarlari orqali yangi avlod tomonidan qabul qilib olinadi, o'zlashtiriladi. Bunday uzatish «vertikal», ya'ni o'tmish avlodlardan yangi avlodlarga va, «gorizontal», ya'ni ayni bir tarixiy davrda, kishilardan kishilarga, bir xalqdan ikkinchi xalqqa uzatish ko'rinishida ham bo'lishi mumkin.

Go'dak hayotga qadam qo'yar ekan, avvalo, o'zini bevosita o'rab turgan kishilar — ota-ona, aka va opalari yordamida insoniyat to'plagan tajribani o'zlashtirib boradi. Keyinchalik, bu doira kengayib unga maktab va oliy o'quv yurtlari tizimi, fan, adabiyot, san'at asarlari kelib qo'shiladi

va, inson, endi ular yordamida to'plagan tajribani o'zlashtira boshlaydi. Bu tajriba, bilim esa unga har bir kuzatilayotgan hodisani his qilish, sinab ko'rish, tekshirish zaruratini yo'qqa chiqarib, oldin erishilgan natijalarni faoliyat dasturi sifatida qabul qilishga olib keladi.

Madaniyatning axborot funksiyasining mazmuni to'plangan tajribani yorqinroq ochadi. Agar tajribani uzatishning bunday shakli bo'lmaganda edi, har bir xalq aytaylik, velosipedni, muzlatgichni o'ziga o'zicha yangidan yaratavergan bo'lur edi, hayotda esa bunday emas. Bir xalq madaniyatida erishilgan ahamiyatli natijalar boshqa xalqlar tomonidan tayyor holda qabul qilinadi va milliy-madaniy hayotni tarkiban boyitib boradi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik tuzumni barpo etishga harakat qilayotgan mamlakatlar o'zlarining milliy, tarixiy, iqtisodiy, geografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda katta yutuqlarga erishgan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida demokratik qadriyatlarning ustuvorligini ta'minlagan davlatlar tajribasini o'rganayotganligi ham fikrimizning isboti bo'la oladi.

Madaniyatning axborot funksiyasi kishilar o'rtasida muomala, muloqot, o'zaro ta'sir bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Shuning uchun madaniyatning axborot funksiyasi uning **aloqa** (kommunikativ) funksiyasi bilan uzviy bog'liqdir.

Madaniyat muloqot orqali mavjuddir. Ayni paytda, madaniyat inson muloqot sohasining kengayishiga xizmat qiladi: kishilar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri, bevosita muloqot o'tmish avlodlarga mansub kishilar, shuningdek, muloqot bilan to'ldiriladi. Biz Forobiy, Beruniy, Ibn Sinoning falsafiy asarlari, Lutfiy va Navoiyning g'azallari, Qodiriy va Cho'lpon romanlarini o'qib, ularning dunyoqarashi, fikrlash tarzi bilan oshno bo'lamiz, fikran so'zlashamiz.

Shuni ta'kidlash lozimki, bevosita muloqot ham, bilvosita muloqot ham shaxs rivojlanishiga hamma vaqt ham birday ta'sir ko'rsatavermaydi. Ayrim hollarda muloqot shaxs rivojlanishiga salbiy ta'sir qilib, unda zararli odatlar, xarakterli xususiyatlarni keltirib chiqarsa, boshqa hollarda shaxsning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qilishi mumkin. Ayni paytda muloqot shaxs rivojlanishida hech qanday iz qoldirmasligi ham mumkin.

Hozirgi ilmiy-texnika inqilobi asrida ommaviy axborot vositalari: matbuot, radio, televideniye ta'sirida bilvosita muloqotning doirasi nihoyatda kengayib bormoqda. Demakki, shaxs rivojlanishida bilvosita muloqotning roli ham o'smoqda. Shuning uchun ommaviy axborot

vositalarining faoliyati doimo jamiyatning qattiq nazorati ostida bo'lishi lozim. Bu keng soha xalqaro munosabatlarga kirishib borayotgan, demokratik o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan respublikamiz uchun ayniqsa muhimdir. Chunki demokratiya, so'z erkinligi bayrog'i ostida ko'pgina davlatlarda, ayniqsa, g'arb mamlakatlarida chuqur ildiz otgan faxsh, zo'ravonlik, g'yohvandlikni targ'ib qiluvchi san'at, adabiyot, kino asarlari, teleko'rsatuvlarning kirib kelishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Milliy qadriyatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan bunday «asarlar»-ning kirib kelishi jamiyatimizning ma'naviy negiziga katta zarba etkazadi. Bunda yoshlarimizning milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi asoslari bilan qurollanishi muhim ahamiyatga egadir.

Madaniyat, bir tomondan, kishilar o'rtasidagi bevosita va bilvosita muloqotni tartibga solsa, boshqa tomondan, muloqotning o'zi madaniy hodisa sifatida baholanadi va biz bunday hollarda «muloqot madaniyati» degan tushunchani ishlatamiz.

Kishilar o'rtasidagi muloqot turli vositalar yordamida amalga oshiriladi. Har bir millatning o'z tili bor. Ayni paytda, har bir millat muloqotning rang-barangligi, mazmundorligini ta'minlaydigan o'ziga xos imo-ishoralar, raqs, musiqa, xulq-odob me'yorlari «tiliga» ham ega. «Shashmaqom»ni, «Munojot»ni, «Tanovar»ni tinglab, tomosha qilib jafokash xalqimiz tarixi, his-tuyg'ulari, kechinmalari, dardi, orzu-umidlarini dil-dildan his qilamiz, xalqimizning axloq-odob tamoyillariga quloq tutar ekanmiz, undagi noziklik, insoniy mehr-muhabbat, hurmat va ulug'vorlikni qalbdan sezamiz.

Milliy tarix va psixologiyani aks ettiruvchi milliy tillar bilan bir qatorda hamma uchun barobar va tushunarli bo'lgan, millatlararo muloqotda va ilm-san yutuqlarining tez tarqalishida muhim rol o'ynaydigan internatsional til — fan tili, uning tushunchalari va formulalari tili ham borligini unutmaslik kerak. Ayni paytda, XX asr elektron hisoblash mashinalarining «al-gol», «beysik», «fortran» kabi tillari ham yaratildi.

Internet va kompyuterlarning ijtimoiy hayotdagi roli tez o'sib borayotgan hozirgi davrda bu «til» axborotlarning uzatilishi hamda qabul qilinishida katta ahamiyat kasb etmoqda va vaqt bu jarayonlarning yanada tezlashayotganligini ko'rsatmoqda.

Madaniyat nafaqat kishilar o'rtasidagi muloqotning amalga oshishiga yordam beradi, balki kishilarning faoliyatini va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga ham xizmat qiladi. Bunda madaniyatning tartibga solish (regulyativ) funksiyasi namoyon bo'ladi. Madaniyatning tartibga solish funksiyasi kishilarning jamiyatdagi sharoitlarga

muvaqqiyatli ko'nikishi uchun xizmat qiladigan turli me'yorlarda namoyon bo'ladi. Axloqiy, estetik, diniy, siyosiy, huquqiy me'yorlar ana shular jumlasidandir. Madaniyatni tartibga solish vazifasi marosimlar, urf-odatlarda yorqin ko'rinadi. Albatta, har qanday madaniyat me'yori kishining ichki e'tiqodiga aylangan paytdagina uning faoliyatini tartibga soluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham biz kishilarning madaniyat me'yorlarini qay darajada o'zlashtirganliklarini ularning turli sharoitlarda o'zlarini qanday tutishlariga qarab bilib olamiz.

Demakki, inson faoliyatini tartibga solish, ularning hayot tarzini shakllantirish va takomillashtirish madaniyatning muhim funksiyalaridan biridir. Bu vazifa tufayli madaniyat kishilarning muloqotini, ishlab chiqarish va turmushdagi munosabatlarini ma'lum me'yorlarga bo'ysundiradi.

Va, nihoyat, madaniyatga baholash (aksiologik) funksiyasi ham xos. Har bir yangi madaniy qadriyatga biz o'zimizda shakllangan madaniy qadriyatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib ijobiy yoki salbiy, chiroyli yoxunuk, adolatli yoki adolatsiz deb baho beramiz. Kundalik hayotda har birimiz o'zimizga manzur yoki nomanzur jarayon, voqealarga duch kelamiz, adabiyot, san'at, kino asarlarini yaxshi yoki yomon hodisalar sifatida baholaymiz. Bunday baholash paytida, albatta, har bir shaxsning o'z qarashlari, qadriyatlar tizimi muhim rol o'ynaydi.

Ko'rinib turibdiki, shakllangan, barqaror qadriyatlar tizimi, bir tomondan, ijobiy hodisalarni o'zlashtirib, madaniyatning boyishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan, o'ziga zid bo'lgan hodisalarning, ular xoh o'tmishda, xoh hozirgi davrda yaratilgan bo'lsin, kirib kelishiga yo'l qo'ymaydi, qarshilik ko'rsatadi. Demak, madaniyatning baholash funksiyasi tufayli tanlanish sodir bo'ladi, madaniyatdagi barqarorlik, har bir davrdagi o'ziga xoslik, ayni paytda, davomiylik, vorislik ta'minlanadi.

Madaniyatning funksiyalari haqidagi mulohazalarga yakun yasab shuni aytish mumkinki, yuqoridagilarning barchasi madaniyatning bosh va asosiy funksiyasi — inson yaratuvchilik funksiyasining turli ko'rinishlaridir. Bu funksiya biz yuqorida keltirgan madaniyatning ta'rifidan bevosita kelib chiqadi. Negaki, har qanday madaniyatning pirovard maqsadi jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda shaxsning ma'lum bir tipini shakllantirish va kamol toptirishdan iboratdir. Respublikamizda muvaqqiyatli amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi jamiyatimiz madaniyatini yuqori bosqichga ko'tarishda muhim rol o'ynamoqda.

Madaniyatshunoslik madaniyatni ilmiy jihatdan tushuntiradi, uning umumtarixiy mazmuni va ma'nosini belgilab, ijtimoiy-tarixiy bilimlar tizimida tutgan o'rni va mavqeini asoslaydi.

Madaniyat hodisasini tavsiflashda juda rang-barang izohlarga duch kelishimiz mumkin. Bular madaniyat:

— inson tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yig'indisi;

— sun'iy, ya'ni ikkinchi tabiat;

— inson faoliyati majmui;

— faoliyat vositalari yig'indisi;

— ijodiy faoliyat;

— ijodiy faoliyat mahsuli;

— umuman jamiyat;

— jamiyatning ma'naviy holati;

— jamiyatning ma'naviy hayoti;

— jamiyatning sifati;

— inson sifatlari;

— shartli belgilar tizimi yig'indisi va boshqalar.

Bunday rang-baranglikning sababini madaniyat hodisasining o'ta serqirraligi, murakkabligi bilan tushuntirish mumkin. Biroq turli-tumanlik, hatto qarama-qarshi yo'nalishlar bo'lishiga qaramasdan, ularning barchasi madaniyatni ijtimoiy hodisa deb e'tirof etadi.

Bu murakkabliklar ma'lum ma'noda madaniyat to'g'risidagi tasavvurlarning kelib chiqishi bilan bog'langan deyish mumkin. Avvalo shuni aytish kerakki, madaniyat tushunchasi hamma zamonlar uchun xos bo'lgan umumtarixiy kategoriyalar sirasiga kiradi. Insoniyat tarixining biron-bir davri yo'qki, madaniyat tushunchasi unga nisbatan nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmagan bo'lsin.

Kishilar turli davrlarda har xil tarzda hayot kechirganlar. Moddiy hayot sharoitlari ta'sirida ijtimoiy tuzum, ularning ongi va hayot tarzi ham, binobarin, ularning o'zlari ham o'zgara borganlar, bu narsa madaniyatda ham o'zining ifodasini topa borgan. Binobarin, har bir davr, har bir jamiyat nafaqat madaniy meros, an'analar bilan bog'langan, shu bilan birga, o'ziga xos mazmun va shaklga ega madaniyatni ham vujudga keltirgan. Shu ma'noda, madaniyat hamisha umuman emas, balki muayyan tarixiy qiyofada namoyon bo'lgan.

Madaniyatlarning rang-barangligi, ular o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqadorlik ana shundan kelib chiqadi. Modomiki, «umuman mada-

niyat mavjud emas ekan, madaniyat to'g'risida umumiy tasavvurlar, umumiy tushunchalar qayerdan paydo bo'ldi?» degan tabiiy savol tug'ilishi mumkin.

Madaniyatshunoslik ilmida shunday tushunchalar shakllanganki, ularda qayerda va qachon paydo bo'lishidan qat'iy nazar, har bir madaniyatga xos umumiy xususiyatlar aks etadi, ularsiz biror bir madaniyatning mavjud bo'lishini tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bilan birga, madaniyat rivojlanishining har bir bosqichida bunday umumiylik alohidalik shaklida voqe bo'ladi.

Inson madaniy mohiyat sifatida tashqi, tabiiy kuchlarga tobe bo'lib bog'lanib qolmasdan o'zini holis, erkin his etishi zarur, buningsiz u shaxsiy fazilatlarini kamol toptira olmaydi. Tarixiy taraqqiyot ko'rsatadiki, kishilar ko'p hollarda o'z hayotiga dahldor muhim hodisalarni shaxsan o'zlariga emas, balki faqat tashqi sharoitlarga tegishli deb hisoblaydilar, oqibat natijada ularni ilohiylashtirishga, shuningdek, topinish va sig'inish predmetiga aylantirishga harakat qiladilar. O'tmishda yuzaga kelgan mifologik va diniy ibodatlar shunday tobelikni ifodalab, insonning madaniy mohiyat sifatidagi erkinligiga monelik ko'rsatib kelganligi ma'lum. Shubhasiz, bu narsa insonning tabiat stixiyalaridan to'la «ajralib chiqqan olmaganligi» holatiga ko'p jihatdan muvofiq kelar edi.

Kundalik turmushda foydalanilayotgan aksariyat narsa-hodisalar kishilarning o'zlariga bog'liqligini, ya'ni shaxsiy jismoniy va ma'naviy faoliyati tufayli yuzaga kelganligini, mehnat mahsuli ekanligini asta-sekinlik bilan anglay borish natijasida madaniyat to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar yuzaga keladi. Chunonchi, yerdan barakali hosil ko'tarish nafaqat xudoning irodasiga, balki shu bilan birga, insonning yaxshi ishlashiga ham bog'liq ekanligi to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi tabiatni ilohiylashtirish bilan uni qayta ishlash mumkinligi, ya'ni madaniy faoliyatni amalga oshirish o'rtasidagi tafovutni bilib olishga yordam beradi.

Inson ijodiy faoliyatining kengayishi va samarasining ortib borishi oqibatida madaniyat sohasiga tegishli narsa-hodisalar tabiat yoki g'ayritabiiy kuchlar ta'sirida emas, balki tabiiy narsalarni insonning o'zi tomonidan qayta ishlash, qayta yaratish, takomillashtirish natijasida yuzaga kelganligi to'g'risidagi tasavvurlar chuqurlashib boradi. Shunday qilib, madaniyat tushunchasi inson tomonidan yaratilgan, biroq tabiat predmetlaridan tafovut qiladigan narsalar ma'nosini anglata boshlaydi. Shu ma'noda, madaniyatni kashf etish insonning o'ziga, o'z mehnat faoliyatiga, o'zining ijodiy, samarali kuch-qudratiga bog'liq ekanligini anglashning ifodasidir. Bu narsa nafaqat ma'naviy, balki shu bilan birga,

uning moddiy, ijtimoiy, siyosiy faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Bora-bora madaniyat kishilar faoliyatining butun sohalarini ilg'ab oladigan ijtimoiy hodisa ekanligi to'g'risidagi tasavvurlar tarkib topadi. Ko'rinadiki, madaniyat nihoyatda murakkab va serqirra hodisadir. Fan tarixida madaniyatga turlicha yondashish natijasi o'laroq, xilma-xil konsepsiyalar, nazariyalar, izohlash usullari tarkib topadi. Ularning ba'zi birlari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir.

**Qadriyat nazariyasi.** Bu nazariyaga ko'ra, madaniyat kishilar tomonidan ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida yaratilgan hamda yaratilayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yig'indisidan iboratdir. Madaniyatshunoslik ilmi tarkib topishi jarayonida shakllangan bu nazariya o'zining bir qator tushuntirish usullarini ishlab chiqqan.

Birinchi usulga ko'ra, inson mehnatining barcha mahsulotlari, tabiatdan farqli o'laroq, inson yaratgan barcha narsalar madaniyat tushunchasiga kiradi, natijada «keng ma'nodagi madaniyat» (inson yaratgan barcha narsalar) va «tor ma'nodagi madaniyat» (asosan, ma'naviy qadriyatlar) tushunchalari kelib chiqqan.

Ikkinchi usul madaniyat faqat ma'naviy qadriyatlar majmuidan iborat, deb hisoblaydi, moddiy ishlab chiqarish mahsulotlari va inson faoliyatining boshqa sohalaridagi natijalarini bu tushunchaga kiritmaydi.

Uchinchi talqin madaniyat tushunchasiga barcha qadriyatlarni emas, inson mehnatining barcha buyumlarini, hatto ma'naviy ishlab chiqarishning barcha mahsulotlarini emas, balki faqatgina ijodiy faoliyat bilan bog'liq, uning natijasi o'laroq yuzaga kelgan mahsulotlarni kiritadi.

Bu usullarning har biri madaniyatni o'rganishda o'ziga xos maxsus «soha»ni belgilab oladi. Birinchi holatdagi «soha» inson tomonidan yaratilgan va yaratilajak barcha narsalar olami; ikkinchi ko'rinishda — yolg'iz ma'naviy qadriyatlar ko'lami; uchinchi ko'rinishda — faqat ijodiy faoliyat mahsulotlaridir. Qadriyatlar nazariyasining murakkab tomoni shundaki, unda madaniy faoliyat natijalari hisobga olingan holda, madaniyatning predmetlashmagan jihatlari, ya'ni inson tuyg'ulari, tabiatga munosabatlari, ijodiy jarayondagi ruhiy holatlariga kam e'tibor beriladi. Shunday bo'lishiga qaramay, madaniyatshunoslik ilmi tarixida qadriyat nazariyasi ijobiy rol o'ynagan.

**Faoliyat nazariyasi.** Bunga ko'ra, madaniyatning eng muhim elementi qadriyat emas, balki inson faoliyatidir. Madaniyatning yuzaga kelishi va taraqqiyotida inson faoliyati eng muhim omil hisoblanadi, shunga muvofiq inson madaniyat o'rganadigan predmet sohasining markazida turadi. Bu usulning bir necha ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularning birinchisi bo'yicha «madaniyat» tushunchasi insonning butun

faoliyatini qamrab oladi, yoki har qanday insoniy faoliyat madaniy faoliyatdir. Ikkinchisiga ko'ra, «madaniyat» tushunchasi inson faoliyatining barcha sohasini emas, balki faqat ijodiy sohasini, ya'ni qandaydir yangi, mo'jizakor, takrorlanmas narsalarni yaratadigan faoliyatini ifodalaydi. Uchinchisiga muvofiq, «madaniyat» tushunchasiga faoliyatning o'zi emas, balki faoliyat usullari kiradi.

Bu konsepsiyaning barcha ko'rinishlari «tabiat-madaniyat» nisbatini belgilaganda, tabiiy bo'lgan narsa madaniy bo'la olmaydi, yoki aksincha, degan fikrga asoslanadi. Bu konsepsiya doirasida madaniyat va jamiyatning nisbati muammosini, ularning o'zaro aloqasini hal etish bir qadar murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shunday tasavvurlar ham ilgari suriladiki, bularga muvofiq, faoliyatning barcha usullari, ijtimoiy hayotning barcha shakllari madaniyat tushunchasiga kiradi. Tabiiyki, bu tahlilda fikr yuritish jamiyat bilan madaniyatni aynan teng qilib qo'yadi. Aytish kerakki, faoliyat har doim aniq-ravshan, muayyan tarzda namoyon bo'ladi va o'ziga nisbatan ham aynan shunday aniq-ravshan konkret yondashishni taqozo qiladi. Agar insoniy faoliyat bir butun, yaxlit holda madaniyat sifatida tushuntiriladigan bo'lsa, jamiyatda bu faoliyatga kirmaydigan, undan tashqarida turadigan yana qanday narsa-hodisalar qolishi mumkin? Aftidan, hech narsa. Bundan madaniyat tarixi jamiyat tarixiga aylanib ketadi. Keng ma'noda bunday fikr e'tiroz tug'dirmasligi mumkin, biroq madaniyat tarixi masalasiga oydinlik kiritib, bu to'g'rida chuqurroq fikr yuritadigan bo'lsak, bunday qarashlar turli muammo va chalkash holatlarni keltirib chiqarishi turgan gap.

Demak, madaniyatni talqin etishda faoliyat nazariyasi o'zining ijodiy jihatlarini bo'lishiga qaramay, murakkabliklarga ham egadir. Real tizim sifatida olib qaraladigan madaniyat nima, uning jamiyat tizimida tutadigan o'rni qanday? degan savollarga javob berishda u cheklanib qolishi mumkin.

**Shaxsiylik nazariyasi.** Bu konsepsiyaga muvofiq, madaniyat shaxsga tegishli sifatlar (madaniyat insonni va faqat insonni tavsiflaydigan tushuncha) dan iboratdir. Madaniyatga bunday ta'rif berilganda, u insonga xos shaxsiy belgilar yig'indisi, degan ma'noni bildiradi. Har bir jamiyatda madaniyatning shaxsiy jihatini belgilash va uni tadqiq etish madaniyatshunoslik ilmining muhim tadqiqot mavzui hisoblanadi. Biroq jamiyat madaniyati — bu shaxs madaniyati va hatto har qanday tuzumdagi «shaxsiy madaniyat»ning mexanik yig'indisidan iborat emas.

Shunday ekan, madaniyatni faqat shaxs sohasi bilan, yolg'iz shu jihatlarining o'zi bilan chegaralab fikr yuritish ham nazariy, ham amaliy jihatdan samara bermasligi mumkin. Holbuki, jamiyatning madaniy

salohiyati yolg'iz shu (shaxsiylik) bilan cheklanmaydi, uning tarkibi «shaxsdan yuqori turuvchi» madaniy qadriyatlarning gavdalanish shakllarini, ifodalanish sohalarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, madaniy tashkilotlar va muassasalarning barchasi ham ana shunday salohiyatga egadir. Shular asosida taraqqiyotning muayyan bosqichida turgan jamiyatning umumiy madaniy salohiyati vujudga keladi. O'zbek xalqining madaniyati uning fuqarolari madaniyatining shunchaki oddiy yig'indisi emas, aksincha, u boy madaniy meros, uni o'zlashtirish, taqsimlash usullari, shularni amalga oshiradigan tashkilot va muassasalar faoliyatining juda ko'p jihatlarini ifodalaydigan tizimlardan iboratdir. Shuning uchun madaniyatni tushuntirganda, yolg'iz «shaxsiy jihatlar» bilan chegaralanib qolish uning mohiyatini to'la ochib bera olmaydi. Mazkur konsepsiya ilmiy jihatdan yaroqsiz emas, albatta, chunki madaniyat mazmuni haqida so'z ketganda, uning konkret shaxs «qiyofasi» da gavdalanishi masalasini e'tibordan tashqarida qoldirib bo'lmaydi.

**Ijtimoiylik nazariyasi.** Ijtimoiylik yoki ijtimoiy shartlanganlik konsepsiyasiga ko'ra, madaniyat tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida turgan jamiyatning sifatidir. Bu sifat umumiy xususiyatlar yig'indisi orqali belgilanadi, xususiyatlar yig'indisi oqibat-natijada jamiyatning madaniy darajasi, «madaniyligi» haqida guvohlik beradi. Biroq madaniyat to'g'risidagi umumiy tasavvurlar bilan chegaralanib qolish yetarli emasligi o'z-o'zidan ayon. Yolg'iz shu nuqtai nazardan madaniyatni o'rganish madaniyatshunoslik ilmi imkoniyatlarini toraytiradi, madaniyatning konkret hodisa sifatidagi qiyofasini yaratishga monelik ko'rsatadi.

**Belgilar nazariyasi.** Buni shartli belgilar yoki semiotik konsepsiya deb atash mumkin. Bunga ko'ra, madaniyat «shartli belgilar va shu asosdagi tizimlar yig'indisi»dan iboratdir. Bu konsepsiya madaniyatshunoslik ilmida u qadar keng tarqalmagan bo'lsa-da, har holda, uchrab turadi.

Bunday qarashlarning vujudga kelishini hozirgi paytda fan, san'at, siyosat va boshqa sohalarda juda katta axborot oqimi yuz berayotganligi, undan foydalanishda murakkab kommunikativ vositalardan keng foydalanilayotganligi bilan izohlash mumkin, albatta. Bu obyektiv hodisalarning mohiyatiga e'tiborsizlik bilan qaraydigan ba'zi tadqiqotchilar «simvallashtirishning ommaviyligi, tizimiyligi va turg'unligi sohasidagi insoniy qobiliyatlarni» madaniyatning asosiy belgisi sifatida asos qilib ko'rsatmoqdalar. Masalan, madaniyatshunos L. Uaytning so'ziga qaraganda, «madaniyat — bu simvollarga asoslangan buyumlarni

va hodisalarni tashkil etishdir, insondan butunlay ajratib olingan til, urf-odat, qurol, e'tiqod va boshqalardir». Garchand madaniyat taraqqiyoti alohida kishilarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmasa-da, biroq madaniyat ular orqali yaratiladi, insonlar unga o'zlarining shaxsiy iste'dod, did va mayllarini singdiradilar. Shu bilan birga, belgi shakllari («simvollar») tufayli amalga oshiriladigan kommunikatsiya natijasida shaxsiy tajriba umumiy tajribaga aylanishi ham mumkin. Boshqacha qilib aytganda, shu tufayli madaniy, moddiy va ma'naviy qadriyatlar to'planadi, mustahkamlanadi, ayirbosh qilinadi va tarixiy jihatdan qayta ishlanadi hamda avloddan avlodga yetkaziladi.

Shu nuqtai nazardan, madaniyatni e'tirof etadigan belgilar tizimi haqidagi fan — semiotika o'zini oqlashi mumkin. Biroq bunda madaniyatning semiotik jihati yagona asos qilib olinmasligi maqsadga muvofiqdir. Madaniyatda kommunikativ va simvolik funksiyalar amal qilishi jarayoni haqida gap ketganda esa semiotikadan foydalanish samara berishi mumkin. Madaniyatda belgilar, belgilar tizimining o'rni va ahamiyati haqidagi masala ilmiy qiziqish uyg'otishi tabiiy. Biroq, umuman, bu konsepsiya madaniyatni belgilar yig'indisidan iborat, shu tahlilda fikr yuritish zarur, deb hisoblanar ekan, bu usul masalani soddalashtirib qo'yishini ham unutmash lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bu konsepsiya ma'naviy qadriyatlarini yaratish, saqlash, tarqatish va o'zlashtirish masalasini nazariy jihatdan to'la hal eta olmaydi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilganidek, belgi — moddiy, hissiy ravishda idrok etiladigan predmet, voqea yoki harakat bo'lib, bu harakat bilishda ko'rsatmalar, ishoralar sifatida yoki boshqa predmet, xususiyat, munosabatlarda namoyon bo'ladi. Biror moddiy obyektidan iborat bo'lgan belgi boshqa biron narsani belgilash uchun xizmat qiladi<sup>1</sup>.

Biz yuqorida madaniyatni tushunishda yuzaga kelgan nazariy-ilmiy qarashlarning umumiy jihatlari haqida to'xtab o'tdik. Ularda ilgari surilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, quyidagicha rang-barang xulosalarga kelish mumkin:

- insonning mehnati — madaniyatning bosh negizidir;
- madaniyat sohasi inson faoliyatining rang-barang usullari va natijalarini o'z ichiga oladi;
- madaniyatning mohiyati ijodkorlik, insonning o'zi ham madaniyat mahsulidir;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1-jild, T., 2000, 685—686-b.

— madaniyat tarixi tabiiy-tarixiy jarayon, shu ma'noda har bir konkret jamiyatning madaniyati inson faoliyatining tarixan shakllangan va shartlangan usullari hamda tizimlaridan iboratdir;

— insoniy yaratuvchanlik madaniy jarayonning mazmunini tashkil etadi.

Bu fikrlarning har birida madaniyatga xos eng zaruriy belgilar o'z ifodasini topgan bo'lib, biroq ularning birortasini alohida ajratib olib, shu asosda madaniyatni belgilash uni tushunishning yaxlit manzarasini bera olmaydi, balki ana shu belgilarning jamlanmasi, umumlashmasi sifatida madaniyatni ta'riflash va tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

## MADANIYAT VA TABIAT

Hozirgi zamon madaniyatshunosligi (kulturologiyasi)da tabiat va madaniyatning bir-biriga ta'siri, o'zaro munosabatini ilmiy asosda tadqiq etish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Inson tafakkur sohibi, madaniyat ijodkori sifatida tabiatga nisbatan befarq qaray olmaydi: o'z aqli, madaniyati vositasida tabiatni o'zlashtirishga, uning ne'matlaridan to'laroq bahramand bo'lishga intiladi. Insoniyatning ko'p asrlik tarixi shundan guvohlik beradiki, kishilarning tabiat to'g'risidagi bilimi, axloqiy madaniyati yuksalib borishi bilan tabiat taraqqiyoti tezlashgan, u tobora insoniylashgan, inson tabiat bilan uyg'unlashgan, yuqorida aytilganidek, insoniyat asta-sekin tabiatga qaramlikdan ozod bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot va erkinlik sari qadam tashlagan. Inson bilan tabiat o'rtasidagi begonalashuv barham topgan, tabiiy mutanosiblikka erishilgan davrlarni madaniyatshunoslikda inson tarixining «oltin asri» deb atash rasm bo'lgan.

Barcha diniy ta'limotlar, falsafiy tizimlar tabiat va madaniyat o'rtasidagi g'oyat murakkab muammolarni oqilona hal etish, tabiiy mutanosiblikni shakllantirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun xizmat qilgan.

Ekologik inqirozlar, insonning tabiatdan begonalashuvi, tabiatni shafqatsiz ekspluatatsiya qilish — ma'naviy qashshoqlik, insonning o'z mohiyatidan begonalashuvi madaniy taraqqiyotdagi umumiy tanazzul bilan bog'liqdir. Insoniyatning tabiatga bo'lgan munosabati uning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatidir: tabiat aqlli mavjudot bo'lgan Hazrati insonni yaratish bilan tabiiy taraqqiyotdagi vorislik, uzluksizlik va tartib-intizomni qaror toptirgan.

Tabiat jonsiz, hissiz va ongsiz borliq emas, balki o'ta ta'sirchan, o'ta «aqlli» va donodir. Tabiat to'g'risida chuqur bilimga, intellektual

salohiyatga, axloqiy va ekologik madaniyatga ega bo'lgan ulug' ajdodlarimiz tabiatni avaylab-asrashga, barcha tirik mavjudot haqida g'amxo'rlik qilishga intilganlar.

Insoniyat tarixi — madaniyatning shakllanishi, ravnaq topishi va madaniy yuksalishning inqirozlar bilan almashinishi tarixidan boshqa narsa emasdir. Biroq har qanday madaniyatning, xususan, moddiy va ma'naviy madaniyatning shakllanishi uchun tabiat moddiy asos bo'ldi. Inson tomonidan tabiatning o'zlashtirilishi, qaytadan yaratilishida madaniyat muhim vosita, tayanch bo'lib xizmat qilgan.

Madaniyatshunoslik tarixining turli davrlarida goh tabiat va madaniyatni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, goh ularni aynanlashtirish hollari ro'y berganligini ko'rishimiz mumkin. Tabiat va madaniyatning o'zaro munosabatini qanday tushunish konkret tarixiy davr ruhi, ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari, u yoki bu xalqning ma'naviy salohiyati, madaniy an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Tabiiy-geografik muhit jamiyat taraqqiyotiga, xalq mentaliteti va madaniy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatib kelgan. Sharq va G'arb (Osiyo va Yevropa) mamlakatlarida tabiatga bo'lgan munosabatning bir-biridan keskin farqlanishi aslo bejiz emasdir. Sharq mamlakatlarida insonning to'q va farovon hayot kechirishi uchun tabiiy-geografik muhitning barcha qulayliklari inson va tabiat o'rtasidagi tabiiy mutanosiblikning rivojlanishi uchun puxta zamin yaratgan, barcha diniy ta'limotlar va falsafiy tizimlar tabiiy mutanosiblikni qo'llab-quvvatlashga yaqindan yordam bergan. Sharqliklarning butun e'tibori tabiatni to'laroq o'zlashtirish va talashga emas, balki o'z ichki dunyosini takomillashtirishga qaratilgan. Diniy falsafiy ta'limotlar dunyoviy ilmfanni emas, balki inson ruhini kamol toptirishga qaratilgan. Sharq va G'arb madaniyatining tabiatga bo'lgan munosabati turlichadir. Sotsiolog K. Yungning ta'limotiga ko'ra, sharqliklarning ongi ularning ichki olamiga qaratilgandir: ular o'z ruhiy olamini takomillashtirish orqaligina o'zini erkin his etgan. Musulmonlar tabiatga Ollohning buyuk ne'mati deb qaraydi, uni buzish, vayron qilishni buyuk gunoh deb hisoblaydilar. Shariat hukmlarida, kosib va hunarmandlarning risolalarida tabiatdagi har bir narsa va hodisaga, tirik mavjudotga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish zarurligining qat'iy belgilanishi aslo bejiz bo'lmagan. O'rta Osiyo xalqlarining yer, suv, o'simlik va hayvonot olamiga bo'lgan munosabatini shakllantirishda islomgacha bo'lgan madaniy qadriyatlar, xususan, Zardo'sht hikmatlari, xalq og'zaki ijodiyoti yodgorliklari va keyinchalik, tasavvuf g'oyalari muhim rol o'ynagan.

Umuman, sharq xalqlarining madaniyati uchun tabiatni ilohiylashtirish, unga sig'inish muhim xususiyatdir. Bu jihatdan hind dinlarining,

ayniqsa, jaynizmning tabiat kuchlariga bo'lgan munosabati e'tiborga loyiqdir. Jaynizm biron-bir tirik mavjudotga zarar yetkazishni qat'iy qoralagan. Jaynizm tarafdorlari tuproq ostidagi qurt-qumursqalarga jaroqat yetkazmaslik uchun dehqonchilik bilan shug'ullanishdan bosh tortganlar.

Sharqliklarning tabiatga g'oyat ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi panteistik diniy ta'limotlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Insonga oliy ilohiy mavjudot deb, barcha tirik mavjudotlarda ilohiy sifat mavjud deb hisoblaydigan panteistik ta'limot butun tabiatga ilohiy mohiyatning zuhuroti deb qaragan, insonga va har qanday tirik jonzotga nisbatan adolatsizlik, zulm va zo'ravonlikni keskin qoralagan. Panteizm namoyandalarning hayotga, tabiatga bo'lgan g'oyat oqilona munosabati bugungi kunda ham katta tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga molikdir. Buyuk mutasavvuf Abdurahmon Jomiy panteistik g'oyalarni keng targ'ib etgan, shuningdek, Alisher Navoiyning inson va tabiat munosabati haqida hikoya qiluvchi ko'plab tarixiy faktlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Umuman, musulmon madaniyati inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga, tabiatdagi go'zallik, barkamollik inson kamoloti uchun andoza, namuna deb qarashga asoslanar edi.

G'arb madaniyati va, umuman, xristian sivilizatsiyasi tabiatga ko'proq pragmatik yondashishga, tabiatni zabt etish, o'zlashtirish va inson manfaatlariga bo'ysundirishga asoslanar edi. K. Yungning ta'kidlashicha, g'arbliklarning ongi tashqariga, tabiatni bilish va zabt etishga qaratilgan edi. G'arbliklar tabiat sirlarini bilish, tabiat kuchlari ustidan hukmronlik qilish orqaligina o'zini erkin his etardi. Shu boisdan ham, g'arb madaniyatida: «Tabiat ibodat qilinadigan joy emas, balki ustaxonadir, inson esa u yerda ishlaydigan xodimdir», degan hikmat keng yoyilgan edi. G'arb madaniyati tizimida fan va texnikaning jadal rivojlanishi, ayniqsa, tabiatshunoslik fanlari sohasida erishilgan buyuk muvaffaqiyatlar, inson ehtiyojlarining muttasil o'sib borishi Yevropadagi tabiiy-geografik muhitning barcha noqulayliklari bilan uzviy bog'liq edi. G'arb madaniyatining tabiatga bo'lgan munosabati turli tarixiy davrlarda muttasil ravishda o'zgardi.

G'arb madaniyatining tabiatga ta'sirining ilk namunasi dastavval qadimgi dunyo madaniyatida yaqqol ko'zga tashlandi. Qadimgi yunon mutafakkirlari asosan tabiatshunos («fizik») edilar. Ular tabiat qonunlarini bilish, yil kalendarini yaratish, quyosh soatini kashf etish, Oyning tutilishini oldindan bashorat qilish va boshqa sohalarida talay yutuqlarni qo'lga kiritgan edilar. Buyuk yunon faylasufi Arastuning barcha fanlarni

fizika (tabiat) va metafizika (fizikadan keyingi)ga ajratishi ham ularining tabiat sirlarini bilishga katta qiziqish bilan qaraganligidan dalolat beradi. Qadimgi yunon tafakkurida, oldingi sahifalarda qayd etilganidek, «kultura» tushunchasining «yerga ishlov berish», «yerni qayta ishlash» ma'nosida qo'llanilishi ham qadimgi yunonlar tasavvurida ma'naviy madaniyat va tabiatning o'zaro bog'liq ekanligini ifodalaydi.

Qadimgi yunon jamiyatida madaniyatning deyarli barcha sohalar: ritorika, fan, san'at, huquq, etika, estetika, teatr, haykaltaroshlik, me'morchilik, sport va boshqalarning jadal rivojlanishi tabiat taraqqiyotining mahsuli bo'lgan insonni yanada takomillashtirish, uning intellektual va jismoniy qobiliyatini yanada yuksaltirish bilan bog'liq edi. Qadimgi yunon quldorlik madaniyatining inson va tabiatga bo'lgan munosabati beryoqlama, cheklangan va ziddiyatli edi. Qadimgi yunon ijtimoiy-siyosiy tafakkuri yunon quldorlik davlatining qonunlariga itoat qiladigan erkin fuqarolarinigina komil inson sifatida e'tirof qilar, ularga keng demokratik erkinliklar berishni, ularning har tomonlama kamol topishini nazarda tutar edi. Ayni vaqtda, harbiy yurishlar vaqtida hibsga olingan mahbuslar qullikka mahkum qilinar, barcha insoniy huquqlardan mahrum etilardi.

Qadimgi yunon jamiyatining qullarga bo'lgan shafqatsiz munosabatida yunon quldorlik madaniyatining tabiatdan begonalashuvi o'z ifodasini topgan bo'lsa, ilm, fan, san'at, siyosat, axloqning erkin fuqarolarni har tomonlama kamol toptirish vositasi sifatida xizmat qilishi uning insondagi ijtimoiy sifatga, jamiyatlardagi mavqeiga alohida urg'u berishi bilan bog'liq edi. Inson vujudidagi tabiiylik va sotsiallikka turlicha munosabat qadimgi yunon madaniyatining yuksak darajada rivojlanishinigina emas, balki uning tanazzulini ham tezlashtirgan.

Yunon quldorlik madaniyati o'ta siyosiylashgan jamiyat hayotining zarur sharti edi: yunon davlatining fuqarosi bo'lish — insoniy qadrgimmatga ega bo'lish va madaniyat yutuqlaridan bahramand bo'lish, fuqarolikdan mahrumlik esa — insoniy hayotning tugashi demak edi. Shu ma'noda, Arastuning insonni «siyosiy mahluq» deb ta'riflashi bejiz emas edi.

Qadimgi yunon madaniyati tizimida siyosat yetakchi va hal qiluvchi mavqega ega edi: san'at, ilm-fan, axloq, huquq erkin fuqarolarning siyosiy faolligini kuchaytirishga xizmat qilardi. Quldorlik demokratiyasi quldorlik madaniyatining shakllanishi uchun puxta zamin yaratgan va, ayni vaqtda, uning muqarrar ravishda inqirozga yuz tutishini oldindan belgilagan edi. Zero, madaniyatning tabiatga bo'lgan munosabati, avvalo, insonga bo'lgan munosabatida o'z ifodasini topadi, chunki inson o'zida butun tabiatning mohiyatini mujassamlashtiradi.

Madaniyatning tabiatga ta'siri insonning mehnat faoliyati jarayonida to'laroq namoyon bo'ladi. Inson mehnat tufayli faqat tabiatnigina emas, balki o'z-o'zini ham o'zgartiradi, qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi. Mehnat mashaqqatining shakllanishi insonning, avvalo, mehnat predmetiga, mehnat qurollariga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Taniqli nemis olimi Maks Veberning ta'kidlashicha, protestant etikasi tadbirkorlik va ishbilarmonlikning rivojlanishida, kapitalistik ruhning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Diniy rivoyatlarga ko'ra, inson tabiatan gunohkor ekan, uning istak va ehtiyojlari real imkoniyatlaridan ilgarilab borar ekan, u halol va ijodiy mehnati bilangina Xudo oldidagi gunohlaridan ozod bo'lishi mumkin. Mehnat mahsuli insonning xudoga qilgan eng yaxshi tuhfasidir.

O'rta asrlar madaniyatining tabiatga bo'lgan munosabati ko'proq diniy-asketik mazmunga ega edi. Bu davrda madaniyat sohibi bo'lgan insonning tabiatga munosabati asosan ilohiyotchilarning diniy ta'limotlariga asoslangan. Xudoni butun tabiatning ijodkori, yaratuvchisi sifatida talqin etish — bu davr sxolastik falsafasiga xos muhim xususiyat edi.

Sharq mamlakatlarida keng yoyilgan tasavvuf ta'limotining shakllanishi insonning tabiiy ehtiyojlarini cheklash orqali ma'naviy-axloqiy rivojlanishni ta'minlash bilan uzviy bog'liq edi. Tasavvuf o'zining tub mohiyatiga ko'ra moddiy ishlab chiqarishni, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlamas, dunyoviy ilm-fanni rivojlantirishni ma'qullamas edi.

Musulmon Sharqi madaniyatining tabiatga bo'lgan munosabati ulug' mutasavvuf Bahouddin Naqshbandning «Dil ba yoru dast ba kor», ya'ni «diling xudoda, qo'ling mehnatda bo'lsin» shiorida o'z ifodasini topgan edi.

O'rta asrlar madaniyatida din yetakchi mavqega ega bo'ldi. Bu davrning ulug' mutafakkirlari tabiatni Xudoning buyuk marhamati sifatida tushuntirishga, Xudoning mavjudligini mantiqiy dalillar orqali isbotlashga harakat qildilar. Bu davr madaniyati uchun tabiatni ilohiylashtirish xos bo'lib, uni ilmiy bilishga imkon bermas edi.

Yevropa Uyg'onish davri madaniyati tabiat taraqqiyotining mahsuli bo'lgan Hazrati insonni ulug'lashga, gumanizm g'oyalarini keng targ'ib etishga asoslangan edi. Bu davrning ulug' mutafakkirlari qadimgi dunyo madaniyatining ilg'or yutuqlarini chuqur o'rganishga, inson aql-zakovati va yaratuvchanlik qobiliyatini tarbiyalashga, tabiat va inson mohiyatini chuqurroq bilishga imkon beradigan ilm-fanni rivojlantirishga puxta zamin yaratdilar.

Uyg'onish davri madaniyatida hurfiylik, badiiy ijod, shaxs erkinligini qo'llab-quvvatlash yetakchi o'rinni egalladi. Bu davrning

Petrarka, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi singari buyuk san'atkorlari badiiy ijod bilangina shug'ullanib qolmay, qomusiy bilimga ega bo'lgan, dunyoviy ilm-fan, hurfikrlilik rivojiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk madaniyat arboblari ham edilar.

Uyg'onish davri madaniyati tabiatga bo'lgan munosabatlarda butunlay yangicha tamoyillarga asoslandi: Hazrati insonni har tomonlama kamol toptirish, uning ehtiyojlarini to'laroq qondirish, insonni baxtli qilish uchun ilm-fan, ma'rifatni rivojlantirish, tabiatni bilish zarur edi.

Uyg'onish davri insoniyat tarixiga ko'p asrlar davomida diniy aqidalar qobig'ida mudragan Aqlning tom ma'noda uyg'onishi, uning insonga munosib farovon hayot sharoitlarini yaratishga imkon beradigan ilm-fan va texnikaning taraqqiyoti uchun keng yo'l ochish davri sifatida kirdi.

Yangi zamon madaniyati tizimida fan va texnika yetakchi o'rin egalladi. Shaxs erkinligini oliy qadriyat deb e'lon qilgan burjua davlati tabiat va jamiyat to'g'risidagi fanlarni jadal rivojlantirishga alohida e'tibor bera boshladi. Bu davrda madaniyat va tabiatning o'zaro ta'sirini ilmiy asosda tadqiq etish, madaniyatning mohiyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Ilm-fan va texnikaning jadal rivojlanishi bilan inson tabiatni to'la o'zlashtirish, tabiat kuchlarini o'z irodasiga bo'ysundirish va, hatto tabiiy taraqqiyotni jadallashtirish, o'z ehtiyojlarini to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ldi.

XX asr o'rtalarida fan-texnika sohasida ro'y bergan inqilobiy o'zgarishlar inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarga kuchli ta'sir ko'rsata boshladi. Tabiatshunoslik sohasida erishilgan buyuk yutuqlar, biotexnologiya va geninjeneriyaning rivojlanishi inson hayotini yaxshilash uchun qator qulayliklar yaratibgina qolmay, murakkab muammolarni ham keltirib chiqardi: qudratli texnika yordamida tabiatning jadal o'zlashtirilishi ekologik inqiroz vujudga kelishiga, tabiiy energetika manbalarining keskin kamayishiga, atmosferaning zaharlanishiga, juda ko'plab noyob o'simlik va hayvonlar turining qirilib ketishiga olib keldi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy asosda tadqiq etish, ekologik ong va madaniyatni rivojlantirish, yangi texnologiyalarning ekologik xavfsizligini ta'minlash, har bir ilmiy kashfiyotning oqibati uchun olimning shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish, fan etikasi kabi omillar jiddiy hayotiy muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

XX asr boshlarida N. Berdyayev, O. Shpengler singari buyuk mutafakkirlar fan-texnika inqilobining xatarli oqibatlari Yevropa madaniyatining umumiy inqirozi bilan bog'liq ekanligini alohida ta'kidlagan edilar. Fan-texnika ravnaqi inson va tabiat o'rtasida yangicha munosabatlarni

shakllantirishni, ekologik madaniyatni rivojlantirishni talab eta boshladi. Oliy o'quv yurtlarida ekolog-mutaxassislar tayyorlash, ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya sifati va samaradorligini oshirish, ulug' ajdodlarimizning yer, suv, o'simlik va hayvonot olamini avaylab-asrashga da'vat etuvchi ma'naviy qadriyatlarini tiklash — ekologik madaniyatni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridir. Qator rivojlangan mamlakatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish uchun faol kurashayotgan «yashillar partiyasi» tajribasini o'rganish, ekologik toza hududlar vujudga keltirish, ayniqsa, muhimdir.

Milliy mustaqillik xalqimizning umummilliy madaniyati rivojida yangi davrni boshlab berdi. Mustabid sovet tuzumi davrida xalq xo'jaligining ekstensiv yo'l bilan rivojlantirilishi, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirishga zo'r berilishi, mo'l hosil yetishtirish uchun yer, tuproq, suv va havoning zaharlanishi singari salbiy holatlarni bartaraf etish, Orol dengizini halokatdan saqlab qolish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Prezident I. A. Karimovning qator asarlarida, nutq va maqolalarida ekologik xavf-xatarlarni bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

Milliy xavfsizligimizga jiddiy tahdid solayotgan ekologik inqirozlarni oqilona bartaraf etishda xalqimizning ekologik madaniyatini yuksaltirish, ayniqsa, muhimdir. «Tabiatga qo'pol va takabburlarcha munosabatda bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmaydi, — deb yozadi I. A. Karimov. — Biz bu borada achchiq tajribaga egamiz. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi. Inson — tabiatning xo'jayini, degan soxta sotsialistik mafkuraviy da'vo, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida ko'plab odamlar, bir qancha xalqlar va millatlarning hayoti uchun fojiga aylandi. Ularni qirilib ketish, genofondning yo'q bo'lib ketishi yoqasiga keltirib qo'ydi»<sup>1</sup>.

Xullas, madaniyat va tabiat bir biri bilan uzviy bog'liqdir: madaniyat rivoji tabiat taraqqiyotini tezlashtiradi, tabiat esa, o'z navbatida, madaniyatning ravnaqi uchun moddiy asos bo'lib xizmat qiladi. Tabiatga bo'lgan munosabat insoniyat madaniy taraqqiyotining o'ziga xos mezonini hisoblanadi. Turli tarixiy davrlarda madaniyatning tabiatga ta'siri turlicha mazmun va xarakterga ega bo'lgan. Ijtimoiy mulkchilik munosabatlari hukm surgan sotsialistik jamiyatda tabiatga nisbatan shafqatsizlik, uni talon-taroj qilish odatiy holga aylandi. Xususi mulkchilik, tadbirkorlikning rivojlanishi, milliy mustaqillikni mustahkamlash sharoitida tabiatga insonlarcha madaniy munosabatda bo'lish, uning ne'matlaridan

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: «O'zbekiston», 1997, 116-b.

oqilona foydalanish, ekologik madaniyatni rivojlantirish milliy taraqqiyot asosi bo'lib qoldi.

## MADANIYAT VA JAMIYAT

Madaniyatning insoniyat jamiyati shakllanishi va taraqqiyotidagi rolini to'g'ri belgilash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Afsuski, sovet madaniyatshunosligida bu muhim masala biryoqlama va ko'p hollarda xato talqin etib kelindi. Tarixga materialistik nuqtai nazardan qarash ijtimoiy borliqni ijtimoiy ongga nisbatan birlamchi deb hisoblash, ijtimoiy borliq asosiga moddiy ne'matlar ishlab chiqarishni qo'yish, mehnatni madaniyat asosi deb da'vo qilish va boshqalar madaniyatning ijtimoiy taraqqiyot va shaxs hayotidagi o'rni va rolini to'g'ri belgilashga monelik ko'rsatib keldi.

Mustaqillik yillarida shakllangan yangicha siyosiy tafakkur va falsafiy dunyoqarash madaniyatning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rini yangicha tushunishga imkon berdi.

Madaniyat tushunchasining inson va jamiyat tushunchalari bilan uzviy bog'liqligi haqida yuqorida aytib o'tildi. Buyuk fransuz mutafakkiri Emil Dyurkgeymning ta'lim berishicha, madaniyat inson ongi va irodasiga bog'liq bo'lmagan holda undan ilgari vujudga kelgan va insonga majbur qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir individ madaniy olamda tug'iladi, uni o'zlashtiradi, insoniy sifatlarga ega bo'ladi (sotsiallasadi) va uning rivojiga muayyan hissa qo'shadi.

Madaniyat, avvalo, insoniyatning ko'p asrlik bilimlari va tajribalari yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Inson aqli mavjudot sifatida ko'p asrlar davomida jamiyat tomonidan yaratilgan bilim, tajriba, ko'nikma, xulq-atvor me'yorlarini, ya'ni madaniyatni o'zlashtiradi. U barcha tirik mavjudotlardan farqli o'laroq butun hayoti davomida sotsiogenetik dasturni amalga oshirishga harakat qiladi. Sotsiogenetik dastur biogenetik dasturdan farqli ravishda avloddan avlodga irsiyat yo'li bilan o'tmaydigan, ijtimoiy hayot jarayonida tarbiya va ta'lim vositasida o'zlashtiriladigan xulq-atvor me'yorlari, madaniyat namunalari. Axloqiy tarbiyaning butun mazmuni yosh avlodning xatti-harakati, xulq-atvori va faoliyatini tartibga solishdan va uning madaniy ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Madaniyat insonni hayvondan, jamiyatni esa tabiatdan farqlaydigan sifatiy belgi, faqat insonga va jamiyatgagina xos bo'lgan, uning xatti-harakatlari, faoliyati va mehnat mahsulotlarida namoyon bo'ladigan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar, me'yorlar majmuasidir.

Madaniyat ijtimoiy borliqning zarur sharti va asosidir. U endigina dunyoga kelgan insonga nisbatan tashqi, yot va begona kuch sifatida ta'sir ko'rsatadi. Bola ota-bobolar amal qilib kelgan axloqiy me'yorlar, madaniyat namunalari avvalo ko'r-ko'rona taqlid qilish, keyinroq esa, so'z va tushunchalar orqali tarbiya jarayonida o'zlashtiradi. Biogenetik dastur ota-onadan irsiyat yo'li bilan o'tar ekan, mavjudot sifatida hayot kechirishi va ehtiyojlarini qondirishi (ovqatlanishi, himoyalaniishi, zurriyot qoldirishi va h. k. ) uchun muhim vosita, tabiiy qurol bo'lib xizmat qiladi. Madaniyat namunalari aqlli mavjudot bo'lgan inson hayotining zarur sharti sifatida endigina dunyoga kelgan chaqaloqning xatti-harakati, xulq-atvoriga uzluksiz tarbiya jarayonida ishontirish yoki majbur qilish yo'li bilan singdiriladi. Inson mohiyatan o'zida madaniyat tashuvchi va madaniyat yaratuvchi mavjudotdir. Madaniyat namunalari shaxs, jamiyat va millatning o'zligini anglashi va namoyon etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs madaniyati, jamiyat madaniyati, milliy madaniyat — umum-bashariy madaniyatning turli darajada namoyon bo'lishidir.

Inson xatti-harakati va xulq-atvorini tartibga solish kishilik jamiyatining shakllanishida muhim omil bo'lgan. Buyuk nemis faylasuflari Immanuel Kant, Zigmund Freyd o'z tadqiqotlarida jinsiy hayotni tartibga solish, oilaning paydo bo'lishi (ya'ni madaniyatning paydo bo'lishi) insonning hayvonot olamidan ajralib chiqishi va kishilik jamiyatining vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatgan edilar. Boshqacha qilib aytganda, sovet madaniyatshunosligida ta'kidlanganidek, inson faqat mehnat tufayli madaniyat yaratgan emas, balki, aksincha, madaniyat tufayli inson o'z xatti-harakatini tartibga solish, oila va jamoa bo'lib yashash, mehnat qilish ko'nikmasiga ega bo'lgan. Insonga xos fazilat va sifatlarning shakllanishi axloqiy madaniyatning rivojlanishi bilan, jamiyat inqirozi esa madaniyatning umumiy tanazzuli bilan uzviy bog'liq ravishda ro'y beradi.

Madaniyat ravnaqi va ijtimoiy munosabatlarning takomillashib borishi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayonlardir. Shu o'rinda madaniy va ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari haqida qisqacha fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

Ilgari ta'kidlab kelinganidek, madaniyat namunalari keng xalq ommasi tomonidan mexanik tarzda emas, balki ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan eng ilg'or kishilar, ziyolilar, ilm-fan ahllari tomonidan yaratiladi, jamiyatning asosiy ko'pchilik qismi esa madaniyatning ilg'or namunalari o'zlashtirish va sotsiallashtirish jarayoniga tortiladilar. Madaniyatdagi umumiy inqiroz madaniyatning ilg'or namunalari yaratuv-

chi elita — sara toifa bilan keng ommaning ma'naviy salohiyati o'rtasidagi tafovut va ziddiyat bilan bog'liq ravishda ro'y beradi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda, ilmiy va badiiy ijodda shaxs erkinligining tobora ortib borishi madaniy rivojlanishning mezonini hisoblanadi.

Shaxs erkinligi strukturasi, shubhasiz, siyosiy erkinlik juda muhim o'rin egallaydi. Insoniyat o'zining madaniy taraqqiyot jarayonida siyosiy boshqarishni takomillashtirish, davlat va nodavlat tashkilotlari tizimini yaratishda muayyan tajriba va bilimlar orttirdi. Davlat va uning tarixiy shakllari insoniyatning madaniy-ma'naviy taraqqiyoti, shaxs erkinligi darajasining ortib borish tendensiyasining qonuniy natijasi sifatida vujudga keldi. Jamiyatda siyosiy boshqarishning qanday shakli (monarxiya, aristokratiya, demokratiya)ning amal qilishi jamiyatdagi ilg'or qatlamlarning madaniyatiga bevosita bog'liqdir. «Dunyoning demokratik qadriyatlaridan bahramand bo'lishda aholining bilimdonligi muhim ahamiyat kasb etmoqda, — deb yozadi I. A. Karimov. — Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini va, aksincha, bilimi kam, omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tuzumni ma'qul ko'rishini hayotning o'zi ishonarli tarzda isbotlamoqda»<sup>1</sup>.

Jahondagi ko'plab xalqlarning madaniy rivojlanish tarixi gomogen madaniyatning geterogen madaniyatga o'tib borishidan dalolat beradi. O'zbekiston xalqlarining keyingi ikki asr davomida Yevropa xalqlari, xususan, Rossiya madaniyatining ilg'or yutuqlarini o'zlashtirishi, shubhasiz, ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim ijobiy o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Ilg'or o'zbek ma'rifatparvarlari, ziyolilari, jadidlar rus madaniyatining ilg'or namunalarini har tomonlama chuqur o'rganishga da'vat etish orqali o'lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar qilishga umid bog'laganlar. Milliy mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy hayotimizda tub islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, ilg'or mamlakatlar xalqlarining madaniy yutuqlarini keng targ'ib etadigan ijodkor ziyolilarning shakllanishiga bog'liqdir. «Milliy tafakkur o'z taraqqiyotida madaniy qurilish vazifalariga dunyo miqyosida yondashishi, boshqa xalqlarning taqdiri, ularning o'zaro munosabatlari bilan yaqindan qiziqishi, ular hayotining eng teran nuqtalarigacha kirib borishi, milliy manfaatlarni hisobga olishi kerak»<sup>2</sup>.

Madaniyatning jamiyat hayotidagi ahamiyatini haddan tashqari bo'rttirish ham, uning ahamiyatini kamsitish ham birday xatodir. XVIII

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida... 150-b.

<sup>2</sup> I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida... 151-b.

asrdayoq mashhur fransuz mutafakkiri Jan Jak Russo madaniyatning ahamiyatini haddan tashqari bo'rttirishga qarshi tabiiy insonning axloqiy ustunligi g'oyasi va tabiatga qaytish shiorini ilgari surgan edi.

XX asr boshlarida taniqli nemis faylasufi Fridrix Nitsshe madaniyat strukturasida fan va texnika yetakchi mavqeni egallab, hayotning rivojiga imkon bermayotganligini keskin tanqid qilgan edi. Zigmund Freydning fikricha, madaniyat o'zining axloqiy me'yorlari, talab va qadriyatlari bilan dastavval kishilik jamiyatining paydo bo'lishida muayyan ijobiy rol o'ynagan bo'lsa, keyinchalik o'zining taqiqllovchi talablari, qat'iy me'yorlari bilan kishilik jamiyati rivojiga xalaqit bera boshlagan.

O'tgan asrning 60—70 yillarida qator g'arb mamlakatlarida madaniyatga qarshi kurash harakati keng quloch yozdi. Bu harakat o'z atrofiga Russo, Nitsshe, Freyd g'oyalarining tarafdorlarini, talaba-yoshlarni birlashtirdi. Ular «ommaviy madaniyat» qadriyatlarining keng yoyilishiga, fan va texnika fetishizmiga qarshi kurash boshladilar. Madaniyatni tanqid qilish uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini butunlay inkor etish emas, balki uning ahamiyatini yana ham chuqurroq idrok etish, uning inson yaratuvchanlik funksiyasini kuchaytirish demakdir. Madaniyat uchun ayni bir vaqtda ham statika (barqarorlik), ham dinamika (rivojlanish, o'sish) jarayonlari xosdir.

Muayyan me'yorlar, andozalar, bilim va qadriyatlar majmuasi sifatida madaniyat ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashga yaqindan yordam beradi. Madaniyatning barqarorlikni saqlash funksiyasi konservatizm xavfining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Madaniyat jarayon sifatida bir joyda uzoq vaqt to'xtab turolmaydi: jamiyatning ilg'or ziyolilari, ijodkor qatlami uning yuksakroq namunalarini yaratadilar; natijada, madaniyatga xos an'anaviylik novatorlik bilan uyg'unlashadi. Yangilik bilan eskilik, progressivlik va konservatorlik, milliylik va umuminsoniylik o'rtasidagi tafovut va ziddiyat jarayonida madaniyat faol rivojlanadi va ta'sirchan kuch sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyat taraqqiyoti yo'lida paydo bo'lgan muammolarning tez va oqilona hal etilishi keng xalq ommasi madaniy darajasining yuksalishiga, ilg'or shaxslar tomonidan yaratilgan madaniyat namunalarining qanchalar tez o'zlashtirilishiga bog'liqdir. Keng xalq ommasining ma'naviyatini yuksaltirish milliy madaniyatning rivojlanishida, ijtimoiy muammolarni oqilona hal etishda muhim ahamiyatga egadir.

Demokratik jamiyat turli millat va xalqlar, sotsial guruhlar va sinflar o'rtasidagi hamkorlik, o'zaro ta'sir munosabatlari asosida rivojlanadi. Har bir xalq, millat va sotsial guruhning turmushi, hayot sharoitlari, fikrlash tarziga mos ravishda o'ziga xos madaniyat vujudga keladi. Turli xalqlar o'rtasida turlicha madaniyatning vujudga kelishida tabiiy-

geografik sharoit, iqlim, mehnatni tashkil etish usullari muhim rol o'ynaydi. Milliy madaniyatdagi individuallik, o'ziga xoslikka haddan tashqari ko'p urg'u berish oxir-oqibatda milliy mahdudlikka, jahon sivilizatsiyasidan uzilib qolishga, va nihoyat, turli milliy madaniyatlar o'rtasida ixtiloflar kelib chiqishiga olib kelishi mumkin.

Mulkchilikka bo'lgan munosabatlarning xilma-xilligi turli sotsial guruhlar, sinflar madaniyatida o'ziga xos tafovutlarni keltirib chiqaradi. Shahar va qishloq madaniyati, ziyolilar va omma madaniyatining bir-biridan farqlanishi aslo bejiz emasdir. Bunday tafovutlar mehnatni tashkil etish usullari, mulkchilikka turli munosabatning mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, bu tafovutlarni sun'iy ravishda kuchaytirish ham, ularni zudlik bilan yo'qotish ham jamiyat uchun noxush oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Sotsial mobillik (ijtimoiy sinf va guruhlarining harakatchanligi yoki moslashuvchanligi) bozor munosabatlari sharoitida obyektiv ravishda amal qiladigan muhim qonuniyat bo'lib, kishilarning bir sotsial guruhdan boshqasiga o'tishi va yangicha munosabatlarga moslashishi sotsial guruh yoki sinf madaniyatini qanchalar o'zlashtirishiga bog'liqdir. Boshqacha qilib aytganda, kasb etikasi ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirishda qanchalar muhim ahamiyatga ega bo'lgani singari turli sinflar, sotsial guruhlar madaniyatining o'ziga xosligini bilish, idrok etish ham jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarning integrallashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Emil Dyurkgeym ta'kidlaganidek, mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy birdamlikning yanada mustahkamlanishi uchun puxta zamin yaratadi, yangidan-yangi kasb va mutaxassisliklarning paydo bo'lishi ijtimoiy guruh va qatlamlar o'rtasidagi aloqadorlikni yanada kuchaytiradi.

Sobiq sovet jamiyatida milliy madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlarni zudlik bilan yo'qotishga urinish noxush oqibatlarni keltirib chiqargani singari turli sotsial guruhlar va sinflar madaniyati o'rtasidagi o'ziga xoslikni nazar-pisand qilmaslik ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan oz sonli xalq va millatlarning milliy madaniyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, milliy markazlar tashkil etishga alohida e'tibor berila boshlandi. Prezident I. Karimov ta'kidlaganidek, «har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin — insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi Yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida... 73—74-b.

Har bir milliy madaniyat insoniyat madaniyatidan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Milliy madaniyatlar bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, bir-birini boyitadi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni yanada takomillash-tirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Har bir xalq o'zining noyob, betakror va o'ziga xos milliy madaniyati bilan insoniyat madaniyati tarkibida munosib o'rin tutadi. Mamlakatimizda demokratik o'zgarish-larning yanada chuqurlashishi va fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi, O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilib borishi jamiyatimizning madaniy taraqqiyoti yo'lida paydo bo'lgan muammolarni oqilona hal etishni, Yer yuzidagi ilg'or xalqlar madaniyati yutuqlarini chuqur o'rga-nishni taqozo etadi. O'zbekistonning qator Yevropa mamlakatlari bilan iqtisod, siyosat, madaniyat sohasidagi o'zaro hamkorligi, iqtidorli yoshlarimizning xorijdagi oliy o'quv yurtlarida tahsil ko'rish, ilg'or xalqlar bilan madaniy muloqotda bo'lishi, shubhasiz, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

Xullas, hozirgi zamon madaniyatshunosligida madaniyat va jami-yatning o'zaro ta'siri va munosabatini ilmiy asosda tadqiq etish g'oyatda dolzarb masaladir. Madaniyat tushunchasi taraqqiyot, yangilikka inti-lish, ma'naviy yangilanish, yaratish, yaxshilik va ezgulikni avaylab-asrash, qo'llab-quvvatlash bilan uzviy bog'liq ekan, jamiyat hayotini madaniyatsiz, madaniyat rivojini esa sog'lom ijtimoiy munosabatlar tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Madaniyat o'zining tub mohiyatiga ko'ra milliylik va umuminsoniylikning uzviy birligi sifatida namoyon bo'lar ekan, har bir yangi avlodga uzoq ajdodlarimizning bilimi, tajribasi, qadriyatlari, ko'nikma va malakalaridan bahramand bo'lish imkonini berish, xalqlarni bir-biri bilan yaqinlashtirish, ijtimoiy totuvlik va bar-qarorlikni ta'minlash buyuk gumanistik vazifadir. Jamiyat va insonga madaniy hodisa sifatida qarash madaniyatning shaxs va jamiyat hayoti-dagi ahamiyatini teranroq anglashga yordam beradi. Zero G'arbiy Yevropa olimlarining tadqiqotlarida madaniyat va jamiyat tushuncha-larining bir xil ma'noda qo'llanilishi ham bejiz emasdir.

Madaniyat va sivilizatsiyaning o'zaro munosabatini tadqiq etish madaniyat va jamiyatning o'zaro ta'sirini teranroq tushunishimizga yaqindan yordam beradi.

## **MADANIYAT VA SIVILIZATSIYA**

Madaniyatshunoslik tarixida madaniyatning mohiyatini bilishga turlicha metodologik nuqtai nazardan yondashib kelindi. Madaniyatga materialistik yondashish — har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya, ishlab

chiqarish usuli o'ziga xos madaniyat yaratadi, degan g'oyaga asoslanar, ma'naviy madaniyatga nisbatan moddiy madaniyatni ustun qo'yar, har bir milliy madaniyatning betakror va noyobligini inkor etar, madaniyat istiqbolini yagona madaniyatning shakllanishi bilan bog'lar edi.

Madaniyatning mohiyatini bilishga sivilizatsiyali yondashuv esa aksincha, har bir milliy madaniyatning betakrorligini, unda umuminsoniylik va o'ziga xoslik mavjudligini e'tirof etishni nazarda tutadi.

Madaniyatshunoslik tarixida madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biri bilan aynanlashtirish, bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga qaratilgan xilma-xil nazariyalar vujudga keldi. Bizningcha, madaniyat va sivilizatsiya bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni bir xil hodisa sifatida tavsiflash ham, ularni bir-biriga qarshi qo'yish ham to'g'ri emas.

«Sivilizatsiya» atamasi madaniyat atamasiga nisbatan ancha keyin, ya'ni XVIII asr o'rtalarida vujudga keldi. Sivilizatsiya tushunchasini birinchi bo'lib shotland faylasufi A. Fergyusson qo'llagan. U insoniyat tarixini yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya davrlariga bo'ldi. A. Fergyusson sivilizatsiya deganda ijtimoiy rivojlanishning oliy bosqichini tushungan. XVIII asr fransuz ma'rifatparvar-faylasuflari sivilizatsiya tushunchasini keng va tor ma'noda qo'lladilar. Ular keng ma'nodagi sivilizatsiya deganda aql, adolat va diniy bag'rikenglik prinsiplariga asoslanadigan jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichini nazarda tutdilar. Fransuz ma'rifatparvarlarining sivilizatsiya to'g'risidagi bunday tasavvurlari A. Fergyusson qarashlari bilan hamohang deyish mumkin. Ularning fikricha, sivilizatsiya tor ma'noda «madaniyat» tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, insonga xos barcha sifatlar (o'tkir zehn, yuqori ma'lumot, ko'rkamlik, muloyimlik) majmuasini ifodalaydi.

Keyinchalik sivilizatsiya tushunchasi yangicha mazmun bilan boyib bordi. Ingliz tarixchisi Arnold Toynbi sivilizatsiyaga madaniyatning muayyan bosqichi sifatida qaradi, madaniyatning ma'naviy jihatlariga alohida urg'u berdi, dinni sivilizatsiyaning eng muhim elementi deb hisobladi.

Nemis madaniyatshunosi Osvald Shpengler o'zining «Yevropa quyoshining so'nishi» (1918-1922) asarida sivilizatsiyani inqirozga yuz tutgan, o'lib va yemirilib borayotgan madaniyat sifatida ta'rifladi. Uning fikricha, madaniyat jonli organizm bo'lib, shaxs ijodiy qobiliyati va individualligini to'la namoyon etadi, san'at va adabiyotning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Sivilizatsiyada esa texnika va hissiz aql hukmronlik qilar ekan, bu narsa badiiy ijodga imkon bermaydi, insonni hissiz maxluqqa aylantiradi. Taniqli rus faylasufi Nikolay Berdyayev ham o'zining «Tarixning ma'nosi» asarida shunday fikrni ilgari surgan edi.

Madaniyat va sivilizatsiya mohiyatini bilishda ularni bir-biri bilan qiyoslash, har birining nisbiy mustaqilligi va o'ziga xos xususiyatlarini ajratish muhim metodologik ahamiyatga molikdir.

Sivilizatsiyaga erishish, shubhasiz, madaniyatning biron-bir darajasiga erishish, madaniyat esa, o'z navbatida, insoniyatning sivilizatsiyaga erishganlik ko'rsatkichidir. Madaniyat va sivilizatsiya elementlari insoniyat tarixining juda uzoq davrlariga borib taqaladi: insoniyat yovvoyilikka qarshi madaniyatni, varvarlikka qarshi sivilizatsiyani yaratdi. Yovvoyilik va varvarlik bir ma'noli tushunchalar emas: yovvoyilik insoniy mohiyatdan begonalashish, nooqilona emas, balki instinktiv ravishda faollik ko'rsatishdir; varvarlik — mavjud ijtimoiy tartib, me'yor, qoida, qonun va axloqni tan olmaslik, yovuzlik, bosqinchilik va tajovuzkorlik ifodasidir.

Madaniyat — ta'lim-tarbiya bilan, ijtimoiy talablarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lsa, sivilizatsiya davlatning paydo bo'lishi, jamiyat a'zolarida fukarolik tuyg'usi, davlat qonunlariga nisbatan hurmat his-sining shakllanishi bilan bog'liqdir. («Sivilizatsiya» atamasining inglizcha «fukarolikka oid» degan ma'noni anglatishi ham bejiz emas-dir).

Insoniyat madaniyat vositasida yovvoyilikka qarshi kurashmay turib, odamlarda fukarolik hissini, davlat qonunlari, ijtimoiy tartiblarga hurmat hissini shakllantira olmas, vahshiylikning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurasha olmas edi. Shu boisdan ham, madaniyat sivilizatsiyaga nisbatan ilgariroq vujudga keldi. Xalqlar yuksak madaniyatga erishmay turib, o'ziga xos sivilizatsiya yarata olmas edilar. Yer yuzidagi barcha xalqlar, katta-kichikligidan qat'i nazar, o'ziga xos madaniyatga egadir, bunga aslo shubha yo'q. Lekin barcha xalqlar ham sivilizatsiyaga erishgan emaslar. Arnold Toynbi Yer yuzida hozirgacha atigi o'n uchta mahalliy (lokal) sivilizatsiya mavjud bo'lganligini, ulardan faqat sakkiztasigina hozirgacha yashab kelayotganligini ko'rsatgan edi.

Sivilizatsiya taraqqiyotida uch davrni bir-biridan farqlaydilar: 1. agrar bosqich (o'rta asrlar uchun xos); 2. industrial bosqich (kapitalizm uchun xos); 3. postindustrial bosqich (XX asrning 50 yillaridan boshlandi; fan-texnika revolyutsiyasi, informatsion jamiyat bilan bog'liq).

Sivilizatsiyalar o'z miqyosiga ko'ra: jahon sivilizatsiyasi, mintaq sivilizatsiyasi va milliy sivilizatsiyaga bo'linishi ham mumkin. Jahon sivilizatsiyasi mintaqaviy va milliy sivilizatsiyalarning o'zaro ta'siri va uyg'unlashuvi jarayonida shakllanadi.

Milliy sivilizatsiyalar (xitoy, hind, fransuz, mayya, nemis, rus va boshqalar) buyuk xalqlarning uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyoti

jarayonida shakllanadi; bunda u yoki bu din, hayot falsafasi, milliy tafakkur va madaniyat muhim rol o'ynaydi.

Madaniyat va sivilizatsiyaning umumiy va o'ziga xos jihatlarini belgilashda madaniyat va sivilizatsiyaning muhim elementlarini ajratish muhimdir.

Madaniyatning eng muhim elementlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) bilim, tushuncha, tasavvur, qarashlar va ilmiy nazariyalar;
- 2) mazkur bilim, tasavvur, qarashlar, nazariyalarning predmetlashuvi, ro'yobga chiqishi;
- 3) ana shu jarayonda inson shaxsining shakllanishi va takomillashuvi.

Madaniyat elementlarining har biri o'zaro bog'liq bo'lib, inson shaxsining shakllanishi jarayonida madaniyatning insonparvarlik va taraqqiyparvarlik mohiyati to'laroq namoyon bo'ladi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda moddiy va ma'naviy madaniyatni bir-biridan farqlash va hatto ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish hollari mavjuddir. Ayrim tadqiqotchilar sivilizatsiyani moddiy madaniyat (texnika, texnologiya) bilan bog'laydilar. Bizningcha, sivilizatsiyani madaniyatning faqat bir jihati bilangina bog'lash ancha munozarali va istiqbolga ega emasdir. Zero, madaniyatshunoslikda madaniyatga yaxlit va bir butun ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida qaraladi.

Ilk sivilizatsiyaga xos eng muhim belgilarga quyidagilar kiradi: davlatning paydo bo'lishi; yozuvning vujudga kelishi; dehqonchilikning hunarmanchilikdan ajralib chiqishi; jamiyatning sinflarga bo'linishi; shaharlarning paydo bo'lishi.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasiga xos muhim belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: huquqiy davlatning mavjudligi; davlatlar, xalqlar, ijtimoiy sinflar o'rtasidagi konfliktlarni umumiy konsensus asosida hal etishga intilish; butun jahon miqyosida ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanganligi; kommunikatsiya tizimining mavjudligi; planetar ong, planetar axloqning shakllanganligi.

Sivilizatsiya turli tarixiy davr va xalqlar madaniyatining o'zaro ta'siri, madaniy-tarixiy jarayondagi vorisiylik sifatida vujudga keladi. Madaniyat sivilizatsiyaga nisbatan zamon va zaruriyat nuqtai nazaridan birlamchi, yetakchi va ahamiyatlidir. Sivilizatsiyali taraqqiyotga erishish madaniy-tarixiy rivojlanishning bosh maqsadidir.

Madaniyat sivilizatsiyaga hayot beradigan, uning taraqqiyoti va qismatini belgilaydigan eng muhim omildir. Sivilizatsiyaning yashovchanligi, barqarorligi yoki o'zgaruvchanligi madaniyatning konkret

tarixiy davr sinovlariga qay darajada chidamli bo'lishiga, davr chaqiqlariga qanday javob bera olishiga bog'liqdir.

Turli sivilizatsiyalar bir-biri bilan uchrashgan, bir-biriga zid kelgan davrlarda milliy madaniyat o'zga madaniyat yutuqlarini zo'r berib o'zlashtirishga qodir bo'lsagina, milliy sivilizatsiya rivojlanishda davom etadi, aks holda inqirozga yuz tutishi mumkin. Bunga Kolumb tomonidan kashf etilgunga qadar (1492) yuksak darajada rivojlangan mayya sivilizatsiyasining yevropaliklar sivilizatsiyasi kirib kelgandan so'ng, ya'ni XVI asrdan boshlab inqirozga yuz tutganligini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Din insoniyat madaniyatining muhim tarkibiy qismidir. A. Toynbining fikricha, har qanday sivilizatsiya biron-bir dinga tayanadi. Sivilizatsiyalar o'rtasidagi muhim tafovut va o'ziga xosliklar, taniqli rus madaniyatshunosi V. L. Sheynisning fikricha, quyidagi uch mezon bilan belgilanadi: 1) individning guruh va jamiyatdagi holati (shaxsning individuallik darajasi yoki ijtimoiy guruhga qo'shilganligi); 2) hukmron dunyoqarashda dunyoviy yoki diniy yo'nalishning ustuvorligi; 3) an'ana va novatorlikka munosabat.

Sharq sivilizatsiyasi individ va jamoaning uzviy birligiga, inson va tabiatning yaxlitligiga asoslanganligi bois sharqlik o'zini jamoadan, tabiatdan ajrata olmas edi. U tabiatga ona sifatida qarar edi: sharqda tabiatning saxovati keng va cheksiz edi. Sharqlik jamoa fikrini qadrlash, hurmat qilish ruhida tarbiyalanar edi: tabiat ne'matlarini faqat o'zaro hamkorlikda o'zlashtirish mumkin edi. Sharq sivilizatsiyasi asosini tashkil etgan hinduizm, buddizm, islom dinlari inson bilan tabiat, inson bilan jamoa o'rtasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga xizmat qilar, xristian dini singari jiddiy islohotlar (Reformatsiya)ga duch kelmagan edi.

Sharq sivilizatsiyasi o'zining uch ming yillik tarixi davomida inqirozlar nimaligini bilmas, barqaror va osoyishta edi. Chunki unda diniy dunyoqarash ilmiy dunyoqarashga nisbatan yetakchi mavqeini egallar edi. Ehtimol, shu boisdan ham Sharq sivilizatsiyasida dunyoviy ilm-fan va ilmiy falsafa emas, balki din va diniy falsafa kuchliroq rivojlangan edi.

Yevropa sivilizatsiyasi shaxsning individualligi, uning tadbirkorligi, ijodkorligi, noyob iste'dodiga asoslanar, har bir yevropalik bolalikdan «men» va «men emas»ni farqlash ruhida tarbiyalanar edi. Yevropa sivilizatsiyasi ilm-fan va texnika taraqqiyotiga, inson aql-zakovatining kuch-qudratiga tayanar va shu tufayli ham uning ravnaqi muqarrar ravishda inqiroz bilan almashinar edi. Natijada O. Shpengler, N. Berdyayev singari yevropalik tadqiqotchilar sivilizatsiyani madaniyatning inqirozi sifatida tavsiflagan edi.

Gap shundaki, yangi zamon Yevropa madaniyati ilm-fan va texnika asosiga qurilgan bo'lib, olamga hissiy-emotsional emas, balki intellektual-ilmiy asosda yondashishni taqozo etardi. Yevropa sivilizatsiyasi uchun an'analarni asrab-avaylab emas, balki novatorlik, yangilikka intilish xos edi. Shu boisdan ham, u o'tgan yuz yil davomida bir necha marta inqiroz va taraqqiyot bosqichlarini kechirgan edi.

Mamlakatimiz xalqlari keyingi 100—150 yil mobaynida yevropa xalqlari madaniyatining ilg'or yutuqlarini o'zlashtirish orqali milliy madaniyatni yanada takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi. O'zbekiston o'zining tabiiy-geografik joylashuviga ko'ra G'arb va Sharq sivilizatsiyalarini bir-biri bilan bog'lab turadigan, ularning ilg'or yutuqlarini o'zlashtirish orqali o'ziga xos madaniyat va sivilizatsiya yaratgan, istiqbolga umid va ishonch bilan qaragan mamlakatdir. O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilib borish tajribasini ilmiy asosda tadqiq etish, sivilizatsiyali taraqqiyotning muhim xususiyatlari va muammolarini ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Xullas, madaniyat va sivilizatsiya bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan, lekin o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari va belgilari bilan ajralib turadigan ijtimoiy-tarixiy hodisalardir. Madaniyat insonning sotsial tabiati bilan bevosita bog'liq bo'lib, kishilik jamiyati mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Sivilizatsiyali taraqqiyotga erishish madaniy rivojlanishning noyob, betakror ekanligini anglatadi. Bir milliy madaniyatni boshqasidan ustun qo'yish nazariy jihatdan xato, amaliy jihatdan zararlidir. Milliy madaniyatlardagi rang-baranglik va o'ziga xoslik jahon xalqlari madaniyatidagi umumiylikni istisno etmaydi. Turli xalqlar madaniyatidagi umumiylik va mushtaraklikni qadrlash xalqlar va mamlakatlar o'rtasida tinchlik, hamkorlik, do'stlik munosabatlari rivojlanishiga, jahon sivilizatsiyasining ravnaq topishiga xizmat qiladi.

## **MADANIYAT VA SHAXS**

Inson, madaniyat, shaxs tushunchalari madaniyatshunoslikda juda muhim o'rin tutadi. Ular bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, inson madaniy mavjudot sifatida o'zining yaratuvchanlik mohiyatini namoyon etadi, madaniyat esa shaxs ijodiy faoliyatining mahsuli sifatida ijtimoiy taraqqiyotga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Uzoq yillar davomida shaxsning mohiyati va uning madaniy taraqqiyotdagi roliga biryoqlama yondashib kelindi, uning intellektual-ma'naviy salohiyati, insoniy fazilatlariga yetarlicha e'tibor berilmadi. Natijada, shaxs dunyoqarashi, g'oya va ideallarning yaratuvchan va o'zgaruvchan funksiyasi to'g'ri baholanmadi.

Insoniyatning ko'p asrlik taraqqiyoti davomida o'rttirgan bilimlari, g'oyalari, tajribalari va ma'naviy yutuqlarining majmuasi sifatida madaniyat barcha tarixiy davrlarda ham zamon ruhi va davr talablariga javob bera oladigan har tomonlama yetuk inson shaxsini kamol toptirishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'yadi. Turli tarixiy davrlarda yaratilgan madaniyat yodgorliklari (ilmiy, badiiy asarlar, me'morchilik, naqqoshlik, musiqa, qo'shiq, rassomlik)da shaxsning bilimi, iste'dodi, insoniy fazilat va sifatleri o'z ifodasini topadi. Har bir inson ulug' ajdodlarimiz madaniy merosini mukammal egallash orqali o'zi sevgan sohaning etuk mutaxassisiga, olijanob fazilatlar sohibiga aylanadi, hozirgacha yaratilgan madaniyat obidalarini yana ham ko'rkamroq, mukammalroq qilib yaratishga ehtiyoj seza boshlaydi — madaniyat ijodkoriga aylanadi.

Madaniyatshunoslikda shaxs ulug' ajdodlarimiz bilimi va tajribalarini qunt bilan egallovchi, o'zida sabot-matonat, mustahkam iroda, sobitqadamlik, ma'rifatparvarlik sifatlarini tarbiyalovchi, bilim va tajribalarini obyektivlashtiruvchi, muttasil izlanuvchan va ijodkor inson sifatida ta'riflanadi. Jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shgan, o'z asarlarida davr ruhi, intellektual salohiyati va butun mahoratini mujassamlashtirgan ulug' ajdodlarimiz (madaniyat arboblari) mehnat-sevar, bilimdon, kamtarin, taraqqiyparvar inson sifatida ma'naviy kamolotga intilgan, o'z asarlari bilan nomi, nasl-nasabini abadiylashtirganlar. Bizgacha yetib kelgan barcha madaniyat obidalarida o'z zamondoshlaridan ancha ilgari ketgan fozil va komil ajdodlarimizning mashaqqatli, ammo sharaflil mehnatlari va izlanishlari yotadi, albatta.

Madaniyat hamisha shaxs faolligi va uning yaratuvchanlik faoliyati bilan bog'liqdir. Buyuk nemis faylasufi Gegel o'zining «Huquq falsafasi» asarida ta'kidlaganidek, madaniyatli inson, bu — avvalo, boshqalar qilgan ishni qila oluvchi, boshqalar kabi yaratuvchidir. Madaniyat o'zining tub mohiyatiga ko'ra insondagi insoniylikni, yaratuvchanlik qobiliyatni ro'yobga chiqaruvchi, komil inson shaxsini shakllantiruvchi ekan, ana shu shaxsning faolligi tufayligina u o'z-o'zidan rivojlanish imkoniga ega bo'ladi. Binobarin, shaxsning shakllanishini madaniyatsiz tasavvur etib bo'lmagani kabi madaniy taraqqiyotni ham ijodkor shaxslarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Shaxsning shakllanishi nihoyatda murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, juda ko'p omillarga bog'liqdir. Inson shaxsining shakllanishida nafaqat madaniy, yana sotsial-siyosiy muhit, ijtimoiy tuzum, iqtisodiy hayot va boshqalar ham muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy-siyosiy rivojlanish bilan madaniy taraqqiyot har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi: Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad

Bobur, Mashrab, Huvaydo, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy singari buyuk madaniyat arboblarning insoniy fazilatlarini, qimmatli g'oyalari, yuksak iste'dodlari bugungi kunda ham zamondoshlarimizga ibrat, buyuklik timsoli bo'lib qolayotganligining boisi ham ana shundadir.

Madaniyat tarkibiga kiruvchi barcha sohalar (ilm-fan, texnika, san'at, ta'lim-tarbiya, sport va h. k.) yuqori bosqichga ko'tarilgan hozirgi davrning butun insoniyatni hayratga soluvchi hazrat Navoiylari, Qodiriy va Fitratlari qani?

Nega o'zbek sovet madaniyati yurtimizda Andrey Saxarov, Chingiz Aytmatov singari jahonga mashhur shaxslar tipini yaratmadi? Bunday savollarga javob berishdan oldin madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan shaxsning mohiyati va mazmuni haqida qisqacha fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

O'zgargan har bir yangi tarixiy davrda «Inson nima?», «Shaxsning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni qanday?» kabi savollarga ilmiy asosda javob berish zarur bo'lgani singari vujudga kelgan yangi tarixiy davrda madaniyatning mohiyati va funksiyalarini yangicha idrok etish ijtimoiy-siyosiy fanlar va madaniyatshunoslikning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Agar milliy madaniyat yangi davr ruhi va uning tub yo'nalishlarini, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasini idrok etmasa va milliy mahdudlik qobig'iga o'ralib qolsa, davr talablariga javob bera oladigan inson shaxsini shakllantira olmaydi.

Prezident I. A. Karimov o'zining «Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» va boshqa asarlarida barkamol inson shaxsiga xos muhim fazilatlar sifatida tashabbuskorlik, mardlik, bilimdonlik, ishbilarmonlik, vatanparvarlik, sobitqadamlik kabi xislatlarni alohida ta'kidlab, erkin fikr, mustaqillik tuyg'usi shaxs kamolotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, milliy mustaqillik yosh avloddan yangicha sifat va fazilatlarini talab eta boshladi. Demokratik taraqqiyot o'zining tub mohiyatiga ko'ra mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, yangiliklarga intiluvchi ijodkor shaxslarning sa'y-harakatlariga, ularning yaratuvchanlik faoliyatiga tayanadi. Tarixni chuqur bilmay turib, kelajakni yaratish mumkin bo'lmagani singari milliy madaniy merosimizning barcha ijobiy, progressiv yutuqlarini chuqur o'zlashtirmay turib, yangi davr talablariga javob bera oladigan barkamol avlodni shakllantirib bo'lmaydi. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyot yoshlarning keksa avlodga, ajdodlarimizga nisbatan kuchliroq, bilimdonroq, dono va aqlli roq bo'lishini taqozo etadi. Prezident I. A. Karimov «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo'lishlari shart» deganida Vatanimizning porloq istiqboli yoshlarimiz-

ning ilm-fan asoslarini chuqur egallashiga bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Jamiyatdagi mavjud siyosiy tuzum madaniyat taraqqiyoti uchun qulay shart-sharoit yaratishi yoki, aksincha, undagi barcha ijobiy, progressiv elementlarning rivojiga xalaqit berishi ham mumkin. Chunki yuqorida ta'kidlanganidek, madaniyat uchun statika va dinamika xos bo'lib, agar mavjud siyosiy tuzum tub demokratik o'zgarishlardan hadiksirasa, madaniyatning statik (konservativ) xususiyatlaridan unumli foydalanishga zo'r beradi. Agrar ishlab chiqarishga asoslanuvchi jamiyatning madaniyat strukturasida diniy bilim va qadriyatlar muhim rol o'ynaganligi, diniy ta'limot va falsafaning agrar ishlab chiqarishning cheklanganligiga mos ravishda shaxs ehtiyojlarini cheklashga zo'r berganligini tasdiqlovchi tarixiy faktlarni ko'plab keltirish mumkin. Sanoat ishlab chiqarishini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan demokratik siyosiy tuzum madaniyatning taraqqiyparvarlik funksiyasini to'laroq ro'yobga chiqarishga, qoloqlik, tanballikni targ'ib etuvchi o'tmish madaniy merosdan sabot bilan voz kechishga, ilm-fan va shaxs erkinligini qo'llab-quvvatlashga zo'r beradi.

Insoniyat tarixining tub burilish davrlarida, bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan yangisiga o'tish davrlarida madaniy merosga munosabat masalasi eng dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammo hisoblanadi. Zero, o'tmish madaniy merosida o'tmish ruhi, konservatizm, turg'unlik va, ayni vaqtda, progressiv elementlar, yangilik va ijobiy xususiyatlar mavjud bo'ladi. Ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlaridan kelib chiqadigan siyosiy tizimgina madaniyatning yaratuvchan, ijobiy va progressiv xususiyatlaridan to'laroq foydalanishga intiladi.

Shaxs — mavjud siyosiy tuzumni, ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirishga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi madaniyatli insonning sotsial sifatidir. Inson madaniyatning barcha ilg'or yutuqlarini chuqur o'rganish orqali o'zida qator sotsial sifatlarni shakllantiradi. Mustahkam imon-e'tiqod — shaxsning eng muhim sotsial sifati hisoblanadi. Imon va e'tiqodning shakllanishida din, ta'lim-tarbiya va ijtimoiy-siyosiy muhit katta rol o'ynaydi. Din ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida odamlar o'rtaqidagi munosabatlarni takomillashtirish, ijtimoiy barqarorlik, totuvlik, tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Din — umumbashariy qadriyat sifatida kishilarda axloqiy fazilatlar, insoniy sifatlarni shakllantiradi.

Shaxs abadiylik, ezgulik haqidagi tushuncha va tasavvurlarni diniy e'tiqod, diniy tarbiya va ta'limotlar vositasida egallaydi. Mustahkam imon-e'tiqod shakllanishi bilan kasb-kor, faoliyat shaklining

qandayligidan qat'i nazar shaxs jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsata boshlaydi.

Shaxsning kamol topishi, unda mustahkam imon-e'tiqodning shakllanishi individ uchun g'oyat mashaqqatli va ziddiyatli jarayon sifatida kechadi. Shaxs olamni bilish orqali o'zligini anglashga, o'z «men»ligini bilish orqali olam mohiyatini chuqurroq bilishga erishadi. Shaxs o'z-o'zini tarbiyalovchi, o'z faoliyatiga tanqidiy baho beruvchi, o'z-o'zini nazorat qiluvchi sifatida muttasil ravishda kamolotga intiladi.

Milliy madaniyatimiz tarixida chuqur iz qoldirgan ulug' mutafakkirlar inson shaxsi kamol topishining eng umumiy qonuniyatlarini ochishga harakat qilganlar. Buyuk mutasavvuf Abduholiq G'ijduvoni o'z «Vasiyatnoma»sida ma'naviy kamolotga erishmoq uchun «kam uxlash, kam so'zlash, kam ovqatlanish» lozimligini, yuqori lavozimlarga intilmaslik zarurligini ta'kidlagan edi. Turkistonning shayxul mashoyixi sifatida ulug'langan Ahmad Yassaviy inson shaxsi shakllanishining zarur sharti sifatida nafsni tiyish, ayshu ishrat va molu dunyo vasvasasidan yuz o'girish, yetimparvar, odil va halol bo'lish lozimligini ko'rsatadi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abduqodir Bedil, Mashrab va Huvaydo singari ulug' allomalar zohidlik, tarkidunyochilikka qarshi odamlar mushkulini osonlashtirish, ilm-ma'rifatli bo'lish, ilohiy kamolotga erishmoq uchun shariat ahkomlarini puxta egallash, piru murshid etagini mahkam tutish, diniy ma'rifatni puxta egallash muhimligini ko'rsatganlar. Xalqimiz o'rtasida ko'p asrlar mobaynida navoiyxonlik, bedilxonlik, huvaydoxonlik an'alarining davom etishi jarayonida ma'naviy barkamol shaxslar yetishib chiqqan.

Sovet tuzumi sharoitida o'tmish madaniy merosga biryoqlama sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondashish oqibatida ulug' ajdodlarimizning qimmatli g'oya, ta'limotlari unutildi, din qatag'on qilindi, imonsizlik, xudosizlik g'oyasi keng targ'ib etildi.

G'oyat sun'iy va biryoqlama sotsialistik madaniyat shaxsning mohiyati va ijtimoiy-tarixiy vazifalari haqidagi tushuncha va tasayvurlarni tubdan o'zgartirdi. Mustabid tuzum uchun mute, itoatkor, ijrochi, soxta kommunistik g'oyaga ishonuvchi shaxs tipi yaratildi. U hech narsa abadiy emas, moddiylik birlamchi, degan materialistik dunyoqarashga o'ta ishonch bilan qarardi. Madaniy merosga o'tmish sarqiti, qoloqlik belgisi sifatida qarash, baynalmilallikni milliylikdan ustun qo'yish sotsializm yaratgan g'ayritabiiy shaxsga xos muhim xususiyat edi.

Milliy mustaqillik yillarida shakllangan yangicha siyosiy tafakkur va yangicha falsafiy dunyoqarash milliy madaniyat, milliy qadriyat va

shaxsning mohiyatini yangicha tushunish, tahlil qilish imkonini beradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson uchun munosib hayot sharoitlari yaratishni, shaxs erkinligining to'laroq ro'yobga chiqishi uchun qulay imkoniyatlar yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Yangi tarixiy davr xususiyatlari, barkamol inson shaxsini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari Prezident I. A. Karimovning qator asarlarida tavsiflab berildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq xalqimizning milliy qadriyatlarini tiklashga, boy madaniy merosimizni chuqur o'rganishga, ta'lim-tarbiya sohasida tub islohotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor berila boshlandi.

Bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiy va siyosiy sohada to'planib qolgan barcha muammolarni oqilona hal etish uchun zamonaviy fan va texnika, ilg'or texnologiya va kasb madaniyatini puxta egallagan halol, mehnatsevar, vatanparvar, sabot-matonatli inson shaxsini kamol toptirishni talab eta boshladi. «Ta'lim to'g'risida Qonun», «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»ning sobitqadamlik bilan amalga oshirilishi natijasida mamlakatimiz xalq xo'jaligini, xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish, erkin fikrlaydigan, bilimdon va tashabbuskor shaxs tipini shakllantirish uchun qulay imkoniyatlar vujudga keldi.

Bugun dunyoda mafkuraviyl jarayonlar global tus olgan, turli diniy-ekstremistik g'oyalar O'zbekiston xavfsizligi va mustaqilligiga jiddiy tahdid solayotgan bir sharoitda xalqimizning milliy manfaatlari va mentalitetiga mos milliy istiqlol g'oyasining yaratilishi barkamol inson shaxsini shakllantirishda muhim tayanch bo'lib xizmat qila boshladi.

Ilg'or g'oya uchun kurash — shaxs faolligining muhim ko'rsatkichi-dir. Jahondagi barcha rivojlangan mamlakatlar demokratik qadriyat-larni hayotga tadbiq etish, shaxs erkinligini qaror toptirish orqali taraqqiyotning yuqori bosqichiga erishdilar.

Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etish, xalqimizga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish uchun xizmat qiladi. Xalqimizning ozodlik, tinchlik, farovonlik va ijtimoiyl taraqqiyotga bo'lgan intilishlari milliy istiqlol g'oyasida o'z ifodasini topdi.

Shaxs ijtimoiyl-siyosiy va milliy g'oyani amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ilg'or g'oyalarni ilgari surish va ularni hayotga tadbiq etish jarayonida insonning axloqiy, irodaviyl sifat-lari to'laroq namoyon bo'ladi. Insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk shaxslar o'zining shaxsiyl farovonligi uchun emas, balki Vatan, xalq manfaatlari uchun kurashgan. Vatanimiz ozodligi, yurtimiz obodligi va xalqimiz farovonligi uchun o'zining shaxsiyl huzur-halovati, aziz jonini fido qilgan sohibqiron

Amir Temur, hazrat Navoiy, shoh Bobur, Ulugʻbek, Fitrat, Choʻlpon, Abdulla Qodiriy singari shaxslarning tarixiy va madaniy taraqqiyotdagi ahamiyatini milliy mustaqillik yillarida teranroq anglay boshladik.

Tarixiy shaxslar qanday maʼnaviy soha (fan, sanʼat, din, siyosat, huquq)da faoliyat koʻrsatishdan qatʼi nazar davrning mushkul muammolarini oqilona hal etish, jamiyatni inqirozdan qutqarish yoʻllarini koʻrsatdilar. Milliy madaniyatning barcha yutuqlarini chuqur egallagan shaxslargina milliy muammolarni tez va oqilona hal etishga salmoqli hissa qoʻshadilar.

Xullas, madaniyat va shaxs bir-biri bilan uzviy bogʻliq tushunchalardir. Madaniy rivojlanishning bosh maqsadi barkamol inson shaxsini shakllantirishdan iboratdir, boshqa jihatdan shaxs madaniyat ijodkori sifatida ham namoyon boʻladi. Har bir avlod oʻtmishda yaratilgan madaniy merosni, madaniyat yutuqlarini oʻzlashtirish orqali oʻzida muayyan axloqiy sifatlarni shakllantiradi, ijtimoiy va tabiiy borliqni oʻzlashtiradi, oʻz «men»ligini teranroq anglaydi.

Milliy istiqlol yillarida shakllangan yangicha dunyoqarash shaxs, milliy madaniyat, milliy qadriyatlar mohiyatini yangicha tushunishga imkon berdi. Taʼlim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar xalqimizni boy madaniy merosimizdan toʻla bahramand etish, jahonning rivojlangan mamlakatlari bilan ilmiy-texnikaviy va madaniy sohalarda hamkorlik qilish imkoniyatini yaratmoqda. Milliy istiqlol gʻoyasi mustaqillik yillarida qoʻlga kiritilgan madaniy-tarixiy yutugʻimiz boʻlib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, maʼnaviy barkamol inson shaxsini shakllantirishda muhim sotsial omil boʻlib xizmat qiladi.

## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. «Madaniyat» tushunchasi falsafiy jihatdan nimani anglatadi? Madaniyatning taʼrifini bering.
2. Madaniyatni moddiyga va maʼnaviyga boʻlishning sababi nimada? Maʼnaviy madaniyatning tarkibi haqida soʻzlang.
3. Madaniy vorislik nima? Uning qanday koʻrinishlarini bilasiz? «Madaniy anʼanalar» tushunchasini izohlang.
4. Madaniy meros tarkibiga nimalar kiradi?
5. Sovet davridagi madaniy siyosat haqida qanday tasavvurlarga egasiz?
6. Madaniy rivojlanishning ichki va tashqi omillari nima? Madaniyat qanday ijtimoiy funksiyalarni bajaradi? Milliy istiqlol gʻoyasini xalq

ongi va qalbiga singdirishda madaniyat muassasalarining mas'uliyatini tushuntirib bering.

7. Madaniyat to'g'risida rang-barang qarashlarning paydo bo'lishiga sabab nima?
8. Madaniyatni tushuntirishda qadriyat nazariyasining ahamiyati nimadan iborat?
9. Madaniyatni tushuntirishda faoliyat nazariyasi qanday xususiyatlarga ega? Madaniyatni tushuntirishda shaxsiyat nazariyasi, ijtimoiylik nazariyasining mazmunini izohlang.
10. Madaniyatni tushuntirishda belgilar nazariyasi haqida nimalar deya olasiz?
11. Madaniyat va tabiatning bir-biriga ta'sirini o'rganishning ahamiyati nimada?
12. Musulmon madaniyatida inson va tabiat o'rtasida munosabat qanday tavsiflanadi?
13. Madaniyatning tabiatga ta'siri jarayonida mehnatning roli qanday?
14. Ekologik madaniyatning inson ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
15. Madaniyatning inson jamiyati shakllanishi va rivojlanishidagi roli haqida qanday fikrdasiz?
16. Madaniyat ijtimoiy borliqning zarur sharti va asosidir, degan fikrni qanday izohlaysiz?
17. «Madaniyat» va «sivilizatsiya» tushunchalarini izohlang.
18. Madaniyat va sivilizatsiyaning o'zaro munosabatini turlicha talqin etadigan qanday konsepsiyalarni bilasiz?
19. Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsiyali yondashuvning mohiyati nimadan iborat? Shaxsning madaniyat taraqqiyotiga ta'sirini tushuntiring.
20. Madaniyatning shaxs shakllanishidagi roli nimalarda ko'rinadi? Shaxs erkinligi va madaniy faoliyat o'rtasidagi aloqadorlikni izohlang. Shaxsning kamol topishida madaniy merosning ahamiyatini tavsiflang.

## NAZORAT ISHI UCHUN MAVZULAR

- Madaniyat — ijtimoiy hodisa.
- Madaniyatning mohiyati, mazmuni, ijtimoiy funksiyalari.
- Jamiyat taraqqiyotida moddiy madaniyatning o'rni.
- Ma'naviy madaniyat — barkamol shaxsni tarkib toptirishning muhim omili.

- Madaniyat taraqqiyotida ichki va tashqi omillar uyg'unligi.
- Madaniy meros va vorislik muammolari.
- Mustaqillik sharoitida madaniyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari.
- Madaniyatning milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishdagi o'rni.
- Madaniyatning asosiy konsepsiyalari va ularning mohiyati.
- Madaniyat va qadriyatlar.
- Madaniyat va an'analar.
- Inson mehnati — madaniyat asosi.
- Madaniyat — insonni tarbiyalashda muhim ma'naviy omil.
- Tabiat — insoniyat madaniyati rivojlanishining moddiy asosi.
- Inson va tabiat o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishda madaniyatning roli.
- Madaniyat — insoniyat jamiyati shakllanishining zaruriy sharti sifatida.
- Ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirishda madaniyatning o'rni va roli.
- Sivilizatsiya va madaniyatning o'zaro bog'liqligi.
- Shaxs va madaniyatning o'zaro bog'liqligi.
- Barkamol inson shaxsini shakllantirish — madaniyat sohasidagi islohotlarning bosh maqsadi.

Har qanday madaniyatning murakkab tizim ekanligi yuqorida aytib o'tildi. Madaniyat ichki jihatdan o'zaro ta'sir etadigan bir qator qismlar, munosabatlar va vazifalar o'rtasidagi aloqalarni gavdalantirib, muayyan jamiyatda o'zining mavjud bo'lib va yashab turishini ta'minlaydi.

Madaniyat kishilar hayotining juda rang-barang sohalarini qamrab oladi. Mohiyatan olib qaraydigan bo'lsak, ijtimoiy hayotning har qanday sohasini madaniyat nuqtai nazaridan qarab chiqish va tavsiflash mumkin.

Moddiy va ma'naviy madaniyat sohasidagi tafovutlar jamiyatning asosiy tarmoqlari hamda kishilarning ehtiyojlarini qondirish xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Bunda inson ijtimoiy faoliyatiga xos moddiy-amaliy va ma'naviy sohalarda ro'y beradigan taraqqiyot belgilari qayd etilgan bo'ladi.

Boshqa tomondan, madaniyat nafaqat ijtimoiy tuzilma, balki shaxsning o'z tarkibiy tuzilishi tomonidan ham farq qiladi. Shunga ko'ra, insonning mehnat madaniyati, muloqot madaniyati, xulq madaniyati, tafakkur madaniyati, axloqiy-estetik madaniyati, fanning dunyoqarash funksiyalari va boshqalar to'g'risida fikr yuritish mumkin. Madaniyatning rang-barang tarkibiy qism (komponent) lari va shakllari insonning ijtimoiy aloqa va munosabatlarining turli-tumanligi va boyligi bilan belgilanadi.

Madaniyatning mohiyati va ijtimoiy hayotdagi o'rnini to'g'ri tushunish uchun uning tarkibiy qismlarini qarab chiqish muhimdir. Umumiy maqsad — insonni shakllantirish va uning komillikka erishuvini ta'minlashda madaniyatning har bir turi o'ziga xos vazifa bajaradi. Jamiyatda mehnat madaniyatini rivojlantirish, kishilarning siyosiy ongilligini oshirish, axloqiy va estetik komilligini barqarorlashtirish va hokazolarda buni ko'rish mumkin.

Murakkab ijtimoiy tuzilma sifatida madaniyat ilmiy bilimlarni, dunyoqarashni, axloqiy va estetik qadriyatlarni, xulq va huquqning me'yorlarini, tarixan tarkib topgan urf-odatlar, an'analar, ramziy holatlarni o'z ichiga oladi. Shu asosda madaniyat moddiy va ma'naviy boyliklarni ko'paytiradi va tarbiya jarayonida muhim ma'naviy rol o'ynaydi.

Endi madaniyatning asosiy sohalari bilan tanishib chiqaylik.

Siyosiy madaniyat ma'naviy qadriyatlarning alohida tizimini tashkil etib, muayyan jamiyat, guruh, kishilarning siyosiy ongi, manfaatlari, e'tiqodlari, maqsadlarini ifodalaydigan siyosiy va huquqiy g'oyalar majmui va ularni hayotga tadbiq etadigan amaliy faoliyat tizimidan iboratdir.

Siyosiy madaniyat jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida yuzaga kelgan. Bunda kishilar faoliyatida siyosiy manfaatlar alohida o'rin egallaydi. Yunon mutafakkirlaridan Gerodot, Aflotun, Arastu va boshqalarning asarlarida qadimgi Yunoniston siyosiy hayotini maxsus o'rganish tufayli siyosiy madaniyat va uning tarkibiy qismlari to'g'risida dastlabki tasavvurlar paydo bo'lgan. Bunday tushunchalar turkiy xalqlarning qadimgi Orxun-Yenisey bitiklarida ham o'ziga xos ifodasini topgan.

Sharqda siyosiy madaniyat, mafkuraviy an'analar, demokratik huquqiy talab, burch va kafolatlar to'g'risidagi qarashlar shakllanganligiga tarixiy manbalar guvohlik beradi. Tadqiqotchilarning yozishicha, qadimgi Markaziy Osiyoda «Islomdan oldin ham, islom vujudga kelgan ilk davrlarda ham ancha-muncha demokratik an'analar mavjud bo'lgan. Ilk islomda ilohiy-nasliy hokimiyat o'rniga Sunnaga asoslangan hokimiyat, boshqarish usulining qaror topganligi, Imomlar Abu Hanifa Shofe'lar davrida Ra'y, Qiyos va Ijmo kabi oqilona va insonparvarona tamoyillar e'tirof etilganligi va, nihoyat, Muhammad davrini hisobga olmaganda, musulmon mamlakatlarida islom mutlaq hokimiyatni o'z qo'lida to'plamagan, balki doimo mutlaq hokimlar, mustabidlar yonidagi mavqeni egallaganligini eslash kifoya»<sup>1</sup>.

Anglashiladiki, siyosiy madaniyatning tarkib topishi jamiyat siyosiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ko'p asrlik tarixga ega. Siyosiy madaniyat siyosiy faoliyat, ya'ni «siyosiy ishlab chiqarish» jarayonlarini o'zida aks ettiradi va umumlashtiradi. Ma'lumki, inson faoliyatida ikki madaniy jihat, ya'ni tabiatni qayta yaratish hamda kishilarning o'zlarini tarbiyalash jarayonlari uzviy bog'langandir. Shunga ko'ra, ijtimoiy-siyosiy guruhlar o'zlarining siyosiy manfaatlarini amalga oshirishda «kishilarga kishilar orqali ta'sir etish»ga, ularni siyosiy faoliyat jarayonida tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar. Bunda ijtimoiy-amaliy yo'nalishdagi siyosiy faoliyat sinflar, sotsial tabaqalar, guruhlarning siyosiy hukmronlik qilish yo'lida hokimiyat uchun olib boradigan xatti-harakatlarini

---

<sup>1</sup> A. Zohidov. Milliy mafkura: dastlabki saboqlar. //Muloqot, 1991, 12-son, 28-b.

bildiradi, ma'naviy-nazariy faoliyat esa ijtimoiy munosabatlarni sinfiy manfaatlar, dunyoqarash ruhi bilan fahmlash, anglash, muayyan siyosiy nazariyalar, ideallar, dasturlarni ishlab chiqish hamda ularni keng targ'ib qilishni nazarda tutadi.

Siyosiy faoliyatning yuqoridagi ko'rinishlariga «siyosiy ishlab chiqarish»ning muayyan turlari, ya'ni ijtimoiy-amaliy ishlab chiqarish va ma'naviy-nazariy ishlab chiqarish muvofiq keladi. Ijtimoiy-amaliy siyosiy ishlab chiqarish davlat, siyosiy guruhlar, partiyalar, siyosiy me'yorlar, shuningdek, siyosiy faoliyat tufayli tarkib topgan funksional tuzilmalardan iborat bo'ladi. Ma'naviy-nazariy siyosiy ishlab chiqarishga esa siyosiy mafkura, siyosiy qadriyatlar, ideallar, nazariyalar, dasturlar, siyosiy tajribalar va an'analar, siyosiy xulq andozalari, jamoatchilik fikri va boshqa hodisalar kiradi. Siyosiy madaniyat, shunday qilib, kishilar faoliyatining tarixan manfaatli va sinfiy, tabaqaviy jihatdan o'ziga xos shartlangan mahsuli bo'lib, siyosiy munosabatlarning sinflar, tabaqalar, shaxslar tomonidan faol o'zlashtirilish jarayonini aks ettiradi.

Siyosiy madaniyat tarkiban quyidagilardan iborat: mafkura, siyosiy tajriba va an'analar, siyosiy tashkilotlar, siyosiy faoliyat usullari.

Mafkura ma'naviy madaniyatning o'zagi sifatida kishilarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga belgilovchi ta'sir ko'rsatadigan, manfaat yo'lida faol va ongli kurashga da'vat etadigan g'oya va qarashlar tizimidir. Mafkura kishilar, ijtimoiy guruhlar, xalqlar, millatlar, siyosiy partiyalar va harakatlarning iqtisod, siyosat, davlat, ma'naviyat kabilarga nisbatan manfaatli-siyosiy, falsafiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy va boshqa qarashlari majmuidir. Mafkura, bir tomondan, jamiyat a'zolarining asosiy maqsad-muammolarini ifodalaydi, uning o'tmish va kelajagini bir-biri bilan bog'laydi, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladi, ikkinchi tomondan, kishilarni muayyan g'oyalarga ishontiradi, ularni uyushtiradi, safarbar etadi, ma'naviy-ruhiy jihatdan rag'batlantiradi, g'oyaviy tarbiyalaydi, harakat dasturi bo'lib xizmat qiladi<sup>1</sup>.

Hozirgi paytda respublikamizda milliy istiqlol mafkurasi tarkib topmoqda. Bu mafkura o'zida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mujassamlantiradi; o'zbek xalqining boy milliy madaniy merosiga tayanadi; milliy turmush tarzining barcha sohalarini aks ettiradi; qurilayotgan demokratik, adolatli, huquqiy erkin jamiyatning g'oyaviy himoyachisi rolini bajaradi.

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «O'zbekiston», 2000, 20, 43-b.

Uning asosiy tamoyillari haqida gap ketganda, qisqacha qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin: siyosiy sohada fikrlar xilma-xilligi, erkin saylovlar, demokratiya, vatanparvarlik, xalqparvarlik, umuminsoniylik; iqtisodiy sohada — xilma-xil mulkchilik, erkin xo'jalik faoliyati, erkin iqtisodiy munosabatlar; ma'naviy sohada — komil insonni tarbiyalash, e'tiqod erkinligi, milliy merosni avaylab asrash, vorislik, ma'naviyatga davlat homiyligi, tarbiyaning hayotiyiligi, ijodkorlik sohasida keng imkoniyatlar yaratilishi va h. k.

Mafkura mamlakatdagi sotsial-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyot jarayonlarini umumlashtirish, ijtimoiy yuksalish sohasida yangi yo'nalishlarni kashf etish, ayni vaqtda, boshqarish tizimini takomillashtirishni amalga oshiradi. U iqtisodiy, huquqiy, axloqiy va estetik g'oyalar bilan sug'orilgandir. Chunki kishilarning iqtisodiy manfaatlari, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni siyosiy ongda to'la gavdalanadi. Bunday manfaatlar ta'sirida kishilar nafaqat moddiy boyliklar, shu bilan birga ijtimoiy borliq to'g'risidagi tasavvurlarni ham yaratadilar.

Mafkura siyosiy qadriyatlarni o'z ichiga olib, quyidagilar orqali amal qiladi: siyosiy ideal, milliy davlatchilik va demokratiya tamoyillari; fuqarolar mas'uliyati va burchlari; sotsial adolat; vatanparvarlik; umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat. Mafkuraning qadriyatlari Respublika Konstitutsiyasida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi xujjatlarida, turli partiyalarning dasturlarida o'zining huquqiy ifodasini topgan.

Jamiyat siyosiy madaniyati tarkibida siyosiy tuzilmalar, siyosiy an'ana va siyosiy faoliyat usullari alohida o'rin tutadi. Siyosiy madaniyatni tarkib toptirishning muhim vositalaridan biri siyosiy axborot hisoblanadi. «Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar ommaviy axborot vositalari oldiga butunlay yangi vazifalarni qo'ymoqda. Matbuot aholida yangicha tafakkur va ongni shakllantirishda ta'sirchan qurol bo'lishi, kishilarning fikr va xohish-irodasining erkin, ammo xolis ifodachisi bo'lishi kerak... Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish yo'lining, islohotlar yo'lining faol targ'ibotchisi bo'lib qolishi kerak. Ayni paytda, ularning o'zi mohiyat jihatidan demokratik bo'lmog'i zarur»<sup>1</sup>.

Milliy mustaqillikning siyosiy ahamiyatini chuqur anglab etishda, o'tmish madaniy va ma'naviy qadriyatlarini har tomonlama o'rganish

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. // Xalq so'zi, 1996, 30 avgust.

va o'zlashtirishda milliy o'zlikni anglashning ahamiyati nihoyatda kattadir. Siyosiy tajribaga ega bo'lish mustaqil davlatimiz olib borayotgan siyosatning ahamiyatini chuqur anglab yetish jarayoni bilan bog'langan, binobarin, siyosiy tajriba siyosiy mafkura va madaniyatni rivojlantirishning muhim manbaidir. Chunonchi, buyuk sohibqiron Amir Temurning davlatchilik tajribalaridan keng foydalanish jamiyatimiz siyosiy-huquqiy madaniyati rivojiga katta hissa bo'lib qo'shiladi.

Siyosiy madaniyatning yana bir muhim unsuri siyosiy an'analaridir. Mustaqillik yillarida o'ziga xos milliy siyosiy an'analar tarkib topdi va tarkib topib bormoqda. Mustaqillik kuni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, Navro'z bayrami, qardosh respublikalar kunlarining nishonlanishi nafaqat madaniy, balki siyosiy an'ana tusiga ham kirib bormoqda.

I. A. Karimov respublika Oliy Majlisi VI sessiyasida so'zlagan nutqida aholining siyosiy madaniyati talablar darajasida emasligi, barpo etilgan siyosiy institutlar faoliyatining mazmuni, maqsadi-muddaosi xalqimizning milliy xususiyatlari va tafakkur tarziga mos bo'lishini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Darhaqiqat, siyosiy madaniyatning muhim tuzilmaviy elementi sifatida siyosiy institutlar muhim rol o'ynaydi. Binobarin, «jamiyatning ijtimoiy-siyosiy sohasida demokratik institutlarni shakllantirish siyosiy tizimni isloh qilishga va ijtimoiy hayotni demokratiyalash jarayonlariga jo'shqinlik baxsh etishga qaratilgandir»<sup>1</sup>. Siyosiy institutni madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etish shuni ko'rsatadiki, ular, bir tomondan, nafaqat iqtisodiy, balki madaniy omillar bilan bog'langan, ikkinchidan, ular siyosiy madaniyat hodisasi bo'lganligidan madaniyat to'g'risidagi umumiy tasavvurlarimizni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Eng muhim tashkiliy tuzilmalardan biri davlat sanaladi. Davlat siyosiy ishlab chiqarishning mahsuli sifatida o'ziga xos madaniy vazifani bajarad. Madaniy davlatning mohiyati uning iqtisodiyot sohasida olib borayotgan ustuvor siyosati bilan belgilanadi. Madaniy davlat o'z hayotini hozirgi davrda eng ilg'or davlatlar erishgan iqtisodiy madaniyat darajasida tashkil qiladi. Shuningdek, madaniy davlat jamiyatda yuz beradigan har qanday o'zgarishning qonunga asoslanishini taqozo etadi. Bu siyosiy madaniyat mohiyatini ifodalaydigan muhim belgilarni bildiradi.

Jamiyatning siyosiy madaniyat darajasi siyosiy faoliyat usullariga ham bog'liqdir, chunki siyosiy ong, siyosiy me'yorlar, siyosiy qarashlar

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. 172-b.

faoliyat tufayli madaniy yo'nalish oladi, mustahkamlanadi, inson va jamiyat hayotini madaniylashtiradi. Siyosiy faoliyat usullari asosida siyosiy jarayondagi munosabatlar amalga oshiriladi.

Siyosiy faoliyat shakllariga, avvalambor, tashkilotchilik, g'oyaviy-nazariy, g'oyaviy-tarbiyaviy sohalarni kiritish mumkin. Tashkilotchilik faoliyati rejalar va qarorlarni ishlab chiqish shakllarini, ya'ni ijroni tekshirish; kadrlarni tanlash va o'z o'rniga qo'yish, tarbiyalash; siyosiy tuzilmalar ustidan rahbarlik kabilarni o'z ichiga oladi.

G'oyaviy-nazariy faoliyat siyosiy mafkurani yaratishda ishtirok etish, g'oyaviy-tarbiyaviy faoliyat, targ'ibot va tashviqot, madaniy-tarbiyaviy ishlarda qatnashish kabilardan iborat bo'ladi.

Siyosiy madaniyatning mavjudligi shaklan jamiyatning siyosiy-madaniy boyligi (fondi) va amaldagi siyosiy madaniyatidan iboratdir. Jamiyatning siyosiy-madaniy boyligi deyilganda davlatni boshqarishning tarixiy tajribasi, siyosiy faoliyat vositalari, usullari, siyosiy bilimlarning zahirasi tushuniladi. Amaldagi siyosiy madaniyat esa jamiyat, sinf, shaxs siyosiy hayotida gavdalanadigan real madaniyatdir. Amaldagi siyosiy madaniyat amaliyot bilan bog'langan bo'lib, jamiyatning siyosiy-madaniy boyligini yanada rivojlantirishga, boyitishga, yangi tajribalarni umumlashtirishga asos bo'ladi.

Jamiyat siyosiy madaniyatida ijtimoiy guruhlar bilan shaxslarning siyosiy madaniyati o'zaro bog'langan holda namoyon bo'ladi. Jamiyat siyosiy madaniyati ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichiga xos siyosiy va ijtimoiy-psixologik qadriyatlar, siyosiy tuzilmalar, siyosiy faoliyat usullari kabilarning yig'indisidir. Shaxsning siyosiy madaniyati — bu individ tomonidan jamiyatning siyosiy, mafkuraviy va sotsial-psixologik qadriyatlarini o'zlashtirish, egallash va amalga oshirish tizimidir. Shaxs siyosiy faoliyatida ikki xil daraja, ya'ni, birinchidan, siyosiy madaniyatni bilish, ikkinchidan, uni amaliy faoliyatda qo'llash darajasi uzviy aloqada bo'ladi. Siyosiy madaniyat har ikkala darajaning yaxlit birligidan tarkib topadi.

Siyosiy madaniyat taraqqiyoti huquqiy munosabatlar bilan, demakki, huquqiy madaniyat bilan uzviy bog'langandir. Har qanday jamiyatning huquqiy tizimi negizini Konstitutsiya tashkil etadi. Konstitutsiya siyosiy hayot subyektlari o'rtasidagi aloqalarni tartibga solish bilan chegaralanmaydi, balki shu bilan birga, siyosiy munosabatlarning yanada takomillashuvi uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratadi. Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning besh tamoyillaridan biri — turmushimiz-

ning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta'minlashdan iborat, deb belgilangan. Huquqiy davlatni barpo etish, avvalambor, siyosiy-huquqiy madaniyatni tarkib toptirish, rivojlantirish va amalga oshirishdan iboratdir. Darhaqiqat, huquqiy madaniyatning darajasi yolg'iz qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan shunchaki xabardor bo'lish emas, binobarin, huquqiy madaniyat «qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir»<sup>1</sup>.

Demak, huquqiy madaniyat, bir tomondan, huquqiy ong, ikkinchi tomondan, huquqiy munosabatlar va, nihoyat, huquqiy faollikning yaxlit birlikda namoyon bo'lishini ifodalaydigan ma'naviy qadriyatlar tizimidir.

Shunday qilib, milliy mustaqillikka erishgan mamlakatimizda siyosiy madaniyatni tarkib toptirish istiqlool bergan buyuk ne'matlarning mohiyatini tushunishga, qadrlashga va himoya qilishga da'vat etilgandir. Jamiyatimiz siyosiy madaniyatining oliy maqsadi va tarixiy vazifasi kishilarimizning siyosiy madaniyati, ongini shakllantirish, faol siyosiy pozitsiyaga ega bo'lishini ta'minlash, istiqlool yo'lidan borayotgan davlatimizning kuch-qudratini yanada oshirishga qaratilgandir. Prezident I. A. Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishida, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma yig'ilishida so'zlagan nutqida qonunchilik hokimiyatini yanada takomillashtirish yuzasidan bildirgan fikrlari jamiyatimiz va fuqarolarimizning siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirishda nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi<sup>2</sup>.

## IQTISODIY MADANIYAT

Bozor munosabatlarini tarkib toptirish sharoitida iqtisodiy bilimlar, e'tiqodlar, fikrlash tarzi bilan faol ishlab chiqarish, iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik muhim omil hisoblanadi. Bu narsa iqtisodiy madaniyat tushunchasida o'z ifodasini topadi.

Iqtisodiy madaniyatning mazmuni va tarkibini yoritish iqtisod bilan madaniyat o'rtasidagi munosabat masalasini qarab chiqishni taqozo etadi. Bu ijtimoiy hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik ikki yoqlama, ya'ni bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatish xususiyatiga egadir.

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 189-b.

<sup>2</sup> I. A. Karimov. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. — T.: «O'zbekiston», 2005.

Bir qarashda milliy daromad bilan kishilarning ma'naviy qadriyat-lari o'rtasida bevosita aloqadorlik yo'qday tuyuladi. Biroq madaniyatning ijtimoiy hayotda tutadigan o'rni jihatidan fikr yuritadigan bo'lsak, bu aloqadorlikni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Madaniyat nafaqat hozirgi zamon kishilari va ijtimoiy tuzum tomonidan yaratilgan qadriyatlar va me'yorlar, balki shu bilan birga, uzoq vaqt davomida xalq tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar natijasi hamdir. Madaniyat o'zigacha bo'lgan qadriyatlardan bugun uchun foydali va kerakli bo'lganlarini tanlab oladi, ularni jamiyatda yuz berayotgan mohiyatli o'zgarishlar negizida yangilaydi, mazmunan boyitadi.

Odatda, madaniyatni jamiyatning xotirasi, deb ataydilar. Buning ma'nosi shuki, madaniyat bugungi iqtisodiyot (xizmatchilar, ishchilar, iqtisodiy tuzilmalar, munosabatlar va shunga o'xshashlar)ni mamlakat o'tmishida qo'lga kiritilgan taraqqiyot mezonlari bilan bog'laydi, o'tmish tajribalarini amaliy faoliyat tarkibiga olib kiradi. Chunonchi, madaniyat tizimida hunarmandlarning ilg'or an'analari saqlab qolinadi, shuningdek, madaniyat orqali muayyan jamoalar, iqtisodiy jihatdan baquvvat ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi barqaror munosabatlar, o'zaro iqtisodiy hamkorlik, rasmiy qog'ozlar va ko'rsatmalarga nisbatan an'anaviy hurmat ruhidagi munosabatlar targ'ib qilinadi.

Ko'rinadiki, madaniyatning iqtisodga, demakki, iqtisodiy madaniyatning jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlariga ko'rsatadigan ta'siri juda rang-barang va sermazmundir. Afsuski, yaqin o'tmishda kommunistik mafkura ta'sirida har ikkala ijtimoiy (ham iqtisod, ham madaniyat) tuzilma siyosatning qurboni bo'ldi. Iqtisodiy madaniyatning moddiy asosi va mohiyatini ishlab chiqarish vositalariga ijtimoiy egalik belgilab berdi, shaxs manfaatlari jamoa manfaatiga butunlay bo'ysundirildi, mehnatga haq to'lashda boqimandalik mafkurasini asos qilib olindi, oqibatda, shaxsning iqtisodiy tashabbuskorligi barham topa boshladi. Bu esa erkin ijodiy tafakkur bilan iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi birlikka putur yetkazdi, rasmiy buyruqbozlik manfaatlari ustuvorlik qildi.

Mustaqillik tufayli iqtisodiy madaniyatning mazmuni va mohiyati-da tubdan o'zgarish yuz berdi. I. A. Karimov yozgan ediki, «mulkchilik, ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish omillari, boshqarishni bozor va rejali tartibga solish mexanizmlari, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi va ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyat kabi boshqa tushunchalar umuman yangi mazmun kasb etmoqda»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. Bizdan obod va ozod Vatan qolsin. T.: «O'zbekiston», 1994, 3-b.

Milliy istiqlol jamiyat iqtisodiy madaniyatiga yangicha muhit baxsh etdi, uning mafkuraviy va siyosiy, g'oyaviy va partiyaviy tazyiqlariga barham berdi, iqtisodning siyosatdan ustuvorligi, qonun oldida barchaning bab-baravarligi, davlatning iqtisodiy sohada bosh islohotchi ekanligi, ijtimoiy muhofaza tamoyillari, yangi jamiyatga bosqichma-bosqich o'tish mezonlari, jamiyat va shaxs, shaxs va davlat munosabatlari yangicha asosga qo'yildi, bular esa iqtisodiy madaniyatning yangicha yo'nalishlarini belgilab berdi.

Ko'rinadiki, o'zbek jamiyatida yangicha iqtisodiy madaniyat tarkib topishi va rivojlanishi uchun real shart-sharoitlar yuzaga keldi. Biroq bu imkoniyatning voqelikka aylanishida sub'ektiv omillarning o'ziga yarasha o'rni borligi tabiiy bir hol. Buning uchun «kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish»<sup>1</sup> hamda ularni amalda qo'llash qobiliyatlarini tarkib toptirish, uni o'z faoliyati negiziga qo'ya bilish malakalarini tarbiyalash talab qilinadi.

Iqtisodni sog'lomlashtirish faqat iqtisodiy madaniyatni sog'lomlashtirish va rivoj toptirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli siyosat va mafkuraning tazyiqiga, madaniyatdagi konservatizm tendensiyalariga, xizmatchilar ruhiyatidagi mutelik asoratlariga, hokimiyatga sajda qilishlik kayfiyati kabilarga barham berish, fuqarolik va, ayni vaqtda, xo'jayinlik tuyg'usini shakllantirish va mustahkamlash iqtisodiy madaniyatni sog'lomlashtirishning negiziga aylandi. Nafaqat ma'naviy-axloqiy sohada, balki iqtisodiy faoliyatda ham «insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi»<sup>2</sup> — yangi iqtisodiy madaniyat shakllanishining mazmuni ana shundan iboratdir.

Iqtisodiy madaniyatning mohiyati, mazmuni va vazifalarini aniqlab olish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy madaniyat deyilganda kishilarning iqtisodiy bilimlari, e'tiqodlari va amaliy faoliyatlari, ularning o'zaro yaxlit tarzda ro'yobga chiqishi tushuniladi.

Iqtisodiy madaniyatning sohibi inson bo'lib, u o'z iqtisodiy faoliyati orqali iqtisodiy munosabatlar doirasiga kiradi. Iqtisodiy madaniyat tarkiban quyidagilardan ilorat: iqtisodiy ong, iqtisodiy faoliyat va iqtisodiy munosabatlar.

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. 18-b.

<sup>2</sup> I. A. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, mafkura. 74-b.

Iqtisodiy ong tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, avvalambor, kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi o'z o'rinlarini anglab yetishlarini bildiradi. Iqtisodiy ong ratsional bilimlarni, emotsional tuyg'ularni o'zida ifoda etadi. Hozirgi zamon ishlab chiqarish jarayoni, iqtisodiy munosabatlar kishilardan o'z bilim va malakalarini to'xtovsiz rivojlantirib, boyitib borishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy ongning muhim elementi e'tiqod hisoblanadi. Rivojlangan iqtisodiy ong, iqtisodiy bilimlarning muayyan darajasi o'z-o'zicha, mexanik tarzda ijodiy faoliyatga olib kelmaydi. Faoliyat ko'rsatishdan oldin inson o'z maqsadlarini aniqlab oladi: maqsad iqtisodiy manfaat, ehtiyoj va tajribalar bilan muvofiq kelmog'i kerak. Iqtisodiy bilimlarni baholash, ularni amaliyotda qo'llash, ya'ni bilimlar, manfaatlar, ehtiyojlar va tajribalar asosida faoliyat ko'rsatishning murakkab jarayoni amal qiladi. Buni anglab yetish jarayonida kishilar ongida muayyan tushunchalar to'planadi va tarkib topadi, bu esa faoliyatda sotsial yo'l-yo'riq, maqsadlarda esa aniq namoyon bo'ladi. Maqsad insonning ma'lum yo'nalishda, ma'lum vaziyatda muayyan usul bilan harakat qilishga tayyor turishini bildiradi.

E'tiqod islohotlar tufayli amalga oshirilayotgan siyosatni anglab yetishni, uni harakatga keltiradigan mayl, ishtiyoqni o'z ichiga oladi. E'tiqod inson faoliyatining izchil, mantiqiy, maqsadga muvofiq ravishda ro'yobga chiqishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy madaniyatda bilim va iqtisodiy qarashlarning o'rni haqida gap ketganda, iqtisodiy mafkura tushunchasi kelib chiqadi. Iqtisodiy mafkura iqtisodiy nazariya va iqtisodiy dasturni o'z ichiga olib, iqtisodiy munosabatlarning siyosiy madaniyat va huquqiy ongga ta'sir etishida muhim omil hisoblanadi. Iqtisodiy mafkura, umuman, mafkuraning tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy hayotni tashkil etish, iqtisodni boshqarish, iqtisodiy munosabatlar haqidagi qarashlar tizimidan iboratdir. Iqtisodiy mafkuraning negizida inson, jamiyat, sinf va tabaqalarning o'z iqtisodiy manfaatlarini anglab yetishini ifodalaydigan g'oyalar va qarashlar majmuasi yotadi.

Iqtisodiy faoliyat iqtisodiy madaniyatning muhim komponenti bo'lib, u «tirikchilikni ta'minlash usuli, uning vositalari majmuidir». Uning tarkibiga, eng avvalo, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish kiradi, chunki bu narsa faoliyat uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat mehnatni, balki mehnat mahsulini o'zlashtirishni ham o'z ichiga oladi. Inson iqtisodiy faoliyatning sub'ekti hisoblanadi. Iqtisodiy faoliyatdan ma'lum maqsad kutiladi, u ham bo'lsa, hayotiy ehtiyojlarni

qondirishdir. Uning aniq shakli xo'jalik yuritish bo'lib, uning asosida mehnat yotadi<sup>1</sup>.

Har qanday iqtisodiy fikr, har qanday yuksak ong faoliyatda o'z ifodasini topa olsagina iqtisodiy madaniyat hodisasiga aylanishi mumkin. Shu sababli ilg'or iqtisodiy tafakkur va ong insonning xatti-harakatlarida, iqtisodiy xulqi va odobida yuzaga chiqishi zarur.

Iqtisodiy odob — bu insonning iqtisodiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan izchil ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlari majmuidir. Iqtisodiy faoliyatning mazmunini anglash ijtimoiy-iqtisodiy odobning mohiyatini tushunishga yordam beradi. Chunonchi, korporativ etika degan tushunchani olib ko'raylik. U ma'lum korporatsiyaga tegishli, uning barcha a'zolari uchun majburiy bo'lgan xulq qoidalarini ifoda etadi.

Faoliyat maqsad, vosita, jarayon va uning natijalaridan tashkil topadi. Iqtisodiy tafakkur bilan iqtisodiy ong muayyan iqtisodiy odobning mayli va maqsadi hisoblanadi. Bunda kishilar o'z xatti-harakatlarida muayyan bilimlarga, iqtisodiy voqelikni tahlil qilishga, xo'jalik tajribalari, iqtisodiy bilimlar tarixiga hamda, ilg'or amaliyotga suyanadilar. Iqtisodiy ong shu ma'noda faoliyatning fikriy obrazidir.

Iqtisodiy madaniyat tarkibida iqtisodiy munosabatlar alohida o'rin tutadi. Ular obyektiv yo'singa ega bo'lib, umuman madaniyat, xususan, iqtisodiy madaniyatning moddiy negizini tashkil etadi, ijtimoiy, shu jumladan, iqtisodiy ongni belgilaydi, ularda o'z ifodasini topadi.

Iqtisodiy munosabatlarning mohiyati ishlab chiqarish darajasinigi-na emas, balki mulkchilik, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol muammolari, demakki, mulk, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol bilan bog'liq ravishda tarkib topadigan munosabatlarni aks ettiradi. Iqtisodiy munosabatlar, sodda qilib aytganda, mulkka asoslanib amal qiladigan munosabatlardir. Ular nafaqat moddiy, balki butun nomoddiy sohalarining ham zaruriy unsuri sifatida iqtisodiy faoliyat jarayonida yuzaga keladi, rivojlanadi, oqibat-natijada jamiyat iqtisodiy madaniyatining xarakterini belgilaydi.

Shuni aytish kerakki, kishilarning jamiyat iqtisodiy hayotining turli sohalarida maqsadga muvofiq ijodiy faoliyati, sifat jihatidan yangi natijalarga erishuvi iqtisodiy madaniyatning mazmunini tashkil etadi.

Jamiyat iqtisodiy madaniyati shaxs iqtisodiy madaniyati tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Shaxsning iqtisodiy madaniyati uning o'z-

---

<sup>1</sup> Qaralsin: A. O'lmasov, M. Sharifxo'jayev. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: O'qituvchi, 1995, 84-b.

o'zini kamol toptirishini ifoda etib, nafaqat madaniyat qadriyatlarini yaratish, boyitish va iste'mol qilish darajasini, balki bu jarayonda o'z erkinligini yanada yuqori, yangicha bosqichga ko'tarishni ta'minlaydi.

Shaxs iqtisodiy madaniyatining ahamiyati shundaki, u mehnat faolligini, uning oqilona ehtiyojlari va manfaatlarini, ularni harakatga keltiradigan mexanizmlarni tarkib toptiradi, oqibat-natijada iqtisodiy voqelikni qayta qurish va mukammallashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mehnat faolligida iqtisodiy madaniyatning ideal, ijtimoiy burch, e'tiqod, zaruriyat, mas'uliyat, iste'mol singari komponentlari aks etadi. Ijodkorlik bu yerda alohida rol o'ynaydi.

Shaxsning iqtisodiy madaniyati iqtisodiy bilimlar, e'tiqodlar va amaliy xatti-harakatlarning birligidir. U tarkiban o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- iqtisodiy bilimlarning muayyan darajasi (iqtisodiy bilimlar, ma'lumotlar, tasavvurlar yig'ilmasi);

- iqtisodiy bilimlarni amalda qo'llay bilish qobiliyatlari (yuksak onglilik, xo'jalik yuritishga qobiliyat, tashkilotchilik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik va h. k. ).

Iqtisodiy madaniyat quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- bilish funksiyasi. Bu funksiya iqtisod fanlarining holati, fan asoslarini tajribaga tadbiq etishning usul va yo'llarini bilib olishga asoslanadi. Hozirgi zamon iqtisodiy voqeligini bilish iqtisodiy qonunlarni egallash, iqtisodiy hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borish jarayonini chuqurlashtirishni nazarda tutadi. Iqtisodiy madaniyatni egallash orqali inson iqtisodiy hayot, jamiyatdagi yangiliklarni kashf etish, iqtisodiy munosabatlar tizimidagi uyg'unlikni anglab yetishi mumkin.

- dunyoqarash funksiyasi. Dunyoqarash bir qancha ma'naviy-ruhiy qatlamlarni o'z ichiga oladi. Ularning asosiylaridan biri iqtisodiy dunyoqarash bo'lib, u iqtisodiy g'oyalar, qarashlar, tasavvurlar tizimidan iborat. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida kishilarning dunyoqarashini tarbiyalash islohotlarni amalga oshirishning muhim ma'naviy omili hisoblanadi. Holbuki, «zarur shart-sharoitni yaratmay turib, odamlarni jiddiy o'zgarishlarga ruhan tayyorlamay turib, bozor munosabatlarining belgilarini o'ta jadallik bilan, sun'iy ravishda o'tkazish kutilgan natijalarni bermasligi u yoqda tursin, hatto bozor iqtisodiyotini qurish g'oyasiga putur etkazadi»<sup>1</sup>.

- tarbiyaviy funksiya. Bu funksiyaning ahamiyati shundaki, iqtisodiy madaniyatni egallash, uni e'tiqodga aylantirish inson faoliyatining

---

<sup>1</sup> Qaralsin: A. O'lmasov, M. Sharifxo'jayev. Iqtisodiyot nazariyasi. 84-b.

muhim omili hisoblanadi. Bilimlarning e'tiqodga aylanishidagi bosh harakatlantiruvchi kuch — bu ehtiyojlar va manfaatlar bo'lib, ular «kishilarning yashashi, mehnat qilishi va ma'lum iqtisodiy mavqega ega bo'lishi uchun iste'mol etilishi zarur mahsulotlar va xizmatlar majmui»ni ifodalaydi<sup>1</sup>.

Iqtisodiy e'tiqod kishilarning iqtisodiy faoliyatga nisbatan bo'lgan munosabatini bildiradi. Bilimlar insonlar tomonidan aql-idrok va yurakdan o'zlashtirilgan taqdirda e'tiqodga aylanadi. Iqtisodiy madaniyat bu jarayonda katta ahamiyat kasb etadi.

— amaliy funktsiya. Buni, odatda, ishlab chiqarish funksiyasi deb ham yuritiladi. Iqtisodiy madaniyat ma'naviy va amaliy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lib, u kishining xatti-harakatlariga, xulqiga chuqur ta'sir o'tkazadi, insonning ijtimoiy faolligini oshiradi, to'g'rirog'i, mehnatga, jamoa bilan munosabatni uyg'unlashtirishga, moddiy manfaatdorlikni har tomonlama asoslashga da'vat etadi. Iqtisodiy madaniyat konkret tashkiliy malaka va qobiliyatlarni o'stiradi, xo'jalik yuritishda hamma vaqt omilkorlikni, uning barcha zahiralarni ishga solish qobiliyatlarini oshiradi.

Prezidentimiz I. A. Karimov davlat qurilishi va iqtisodiy rivojlanishning ma'naviy kamolot, yuksak axloqiylik bilan uyg'un bo'lishi haqidagi konsepsiyani ilgari surar ekan, bunda iqtisodiy madaniyatni tarkib toptirish muhim omil hisoblanadi.

## AXLOQIY MADANIYAT

Axloqiy madaniyat jamiyat a'zolari tomonidan axloqiy me'yorlar, tamoyillar, ideallarni o'zlashtirish, ularni shaxsiy faoliyat qoidalariga aylantirish, amaliy jihatdan o'z xatti-harakatlarida, kundalik xulqi hayotida amalga oshirish darajasi bilan xarakterlanadigan tushunchadir. Demak, axloqiy madaniyat deganda, jamiyat, ijtimoiy guruhlar, individlar tomonidan axloqiy kamolot me'yorlariga erishish darajasi tushuniladi. Odatda, uni amaliy axloq deb ham yuritadilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, axloqiy kamolot me'yorlari kundalik turmushda, kishilar faoliyatida amal qiladigan va o'zlashtiriladigan axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog'langandir. Axloqiy madaniyat tarkiban axloqiy ong, axloqiy munosabat va axloqiy faoliyatni o'z ichiga oladi.

Axloqiy ong tarixan o'zgarib boradigan axloqiy munosabatlarni ifodalab, axloqiylikning sub'ektiv jihati bilan bog'langandir. Axloqning

---

<sup>1</sup> A. O'lmasov, M. Sharifxo'jayev. O'sha asar, 18-b.

hayotiy faoliyat ustidan nazorat qilish tabiatidan kelib chiqib, axloqiy ongning tabiati va o'ziga xosligini belgilash mumkin. Axloq kishilar oldiga shunday xatti-harakatlarni amalga oshirishni shart qilib qo'yadiki, uni burch deb ataydilar. Shuning uchun insonning tarixiy ehtiyojlari qat'iy amalga oshirilishi yoki oshirilmaslgi to'g'risidagi g'oyalar axloqiy tasavvurlar shaklida ifoda etiladi. Kishilarning ijtimoiy zaruriyatni anglab yetishi o'ziga xos axloqiy majburiyatga asoslanadi. Buning ma'nosi shuki, xatti-harakatlar ezgulik, olijanoblik, boshqalar oldida ma'naviy ustuvor bo'ladigan faoliyat tusini oladi. Shunday qilib, axloqiy ong voqea-hodisalarni va xatti-harakatlarni nafaqat zaruriyat, balki insoniy fazilat, qadriyat ekanligi jihatidan ham qarab chiqadi. Axloq inson oldiga yaxshilik va yomonlikdan birini tanlab olish masalasini qo'yadi, o'zining insoniylik fazilatlariga qarab chiqib inson ulardan birini ixtiyor etadi, amalga oshiradi. Shunga muvofiq axloqiy ong kishilarning xatti-harakatini, ijtimoiy hodisalarni baholaydi, shuningdek, axloqiy ong ularning kelib chiqishini emas, balki ularga o'z munosabatini ifoda etadi. Bu munosabat axloqiy baho kategoriyasi orqali namoyon bo'ladi.

Voqelikka va inson faoliyatiga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish axloqiy ongning muhim xususiyatidir. Demak, axloqiy ong o'ziga xos sohada amal qilib, kishilarning o'z xatti-harakatlarini muayyan maqsadlarga qanchalik yo'naltirganligi, ya'ni ularni erkin tanlash imkoniyatlarining nechog'liq keng va yuqori bo'lishiga asoslanadi. Bu ayni individual xulq sohasi bo'lib, shunga muvofiq tarzda axloqiy ong, ya'ni xulq-atvor ro'yobga chiqadi.

Axloqiy ong tarkibida axloqiy tuyg'uning alohida o'rni bor. Axloqiy tuyg'u mazmunan ijtimoiy hayotning turli tomonlariga insonning sub'ektiv, shaxsiy qarashi va munosabatini bildiradi. Masalan, muhabbat tuyg'usi, nafrat tuyg'usi, ishonch tuyg'usi, hamdardlik tuyg'usi, rashk tuyg'usi va boshqalar kishilar o'rtasidagi amaliy-axloqiy munosabatlarning ruhiy ifodasidan boshqa narsa emas. Demak, axloqiy tuyg'u kelib chiqishi va ahamiyati jihatidan ijtimoiy bo'lib, uning aksariyati insonning ijobiy va salbiy sifatlarini mujassam etadi, bu sifatlar esa axloqiy ong tarzida baholanadi, ya'ni shaxsninig axloqiy qiyofasini bildiradi.

Axloqiy tuyg'u e'tiqoddan nafaqat mazmunan, balki ruhiylik shakli bilan ham tafovut qiladi. Inson ongida tarkib topadigan insonparvarlik, vatanparvarlik, kelajakka ishonch, tushkunlik, millatchilik kabi tasavvurlar nafaqat aqliy-ratsional, shu bilan birga uning emotsional, dunyoni ruhiy his etishiga ham tegishlidir.

Nihoyat, shaxsning axloqiy o'z-o'zini anglashini tashkil etadigan holat (burch, mas'uliyat, vijdon, uyat, fazilat va h. k.)lar ham muayyan ruhiy kechinmalar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, burch hissi, mas'uliyat hissi, vijdonan ezilish hissi, uyat hissi va boshqalar. E'tiqodiga ko'ra faoliyat ko'rsatganda inson vaziyatni o'z bilimlari asosida tahlil etadi, ularni ijobiy yoki salbiy tarzda baholaydi. Biroq inson o'ziga taalluqli xususiy muammolarni hamma vaqt ham ijtimoiy- axloqiy tasavvurlar asosida tahlil etavermaydi. Inson shunday holatlarga ham duch keladiki, unda masalani zudlik bilan o'zi yechishi lozim bo'ladi. Bunday hollarda kutib o'tirishga vaqt ham, imkon ham bo'lmaydi. Bunda unga axloqiy tuyg'ular yordam berishi mumkin, inson ularga suyanib, amal qilib, voqealarga o'z ruhiy munosabatini bildiradi, g'ayriixtiyoriy ravishda yig'ilgan ruhiy tajribalar asosida yondashadi. Bu narsa hissiyotlar va da'vatlarda o'z ifodasini topadi.

Axloqiy munosabatlar axloqiy madaniyatning elementi sifatida ijtimoiy munosabatlarning alohida ko'rinishidir. U axloqiy faoliyat jarayonida kishilar o'rtasida tarkib topadigan o'zaro aloqalar yig'indisidir. Kishilar faoliyatidagi o'zaro axloqiy aloqalarning usuliga qarab, bu munosabatlar mazmuni va shaklini tasnif qilish mumkin.

Axloqiy munosabatlar mazmunan burch kategoriyasida to'laroq namoyon bo'ladi. Umumiy olib qarganda, insonning axloqiy burchi, majburiyati uning jamiyatga, boshqa kishilarga va o'z-o'ziga munosabatida aks etadi va uni shunga asosan tasnif qilish mumkin. Insonning jamiyat oldidagi burchi uning halol mehnat qilishi, o'z Vataniga, o'z kasbiga va oilasiga sodiqligi kabilarda aks etadi. Oilaviy turmush axloqi, ayollarga munosabati, sevgi, do'stlik, olijanoblik, baxt, jasurlik kabi hodisalarda insonning jamiyatga, boshqa kishilarga va o'z-o'ziga axloqiy munosabati mujassam bo'ladi.

Axloqiy munosabatlar shaklan tasnif etilganda axloqiy talablarni ko'zda tutadi. Bu talablar har bir kishining muayyan vaziyatda o'zini qanday tutishiga oid yo'l-yo'riqlari shaklida; kishilarning o'xshash shart-sharoitlardagi umumiy xatti-harakatlari (axloqiy me'yorlar) shaklida; ma'lum axloqiy fazilatlarining insonning o'zida tarkib topishi shaklida; axloqiy ideal shaklida ifodalanishi mumkin. Shuningdek, bu talablar hamma vaqt shaxsiy axloqiy munosabatlarning alohida ko'rinishi bo'lib, burch, mas'uliyat, sha'n, vijdon, fazilat kabilar tarzida yuzaga chiqadi.

Kishilar o'zaro hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatganda, bir-birlari bilan muayyan munosabatga kirishadilar, ijtimoiy intizomga bo'ysunadilar, qat'iy urf-odatlar, an'analar, ko'nikmalarni namoyon etadilar va

h. k. Bularning barchasida ikki jihat — obyektiv va sub'ektiv tomonlar o'zaro bog'langan bo'lib, ular bir-biriga o'tib turadi. Chunonchi, bu jarayonda insonning o'zi sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatsa, jamiyat va boshqa kishilar uning axloqiy faoliyatining obyekti bo'lishi mumkin. Biroq har bir inson ayni vaqtda boshqa odamlar, jamiyat axloqiy faoliyatining obyekti hamdir.

Axloqiy madaniyat tarkibidagi axloqiy faoliyatda inson yoki jamiyatning axloqiy ongi, axloqiy munosabatlari amaliy jihatdan yaxlit namoyon bo'ladi, axloqiy talablar, yuksak fazilatlar gumanistik mohiyat kasb etadi. Axloqiy faoliyat tarkiban quyidagilardan iboratdir: axloqiy bilimlarni egallash; axloqiy tuyg'ularni shakllantirish; o'z-o'ziga axloqiy talabchanlik; muayyan mehnat turlari bilan mashg'ul bo'lish; axloqiy tarbiyalanganlik va h. k.

Axloqiy madaniyat tarkiban yuqoridagi uch jihat (axloqiy ong, munosabat, faoliyat)ni o'z ichiga oladi va, ayni paytda, axloqning real ko'rsatkichi, axloqiylikning amaldagi me'yori sifatida yuzaga chiqadi. U nafaqat axloqiy tasavvur va me'yorlarning butun tizimini, balki jamiyat axloqiy tajribasining kishilar tomonidan faqat o'zlashtirilgan qismini, axloqiy bilimlarning amaliyot bilan reallashgan ko'lamini o'z ichiga oladi.

Abdulla Avloniyning yozishicha, axloqiy madaniyatning rang-ba-rang kategoriyalari mavjud. Binobarin, axloqiy madaniyat shunday ilmki, u kishilarni yaxshilikka undab, yomonlikdan qaytishga da'vat etadi, deydi u. «Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladigan kitobni axloq deyilur»<sup>1</sup>.

Anglashiladiki, axloqiy madaniyat tushunchasining negizida axloq turadi. Ma'naviy faoliyatning o'ziga xos mahsuli bo'lgan axloq yaxshilik va yomonlik, burch va adolatparvarlik kabi tushunchalar orqali amal qiladi. Bularga suyanadigan axloqiy baho kishilarning xulqi va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan axloqiy qoidalar va me'yorlarda ifodalanadi. Axloq, bir tomondan, axloqiy me'yorlar tizimidagi muayyan g'oyalar, qarashlar, tamoyillar, ikkinchi tomondan, kishilarning axloqiy fazilatlari, hissiyotlari va odatlaridir.

Shuni ta'kidlash kerakki, axloqning tarkibiy qismini tashkil etadigan qarashlar va tamoyillar, me'yorlar va qoidalar hamda axloqiy fazilatlar mohiyatan o'zida konkret tarixiy mazmun va muayyan ijtimoiy ma'-

---

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: «O'qituvchi», 1992, 11-b.

noni ifodalaydi. Bu mazmun, yuqorida aytilganidek, kishilar o'rtasida obyektiv tarzda amal qilinadigan munosabatlarda namoyon bo'ladi. Shu sababli alohida olingan u yoki bu jamiyatning axloqiy tamoyillari to'g'risida fikr yuritganda, ayni paytda, sotsial guruhlarining axloqiy talab va me'yorlari nazarda tutiladi.

Axloqiy madaniyat inson xulqining konkret shakli sifatidagina mavjud bo'ladi. U, yuqorida ko'rsatganimizdek, faqat kishilarning axloqiy ongidan iborat bo'lmay, aynan ularning xulqi orqali reallashadi. Shunga ko'ra, inson xulqining axloqiy madaniyati degan tushuncha mavjud. Insonning axloqiy xulq madaniyati u yoki bu axloqiy tamoyillar va talablardan emas, balki shu bilan birga, uning o'zi tomonidan o'zlashtirilgan axloqiy qarash va tasavvurlar, tuyg'u va odatlarning yig'indisidan iboratdir. Shunga ko'ra, shaxsning axloqiy fazilatlariga o'zi aytilgan so'zlariga qarab emas, balki qilayotgan ishlaridan kelib chiqib baho berish to'g'riroqdir.

Demak, axloqiy madaniyatni xulqning tashqi jihatlariga qarab belgilash unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Tashqi tomondan juda ham xushmuomala bo'lib ko'rinish ortida qandaydir g'arazli manfaatlar yotishi sir emas. Binobarin, insonning axloqiy madaniyati ichki mazmun bilan uning tashqi ifodalanishi o'rtasidagi uyg'unlikni taqozo etadi.

Axloqiy madaniyatning o'ziga xosligi uning vorisiylik qonuniyatlarida ko'zga tashlanadi. Buning ma'nosi shuki, yangi avlod o'zidan oldin yuzaga kelgan axloqiy qadriyatlardan ijodiy foydalanish imkoniga ega bo'ladi. Ma'lumki, ilk axloqiy tasavvurlar zardu'shtiylikning muqaddas kitobi — «Avesto» da, turkiy xalqlarning qadimgi bitiklarida, yozma va og'zaki adabiyotning rang-barang asarlarida, xususan, pandnoma, odobnoma kabilarda, buyuk allomalarning falsafiy merosida alolida o'rin olgan.

Jamiyatning axloqiy madaniyati mazmunan shaxs axloqiy madaniyatidan farq qiladi. Jamiyat axloqiy madaniyati axloqiy qadriyatlar va yo'nalishlar tizimini yaxlit va keng qamrovda ifodalaydi, shaxs axloqiy madaniyatida esa ana shu tizimning muhim jihatlari individual o'ziga xoslik bilan aks etadi.

Axloqiy madaniyatning bu ikki darajasi o'zaro bog'langandir. Jamiyat axloqiy madaniyatining taraqqiyot darajasi ko'p jihatdan shaxs axloqiy madaniyati barkamolligiga bog'liq bo'ladi. Boshqa tomondan, jamiyatning axloqiy madaniyati nechog'lik darajada boy bo'lsa, shaxs axloqiy madaniyati rivojlanishi uchun shunchalik qulay imkoniyat yuzaga keladi.

Endi shaxs axloqiy madaniyatining ba'zi tomonlari bilan tanishib chiqaylik:

Shaxsning axloqiy madaniyati quyidagilarning tarkibiy birligidan tashkil topadi:

— uning jamiyat axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirish va boyitish darajasi;

— insonning shaxsiy axloqiy intilishlari bilan ijtimoiy axloqiy talablar sohasidagi uyg'unlik. Bu narsa jamiyatdagi ustuvor axloqiy tamoyillar va me'yorlarga muvofiq ravishda shaxs axloqiy fazilatlarini shakllantiradi.

Shaxs axloqiy madaniyatining shakllanishi uning butun ichki olami bilan bog'langan. Bu ichki olam har bir insonda chuqur individual xarakterga ega bo'lib, asosan, uning muayyan hayot shart-sharoitlari, madaniy darajasi, psixologik belgilari va fiziologik xususiyatlari, didlari, intilishlari va boshqalar bilan belgilanadi. Shaxsning axloqiy olami uning o'z ehtiyojlarini eng avvalo, muayyan sohada faoliyat ko'rsatishga bo'lgan (masalan, sport bilan, badiiy havaskorlik bilan shug'ullanish va h. k. ) ehtiyojlarini ifodalab, tashqi olam bilan o'zaro ta'sir doirasida amal qiladi.

Shaxs axloqiy madaniyatining tarkib topishi va mukammallashuvi har doim o'z-o'zini nazorat qilishni, vijdonan o'z-o'ziga baho berishni ko'zda tutadi. O'z-o'zini baholashda nafaqat shaxsning ayrim xatti-harakatlari, balki uning bir butun faoliyati, shuningdek, axloqiy qarashlari va tuyg'ulari, qobiliyat va botiniy imkoniyatlari obyekt bo'lishi mumkin. Vijdon tushunchasida shaxsning axloqiy bilimlari, e'tiqodlari, malaka va mayllari, qadriyatlari va yo'l-yo'riqlari, demakki, uning tomonidan o'zlashtirilib va egallab olingan jamiyat axloqiy tamoyil va me'yorlari darajasi mujassamlashgan bo'ladi.

Insonning amaliy axloqiy mohiyati mehnatda, ijtimoiy faoliyatda, iste'molda va boshqa sohalarida ko'zga tashlanadi. Shaxs bu sohalarining har birida o'z xatti-harakatini axloqiy jihatdan tartibga soladi. Shaxsning axloqiy madaniyati keng ma'noda faol shakllangan axloqiy fazilatlar yig'indisini, shuningdek, uning muayyan ijtimoiy vazifani ado etishdagi zaruriy axloqiy-irodaviy belgilarini ham o'z ichiga oladi.

Shu ma'noda shaxs axloqiy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida uning kasb-korlik axloqi, shu jumladan, ishbilarmonlik fazilatlarini ham namoyon bo'ladi. Bularning ichida eng muhimlari — tashabbuskorlik, ishga ijodiy yondashish, mustaqillik, qat'iyat, tashkilotchilik, mas'ullik, layoqatlilik, saranjom-sarishtalik, sinchkovlik, halollik, intizomlilik hisoblanadi. Ularning har biri xohlagan ixtisos sohasida amal qilishi

mumkin. Masalan, saranjom-sarishtalikni olib ko'raylik. Sarishtalik axloqiy fazilat sifatida muhandis-konstruktor, transport haydovchisi, huquqshunos, mashinist, shifokor, talaba va boshqalar faoliyati uchun ham zarurdir.

Mehnat turlari qanchalik rang-barang bo'lmasin, sarishtalik hamma joyda shaxsning axloqiy fazilati sifatida bir xil vazifani bajaradi. Shaxs axloqiy madaniyati shakllanishining shartlaridan biri ham har bir kishida ixtisoslikdan kelib chiqqan holda, jamiyat axloqiy talablarini anglab yetish, uni ixtisoslikning axloqiy tamoyillariga uyg'unlashtirishdan iboratdir.

Shu sababli, kishilarni axloqiy jihatdan tarbiyalash muhim vazifa-dir. Tarbiyaviy ishlarning murakkabligi shundaki, u tashqi axloqiy omil bo'lib, har bir insonga individual tarzda, ya'ni uning turmush tajribalari, xarakter xususiyatlari, axloqiy yo'nalishlari qamrovidan o'tib ta'sir qiladi. Shunday ham bo'ladiki, insonning axloqiy-psixologik mayllari tashqi ta'sirlarga salbiy munosabatda bo'ladi. Uni bartaraf etishda insonning shaxsiy faolligi hal qiluvchi rol o'ynaydi — buning-siz o'z-o'zini tarbiyalab bo'lmaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash insonning o'ziga nisbatan axloqiy munosabatini tartibga soladi, undagi salbiy qiliq, xatti-harakat va odatlarning bartaraf etilishiga olib keladi, ijtimoiy talablarga javob beradigan sifat-larni rivojlantiradi, ayni vaqtda jamoatchilik xulqi, mehnatga munosabat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni tarkib toptirish va rivojlantirishga qaratiladi.

O'z-o'zini tarbiyalash jamiyat axloqiy tamoyillarini va axloqiy bilimlarni shaxsiy e'tiqodga, axloqiy xulq malakasi va odatlariga faol aylantirishdan iboratdir. Shaxsning axloqiy kamolotga erishuvi uning o'z-o'ziga talabchanligi, o'z o'ziga tanqidiy yondashuvi, o'z-o'ziga intizomli munosabatda bo'lishi demakdir. Bular boshqa tashqi ta'sirchan omillar bilan bog'liq holda shaxs axloqiy madaniyati shakllanishining muhim negizi bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsning axloqiy madaniyati tarkiban quyidagilardan iborat:

— axloqiy tafakkur madaniyati: «axloqiy baholash qobiliyati», axloqiy bilimlardan foydalanish qobiliyati, malakasi; yaxshilik bilan yomonlikning farqiga borish qobiliyati; har qanday sharoitda ustuvor axloqiy tamoyillarni qo'llab-quvvatlash;

— tuyg'ular madaniyati: insondagi axloqiy ta'sirchanlik, axloqiy hamdardlik, ustuvor axloqiy talablarni chuqur his etish layoqati;

— xulq madaniyati: insonning axloqiy tajribasida fikr va tuyg'ular birligiga erishish, namunaviy axloqiy andoza, kishilar xatti-harakatida ularni qo'llay bilish darajasi;

— odob (etiket): shaxs xulqi shakllarini qat'iyalashtiradigan qoidalar bilan o'zaro muloqotda amalga oshirish darajasi.

Axloqiy madaniyatning asosiy maqsadi ma'naviy va jismoniy jihatdan kamol topgan insonni tarbiyalashdan iboratdir. Mustaqillik sharoitida milliy istiqlol g'oyalari bilan sug'orilgan axloqiy madaniyat «sog'lom avlod»ni voyaga yetkazish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. «Sog'lom avlodni tarbiyalash — buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir»<sup>1</sup>.

## ESTETIK MADANIYAT

Estetik madaniyat insonning ma'naviy-hissiy faoliyati bilan uzviy bog'langan munosabat va qadriyatlar tizimini ifodalaydi. Estetik madaniyat sohasi insonning voqelikka munosabatida uning o'z-o'zini erkin namoyon etishi bilan bog'langandir. Bu erkinlikning mohiyati shundaki, inson tabiat narsalarini qayta ishlashda uning o'z jinsi va turiga mos me'yorni topa oladi va gavdalantiradi.

Estetik madaniyat jamiyat madaniyatining ixtisoslashtirilgan qismi bo'lib, uning holatini san'at va estetik munosabatlar rivojlanishi bilan bog'lab tushuntirish mumkin. Estetik munosabat va unga muvofiq keladigan estetik qadriyatlar tizimi estetik madaniyatning barqaror jihatlarini hisoblanadi. Estetik madaniyatning xususiyatlari esa uning negizini tashkil etuvchi faoliyatning o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, faoliyat deyilganda insonning olamga nisbatan predmetlar bilan bog'langan munosabati tushuniladi. Faoliyat tufayli inson tabiatni takror hosil qiladi, o'zgartiradi, binobarin, faoliyat asosida insonning ijodkorlik qobiliyati yotadi. Faoliyat inson mavjudligining ijtimoiy usuli bo'lib, ma'naviy-moddiy, intellektual jarayonlarni o'z ichiga oladi. Faoliyat qo'l harakatiga o'xshash fikrlar yo'nalishini ham, inson xulqi qoidalariga o'xshab ketadigan bilish jarayonini ham ifoda etadi.

Faoliyat amal qilmog'i uchun quyidagi uch jihat zarur: faoliyat sub'ekti, faoliyat obyekti, faoliyat jarayoni. Faoliyatning sub'ekti obyekt yoki boshqa sub'ektlarga yo'naltirilgan faol jihatlar majmuidir. Shu ma'noda muayyan shaxs, u yoki bu ijtimoiy guruh va, nihoyat, jamiyatning o'zi ham faoliyat sub'ekti bo'lishi mumkin.

Estetik faoliyatning sub'ekti estetik qobiliyat, ijodiy erkin mushohada va obrazli fikrlash layoqatiga ega, muammoli holatlarda erkin xatti-

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 5-b.

harakat ko'rsata oladigan inson hisoblanadi. Sub'ekt o'zigacha mavjud va tayyor estetik qadriyatlarni «fahmlash» bilan chegaralanmaydi, aksincha, har safar predmetni u o'z tasavvuri va idealiga muvofiq qayta ishlaydi. Estetik faoliyat jarayonida sub'ektning estetik ehtiyojlari takomillashib, boyib boradi.

Sub'ektlarning faolligi yo'naltirilgan jihatlar yig'indisi faoliyat obyektni tashkil etadi. Tabiat predmetlari, ijtimoiy hodisalar, insonning o'zi shunday obyekt bo'la oladi. Bordi-yu sub'ektning harakati uning o'z-o'ziga qaratilgan bo'lsa (masalan, o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi anglash kabi), unda sub'ekt ayni vaqtda obyekt o'rmini ham bosishi mumkin. Faoliyat jarayoni, borliqning asosiy qonuniyatlari (yaxlitlik, mutanosiblik, uyg'unlik, me'yoriylik va boshqalar), ularning tashqi ifodalari (yorqinlik, ifodaviylik va boshqalar), ijtimoiy taraqqiyot qonunlari (ijtimoiy ravnaq, erkinlik, insonparvarlik va boshqalar) estetik faoliyatning asosini tashkil etadi. Tabiiyki, bu xossalar tashqarida yotmaydi, aksincha, ularni aniqlamoq uchun maxsus faoliyat ko'rsatish kerak. Estetik faoliyat obyekti ana shunday vazifani bajaradi.

Faoliyat sub'ekt tomonidan obyektни o'zlashtirish darajasini ifodalaydigan ko'rsatkichdir. Demak, faoliyat sub'ektning obyektga munosabati tarzida yuzaga keladi. Sub'ektning maqsadiga ko'ra faoliyatning bir necha turlari, masalan, qayta o'zgartiruvchanlik, bilish va boshqalar mavjud bo'ladi. Faoliyat jarayonida qo'llanilayotgan vositalarga qarab, u moddiy-amaliy, ma'naviy-amaliy turlarga bo'linadi. Shuningdek, faoliyat ishlab chiqarish va iste'molchilik tarzida ham amalga oshiriladi.

Faoliyatning asosiy vazifasi insoniyat jamiyati mavjudligini ta'minlash va uning tadrijiy rivojlanishiga xizmat qilishdan iboratdir. Boshqacha aytganda, jamiyat mavjudligi va yashab turishi inson turmushining zaruriy shartidir. Binobarin, inson faoliyati yashash uchun real muhitni — «ikkinchi tabiat»ni yaratish va mukammallashtirishga qaratiladi. Bordi-yu hayvonning xatti-harakati asosan uning o'z jismoniy mavjudligi (organizmi)ni muhitga moslashtirsa, inson faoliyati tabiatni, tevarakatofni o'z maqsadlariga muvofiq ravishda o'zgartiradi va qayta yaratadi.

Estetik faoliyat ham mohiyatan ana shunday xususiyatlarga ega bo'lsa-da, muayyan tomonlari bilan ulardan ajralib turadi. Ishchi yoki olimning mehnati estetik xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Biroq bu yerda estetik maqsad asosiy narsa emas. Shuningdek, inson faoliyati va xulqining juda ko'p hodisalarida estetik maqsad amaliy niyatlarni yuzaga chiqarishda yordamchi vosita rolini bajarishi mumkin. Injener faoliyatidagi asosiy niyat — loyihaning mukammal va pishiq bo'lishi,

olimnikida — nazariya mukammalligini ta'minlaydigan izchillik, ishchinikida — mehnat mahsuloti sifatini oshirishdagi go'zallik faoliyat natijasi hisoblanadi.

San'at sohasida bu masala boshqacharoq ma'no kasb etadi, ya'ni bu yerda estetik maqsad mustaqil bo'ladi, go'zallik va mukammallikni yaratish san'atdagi asosiy, yagona maqsaddir. Shu sababli, san'at orqali kechadigan faoliyat insonni tarbiyalashi, uni kurashga chorlashi, fikrini uyg'otishi, his-tuyg'ulariga ta'sir etishi, kuldirishi yoki yig'latishi mumkin. Demak, estetik faoliyat mutanosiblik (garmoniya), go'zallik va mukammallikni maqsadga muvofiq ravishda in'ikos etish, bilish va yaratishni bildiradi. Shunga ko'ra, qadriyatlarni yaratish va insonni go'zal qilib shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyatni estetik faoliyat deyish mumkin.

Yo'nalishi va predmetiga qarab estetik faoliyatni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

— predmetli muhitni estetik jihozlash, ya'ni moddiy ishlab chiqarish sohasida estetik faoliyat — dizayn; turmush sharoitlarini yaratishda badiiy-amaliy faoliyat; inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy borliqni badiiy jihozlash; buket — guldasta tuzish san'ati; xalq amaliy san'ati va h. k.

— insonni estetik jihatdan tarbiyalash. Bunga xulq estetikasi; turmush estetikasi; hordiq chiqarish va sog'liqni tiklash madaniyati; tabiatga sog'lom estetik munosabatni tarbiyalash; shaxs estetik tarbiyasida milliy madaniyatning roli; jismoniy tarbiya va sport sohasida estetik faoliyat.

— san'at asarlarini yaratish. Bu san'atkorning ijodiy qobiliyati; hayot hodisalarini badiiy hodisalarga aylantira olish iste'dodi; san'atkorning o'ta kuzatuvchanligi va xotira quvvati; inson ichki dunyosini tushuna olishi, psixologik jarayonlarning inson tashqi qiyofasida namoyon bo'la olishini chuqur anglab yetish; iste'dod — talant kabilarni bildiradi.

Estetik faoliyatni shakl jihatidan ikki katta turga bo'lish mumkin. Bulardan:

— birinchisi — estetik faoliyatning fikriy, yoki, nazariy shakli. Bunga estetik ongning oddiy hamda nazariy ko'rinishlari — estetik kechinma, mushohada, did, ideal, qarashlar va boshqalar kiradi;

— ikkinchisi — predmetli-amaliy ko'rinishdagi estetik faoliyat shakllari. Bu asosiy estetik g'oyalar, me'yorlar, tasavvurlarni konkret predmetlarda, san'at asarlarida, madaniyat qadriyatlarida amaliy jihatdan gavdalandirishdan iborat.

Har qanday faoliyatda bo'lgani singari estetik sohada ham muayyan ehtiyoj asosiy rol o'ynaydi. Inson faoliyatining tabiati ana shu ehtiyojga bog'liq bo'ladi. Estetik ehtiyojning umumiy belgisi shundaki, u inson faoliyatining barcha sohalarini, ijtimoiy hayotning butun jabhalarini

qamrab oladi, ular orqali o'zini namoyon qiladi. Tor ma'noda barcha qadriyatlarni estetik idrok etish, baholash zaruriyatini ruhan sezish, insoniy faoliyat sohalarida mukammallikka intilish estetik ehtiyojni qondirishga qaratiladi. Estetik faoliyatga ham shu xususiyat xosdir. Har qanday faoliyat insonning mohiyatli kuchlari erkin ifodalanishini bildirar ekan, demak, bu faoliyat estetik faoliyat darajasiga ham ko'tarilishi mumkin. Shu ma'noda estetik faoliyat har qanday konkret faoliyatning «insoniylashuv» belgisidir. Bu narsa san'atda ustuvor o'rin tutadi.

Jamiyatning estetik madaniyatini quyidagilar tashkil etadi: tabiat, turmush, ijtimoiy munosabatlarni estetik o'zlashtirish jarayonlari va natijalari; san'at taraqqiyotining darajasi; ijtimoiy tabaqa, guruhlarining estetik qarashlari, didlari va manfaatlari holati; nafasat tarbiyasi va amaliyoti hamda kishilarning sotsial-estetik faollik darajasi.

Estetik madaniyat qadriyatlarini o'zlashtirish shaxsiy va ijtimoiy tajribaning o'zaro aloqadorligi negizida amalga oshadi, unda shaxsning estetik dunyoqarashi, qadriyatlarga tanlab munosabatda bo'lish malakalari, go'zallik va mukammallik to'g'risidagi tasavvurlari, predmetli olam, san'at qadriyatlarini idrok etish shakllari, estetika, san'atshunoslik to'g'risidagi bilimlari muhim omil hisoblanadi. Shaxsning estetik madaniyati, shunday qilib, estetik qadriyatlarni yaratish, o'zlashtirish va iste'mol qilish usullaridan tashkil topadi.

Estetik madaniyatda badiiy faoliyat alohida o'rin tutadi. Estetik madaniyat bilan badiiy madaniyat o'rtasidagi umumiylik va tafovutlar masalasi shundan kelib chiqadi. Badiiy madaniyat estetik madaniyatning o'zagi hisoblanadi, biroq ular aynan teng ma'noda ishlatiladigan tushunchalar emas. Agar estetik omil madaniyatning boshqa turlarida ahamiyati jihatidan ikkinchi darajali o'rinda tursa, badiiy madaniyatda u ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida aytilganidek, insonning moddiy-texnikaviy yoki ilmiy sohadagi faoliyatida ham estetik jihatlar mavjud, biroq bu sohalarining mohiyati estetik kategoriya bilan o'lchanmaydi. Badiiy madaniyatning tabiati va mohiyatini esa estetik faoliyatni hisobga olmay turib tushunish mumkin emas. Boshqacha aytganda, estetik qimmati bo'lmagan badiiy asar haqiqiy badiiy madaniyat hodisasi bo'la olmaydi. Gnoseologik (bilish) yoki tarbiyaviy jihatdan, masalan, roman yoki badiiy film nechog'lik dolzarb mavzuga bag'ishlanmasin, estetik talablarga javob bermasa, u haqiqiy ma'no kasb etmaydi. Shu ma'noda turg'unlik yillarida vujudga kelgan ko'plab g'oyaviy saviyasi past, «xom» asarlar badiiy madaniyatga faqat rasmiyatchilik nuqtai nazardan tegishli bo'lgan, holos.

Ikkinchi tomondan, badiiy madaniyat nafaqat estetik, balki diniy, axloqiy, bilish, tashkiliy madaniyatlarning ham xususiyatlarini o'zida gavdalandiradi. Aytish mumkinki, badiiy madaniyat sohasida mehnat madaniyati (ijodiy faoliyat madaniyati sifatida) va iste'mol madaniyati (badiiy qadriyatlardan foydalanish madaniyati sifatida) ham o'z ifodasini topishi mumkin. Badiiy adabiyotda, tasviriyl san'atda, musiqada faqatgina estetik emas, shu bilan bir qatorda, diniy, gnoseologik, tashkiliy, axloqiy ehtiyojlar va qobiliyatlar ham amal qiladi. San'atning ko'p funktsiya bajarishi va ko'p ma'noli ekanligining boisi ham ana shunda.

San'atda ezgulik, adolat, jasurlik kabi axloqiy g'oyalar o'z badiiy ifodasini topib, axloqiy madaniyat bilan o'zaro aloqaga kiradi. Haqiqiy insonparvar san'at jamiyatning axloqiy muammolarini yoritish bilan cheklanmaydi, balki shu bilan birga, ularni o'ziga xos tarzda o'quvchi yoki tomoshabinga etkazadi, san'at muxlislarining ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi. Bugina emas, insonni yanada yuksak axloqiy xatti-harakatlar ko'rsatishga da'vat etib, tashkiliy madaniyat funktsiyasini ham bajaradi. Ko'pgina badiiy asarlarning maxsus ravishda kishilarni tarbiyalashga mo'ljallab yozilganligi, ularning ijtimoiy-tashkiliy uyushqoqlikka da'vat etishi ma'lum. Chunonchi, harbiy marshlar, davlat va partiya madhiyalari, cherkov musiqalari, siyosiy qo'shiqlar va siyosiy felyetonlar ana shunlar sirasiga kiradi. Xullas, estetik va badiiy madaniyat o'zaro bir-biri bilan bog'langan, ana shu asosda jamiyat hayotida muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qiladi.

Milliy mustaqillik sharoitida ma'naviy madaniyatning barcha unsurlari singari estetik madaniyatning ham ahamiyati ortib bormoqda.

Birinchidan, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kishilarning ijtimoiy va shaxsiy fazilatlarini, ularning ongliligi, ijodiy faoliyatining erkin namoyon bo'lishi uchun real imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ikkinchidan, shaxsiy manfaatlarining o'ziga xos o'rin tutishi negizida kishilarning ijodkorlik faoliyatida samaradorlik ortmoqda, ishlab chiqarishni tashkil etishda shaxsiy tashabbuskorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik fazilatlarini keng namoyon bo'lmoqda.

Uchinchidan, ishlab chiqarish munosabatlarining yanada taraqqiy etishi, jamiyatni boshqarishda demokratik qadriyatlarning ustuvor o'rin tutishi, kishilar faoliyatining sifat jihatidan takomillashuvi estetik madaniyat rivoj topishiga olib kelmoqda.

To'rtinchidan, ishlab chiqarish sohasida xorijiy firmalar bilan qo'shma korxonalarning tashkil etilishi, jahon ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti yutuqlarining O'zbekistonga kirib kelishi, ishlab chiqarishni yangi

(elektronika, mikroelektronika, hisoblash mashinalari, kompyuterlar, qulay avtomatlashtirish tizimi va boshqalar) texnika bilan qurollantirish ishlab chiqaruvchilarda sotsial-psixologik, professional, axloqiy-estetik sifat va fazilatlarni tarkib toptirishni taqozo etadi. Jahon bozoriga mahsulot olib chiqish, o'ziga mos va o'ziga xos o'rin egallashning mezonlaridan biri hisoblanib, ishlab chiqarish sohasida sifat mukammalligi va estetik barqarorlikka erishish hisoblanadi. Bunday ijtimoiy vazifani hal etishda estetik madaniyatning roli kattadir.

## FAN

Ma'naviy ishlab chiqarishning mahsuli bo'lgan fan insonning mohiyatli kuchlarini o'zida ifoda etib, madaniyat hodisasi sifatida namoyon bo'ladi. Fan madaniyat hodisasi deyilganda, birinchi navbatda, uning bilimlarni ishlab chiqish shakli ekanligi nazarda tutiladi. Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, har qanday tasavvur va bilimlar singari fan ham ijtimoiy amaliyot, ijtimoiy ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan.

Amaliyot tufayli tug'ilgan bilimlar dastavval ayrim hodisalarni qayd qilish, ularning tashqi jihatlarini tavsiflash bilan chegaralanadigan kundalik, oddiy, ilmiy bo'lmagan tasavvurlar tarzida namoyon bo'ladi.

Fan esa narsa-hodisalarni vujudga keltirgan sabablarning mohiyatini ochishga, ular o'rtasidagi ichki aloqalarni aniqlashga qaratiladi. Tabiiyki, narsa-hodisalar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar o'ta rang-barang shakllarda yuz berib, ular muvaqqat, favqulodda, nomuhim bo'lishlari mumkin, ilmiy bilish esa ulardan eng muhimlarini, barqarorlarini, mohiyatni ifodalaydiganlarini ajratib oladi. Aloqa va munosabatlarning bunday toifasi odatda *qonun* nomi bilan yuritiladi.

Fan voqealar tizimini belgilaydigan obyektiv qonunlarni, juda uzoq va yaqin o'tmishdagi voqea-hodisalar mohiyatini tushuntirib, ularning ilmiy manzarasini tiklaydi. Fan voqelikning obyektiv qonunlarini kashf etib, fan kishilarning bugungi kun haqidagi bilimlarini kengaytirish bilan birga, tabiat va jamiyatda kechadigan jarayonlarni nafaqat tushuntiradi, balki aql «nazorati»dan o'tkazadi. Nihoyat, fan obyektiv qonunlarni bilish asosida voqelikning juda rang-barang sohalari va, umuman, ertangi kun haqida bashorat ham qilishi mumkin.

Shunday qilib, fan tadqiqot bilan uzviy bog'langan ijodiy faoliyat bo'lib, buning natijasida tabiat, jamiyat va tafakkur haqida yangi bilimlar hosil qilinadi. Binobarin, fan yangi bilimlar hosil qilishning sub'ektlari, obyektleri, barcha sharoitlari va jihatlarini o'z ichiga oladi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

- olimlar, ularning bilimlari va qobiliyatlari, malakasi va tajribasi;
- ilmiy, aqliy mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi;
- ilmiy muassasalar, eksperimental va laboratoriya uskunolari;
- tadqiqotning ilmiy uslublari, tushunchalari va ilmiy informatsiya tizimi;

- ilmiy faoliyat natijasida yuzaga keladigan bilimlarning butun ko‘lami va yig‘indisi va h. k.

Tarixiy taraqqiyot shundan dalolat beradiki, fan ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi hamda, olamni bilish inson faoliyatining alohida turiga aylanishi mahsulidir.

Fanning paydo bo‘lishini ta‘minlagan zaruriy shart-sharoitlar dastavval Qadimgi Sharq mamlakatlari — Misr, Vaviloniya, Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyoda yuzaga kelganligi tarixdan ma‘lum. Bu yerda dastavval tabiat va jamiyat to‘g‘risida shakllangan tasavvurlardan umumiy xulosalar chiqarishga ehtiyoj tug‘ilgan, oqibatda matematika, astronomiya, mantiq, axloqshunoslikning ilk namunalari paydo bo‘lgan. Sharqda erishilgan bunday yutuqlar eramizdandan oldingi IV asrdan boshlab qadimgi Yunonistonda yanada boyitiladi, tizimga solinadi, ijodiy rivojlantiriladi.

Qadim zamonlardan boshlab fanning asosiy funksiyasi olamni tushuntirishga yo‘naltirilgandir. Olamni bilish bilan shug‘ullanish negizida insonning dunyoni idrok etish doirasi kengayib, o‘zini tabiatning bir bo‘lagi sifatida tushunish haqidagi tasavvurlari ham chuqurlashadi. Fan taraqqiyotining dastlabki davrlariga xos bunday mushohadakorlik holatlari keyinchalik yirik ishlab chiqarish sohasining keng yo‘lga qo‘yilishi, industrial rivojlanish miqyoslarining o‘sib borishi oqibatida cheklana boradi, endi fan inson va jamiyatning ishlab chiqarish faoliyatini shunchaki ilmiy qayd etuvchi emas, balki uni harakatga keltiruvchi va taraqqiyotini belgilovchi omillardan biriga aylanadi. Bu jarayonda tabiiyotshunoslik fanlari majmui va tegishli amaliy tadqiqotlarning yetakchilik mavqei markaziy o‘rin egalladi.

Fan ilmiy bilishga asoslanadi, uning asosiy belgilari nimalarda ko‘rinadi? Ilmiy bilish haqiqat tushunchasi bilan uzviy bog‘langan, boshqacha aytganda, fan — haqiqatlar yig‘indisidan iboratdir. Inson aqli ilmiy bilishning asosiy quroli hisoblansa ham, u suyanadigan dalillar, ma‘lumotlar, g‘oyalar, nazariyalar, konsepsiyalar obyektiv mazmunga egadir, binobarin, ular insonni o‘rab olgan olamni, ro‘y beradigan hodisalar va jarayonlar qay tarzda mavjud bo‘lsa, o‘shanday in‘ikos etadi. Bilimlarning obyektivligi, haqiqiyliги ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida

tekshirib olinadi. Amaliyot sinovidan o'tgan, shu jarayonda tasdiqlangan bilimlarga haqiqat hisoblanadi.

Biroq har qanday haqiqat, shuningdek, ishonarli va obyektiv bilimlar ham ilmiy bo'la olmaydi. Hech qanday ilmiy qimmatga ega bo'lmagan siyqasi chiqqan hodisani qayd etish ham haqiqat belgisiga ega bo'lishi mumkin. Haqiqat tizimiylik belgisiga ega bo'lgan taqdirdagina ilmiylik kasb etadi. Darhaqiqat, qismlarga bo'lingan haqiqiy dalillar (ular qanchalik ko'p bo'lmasin) hali ilmiy bilim degani emas. Bilimlarning tizimiyliigi ham o'z-o'zicha ularning haqiqat ekanligiga kafolat bera olmaydi. Masalan, din g'oya va tamoyillar tizimiga egadir, biroq u fan o'rnini bosa olmaydi. Fanni alohida ajratib turgan narsa unda obyektiv haqiqat bilan tizimiylikning uzviy birligidir.

Fan hodisalarni tasnif qilib, muayyan tamoyillar asosida tizimga kiritib umumlashtiradi. Ilmiy bilim umumlashtiruvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, shu bilan bilishning boshqa shakl va usullaridan ajralib turadi. Umumiylik, umumlashtirish xususiyati har qanday fanning diqqat markazida turadi, u alohidalik va xususiylikdan umumiylikni keltirib chiqaradi, uni tushunchalar va kategoriyalarda ifodalaydi. Shubha yo'qki, umumiylikni, zaruriylikni, qonuniylikni ajratib olish uchun xususiy va tasodifiy hollardan mavhum fikrlashga qarab borish lozim. Mavhum fikrlashsiz hech qanday umumlashtirish mavjud emas, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar esa ilmiy bilishning asosiy qurollaridan bo'lib, abstraksiya — mavhum fikrlashning ifodasidir.

Umumlashtirish va mavhum fikrlash ilmiy bilishga xos ekan, tabiiyki, u nazariy bilish hisoblanadi. Demak, ilmiy bilishning navbatdagi belgisi nazariy xulosalar chiqarish bilan bog'langandir. Empirik dalillar, ma'lumotlar ilmiy bilishning tayanch nuqtalari bo'lsa ham, eksperiment haqiqatga erishishning asosiy vositalaridan biri bo'lsa ham, fan tomonidan foydalaniladigan butun hodisa (fakt)lar majmuasi, o'z navbatida, mantiqiy qayta ishlashga, nazariy qayta qarab chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Nihoyat, fanning asosiy belgilaridan yana biri shundaki, u muntazam ravishda rivojlanib boradigan tizimdir. Ijtimoiy hayot, tajriba fanning oldiga doimo yangidan-yangi hodisalarni ko'ndalang qilib qo'yadi, fan ularni nazariy umumlashtirishni, buning natijasida konsepsiyalarning mazmunan boyishi, chuqurlashuvi va yangilanishini, eski nazariyalarning yangilari bilan almashinishini ta'minlaydi. Fan hech qachon qotib qolgan aqidalar bilan kelisha olmaydi, u muntazam ravishda mukammallashib boradigan tizimdir.

Fan o'zining ichki mantig'iga ega bo'lib, shu asosda muayyan g'oya va konsepsiyalarni, yangi fikr, nazariy qarashlarni vujudga keltiradi. Fanning nisbiy mustaqilligi ham ana shunda ko'rinadi.

Ilmiy bilishning yuqorida qayd etilgan o'ziga xos belgilari ichki jihatdan o'zaro bog'langan holda fanning sotsial funksiyalarini ifoda etadi, jamiyat taraqqiyotida tutadigan o'rini belgilab beradi.

Ma'lumki, ijtimoiy-tarixiy amaliyot moddiy ishlab chiqarish faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Bu faoliyat taraqqiyotining muayyan bosqichida tabiat to'g'risidagi bilimlar yuzaga kelganligi ma'lum. Bular tabiatshunoslik (matematika, fizika, biologiya, kimyo, astronomiya, botanika va boshqalar) bilimlaridir. Fan ijtimoiy-tarixiy amaliyot tarkibi bu bilan chegaralanib qolmaydi, balki kishilarning sotsial munosabatlarni qayta qurish sohasidagi faoliyatini ham qamrab oladi. Faoliyatning bu turi negizida insoniyat jamiyati to'g'risidagi bilimlar tarkib topadi. Bular jamiyatshunoslik bilimlari deb ataluvchi — tarix, tilshunoslik, falsafa, dinshunoslik, axloqshunoslik va boshqa ko'plab fanlarni o'z ichiga oladi.

Taraqqiyotning muayyan bosqichida bilish jarayonining o'zi ham bilish obyektiga aylanadi. Kishilar ongning paydo bo'lishi, bilish shakllari, ilmiy bilishning o'ziga xosligi, uning imkoniyatlari va boshqa jihatlarini o'rgana boshlaydi, oqibat-natijada bilish — tafakkur qonuniyatlari tadqiq etiladi. Bilish haqidagi, xususan, tafakkur to'g'risidagi fan tizimi inson bilimlarining alohida sohasi sifatida ajralib chiqishining boisi ham ana shundadir.

Tabiatshunoslik fanlari ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotida shubhasiz muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy fanlarning tarixiy ahamiyati shundaki, ularni egallash insonning ijtimoiy tabiati mukammallashuviga olib keladi.

Fanning eng muhim sotsial funksiyalaridan yana biri uning kishilarning olam to'g'risidagi fikrlashlarini umumlashtirishga xizmat qilishida, dunyoqarash vazifasini bajarishida namoyon bo'ladi.

Hozirgi ijtimoiy taraqqiyot fan oldiga juda katta muammolarni hal etish vazifasini qo'yadi. Yer yuzida ko'rayib borayotgan aholini oziq-ovqat bilan yetarli darajada ta'minlash, kishilarni har qanday kasalliklardan forig' etish, ishlab chiqarishning eng mukammal uslublarini yaratish, energiyaning yangi, ulkan manbalarini insoniyatga xizmat qildirish kabi muammolar shular jumlasidandir.

Hozir quruqlikning 10 foizidan oshiqrog'i qayta ishlanmoqda, 6, 5 foizini bog'lar, plantatsiyalar, ekin maydonlari tashkil etadi. Shu sababli yangi yerlarni o'zlashtirish muammosi kun tartibidan tushgan emas. Tabiatni zararkunandalardan, ayniqsa, qishloq xo'jalik ekinlarini

kasalliklardan saqlash vazifasi ham juda muhim. BMT ma'lumotlariga ko'ra, shular sababli g'alla hosildorligi 6 foizga pasayib ketmoqda, 400 mln. kishi ratsionini tashkil etishga yetadigan 10 foiz hosil nobud bo'layotir.

Bundan bir asr muqaddam yerga ishlov berishda 90 foizdan ortiq mehnat qo'l kuchiga asoslangan edi, hozirgi paytda 95 foizdan ko'proq jismoniy ishlarni mashinalar bajarmoqda. XX asrda insoniyat tomonidan sarflangan energoresurslar ko'lami butun XIX asr davomida ishlatilgan miqdorga teng bo'ldi. Fan insoniyatga mukammal bo'lgan energiya ishlab chiqarishning yangidan-yangi manbalarini topishga xizmat qilayotir. Hozirgi zamon fani ishlab chiqarishning moddiy xomashyoviy bazalarini ham o'zgartirib yubormoqda. Metallarning nihoyatda katta zahiralardan foydalanish yo'llari axtarilmoqda, yanada mukammal sintetik materiallar yaratishga erishilmoqda, ishlab chiqarish sohasida kompyuterlarning bir necha avlodi samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Shuni aytish kerakki, totalitar sho'ro tuzumi sharoitida obyektiv haqiqat tamoyillariga bo'ysunadigan fan sohasiga ham partiyaviylik, mafkuraviylik, sinfiylik kabi aqidalar zo'rvonlik bilan kirib keldi, fanning mohiyati va tabiati uchun xos bo'lmagan g'ayrilmiy tamoyillar tiqishtirildi, fan siyosatning oddiy xizmatkoriga aylantirildi, ayniqsa, ijtimoiy — gumanitar fanlar sohasida bu narsa ko'ngilsiz oqibatlarga olib keldi.

Mustaqillik sharofati bilan respublikamizda barcha fanlarning rivoj topishi uchun obyektiv shart-sharoitlar yuzaga keldi, jahon fanining deyarli barcha sohalari rivoj topmoqda. Bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda fan sohasiga rahbarlik qilinmoqda. Fanlar Akademiyasi qoshida Fundamental ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tuzildi. Birgina «Fizika-Quyosh» ilmiy-ishlab chiqarish boshqarmasi xodimlari yadroviy materiya sohasidagi muhim fundamental tadqiqotlarni bajarish bilan bir qatorda ko'pgina maqsadlarga mo'ljallangan keramika va yuqori haroratga bardoshli boshqa metallarni ishlab chiqarishda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ularni O'zbekistonning qator sanoat tarmoqlarida elektrotexnika, to'qimachilik, avtomobil, kran qurish va boshqa tarmoqlarda qo'llay boshladilar.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ham yangicha dunyoqarash asosida madaniyatimiz va dinimiz tarixi, iqtisodiy taraqqiyotimiz muammolari keng o'rganilmoqda. I. A. Karimov ta'kidlaganidek: «Jahon sivilizatsiyasiga dahldor bo'lgan eng zamonaviy ilmlarni egallamay turib, mamlakat taraqqiyotini ta'minlash qiyin... Mamlakatimizda fundamental

tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, uzoqni mo'ljallab, olis istiqbol taraqqiyotini ko'zlab ish tutish lozim. Fundamental fanga umid bilan qarashimiz, unga keng yo'l ochib berishimiz darkor»<sup>1</sup>.

Fanning zamona talablari darajasida taraqqiy topishi uchun g'oya, moddiy asos, tegishli sharoit va fikr, tafakkur erkinligi»<sup>2</sup> taqozo qilinadi. Darhaqiqat, hozirgi zamon ilmiy-texnikaviy inqilobi, fan sohasidagi keskin o'zgarishlar uni ijtimoiy-siyosiy jihatdan muntazam ravishda qo'llab-quvvatlashni taqozo qilmoqda. Bugungi kunda har qanday mamlakatni jadal rivojlantirish borasidagi dasturiy vazifalar fan va ilmiy infrastrukturani yanada taraqqiy ettirish bilan uzviy bog'langandir.

O'zbekistonda fan va ta'limni rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan strategik vazifalar milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi bilan butunlay yangi mohiyat va yo'nalish kasb etmoqda, jamiyat va fuqarolarning madaniy darajasini oshirish milliy taraqqiyotimizning ustuvor vazifalari qatoridan o'rin olmoqda. Bu jarayonlarning madaniy qiyofasini quyidagilar bilan belgilash mumkin: jamiyat madaniyati ijodkorlari — kadrlar tayyorlash sifati va raqobatbardoshligi ta'minlanadi; professional ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi mustahkamlanadi; ta'limni boshqarish, kadrlar tayyorlashda marketing tizimi takomillashadi; uzluksiz ta'lim tizimida axborot maydoni rivojlanadi; tarbiyaviy va ma'rifiy faoliyat takomillashadi, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy salohiyati yuksaladi; yuksak darajali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashga erishiladi va h. k.

Hozirgi paytda respublikamizda 46 mingga yaqin kishi fan sohasida band bo'lib, ulardan 2,8 mingdan ortiqrog'i fan doktori, 16 mingdan ziyodi fan nomzodi hisoblanadi, fanning ko'pgina yo'nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu sohada, Prezidentimiz I. A. Karimov alohida ta'kidlaganidek, jahon darajasida quyidagi ilmiy maktablar muvaffaqiyatli ishlamoqda:

- matematika, ehtimollar nazariyasi va ijtimoiy jarayonlarni matematik modellash, informatika va hisoblash texnikasi;
- geologik jarayonlarning qonuniyatlarini o'rganish, tektonika, geofizika, seysmologiya va boshqalar;
- molekulyar genetika, gen-hujayra injeneriyasi, biotexnologiya va h. k;

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 52—53-b.

<sup>2</sup> I. A. Karimov. Fan ravnaqisiz buyuk davlat qurib bo'lmaydi. //Xalq so'zi, 1995, 7 noyabr.

- moddalarning kompleks fizikaviy-kimyoviy xossalarini o‘rganish;
- jahon va mamlakatimiz tarixini, O‘zbekistonning madaniy va ma’naviy merosini, o‘zbek tili, adabiyoti va folklorining tarixiy va hozirgi rivojlanish masalalari<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasida «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»ning qabul qilinishi, ularda belgilangan asosiy vazifalarning izchillik bilan amalga oshirilishi nafaqat jamiyatning moddiy kuch-qudratini, shu bilan birga ilmiy-ma’naviy salohiyatini yuksaltirishga ham xizmat qilmoqda. Bu jarayonning mohiyatini qisqacha tarzda quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- ta’lim uzluksizligini ta’minlash. Buning oqibatida ta’limning yangicha vorisiylik va uzluksizlik tizimini yaratish jarayoni izchillik bilan yuz bermoqda, raqobatbardosh ta’lim muassasalari tashkil etilmoqda, bozor munosabatlari talablariga ustuvor ahamiyat berilmoqda, bozor sharoitida ta’lim xizmati imkoniyatlari, ilmiy kadrlar tayyorlash sifati tubdan o‘zgarimoqda;

- ta’lim jarayoni mazmuni har tomonlama ijodiy isloh qilinmoqda, insonparvarlashtirilmoqda, boy intellektual, ma’naviy an’analar va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan davlat standartlari talabiga muvofiq yangilanmoqda, ta’lim sub’ekti shaxsiga, uning fan va bilimlarga o‘ta beriluvchanligiga, umumta’limiy faolligiga, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga katta e’tibor berilmoqda;

- ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlar uyg‘unligiga erishilmoqda. Yangi avlodga boy milliy madaniy-tarixiy an’analar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib ma’naviy-axloqiy tarbiya berishning samarali tashkiliy, pedagogik shakllari va usullari ishlab chiqilmoqda, qo‘llanilmoqda. Shaxsning tarbiyasi va har tomonlama kamol topishiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning jamiyat umummadaniyati taraqqiyotiga ko‘rsatadigan ta’siri masalasi ijobiy hal etilmoqda;

- ta’lim sifatini ta’minlash sohasida izchillik ta’minlanmoqda. Bunda kasb ta’limi sifatini nazorat qiladigan va, ayni vaqtda, ta’limni boshqarish organlaridan mustaqil faoliyat ko‘rsatadigan davlat attestatsiya xizmati tashkil topmoqda. Mamlakatimizning iqtisodiy va madaniy rivojlanish talablariga javob beradigan davlat ta’lim standartlari ishlab chiqilmoqda va izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

- iste’dodli bolalar va iqtidorli yoshlarni ilmiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Buning uchun iste’dodli

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida. 262—267-b.

yoshlarning respublika zahirasi aniqlash ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda, ularni o'qitish metodologiyasi, psixologik-pedagogik va tashkiliy shart-sharoitlari yaratilmoqda. Bunda nafaqat xorij tajribalaridan ijodiy foydalanish, shu bilan birga, yoshlarning jahonning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlariga keng yo'l ochilmoqda;

— ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatini rivojlantirish yo'lga qo'yilmoqda. Pedagogik kadrlar obro'-e'tiborini, mas'uliyatini ko'tarish va professional madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda pedagogik kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashning ta'lim rivojiga samarali ta'sir etadigan tizimi yaratildi.

— fanning ta'lim jarayoni bilan bog'liq shakllarini taraqqiy ettirish ijobiy natijalar bermiqda. Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar qilinmoqda, ta'lim sifatini oshirishda ilmiy ishlanmalar va pedagogik tadqiqotlarning ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, fundamental va amaliy tadqiqotlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda, yoshlarning ilmiy-texnikaviy ijodkorligi har jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda. Ilmiy muassasalarning eksperimentlar o'tkazish faolligi ortib bormoqda;

— ishlab chiqarish bilan ta'lim tizimi integratsiyasi ta'minlanmoqda. Bu jarayonda o'quv-ishlab chiqarish markazlarini tashkillashtirish rag'batlantirilmoqda, ular zamonaviy texnikaviy jihozlanmoqda. Ishlab chiqarish korxonalarining ilmiy-texnikaviy muammolarni yechish sohasidagi ishtiroki, salohiyati va imkoniyatlari kengayib bormoqda, akademik, ayniqsa, kasb-hunar kollejlari homiyligi faollashmoqda;

— ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini boshqarish sohasida samarali hamkorlik amal qilmoqda. Ta'limning me'yoriy-huquqiy ta'minoti mukammallashib bormoqda, muassasalarning o'z-o'zini boshqarishi mustaqillashmoqda;

— ta'lim bozori rivojlanmoqda. Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida marketing yo'li bilan xizmat ko'rsatishning raqobat usullari shakllanmoqda, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari tarkib topmoqda, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhiti yuzaga kelmoqda, ularni davlat yo'li bilan nazorat qilish amalga oshirilmoqda, pulli xizmatlar tizimi hayotga kirib bormoqda;

— ta'lim tizimini axborotlashtirish keng tus olmoqda. Hozirgi zamon informatsiya texnologiyalari, kompyuterlashtirish, kompyuter va internet tarmoqlari orqali ta'lim jarayonini axborotlashtirish taraqqiy etmoqda, ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, televideniye va radioning ta'limning intellektual ta'sirini oshirishdagi roli ortib bormoqda, fan va ta'limning noshirlik imkoniyatlari kengaymoqda;

— moddiy-texnikaviy baza mustahkamlanmoqda. Ta'lim muassasalari uchun zamonaviy binolar qurilmoqda, ularning moddiy-texnikaviy imkoniyatlari ortib bormoqda, ta'limning barcha darajalarini kompyuterlashtirish va axborotlashtirishning texnikaviy vositalari rivoj topmoqda;

— ta'lim tizimini moliyalashtirish takomillashtirilmoqda. Bu sohada davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'lar tushumi, o'z-o'zini moddiy ta'minlash, chet el investitsiyalarini ta'lim sohasiga jalb etish, davlat grantlarini qo'lga kiritish kabi manbalar muhim o'rin tutmoqda;

— ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ijtimoiy tegishli hamda davlatning qo'llab-quvvatlashi keng jalb etilmoqda. Pedagogik va ilmiy faoliyatning maqomini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosati amalga oshirilmoqda, bu soha xizmatchilariga bilimni oshirish, salomatlikni mustahkamlash, hordiq chiqarish bo'yicha tegishli shart-sharoitlar yaratilmoqda;

— fan, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda. Bu sohada xalqaro-huquqiy me'yorlar yaratilmoqda, ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilmoqda, ilmiy-pedagogik kadrlar, talabalarning rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro hamkorligi kengaymoqda<sup>1</sup>.

Demak, fan taraqqiyoti har bir jamiyatning madaniy yuksalishini belgilovchi mezonlardan biri hisoblanadi, respublikamiz ijtimoiy taraqqiyotida zamonaviy fan yutuqlari ulkan ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy-madaniy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## DIN

Din insoniyatning ma'naviy madaniyati tizimida alohida o'rin tutadi. Dinning asosiy belgisi ilohiy kuch-qudratga bo'lgan ishonch, e'tiqodda namoyon bo'ladi. Din tabiat va jamiyat hodisalarini tushuntirish usullaridan biri sifatida ham madaniyat tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Madaniyatshunoslar fikricha, diniy madaniyat chuqur ijtimoiy ildizga ega bo'lib, asosan, kishilarning tasavvurlari, kayfiyat va amaliyoti birligida o'z ifodasini topadi. «Insonning diniy tasavvuri deganda uning dunyoqarashida aks etadigan Tangri, farishtalar, maloyikalar, iblis-shayton, hur-g'ilmonlar, jinlar, ularning odamga munosabatlari to'g'risidagi tushunchalari majmuiga aytamiz. Insonning diniy

---

<sup>1</sup> Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: «O'zbekiston», 1997.

kayfiyatlari deganda uning hissiyoti bilan bog'liq bo'lgan o'zligi, zaifligi, qo'rqishi, umid va tasallisini tushunamiz. Insonning diniy amaliyotlari esa Tangriga toat-ibodat, ya'ni besh vaqt namoz o'qib sajda va sig'mish, ro'za tutish, turli marosimlar va nazr-niyozlarni o'z ichiga oladi»<sup>1</sup>.

Kishilik jamiyati tarixi shundan dalolat beradiki, hamma vaqt ham kishilarda diniy tasavvur, kayfiyat, amaliyot va tushunchalar mavjud bo'lgan emas. Diniy tasavvurlarning yuzaga kelishiga, asosan, inson va borliq o'rtasidagi murakkab munosabatlar sabab bo'lgan. Olimlar eradan oldingi 5—4 ming yilliklar davrida odamlarda Ollohga ishonib yashash tuyg'usi shakllanganligi haqida yozadilar.

Din ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyotining muayyan bosqichida insonning dahshatli va tushunib bo'lmaydigan tabiat kuchlari oldida o'zligini ifodalaydigan ma'naviy hodisa sifatida paydo bo'lgan. Zamonlar zayli bilan inson tabiatning sirli hodisalarini tushunish sohasida tajriba to'play borgan. Buning oqibatida kishilar ongida tabiat hodisalari va narsalarida qandaydir ilohiy kuch bor, bu kuchlar o'z mohiyatiga ko'ra ezgulik va yovuzlik xususiyatlariga ega, degan tasavvurlar hosil bo'lgan.

Diniy tasavvurlar shakllanishining ilk bosqichida yakxaxudolilik emas, aksincha, tabiat va jamiyatning rang-barang hodisalarida «muqaddas ruh», «jon» va boshqa ruhiy ibtidolar borligi haqidagi tushunchalar yuzaga kelgan. Buning natijasida kishilar narsalarga, o'simliklarga, hayvonlarga va shunga o'xshashlarga e'tiqod qo'yib, ularga sig'inganlar. Animiylilik, fetishiylilik, totemiylilik, afsungarlik kabi diniy e'tiqodlarning yuzaga kelishida shunday aqidalar negiz bo'lgan.

Real mavjud va, ayni vaqtda, g'ayri hissiy (fetish) xususiyatlarga ega bo'lgan predmetlar dastavval diniy munosabatlar obyektini tashkil etgan. Fetishiylilik afsungarlik bilan bog'langan bo'lib, hodisalar yo'nalishini sehrgarlik bilan o'zgartirish mumkinligini ishonitirishga harakat qilgan. Predmetga xos deb hisoblangan g'ayri hissiy xususiyatlar keyinchalik ulardan alohida mustaqil mohiyat-«ruh» sifatida ajratiladi, oqibat-natijada tanadan alohida yashovchi «jon»- (animizm) haqidagi aqidalar yuzaga keladi. Urug'chilik jamiyati barham topishi jarayonida qabilaviy dinlar o'rniga ilk sinfiy jamiyatga xos bo'lgan ko'pxudolilikni ifodalovchi dinlar paydo bo'ldi. Tarixiy taraqqiyotning bir qadar so'nggi bosqichlarida esa jahon dinlari — buddizm (e. o. VI-V asrlar), xristianlik (I asr) va islom (VII asr) yuzaga keldi.

Shunday qilib, diniy ong va tasavvurlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi mohiyatini ifodalab, tarixiy taraqqiyot mahsuli tarzida kelib

---

<sup>1</sup> Madaniyat va jamiyat. — T.: «O'zbekiston», 1993, 27-b.

chiqadi va rivojlanadi. Ibtidoiy jamoa tuzumi barham topishi sharoitida politeistik (ko'pxudolilik), xususiy mulkning paydo bo'lishi bilan bog'liq ravishda shakllangan ijtimoiy munosabatlar davrida monoteistik (yakkaxudolilik) dinlar yuzaga kelgan. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan zardushtiylik, buddizm, yahudiylilik, xristianlik, keyinchalik esa, islom dini yuqoridagi xususiyatlarni o'zida ifoda etadi.

Barcha jahon dinlari kishilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashga, mehmuruvvat, o'zaro hurmat va yordam, halol-pok yashashga undovchi umuminsoniy qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Afsuski, kishilarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan dinning bunday funksiyalari yaqin o'tmishda butunlay inkor etildi, diniy madaniyatning jamiyat va shaxs ma'naviy hayotidagi roli butunlay yo'qqa chiqarildi. Islom madaniyatining o'ziga xos bebaho qadriyatlari «Qur'oni Karim», «Hadislar», «Tafsirlar»ni, diniy allomalarning jahon e'tirof etgan asarlarini o'rganish man etildi.

Milliy mustaqillik tufayli ma'naviyatimiz tarixida va har bir inson hayotida diniy qadriyatlarning tutgan mavqei o'z o'rniga qo'yildi. Istiqlol tufayli amalga oshirilayotgan bozor munosabatlariga ma'rifatli yo'l bilan kirib borishning asosiy tamoyillari, shubhasiz, ma'naviylikka suyanadi. Bozor munosabatlari shakllanishi va taraqqiy etishiga ko'mak beradigan ma'naviy omillardan ustuvorlik bilan foydalanish masalasining muhimligi ham ana shundadir. Ma'naviyatimizning tarixiy ifodasi va o'zaklaridan biri hisoblanmish din va diniy qadriyatlar bu jarayonda o'ziga xos mavqe tutishi tabiiy. Darhaqiqat, xalqimiz turmush tarzida diniy an'analar bilan milliy an'analar shu qadar chambarchas bog'lanib ketganki, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi<sup>1</sup>.

Diniy qadriyatlarning islohotlarni amalga oshirish sharoitida kishilarni yuksak axloqiy ruhda kamol toptirish bilan bog'liq asosiy xususiyatlari va funksiyalari jamiyat ruhiyati, xalq turmush tarzi, umuman, ma'naviyat tizimi negizida qarab chiqilmog'i kerak. Shu ma'noda, milliy va umuminsoniy fazilatlarni mujassamlashtirgan diniy qadriyatlar va ularning asosiy qoidalari islohotlarning axloqiy zaminini tashkil etadi.

Mulk shakllarining xilma-xilligi mehnat xarakteriga, taqsimot masalasiga belgilovchi ta'sir ko'rsatdi, bu fuqarolar turmush darajasining rang-barangligiga olib keldi, biroq bu xilma-xillikni xalqimizning

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 22-b.

umummadaniy tamoyillari hisoblangan soflilik, halollik, diyonatlik kabi fazilatlar uyg'unlashtirib turadi. Ayni vaqtda, muqaddas dinimiz islom ham insonning bosqinchilik, zo'ravonlik, o'g'rilik, poraxo'rlik, bo'hton, sotqinlik, sudxo'rlik, g'iybat, chaqimchilik, tuhmat, xiyonat, qimor bilan bog'liq illatlarini qoralaydi, moliyaviy ishlarga qalbaki bitim tuzishni taqiqlaydi.

Hozirgi paytda tijorat va iqtisod sohasiga bozor tashvishlari bilan band tadbirkorlar, fermerlar, tijoratchilarning kirib kelishi, o'z-o'zidan ravshanki, ularning ma'naviy dunyosini shakllantirish masalasini keltirib chiqaradi. Binobarin, tijorat va iqtisodiyot ishlarining ko'lami uni tashkil etuvchilar va amalga oshiruvchilar oldiga yuksak ma'naviy fazilat egasi bo'lish mas'uliyatini qo'yadi. Bunday yuksak tuyg'uni tarkib toptirishda musulmonchilikning eng muqaddas tamoyillari negiz bo'lib xizmat qilishi kerak. Buyuk alloma Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning hadisi shariflarida bayon etilishicha, mol-dunyosi ko'p odam badavlat emas, balki nafs to'q inson badavlatdir, savdo-sotiqda hiylakorlik, bozorni kasod qilish maqsadida ataylab narx-navoni oshirish va aldanchilik qilish makruhdir<sup>1</sup>.

Islom qadriyat sifatida yolg'iz diniy qoidalar, ko'rsatmalar, tamoyillar yig'indisidan iborat emas, ayni vaqtda, u kishilar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-estetik, huquqiy munosabatlarning ham ifodasidir. Shu ma'noda, buyuk bobokalonimiz Amir Temurning islom dini va uning sofligini saqlash asosida jamiyatdagi ma'naviy barqarorlikni ta'minlashga erishganligini esga olish o'rinlidir. «Temur tuzuklari»da qayd etilishicha, «davlat agar dinu diyonat asosida qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati, tartibi yo'qoladir. Bunday saltanat yalang'och odamlarga o'xsharkim, uni ko'rgan kimsa nazarini olib qochadi. Yohud nasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshik-to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi»<sup>2</sup>.

Buyuk Temur o'z siyosiy-ijtimoiy faoliyatida hamisha Olloh, tafakkur, qilich, kitob kabi tushunchalar bilan birga iymonga suyanib ish tutishni ta'kidlaydi. Iymon, deydi u, insonni barcha jonli zotlardan farqlantirib turadigan xususiyatdir. Iymonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug'lari, elu xalqining or-nomusini himoya qiladi, halollik va poklikni fazilat deb biladi.

---

<sup>1</sup> Qaralsin: Ismoil al-Buxoriy. hadis. 4-jild, T.: Qomuslar bosh ta'riri. 1992, 204, 348-b.

<sup>2</sup> Temur tuzuklari. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot, 1991, 57-b.

Yuqorida aytilgan fikrlar umuman din, xususan, islom va islomiy qadriyatlarning xalqimiz tarixida tutgan buyuk ma'naviy salohiyatini tasavvur etishga asos bo'ladi.

Respublikamizda milliy mustaqillikka erishish tufayli bozor munosabatlari tomon qo'yilgan har bir qadam ma'naviy merosimizni, xususan, diniy qadriyatlarimizga yangicha munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Yaqin vaqtlargacha ma'naviyatimizdan sun'iy ravishda chetlashtirilgan diniy omillar o'z maqomiga ega bo'lganligi ravshan. Holbuki, «asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolat-parvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlarini Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Va, o'z navbatida, bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi. Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu falsafaga uyg'un holda, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahouddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un holda shakllanishi lozim»<sup>1</sup>.

Ko'rinib turibdiki, hozirgi paytda islom qadriyatlariga suyanish musulmonchilikning asl tamoyillarini rivojlantirish, ularni kishilarimiz hayotiy faoliyatlariga singdirish ham tarixiy, ham mantiqiy, ham madaniy jihatdan zarurdir, ayni vaqtda, bu — xalqimizning dunyoqarashi, axloqining mazmunini belgilashda asosiy mezonlardan hisoblanadi.

Avvalambor, din va dindorlar ahlining jamiyatda tutgan o'rnini hisobga olgan holda, ma'naviy hayot bilan diniy munosabatlarni uyg'unlashtirish masalasi ijobiy hal etilmoqda. Mustaqillik sharoitida e'tiqod erkinligi, davlat bilan dinning o'zaro munosabati, dindor fuqarolar haq-huquqlarining konstitutsion negizga qo'yilishi, respublika ijtimoiy hayotida dinning mavqei, xalq o'rtasida totuvlikni ta'minlashdagi ahamiyati, teng huquqli fuqarolar degan insonparvarlik va vatanparvarlik qoidasining ro'yobga chiqishida uning ijobiy ta'sir ko'rsatishi kabi murakkab muammolar oqilona tarzda hal etildi.

Boshqa tomondan, din davlatdan rasman ajratilgan bo'lsa ham, jamiyatda yashab turishi, davlat o'z yo'liga, din o'z yo'liga rivoj topishi hodisasidan ayrim fuqarolarning uni qurol qilib olib siyosatga aralashuvlari, osoyishtalikka rahna solishlari, g'arazli niyatlarda

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. — T.: O'zbekiston, 1996, 7—8-b.

foydalanishga, soxta obro' orttirishga intilishlari mustaqillik siyosatiga zid ekanligi ochiq-oydin e'lon qilindi.

Darhaqiqat, mustaqillik tufayli yurtimizda erishilgan iymon erkinligi ba'zi g'arazgo'y va mutaassib kishilarda undan siyosiy manfaatlar va maqsadlar uchun foydalanish xavfini yuzaga keltirdi. Prezidentimiz I. A. Karimov Shveysariyadagi «Forum fond» xalqaro iqtisodiy tashkilotining IV sessiyasida so'zlagan nutqida bu haqda o'ta jiddiy va qat'iy fikrlarni bildirgan edi: «Biz fuqarolik haqida qonun qabul qildik. Bu qonun mamlakatda yashovchi barcha millatlarning huquqlarini shunchaki e'lon qilib qolmasdan, bu huquqlarga kafolat ham beradi. Biz diniy aqidaparastlik va mutaassiblik xavfini bartaraf qildik. Sovet imperiyasi barbod bo'lganidan keyin vujudga kelgan bo'shliqni mana shu aqidaparastlik va mutaassiblik bilan to'ldirishi mumkin va shunday xavf mavjud edi»<sup>1</sup>

Tarixdan ma'lumki, hamma zamonlarda ham kishilar ong-qarashlarida aqidaparastlik va mutaassiblik shakllanishi xavfi mavjud bo'lib kelgan, bu bugun ham bartaraf etilmaganligi ma'lum. Jadid madaniyatining yirik namoyandasi Mahmudxoja Behbudiy o'z davrida Buxoro amirligida xonaqo va masjidlar qurish poygasi kuchayib ketganligidan tashvishga tushib, «namoz uchun bir erda masjid va bir mulla kifoya edi. Boshqa masjidlar o'rniga maktablar solinib, bunda yig'ilgan faqir va yo'qsullarning bolalarini o'qitsalar edi, shuncha safil (qo'lidan ish kelmaydigan) kishilar o'rniga o'z kunini o'zi ko'raturgan bir to'da faol odamlar yetishar edi», deb yozgan edi. Shu nuqtai nazardan respublikamiz rahbariyati tomonidan bu sohada olib borilayotgan oqilona siyosat o'zining ijobiy samarasini berayotganligi ravshan.

Ikkinchidan, islomiy qadriyatlar xalqimiz turmush tarzi, ma'naviy fazilatlari negizini tashkil etishi sir emas. Ijtimoiy taraqqiyot va yangilanish yo'lidan borayotgan, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan paytda milliy-tarixiy turmush tarzimizni, xalqning urf-odatlarini, an'alarini, fikrlash usulini hisobga olish bilan birga diniy qadriyatlarning milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lishini ham e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Uchinchidan, din barcha millat kishilari uchun muqaddas ruhiy boylik bo'lib, ularni ezgulikka, poklikka chorlaydi. Din nafaqat oxiratda,

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 241—242-b.

balki shu dunyoda ham baxt-saodatga erishish mumkinligini e'tirof etadi. Yaxshilikni istovchi har bir kishi boshqa kishilar qalbiga ezgulik va mehr-muruvvat nurini bag'ishlamog'i kerak, yomonlik yo'liga kirgan odam esa shu fe'l-atvori uchun yorug' dunyoning o'zida jazosi va ajrimini oladi. Bu axloqiylikning islomiy tamoyilidir. «Kimning amali qanday bo'lsa, unga shunday amal bilan javob qaytariladi, — deb yozadi buyuk alloma G'azzoliy, — u bu dunyodan yaxshi va yomon har turli amallarning javobini ko'rmagunicha ketmaydi. U bu dunyoda o'z amallariga yarasha muomala ko'radi»<sup>1</sup>. Islom qoidalariga ko'ra, olam yaxshiliklar va ezguliklarga to'la, insonning komil bo'lishligi uchun imkoniyatlar yetarli. Shubha yo'qki, xalqimizning ma'naviy merosi, ma'naviy olami hamda o'zligi islom dini tufayli uzoq vaqt saqlanib kelmoqda.

To'rtinchidan, din o'z mohiyati jihatidan axloqiy va ma'naviy fazilatlarni qayta tiklashga da'vat etilgandir. Diniy e'tiqodlarga keng yo'l ochilgan, din mustaqillik ma'naviyatining tarkibiy qismiga aylangan bugungi kunda uning axloqiy qimmati yanada ortib borishi tabiiy. Bu o'rinda buyuk alloma Bahouddin Naqshbandning quyidagi so'zlari ibratlidir: «Ibodati o'n qism, o'ndan to'qqiz qismi halollikni qidirish, bir qismi esa boshqa ibodatlardir»<sup>2</sup>. Buning ma'nosi shuki, har bir kishi o'z mehnati bilan topgan samarasi, mahsuloti hisobiga umr kechirishi kerak. Darhaqiqat, din, ayni paytda, shakllangan axloqiy qoidalar majmuasi, unda xalq axloqiy kamolotining bosh va asosiy talablari mujassamlashgandir. Bu axloqiy dastur va axloqiy ne'matlar esa hamma vaqt xalq tomonidan vasiyat etib qoldirilgandir.

Beshinchidan, diniy e'tiqodlar, g'oyalar hozirgi paytda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlarning chinakam poydevori bo'lib xizmat qilishini ham alohida ta'kidlash lozim. Iqtisodiy, siyosiy, demokratik islohotlarning moddiy kuchga aylanishi, shubhasiz, shu faoliyat sohiblari bo'lgan insonlarning halolligi, o'z burchiga sadoqati kabi omillarga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shuningdek, bu tizimda xalq va mamlakatning osoyishtaligi, ma'naviy barqarorligi ham yaratuvchanlik salohiyatiga ega. Shu ma'noda, islom tinchlik, imyon, ehson, poklik, vatanparvarlik dinidir.

---

<sup>1</sup> G'azzoliy. Tavba qilayotgan odamlar. Milliy tiklanish, 1995, 5 sentabr.

<sup>2</sup> *Abul Muhsin Muhammad Boqir*. Bahovuddin Balogardon. T.: «Yozuvchi», 1993, 55-b.

Tarkiban o'ta murakkab bo'lgan bozor munosabatlariga o'tish sharoitida insonning fe'l-atvori, xulqi, odobi milliy va umuminsoniy qadriyatlar ta'sirida shakllanadi. Jumladan, shaxsning nafaqat oilaviy hayotiga, balki kasbiga, faoliyatiga, mansabiga, burchiga munosabatlari shariat talab va tamoyillari ruhi bilan sug'orilgan bo'ladi. Sir emaski, shariat musulmonlar hayotidagi barcha tamoyillar, me'yorlar, mezonlar, talablarni o'zaro yaxlit holda tushunadi, ularni faoliyat sohiblari xatti-harakatiga tadbiiq etadi. Boshqacha aytganda, fuqarolar, jamoalarning ma'naviy hayoti, ishlab chiqarish faoliyati nafaqat dunyoviy mezonlar, shular bilan bir qatorda musulmon dinidagi qadriyatlarga tayangan holda ham qaror topadi. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy islohotlarning demokratlashuvi jarayonida, I. A. Karimov aytganidek, sharqona islomiy axloq Kodeksining ahamiyati orta boradi. Shunday ekan, bugun siyosiy-ijtimoiy hayot haqida gap ketganda dinning, eng avvalo, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatidagi ahamiyati orta borishini e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi.

Oltinchidan, mustaqillik sharoitida din va diniy qadriyatlarlarning yuqorida qayd etilgan ijobiy jihatlarini e'tirof etish bilan birga, haqiqiy islomiy axloq-odob, islomiy qadriyatlar bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan aqidaparastlik, ekstremizmning har qanday ko'rinishiga qarshi murosasiz kurash olib borish har bir fuqaroning burchidir. Holbuki, adolatli, demokratik, fuqarolik jamiyati qurilayotgan hozirgi paytda har qanday shakldagi aqidaparastlik ijtimoiy taraqqiyotimiz yo'liga to'sqinlik qiladi.

Mustaqilligimizning ilk qadamlaridanoq dinning jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o'rni oqilona tarzda belgilab olindi.

## **SAN'AT**

San'at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan madaniy hodisadir. San'at keng ma'noda madaniy qadriyat bo'lib, badiiy qadriyatlar bilan birga ularni yaratish va iste'mol jarayonlarini qamrab oladi.

San'at xuddi fan singari o'z mavzu doirasida beqiyos bilish-anglash imkoniyatlariga ega. Lekin san'atning badiiy bilish-anglash jarayoni o'ziga xos doirada sodir bo'ladi. San'at voqelikni badiiy vositalar orqali to'laqonli, jozibali anglashga yordam beradi.

Ma'lumki, ijtimoiy ongning har bir shakli voqelikning muayyan biror bir tomonini aks ettiradi. San'at ijtimoiy ong shakli sifatida

voqelikni badiiy-tasvirli shaklda aks ettiradi. Insonning bilish-anglash faoliyati masalalari bilan fanning juda ko'p sohaları shug'ullanadi. Masalan, tabiiy fanlar insonni biologik mavjudot sifatida o'rgansa, ijtimoiy fanlar uni shaxs sifatida tahlil qiladi, inson shaxsiga o'z vazifalari nuqtai nazaridan yondashadi: ruhshunoslik insonning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini o'rganadi; iqtisod nazariyasi insonga muhim ishlab chiqaruvchi kuch sifatida qaraydi; siyosatshunoslik insonning siyosiy munosabatlar jarayonidagi o'rni masalasi bilan shug'ullanadi; axloqshunoslik insonni xulq-atvor qoidalari bilan bog'liq holda tadqiq etadi; estetika insonning voqelikka estetik munosabatini ochib beradi va hokazo.

Inson badiiy g'oyalarning moddiy ifoda topishi uchun zarur qurol va vositalar yaratib, o'z kundalik hayoti mazmunini boyitishga intilib kelganligi ma'lum. Darhaqiqat, uzoq o'tmishda ajdodlarimiz yaratgan tosh qurollarsiz biror-bir eng sodda naqsh yoki qoyalarga tushirilgan tasvirlar vujudga kelishi mumkin bo'larmidi? Demak, san'at mehnat bilan uyg'un tarzda rivojlanib borgan madaniy faoliyat natijasidir. Shu bois badiiy faoliyat shakllari inson ma'naviy mehnati zaminida vujudga kelib, bevosita shu jarayonlar bilan chirmashib ketgan.

Badiiy faoliyatning eng qadimgi shakllari hali bir-biridan ajralmagan holda yaxlit ibtidoiy jamoa madaniyatining bir qismini tashkil etgan edi, bir vaqtning o'zida ham ijodiy, ham oddiy xayolparastlikni o'zida birlashtirardi. Afsonada insonning tabiat kuchlari oldidagi zaifligi, ojizligi aks etib, unda ilm-fan, estetik tasavvur kurtaklari, axloqiy qadriyatlarning eng sodda qoidalari va, shu bilan birga, turli yanglishishlar, «man qilish»lar namoyon bo'ladi.

Madaniy faoliyatning tarkibiy qismini tashkil etgan badiiy faoliyatda diniy ibodatli tomonlar katta o'rin egallab, foydali-amaliy jihatlar bilan qo'shilib ketgan edi. Masalan, qadimgi odamlar yovvoyi hayvonlarni kamon o'qi bilan sanchib tasvirlash orqali bo'lajak ovda o'zlari uchun kutilgan zafarning muqarrarligini namoyish etmoqchi bo'lganlar. Shu tariqa, estetik faoliyat voqelikni bilishga asoslanib, qadimgi odam ongida bilish bilan afsona yaxlitlikni tashkil etadi.

San'atning dastlabki kurtaklari ayni vaqtda murabbiy-tarbiyachi vazifalarini ham bajargan. Tasvirlar, naqshlar, raqslar, ertak-afsonalarda avloddan-avlodga o'tib turgan amaliy, axloqiy, estetik, umuman, ma'naviy tajriba mujassamlashgan edi. Badiiy faoliyatning ilk shakllari uyushtiruvchilik, birlashtiruvchilik tamoyillariga ham xizmat qilgan. Yashash uchun kurash maqsadida va yagona manfaat asosida birlashgan jamoaning xatti-harakatlari, urinishlari vositasida qo'lga kiritilishi

mumkin bo'lgan g'alaba — ovda hayvon ustidan g'oliblik (ovning samarali bo'lishi) san'atda tasvirlanib, qadimgi odamlar ma'naviy hamkorligining muhim omillaridan biri sifatida ifodalangan edi.

San'atning juda ko'p belgi va xossalari badiiy-madaniy faoliyatning ilk shakllarida ko'zga tashlanib turadi, lekin ularda hali yakka shaxs omili yetishmas edi. Chunki qadimgi odamlar urug' va qabila uchun umumiy his-tuyg'u hamda tasavvurlar bilan yashagan bo'lib, o'zini voqelikdan ajratolmagan edi.

San'atning mohiyati shundaki, uning ma'no-mazmuni boshidan oxirigacha shaxs bilan bog'lanadi, shaxs bilan shakllanadi, shaxs bilan qadr topadi. Shaxs nafaqat san'at ijodkori, badiiy qadriyatlar yaratuvchi, shu bilan birga, san'atning asosiy obyekti va mavzusi hamdir.

San'at ijtimoiy hayotning murakkab, rang-barang munosabatlari bilan **uzviy aloqador bo'lib, bir vaqtning o'zida u ham mehnatning alohida turi, ham ijtimoiy ishlab chiqarishning maxsus sohasi, ham ijtimoiy ongning muayyan shakli, ham o'ziga xos bilim, ham ijodiy faoliyatning alohida ko'rinishi, demakki, umuman madaniyat ifodasi sifatida yashab keladi.**

San'at, birinchi navbatda, ijtimoiy ong shaklidir, uning boshqa barcha tavsiflari ana shu sifatdan kelib chiqadi va shunga asoslanadi.

San'atning ijtimoiy turmush jarayonlari bilan bog'liqligi ma'lum. Buni qadimgi odamlarning moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishda, ya'ni o'zlariga ma'qul, ko'ngillariga xush keladigan ne'matlarni bunyod etishga bo'lgan ishtiyoqlarida yaqqol ko'rish mumkin. Ijtimoiy turmush san'atning rivojlanishiga bevosita ta'sir o'tkaza boradi, keyinchalik esa unga ijtimoiy tuzilmalar, falsafiy-diniy, siyosiy qarashlar, axloqiy qoidalar, ma'naviy qadriyatlar ham ta'sir o'tkaza bordi.

San'at bilan ijtimoiy hayotni bog'lab turadigan juda ko'p vositalar mavjud. Har qanday badiiy hodisa — muayyan asar yoki uslubiy yo'nalish bo'lmasin, vujudga kelishi va rivojlanishida diniy, axloqiy amallarning ta'sir kuchi bilan belgilanadi, baholanadi, o'lchanadi.

San'at taraqqiyoti nisbiy mustaqillikka egadir. Jamiyat madaniy ravnaqining darajasi hamma vaqt ham uning iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga mos kelavermaganligi bois san'at ravnaqi bilan jamiyat moddiy hayoti o'rtasida ham hamisha mutanosiblik bo'lavermagan. Masalan, badiiy madaniyat namunalari, ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlarining me'morchilik yodgorliklari Movarounnahrda XIV—XVI asrlarda, ya'ni islom dini ta'sirida hukmron feodal ishlab chiqarish munosabatlari tarkib topishi davrida yaratilgan. Lekin islom omili Shohizinda, Registon,

Go'ri Amir, Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari kabi jahon ahamiyatiga molik me'morchilik mo''jizalarining vujudga kelishiga monelik qilmadi. Shu davrga xos yuksak naqsh san'ati mis, yog'och, suyak, ganch va boshqalarga o'yib bezak berish me'morchilik obidalarining ham o'lmas san'at asarlariga aylanishini ta'minlagan edi.

San'atning jamiyat hayotida nisbiy mustaqil amal qilishi vorisiylik qonuniyatining namoyon bo'lishi bilan bog'liqdir. Vorisiylik nafaqat san'atga, ayni vaqtda, ijtimoiy ong va madaniyatning hamma shakllariga ham taalluqlidir. Vorisiylik jamiyat moddiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan siyosiy va huquqiy ong sohalarida ko'proq namoyon bo'ladi.

Vorisiylik madaniy hayotning barcha jabhalarida ko'zga tashlansa ham, iqtisodiy zamindan ancha yiroq bo'lgan san'atda yorqin, to'la, har tomonlama tarzda ifodalanishi mumkin. San'atning hamma qirralari — mavzu yo'nalishi, g'oyaviy-ruhiy qoida va ohanglari, ijodiy aqidalari, uslubiy, tur va shakllarining ifodaviy vositalari vorisiylikda yaqqol ko'rinadi.

Ijtimoiy ongning boshqa shakllarida bo'lganidek, san'atda ham bilish va mafkura o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketgan, turli tarixiy davrlarda va san'atning turli ko'rinishlarida bu aloqadorlik mutanosiblikda amal qilgan.

Ijtimoiy ongning har bir shakli voqelikning biror bir tomonini aks ettiradi. San'at ijtimoiy ong shakli sifatida voqelikni badiiy-tasviriy shaklda anglash manbalaridan biridir. Inson san'at uchun o'z biologik, ruhiy, ijtimoiy-guruhiy, milliy-ajdodiy va yakka holdagi barcha belgi va xususiyatlari jihatidan o'zaro birlashib, yaxlit, yagona, nodir, qaytarilmas shaxs qiyofasida bosh mavzu bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi zamon ilmiy-texnika inqilobi muammolari san'atda, ko'proq badiiy adabiyot hamda kino asarlarida kengroq aks etadi. Bu omil shaxsga, uning ichki dunyosiga, ruhiy holatiga, xulq-atvoriga ta'sir etishi tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, dramaturg Sharof Boshbekovning «Temir xotin» asarida texnik va texnologik yangiliklar (robot xotin), ilmiy kashfiyotlar emas, balki ular ta'sirida sodir bo'layotgan axloqiy-ruhiy jara-yonlar badiiy in'ikosning asosi qilib tanlab olingan.

Fan va texnika inson hayotida qanday ulkan ahamiyat kasb etishidan qat'i nazar, ular san'at orqali voqelikni aks ettirishda ustuvor maqomga ega bo'la olmasligi o'z-o'zidan ravshan. Chunki san'atda ifodalanadigan ilmiy tasavvurlar odamlar uchun faoliyat timsoli bo'lib xizmat qiladi. Mabodo, ilmiy-texnika, ekologik va boshqaruv muammolari badiiy tasvirlanganda obrazlarning his-tuyg'ularidan ajralib

qolsa, u yerda san'at amal qilmaydi. San'at hissiyotlar, tuyg'ular bilan tirik, u hissiy ta'sir etish, ibrat ko'rsatish, tarbiya berish qudratiga egadir.

Inson obrazi hamma vaqt ham san'atda bevosita ifodalanmasligi ma'lum. Masalan, rassomlik san'atining manzara tasviri yoki natyurmort turida inson qiyofasi ko'zga tashlanib turmaydi, biroq bu mazkur asarlarda inson qiyofasi aks etmaydi, degani emas, albatta. Binobarin, inson his-tuyg'ularining eng nozik va eng jozibali qirralari manzara tasvirida aks etishi sir emas. O'rol Tansiqboyev, Ne'mat Qo'ziboyev, Rahim Ahmedov, Ro'zi Choriyev kabi o'zbek musavvirlarining manzarali tasvir asarlari insonda yorqin ma'yuslik, beozor shodlik, tashvishli ehtiros, ko'tarinki ruh, hayotbaxsh orzu-umidlar, ijodkorlik va yaratish his-tuyg'ularini uyg'otadi.

Tasviriy san'atning natyurmort turi ko'proq jonsiz narsalar—mevalar, gullar, ichimliklar tasviridan iborat bo'lsa-da, bu xil asarlar mavzui ham baribir inson va uning hayotidir. Masalan, golland musavviri Vilem Xedaning «Somsa va nonushta» natyurmortida o'ta mahorat bilan chizilgan qadah, g'ijimlangan dasturxon, unga to'kilgan may tasvirlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, kartinadan nafaqat shisha, dasturxon ko'rinishini, ehtiyotsizlikdan to'kilgan mayni, balki insonning iliq nafasini, uning mahoratli qo'llari mazkur manzarani yaratganini aniq his etamiz. Bizni hozirgina sodir bo'lgan inson dramasini sezish hissi chulg'ab oladi.

Shunday qilib, san'at bizda insonning o'zini tasvirlash orqali ham, uning atrofidagi hodisalarni aks ettirish orqali ham muayyan tuyg'ular uyg'otadi. San'at narsalardan, tabiat hodisalaridan inson uchun ahamiyatli bo'lgan ma'no izlaydi, qidirib topadi va ko'rsatadi.

San'at voqelikni aks ettirib, barcha badiiy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirar va qamrab olar ekan, demakki, voqelik san'atning asosiy mavzui hisoblanadi. San'at voqelikka qadriyatli munosabat timsoli sifatida ayni vaqtda bilishning ham o'ziga xos alohida turini anglatadi. Chunki u obyektiv haqiqatlarni, estetik qadriyatlarni anglash va bilish jarayonining tarkibiy qismidir. San'at narsa-hodisalarining mohiyatini o'ziga xos tasviriy va ifodaviy yo'l bilan ochib beradi, inson ruhiy holatining eng nozik nuqtalarigacha kirib boradi.

San'at bilan fan madaniy faoliyatning mahsuli sifatida bir-biriga juda yaqin, lekin ular birining o'mini ikkinchisi bosa olmaydi. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani, Oybekning «Navoiy» romanlari tarixiy tadqiqotlar darajasida ma'lumot bera olmaydi,

tabiiyki, bu uning asosiy funksiyasi ham emas. Boshqa tomondan, muayyan tarixiy tadqiqotlar «O'tgan kunlar», «Navoiy» asarlarini o'qish jarayonida tug'ilgan tasavvurlar o'rmini bosolmaydi. San'atning fandan farqli jihati uning tarixiy jarayonlarni, xalq hayotining rang-barang sohalarini yakka olingan shaxslar taqdiri orqali ifodalashda ko'zga tashlanadi. San'at inson hayotining fan kuchi yetmaydigan sirli tomonlariga kira olish, uning xulq-atvori sabablari tagiga etish, o'ziga, odamlarga, tabiatga bo'lgan munosabatini aniqlashda ijtimoiy ongning boshqa turlaridan ajralib turadigan o'ziga xos qudratga egaligidadir.

San'at inson ko'z o'ngida jamiyat madaniy hayotining barcha murakkabliklarini, ehtiroslar va qarashlar jozibasini, ziddiyatli kayfiyatlarni o'ziga xos tarzda gavdalandiradi.

San'atning ijtimoiy hayotda tutgan o'rmini belgilash ko'p jihatdan uning mafkuraviy tabiatini anglash bilan bog'liqdir. Shuni ta'kidlash kerakki, san'at hech vaqt yolg'iz u yoki bu mafkura, u yoki bu qarashlarning emas, balki umuminsoniy manfaatlar va intilishlarni to'g'ridan to'g'ri ifodalash vositasidir. Har qanday mafkura umuminsoniy bo'lsagina san'at mag'zidan o'rin oladi. Mafkuraning san'at mag'ziga kirib, singib borish jarayoni xilma-xil shakl va yo'nalishlarga egadir.

San'at ma'naviy hayotda sodir bo'layotgan har qanday o'zgarishlarga munosabat bildiradi, davr ma'naviy-madaniy muhitining hamma tomonlarini, shuningdek, ijtimoiy tafakkur ruhini aks ettiradi. «Davr ma'naviy muhiti» san'at turlarining hammasida bir xil aks etmaydi. Bular orasida, masalan, badiiy adabiyot bunday «muhit»ga eng yaqin turadi, sho'rolar davrida yozuvchilar ijodida kommunistik mafkura muammolari nihoyatda keng o'rin egallaganligi bunga misol bo'la oladi. O'sha davrda ko'p yozuvchilarning roman, qissa, hikoya, drama, umuman asarlari badiiy to'qimasiga kommunistik mafkura g'oyalari keragidan ortiq darajada singdirilgan bo'lib, ular davr ma'naviy hayotining manzaralari, kommunistik-sinfy, siyosiy-axloqiy, falsafiy g'oyalar, aqidalar bilan to'lib-toshgan edi, o'z davri xususiyatini aks ettiruvchi «san'at-mafkura» tizimini gavdalandirardi.

San'at voqelikni aks ettirish jarayonida jamiyatda amal qilayotgan axloqiy munosabatlarni, odob qoidalarini, g'oya va qarashlarni, inson ichki dunyosini, axloqiy qiyofasini ham ochib beradi. Shu bois, san'atni inson axloq-odobining ko'zgasidir, deyish mumkin.

Axloqiy muammolar majmui badiiy asar mazmunining tarkibiy qismi ekanligi sir emas. Ayniqsa, badiiy adabiyot, teatr, kino, tasviriy san'at

asarlari muammolar tuguni, to'qnashuvlar, qahramonlarning fe'l-atvori, xatti-harakatlari, tasvirlanayotgan obyektning muallif ko'zi (aqli, iste'dodi) bilan baholanishi — bularning hammasi axloqiylik bilan sug'orilgan bo'ladi. Haqqoniylikka asoslangan san'at doimo ezgulikka xizmat qiladi. Amir Temur, Bo'ronli Edigey, Otabek, Anvar, Jalolidin, Ulug'bek, Navoiyning ramziy qiyofalarida xalqning o'lmas va abadiy axloqiy fazilatlari tarannum etilgan. Ayni paytda, san'at yovuzlik va axloqsizlikning xunuk va pastkashligini fosh etish orqali ham axloqiylikka xizmat qiladi. Masalan, A. Qahhomning «Og'riq tishlar», E. Vohidovning «Oltin devor», B. Rahmonovning «Yurak sirlari», «Surmaxon» komediyalarida yovuzlik, xudbinlik, loqaydlik, yulg'ichlik kabi xunuk illatlarni ochib tashlash aslida ezgulik, poklik, rostgo'ylik, halollik kabi insoniy fazilatlarni tasdiqlashga bo'ysundirilgan.

San'at qadim davrlardan beri din bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelgan, qadimdan san'at va din an'anaviy bir butunlikni tashkil etgan edi. San'at va din zaminida yotgan his-tuyg'u bir xil ma'noga ega emas, albatta. Masalan, san'atda ham, dinda ham xayol surish mavjud, biroq badiiy xayol surish diniy xayoldan tubdan farq qiladi. Din, oldingi sahifalarda qayd etilganidek, voqelikni mavhum, qiyosiy tarzda xayol qilsa, san'atda xayol voqelikka nisbatan timsollar vositasida mujassamlashadi.

Agar din voqelikni mavhum shaklda aks ettirsa, san'at in'ikosda dalil-isbotli tarixiylikka asoslanadi. Din ko'proq ilohiylikka suyanadi, san'at esa dunyoviylik ruhi bilan sug'orilgan bo'ladi. Lekin san'at asarlarida ilohiylik ramzlari bevosita dunyoviylikni aks ettirishi ham mumkinligi isbotlangan. San'at asari qaysi dinga mansub ijodkor tomonidan yaratilgani ham muhim ahamiyatga molikdir.

San'at va falsafa aloqadorligi mavzularning o'zaro yaqinligida namoyon bo'ladi. Zero, inson hayoti mazmunini, qismat va baxt-saodatni anglash, in'ikos etish bilan bog'liq muammolar san'at uchun ham, falsafa uchun ham asosiy mavzudur.

San'atkorlar bir vaqtning o'zida ham mutafakkir, yaqqol buyuk faylasuf ko'zga tashlanadi bo'lganliklari tufayli ham san'at bilan falsafa o'rtasidagi bog'liqlik yaqqol. Bunga Ibn Sino, Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Ulug'bek, Bobur, Mashrab, Ahmad Donish, Mahmudxoja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Oybek va boshqa ijodkorlar hayoti va ijodi misol bo'la oladi.

San'at va falsafa aloqalari xilma-xil ko'rinishlarga egadir, san'at inson mohiyatini falsafa orqali izohlamaydi, balki san'at asarlarida shaxs

haqidagi qarashlar hayotni badiiy anglash jarayonida, ijodkorning boy ijtimoiy tajribasi asosida shakllanadi.

Hozirgi davrda san'atni o'ziga xos «falsafiyalashtirish», voqelikni badiiy tasvirlashni falsafiy fikr-mulohazalar bilan «boyitish»ga intilish kuzatilmoqda, bunda san'at bilan falsafa hamkorligi yangi mazmun kasb etmoqda. Masalan, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Tog'ay Murod asarlari o'zining badiiy yuksakligi, falsafiy fikrlarga boyligi bilan ajralib turadi. San'atning ijtimoiy mazmuni xalqchillik tushunchasi orqali namoyon bo'ladi. Xalqchillik tushunchasi san'at ravnaqining bir qator yo'nalish va tomonlarini tavsiflashga yordam beradi. Mazkur yo'nalishlardan ilk bor xalq ijodi ajralib chiqqan. Xalq yaratgan badiiy faoliyat turlari va ko'rinishlari majmui xalq ijodini tashkil etadi. Xalq og'zaki ijodi, xalq musiqasi, xalq raqslari, xalq amaliy san'ati, xalq badiiy hunarmandchiligi, xalq me'morchiligi va boshqalar xalq amaliy san'atining ko'p tarqalgan ko'rinishlaridir.

San'atda xalqchillik ruhi haqqoniylik ruhi bilan hamohangdir. Haqqoniylik hamma vaqt xalqchillik mazmuniga ega bo'ladi, chunki haqqoniylik xalqning maqsad-intilishlariga mos keladi, uning ma'naviy ravnaqi va axloqiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Demak, xalqchillik bilan haqqoniylik o'zaro chambarchas bog'liqdir. San'atning xalqchilligi unda umuminsoniy qadriyatlar qay tarzda aks etishi bilan bog'langan. San'atkor ijodida umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik ruhining barqaror bo'lishi ijodkorning xalqchilligini belgilaydigan asosiy mezonidir.

San'at asarlarida ifodalangan umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligi mustaqil O'zbekiston madaniyati ravnaqiga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Shuning uchun san'atning g'oyaviy-badiiy salohiyatini inson tarbiyasiga yo'naltirish, «yoshlarga ibrat bo'ladigan barkamol insonlar, zamonaviy qahramonlar timsolini yaratish» uning asosiy vazifasidir<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «O'zbekiston», 2000, 64—65 b.

## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Siyosiy madaniyat tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. O'zbekistonda huquqiy-demokratik jamiyat qurishda siyosiy madaniyat qanday rol o'ynaydi?
3. Iqtisodiy madaniyat qanday tarkibiy qismlardan iborat?
4. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida iqtisodiy madaniyatning vazifalari nimalardan iborat?
5. Axloqiy madaniyatning sog'lom avlodni tarbiyalashdagi roli nimalarda ko'rinadi?
6. Axloqiy tarbiya va axloqiy madaniyatning o'zaro aloqadorligi haqida so'zlang.
7. Estetik madaniyatning mohiyati va mazmunini tushuntirib bering.
8. Ma'naviy madaniyat tizimida dinning tutgan o'rni nimalar bilan belgilanadi?
9. Kishilarni axloqiy ruhda tarbiyalashda din qanday imkoniyatlarga ega?
10. Fanning madaniyat hodisasi ekanligi nimalarda ko'rinadi?
11. Bozor munosabatlariga o'tishda fanning vazifasini tushuntiring.
12. San'atning madaniyat hodisasi ekanligini qanday izohlaysiz?
13. San'atning asosiy funksiyalarini sanab ko'rsating.
14. San'atning kishilarni tarbiyalashdagi roli nimalardan iborat?
15. Mustaqillik sharoitida madaniyatga davlat homiyligi qanday yo'nalishda olib borilmoqda?
16. Milliy istiqlol g'oyasini xalq ongi va qalbiga singdirishda madaniyat qanday rol o'ynaydi?

## NAZORAT ISHLARI UCHUN MAVZULAR

- Mustaqillik mafkurasini shakllantirishda siyosiy madaniyatning roli.
- Milliy mafkuraning ijtimoiy vazifalari.
- O'zbek jamiyati siyosiy madaniyatining tarixiy tiplari.
- Shaxsning siyosiy madaniyati tushunchasi.
- Iqtisodiy madaniyat va uning tarkibiy qismlari.
- Iqtisodiy faoliyat — iqtisodiy madaniyatning muhim unsuri.
- Iqtisodiy ong va iqtisodiy munosabatlar tushunchasi.
- Shaxs iqtisodiy madaniyati va uning mazmuni.
- Axloqiy madaniyat va uning komil insonni tarbiyalashdagi roli.

- Axloqiy ong tushunchasi.
- Axloqiy munosabatlarning mazmuni.
- Axloqiy madaniyat kategoriyalari.
- Shaxs va jamiyat axloqiy madaniyati, ularning o‘zaro aloqadorligi.
- Estetik madaniyat va uning jamiyat ma’naviy hayotida tutgan o‘rni.
- Estetik faoliyatning mohiyati, uning asosiy sohalari.
- Estetik va badiiy madaniyat, ularning o‘zaro aloqadorligi.
- Fan madaniyat hodisasi ekanligi.
- Fanning asosiy funksiyalari.
- Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida fanning roli.
- O‘zbekistonda tarkib topgan ilmiy maktablar.
- Ilmiy kadrlar tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari.
- Madaniyat tizimida dinning roli.
- Milliy mustaqillik va diniy qadriyatlar.
- Islomiy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari.
- Mustaqillik sharoitida san’at taraqqiyotida g‘oyaviy tamoyillarining o‘zgarishi.
- San’atning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o‘rni.

## MADANIYATIMIZ TARIXINING BUYUK NAMOYANDALARI

*Milliy mustaqillik tufayli yangilanayotgan jamiyatimizni ma'naviy-axloqiy jihatdan mustahkamlash va taraqqiy ettirishda xalqimizning boy madaniyati tarixi haqida chuqur bilimga ega bo'lish, jahon madaniyati tarixida munosib o'rin egallagan allomalarimizning ilmiy-falsafiy, axloqiy-badiiy merosini har tomonlama o'rganish hamda o'zlashtirish katta ma'rifiy ahamiyatga egadir. Madaniyat yutuqlari ma'naviy jarayonda voyaga etgan, uni o'z faoliyatida gavdalantirgan va asarlarida mujassamlashtirgan donishmandlar, olimlar, adiblar, din va ma'rifat arboblari qoldirgan tarixiy merosning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu sababli, ular qoldirgan qadriyatlar, ulkan asarlar haqida to'la tasavvurga ega bo'lish o'zligimizni anglashda, milliy istiqlol g'oyasining tarixiy ildizlari bilan tanishishda muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuni hisobga olib, o'zbek tilida chop etilgan mavjud adabiyotlardan ijodiy foydalangan holda bu buyuk siymolar haqida tayyorlangan qisqacha ma'lumotnomani o'quvchilar diqqatiga havola etishni lozim topdik. Bu ma'lumotlar bilan talaba yoshlarning yaqindan tanishishlari ularning falsafa, axloqshunoslik, estetika, madaniyatshunoslik ilmidan, ma'naviyat asoslaridan olgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirishda foydadan holi bo'lmaydi, deb o'ylaymiz.*

**MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIY.** (783—850). Xorazmlik buyuk olim boshlang'ich ta'limni o'z yurtida xususiy muallimlardan oladi, so'ngra Marvdagi madrasada tahsil ko'radi, keyinchalik Bag'doddagi «Bayt-ul hikma» («Donishmandlar uyi») da ilmiy faoliyatini davom ettiradi. Bu yerda o'rta osiyolik Ahmad al-Farg'oniy, Hamid ibn Abdumalik Marvarrudiy, Abbos Javhariy kabi olimlar bilan hamkorlikda ishlaydi.

**Asarlari:** «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob». «Al-jabr»dan bizga ma'lum bo'lgan «algebra», «algoritim» kabi atamalar kelib chiqqan. Uning «Hind hisobi bo'yicha kitob», «Astronomik zij»

nomli asarlarida astronomiyaga oid muammolar haqida soʻz yuritiladi. «Yer surati haqida kitob»ida 2400 ta shahar, dengiz, orol va boshqa obyektlarning joylashishi, koordinatlari va holatlari haqida maʼlumot beriladi. Nil daryosi, Azov, Kaspiy va Orol dengizlarining juʼgʻrofiy xaritalari, manzaralari chizib berilgan. «Asturlob bilan ishlash haqida kitob»; «Quyosh soatlari haqida kitob», «Yahudiylar eralari va bayramlarini aniqlash haqida risola»; «Kitob at-tarix»; «Kitob ar-ruhnoma» nomli asarlari shuhrat topgan.

**ABUL ABBOS AHMAD IBN MUHAMMAD IBN KASIR AL-FARGʻONIY** (taxminan 797-865 yillarda yashagan). Manbalarda aytilishicha, u boshlangʻich bilimini olgach, oʻsha davrning maʼmuriy markazi va yirik ilm dargohi Marv shahriga yoʻl oladi. Xalifa al-Maʼmun Bagʻdodda taxtga oʻtirganda, Marvda tashkil etilgan ilmiy jamoani ham oʻzi bilan birga oʻsha yerga olib ketgan. Ahmad al-Fargʻoniy Bagʻdodda tashkil etilgan «Bayt ul-hikma»da faoliyat koʻrsatgan. Tadqiqotchilar uning sakkizta asari mavjudligini qayd etadilar.

**Asarlari:** «Kitob fiy harakat as-samoviya va javomiʼ ilm an-nujum» («Samoviy harakatlar va umumiy astronomiya kitobi»); «Kitob al-komil fiy sanʼa al-asturlob» («Asturlob yasash haqida kitob»); «Kitob amal bil asturlob» («Astrolobiya bilan ishlash kitobi»); «Jadval al-Fargʻoniy» («Al-Fargʻoniy jadvallari»); «Risola fiy maʼrifa al-avqot allatiy yakun al-qamar fiyho favq al-arz av tahtho» («Oyning Yer ostida va ustida boʻlish vaqtlarini aniqlash haqida risola»); «Hisob al-aqolim as-sabʼa» («Etti iqlimni hisoblash»); «Kitob amal ar-ruhomat» («Quyosh soatini yasash kitobi»); «Taʼlil li zij al-Xorazmiy» (Al-Xorazmiy «Zij»ining nazariy qarashlarini asoslashi).

Al-Fargʻoniy oʻz kashfiyotlarida geliotsentrizmga oʻtish uchun ilmiy zamin yaratdi; Ekvator va ekliptika tekisliklaridagi doimiy burchakni 23 daraja-yu 35 minut deb aniq oʻlchadi; sferalar radiusini birinchi marta belgilab berdi; Oy va Quyosh tutilishlarini tadqiq etdi; Yer yoyining qaysi uzunligi 1° ga toʻgʻri kelishini oʻlchab, bu miqdorni aniqladi, uni 360 ga koʻpaytirib, 40. 800 km. hosil qilishini qayd etgan. Yer shari meridianining uzunligini aytib berdi; Nil daryosi gidrometeorologik tabiatini aniqlaydigan asbob — «Miqyosi Nil» ni yasadi. Suv uchun toʻlanadigan soliq shunga asoslanganligi boisidan xalq uni «adolat tarozisi» deb atadi; inson yashaydigan maydonni yetti iqlimga boʻldi; vaqt oʻlchamini; osmonning kelajak manzarasini ifodalaydigan usturlob nazariyasini yaratdi; va h. k.

**ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN ISMOIL AL-BUXORIY** (810—870) yoshligidanoq arab tili va hadis kitoblarini sevib o'rgangan, ularni yod olgan, 16 yoshida onasi va akasi Ahmad bilan haj safariga otlanadi. Uning xotirasi har qanday kitobni bir marta mutolaa qilishda yod olish qobiliyatiga ega bo'lgan. U yuz ming sahih va ikki yuz ming g'ayri sahih hadisni yoddan bilgan.

**Asarlari:** «Al-Jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam»); «At-Tarix al-kabir» («Katta tarix»); «Al-Adab al-mufrad» («Adab durdona-la-ri»); «At-tarixal-avsot» («O'rtacha tarix»); «Al-Jome' al-kabir» («Katta hadislar to'plami»); «Kitob al-ilal» («Nuqsonli hadislar kitobi»); «Barr-al-volidayn» («Ota-onani hurmat qilish»); «Kitob al-ashriba» («Ichimliklar kitobi»); «Kitob az-zuhfo» («Zaiflar kitobi»); «Asomi us-sahoba» («Sahobalarning ismlari»); «Kitob al-Kuna» («Hadis roviylarining taxalluslari haqida»).

Imom Buxoriy Xartang qishlog'i (hozirgi Chelak tumani) da 870 yili vafot etgan. Bu yerda unga bag'ishlab me'moriy majmua qurilgan (1998).

**ABU ISO MUHAMMAD AT-TERMIZIY** (824—892) Termiz shahrida tavallud topgan. Ko'p yillar dunyoning turli shaharlarida bo'lib, o'z bilimini oshirgan. U hadis ilmini chuqur o'rgangan, ko'plab shogirdlar yetishtirgan. 892 yili Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida vafot etgan.

**Asarlari:** «Al-jomi'» («Jamlovchi»); «Ash-shamoil an-nasavia» («Payg'ambarning alohida fazilatlarini»); «Al-ilal fi-l-hadiy-s» («Hadislardagi og'ishishlar»); «Risola fi-l-xilof va-l-jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola»); «At-Tarix» («Tarix»); «Kitob ul-asmo va-l-kuna» («Ismlar va laqablar haqida kitob»).

At-Termiziy asarlari ichida eng mashhuri «Al-jomi'» bo'lib, u payg'ambar alayhissalom hayoti va faoliyatiga doir muhim va ishonarli manbalardan biri hisoblanadi.

**ABU NASR MUHAMMAD IBN MUHAMMAD IBN UZLUG' FOROBIY** (873 — 950) Sirdaryo bo'yidagi Forob-O'tror degan joyda dunyoga kelgan. U Toshkent, Samarqand va Buxoro, shuningdek, Bag'dod shaharlarida o'z bilimini oshirgan. Forobiy umrining so'nggi yillarini Halab, Damashq shaharlarida o'tkazgan. U 160 ga yaqin asar yozgan.

**Asarlari:** «Ixso al-ulum»; «Hikmat asoslari»; «Arastu logikasiga talqinlar»; «Katta muzika kitobi»; «Grajdanlik siyosati»; «Fozil shahar

aholilarining raylari»; «Mantiqqa kirish»; «Vakuum haqida»; «Metafizika tezislari» va boshqalar.

Forobiy dunyoqarashini panteistik g'oya tashkil etadi. Uning fikricha, mavjudot emanatsiya yordamida ibtidodan bosqichma-bosqich paydo bo'lgan. Forobiy ijtimoiy qarashlarida ma'naviy hayotga oid ko'pgina qimmatli fikrlarni olg'a surgan. U insoniyat jamiyati vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy sabablarini ko'rsatib bergan. Jamiyat axloqining vujudga kelishi, inson va jamiyatning o'zaro munosabatini tekshirgan. Shuningdek, u insoniylik, adolat, yetuk jamoa, komil inson muammosini o'rtaga qo'yadi va ularni nazariy jihatdan asoslab bergan.

### **ABUBAKR MUHAMMAD IBN JA'FAR NARSHAXIY (943)**

Buxoro viloyatiga qarashli Narshax mavzesida tug'ilgan. Yoshligidan qadimgi tarix, geografiya, arab tilini puxta o'rgangan.

**Asari:** «Buxoro tarixi». Bu asar turli tarixiy manbalarda «Tarixi Narshaxiy», «Axbori Buxoro», «Tarixi Buxoro», «Buxoro viloyatining tadqiqi» kabi nomlar bilan atalib kelingan. Asarda qadimgi Buxoro aholisining tarixiy kasb-korlari (ovchilik, baliqchilik, dehqonchilik kabi), Afshona, Romiton, Varaxsha kabi qadimiy maskanlarning barpo etilishi, Markaziy Osiyo hududlarida arab hukmronligining o'rnatilishi, Islomning tarqalishi, Muqanna qo'zg'oloni, sosoniylar davlati, Buxorodagi iqtisodiy- ijtimoiy va madaniy hayot, er-suv munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Asar nafaqat Buxoro, balki butun Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda noyob manba hisoblanadi. Kitob 1966, 1991 yillarda o'zbekcha chop etilgan.

### **ABU MANSUR IBN MUHAMMAD IBN MAHMUD AL-HANAFIY AL-MOTURIDIY AS-SAMARQANDIY (vafoti — 945)**

sunniy mazhabiga tegishli Moturidiya oqimining asoschisi Moturid (Jomboy) qishlog'ida tug'ilgan. Boshlang'ich ma'lumotni o'z qishlog'ida olgach, o'qishni Samarqandda davom ettirgan. Manbalarda qayd etilishicha, Moturidiy fiqh va kalom bilimlarini chuqur egallagan, Hanafiya mazhabi mudarrislaridan saboq olib o'z tasavvurlarini chuqurlashtirgan, keyinchalik shu e'tiqodni ilmiy asoslab bergan.

**Asarlari:** «Kitob at-tavhid», «Kitob al-maqomat», «Kitob ta'vilot al-Qur'on», «Kitob bayon va umm al-mu'tazila», «Kitob al-jadal», «Kitob al-usul» («Diniy ta'lim usuli kitobi»). Uning eng nodir hisoblangan «Kitob at-tavhid» asari hozirgacha saqlanib qolgan. Al-Moturidiy islom olamida «Imom al-Xuda» va «Imom al-mutakallimun» («Hidoyat yo'li imomi va mutakallimlar imomi») nomi bilan mashhur

bo'lgan. Uning asarlarida Alloh, inson va ilm masalalari markaziy o'rinda turadi. Uning fikricha, bilim ikki xil ko'rinishga ega bo'ladi, birinchisi — Alloh bilimi («al-ilm billoh») bo'lib, mutlaq haqiqatdir. Ikkinchisi — Alloh to'g'risidagi bilim bo'lib «ilm-olloh» deb ataladi. Alloh, olam va insonni bilish bir-biri bilan bog'lanib, ularga aql, hissiy mushohada va xabarlar orqali erishiladi.

**ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN AHMAD IBN YUSUF AL-XORAZMIY** (vafoti — 997)ning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Qiyot shaharlarida o'tgan, hayotining muayyan davri Xurosonda kechgan.

**Asari:** «Mafotih al-ulum» («Ilmlar kalitlari»). Bu qomusiy asar falsafa, mantiq, tibb, ilmi nujum, musiqa va boshqa sohalarga bag'ishlangan. Unda ilmlar quyidagicha tasnif qilinadi:

Shariat ilmlari: fiqh, ya'ni islom huquqshunosligi; Kalom, ya'ni islom asoslari; Grammatika (Sarf va nahv); Ish yuritish; She'riyat va aruz; Tarix.

Nazariy falsafa: tabiiyot ilmlari va fizika (tibb, ob-havoni aniqlash, mineralogiya, kimyo, mexanika kabilar); Ilohiyot, ya'ni metafizika — oliy ilm; Mantiq.

Amaliy falsafa: Etika (insonning o'zini boshqarish ilmi); Uyni boshqarish; Siyosat-shahar — davlatni boshqarish.

**ABU ALI IBN SINO** (980—1037)ning asl ismi Husain, otasining ismi Abdulloh, mashhur qomusiy olim, tabiatshunos, faylasuf, astronom, matematik, musiqashunos, huquqshunos, tilshunos, yozuvchi va shoir Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida dunyoga kelgan. Ibn Sino «Shayx-ur-ra'is» («Olimlar boshlig'i») nomi bilan shuhrat qozongan. U 450 dan ortiq asar yozib qoldirgan. Shulardan 190 ga yaqini falsafa, mantiq, ruhshunoslik, axloqshunoslik va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan.

**Asarlari:** «Al-qonun fit tibb» («Tibb ilmlari qonuni»); «Kitob ash-shifo» asari mantiq, fizika, matematika, metafizikani o'z ichiga oladi; «Kitob ul-insof» (20 tomlik); «Kitob lison ul-arab» («Arab tili bo'yicha 10 jildidan iborat kitob»); «Donishnoma» (4 qismdan iborat); «Risola at-Tayr» («Qush tili»); «Salamon va Ibsol»; «Hay ibn Yakson»; «Kitob al-ishorat»; «Yusuf qissasi»; «Urjuzalar»-tibbiy dostonlar va h. k.

Ibn Sino o'z asarlarida ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy, ma'naviy, ta'lim-tarbiya, inson salomatligi masalalariga katta e'tibor bergan. Tarbiyani aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, nafosat tarbiyasi,

yoshlarga hunar o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan tarbiyadan iborat, deb hisoblagan.

**ABU RAYHON BERUNIY** (973 — 1048) Xorazmning qadimiy poytaxti Kat shahrida dunyoga kelgan, G'aznada vafot etgan.

**Asarlari:** «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Mas'ud qonuni», «Hindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Saydana».

Beruniy madaniy hayot sohasida quyidagicha fikrlarni ilgari suradi:

— fanning sofliги uchun kurashgan; dunyoni deistik tushunish (xudo dunyoni yaratib, uning ishlariga aralashmaydi, degan diniy-falsafiy yo'nalish)ga moyil bo'lsa-da, ya'ni xudo dunyoni yaratganligini tan olsa-da, tabiatni mustaqil deb hisoblaydi; Ibn Sino bilan qilgan ilmiy munozarada o'ziga xos atomistik nazariyani himoya qiladi; geotsentrik va geliotsentrik tasavvurlarning tengligi haqidagi farazlarni ilgari suradi; insonning hayvondan o'z aqli bilan farq qilishini ta'kidlagan;

— xalqning rang va til sohasidagi farqlari, urf-odatlardagi tafovutlarni geografik muhitga bog'lab tushuntiradi; jamiyatning yuzaga kelishida kishilarning moddiy ehtiyojiga alohida e'tibor beradi; inson boshqa odamlarning baxt-saodati haqida doim g'amxo'rlik qilishi, o'ylashi kerak, degan axloqiy qoidani olg'a suradi; insonning qadr-qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishida, deb hisoblaydi; mamlakat ravnaqi fan taraqqiyotiga bog'liq, insonning eng katta baxti esa bilishdadir, degan tamoyilga asoslanadi.

**NOSIR XISRAV** (1004—1088) Qabodiyon (Tojikiston)da tavallud topgan. U ko'plab adabiy, ilmiy, falsafiy asarlar va risolalar muallifidir.

**Asarlari:** «Ro'shnoinoma»; «Saodatnoma» (masnaviyar); «Zod-ul-musofirin»; «Xon-ul-ihvon», «Din va'jli»; «Bo'ston ul-uqul»; «Jome' ul-hikmatain»; «Safarnoma» (nasriy risola).

Nosir Xisrav o'zining ma'naviy hayoti, diniy-falsafiy dunyoqarashi jihatidan botiniya va ismoiliya mazhabining izdoshi va asoschilaridan hisoblanadi. Nosir Xisrav insonning poklanish jarayoniga alohida e'tibor qaratadi. Buning uchun g'ayri insoniy harakat, yomon xulq-atvorlardan saqlanishga, g'ariblar diliga ozor bermaslikka chaqiradi. Axloqiy tarbiyaning roliga yuksak baho beradi. U odamlarni molu mulkka berilmaslikka, adolat va insofga da'vat etadi. «Ma'naviy jihatdan ulg'aymoqchi bo'lsang, martabangni yuqori ko'tarishni istasang, jahonning ulug'lariga yaqinlashishni xohlasang, ilm o'rgan, aqlu idrokingni takomillashtir», deydi u.

U o'z asarlarida odamlarni yuksak odamiylik fazilatlarini egallashga chaqiradi. Uning fikricha, ahillik, adlu insof, mehru oqibat, o'zaro

ittifoq ustuvor bo'lgan yurida zulm mag'lub bo'ladi, inson sharafi g'olib keladi, o'zaro nizolar barham topadi.

**JURJONIY ZAYNIDDIN ABUL FAZOYIL ISMOIL IBN HUSAYN AL-XORAZMIY** (1042—1136) ulug' olim va eng mashhur tabib hisoblangan. U Jurjon shahri (Eron shimoli)da tug'ilgan bo'lsa ham umrining ko'p qismini Xorazmda o'tkazgan va al-Jurjoniyy al-Xorazmiy taxallusi bilan mashhur bo'lgan. Jurjoniyy Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad ibn Anushtagin (1097 — 1127) va uning o'g'li Alouddavla Otsiz (1127 — 1156) saroyida xizmat qilgan.

**Asarlari:** «Al-Xufayy al-a'loiy» («Poyalarning yuqori qismi»); «At-Tibb al-mulukiyy»; «Kitob az-zahiray Xorazmshohiy»; «Kitob al-ahrod» («Hasad tufayli kelib chiqadigan kasalliklar»); «Kitob yodgor» («Esdalik kitobi»); «Kitob fi rad alal-falosafa» («Faylasuflarga qarshi raddiya kitobi»); «Kitob vasiyatnoma» va boshqalar;

Jurjoniyy fikricha, haqiqiy lazzat to'kin-sochin hayot kechirishda emas, balki aqliy va ma'naviy kamolotga erishishdadir.

**ZAMAHSHARIY ABUL QOSIM MAHMUD IBN UMAR IBN AHMAD** (1075—1144) Xorazmning Zamahshar qishlog'ida tug'ilgan. U dastlabki ma'lumotni o'qimishli otasidan olgan, 17 yoshga to'lganda Buxoroga borgan, shuningdek, bilimini oshirish yo'lida dunyoning ko'pgina shaharlarida bo'lgan. U Shosh, Bag'dod, Hijozda, ikki marta Makka shahrida bo'lib, besh yilcha yashab Jorulloh («Ollohning qo'shni-si») degan sharaflı nomga ega bo'lgan. U grammatika, lug'atshunoslik, aruz ilmi, jug'rofiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq asarlar yozdi. Az-Zamahshariy o'z ilmiy va ijodiy faoliyatida arab tili va adabiyotiga chuqur hurmat bilan qaragan, o'z asarlarini faqat arab tilida yaratgan.

**Asarlari:** «Al-mufasssal» (arab tili grammatikasiga oid asar); «Muqaddimat ul-adab» (Adab ilmiga muqaddima); «Asos ul-balog'a» («Notiqlik asoslari», arab tili fasohati va mukammalligi haqida fikr yuritadi); «Al-mujmal-arabiy al forsıy»; «Al-Kashshof» (Qur'on haqiqatlariga bag'ishlangan); «Maqomat az-Zamahshariy». Unga «Xorazm faxri», «Arab ustozı» kabi unvonlar berilgan. Uning «Al-Kashshof» asari asrlar davomida Qur'oni Karimni o'rganish sohasida asosiy qo'llanma bo'lib kelmoqda. Falsafiy qomuslarda yozilishicha, Zamahshariy dunyoqarashining negizida asosan ikki narsa yotadi: birinchidan, u islom ilohiyoti qobig'ida sunniylikka ma'lum darajada muxolif sifatida ajrab chiqqan mo'tazaliylik oqimiga moyil bo'lgan, ikkinchidan, bilish jarayonida aql orqali bilib olingan haqiqatlarni tan olib, ratsionalizمنى

qo'llab-quvvatlagan. U aqliy bilishni haqiqat mezoni deb hisoblaydi, har qanday mushkul ish aql egalari tufayli isloh qilinishini ta'kidlaydi.

**BURHONIDDIN AL-MARG'INONIY** (1123-1197)-Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniyl al-Marg'inoniy Qur'on, hadis ilmlarini mukammal egallab, fiqh-islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur ilmga ega bo'lgan mutafakkir bo'lgan. U Burhon ud-din va-l-milla (Islom dalili) va Burhoniddin al-Marg'inoniy nomlari bilan mashhur bo'lgan. Olim boshlang'ich bilimini Marg'ilonda olgan, keyin Samarqandga ko'chib borgan va butun umrini shu erda o'tkazgan, 1149 yili olim hajga safar qilgan.

**Asarlari:** «Bidoyat al-muntahiy» («Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim»); «Kifoyat al-muntahiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta'lim»); «Nashr ul-mazhab» («Mazhabning yoyilishi»); «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda qiluvchi kitob»); «Manosik ul-haj» («Haj marosimlari»); «Majmua ul-navozil» («Nozil bo'lgan narsalar to'plami»); «Kitob ul-faroiz» («Farzlar kitobi»); «Hidoya».

«Hidoya» yuqoridagi asarlarining eng ixchami, izchil va mukammalidir. U Hanafiya mazhabidagilar uchun asosiy qo'llanmadir.

«Hidoya» to'rt juzdan iborat: birinchi juzga ibodat (namoz, ro'za, zakot, haj) masalalari kiritilgan. Ikkinchi juzdan nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo'qolganlar, sherikchilik vaqf mulki kabi masalalar joy olgan. Uchinchi juzda esa oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, pulni birovga o'tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, vakolat, da'vo, iqror bo'lish, sulh, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg'a, ijara, homiylik, qullar va bosqinchilik masalalariga oid muammolar haqida so'z beradi. To'rtinchi juzda shafolat, merosni taqsimlash, dehqonchilik hamda bog'dorchilik xususida, shartnoma, qurbonlik qilish, taqiqlangan ichimliklar, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar, xun haqi to'lash, vasiyat kabi masalalar haqida fikr yuritiladi.

«Hidoya» bir necha asrlardan buyon Sharqda, shu jumladan, Markaziy Osiyoda huquqshunoslik bo'yicha asosiy qo'llanma bo'lib kelmoqda, asar o'zbek va rus tillarida chop etilgan.

**XAYYOM G'IYOSIDDIN ABDULFATH UMAR IBN IBROHIM** (1040—1123) Nishopur shahrida tug'ilgan, G'aznaviylar hokimiyati yemirilib, saljuqiylar hukmronligi davrida yashab ijod etgan. U Forobiy, Beruniy va Ibn Sino singari buyuk olimlarning ilmiy, falsafiy-ma'naviy merosini yanada rivojlantirgan, olim sifatida falsafa, riyoziyot, falakiyot va fizikaga oid bir qancha asarlar yozgan, ruboiylari shuhrat qozongan.

**Asarlari:** «Borliq va burchlanmoq to'g'risida risola»; «Uch savolga javob»; «Aql olami butun umumiy fanning predmeti to'g'risida»; «Borliq to'g'risida risola»; «Talab bo'yicha kitob» (hamma mavjudot to'g'risida); «Ruboiyot»; «Jaloliddin taqvimi», «Navro'znoma» va h. k.

Umar Xayyom fikricha, narsalarda «umumiy aql», saxovat va himmat tashuvchi «ijodchi aql» mavjud. Undan «umumiy jon», «umumiy buyum» kelib chiqadi. «Yaratuvchi aql»dan paydo bo'lgan olam harakat va o'sish jarayonini boshidan kechirib turadi. «Umumiy buyumlar» tabiatga bo'ysunadi, tabiat to'rt unsur (havo, suv, o't, yer-tuproq)dan tashkil topgan. Inson o'zining so'zlashish qobiliyati bilan hayvondan farq qiladi, olam obyektiv qonunlar asosida rivojlanadi: «Sen, mendan oldin ham tun-kun bor edi», deb yozadi Umar Xayyom. Mantiq voqelikni bilishning muhim quroli, haqiqatga erishishning vositasidir. Ilm-fanda, ayniqsa, falsafa sohasida barcha fikrlar mantiqqa asoslanishi zarur.

•

**XOJA AHMAD YASSAVIY** (1041—1167) Sayramda Shayx Ibrohim oilasida dunyoga kelgan. U Buxoroda ta'lim olgan. «Yassaviya» tariqatining qoidalari Xoja Ahmad Yassaviy tomonidan ishlab chiqilgan.

**Asari:** «Hikmatlar». Asarda bayon etilishicha, inson mehr-shafqatli bo'lishi, halol-pok, o'z qo'l kuchi, halol mehnati bilan kun kechirishi orqali Olloh visoliga yetishi mumkin. Ahmad Yassaviy o'z she'rlarida mashhur mutassavvuf olim Mansur Halloj (858 — 922) nomini chuqur hurmat bilan tilga oladi.

Yassaviy molu dunyo to'plashga harakat qilmagan, bechorahol umr-guzaronlik qilgan. Mol-dunyo va davlat orttirishga mukkasidan ketgan, xasis va oxiratni o'ylamaydigan kishilarni ogohlantirib, shunday deb yozgan edi:

«Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdan o'taro,  
Ishonmagil molingga, bir kun qo'ldan ketaro,  
Ota-ona, qarindosh, qayon ketdi, fikr qil,  
To'rt oyoqli cho'bin ot bir kun sango yetaro».

Ahmad Yassaviy butun turkiyzabon xalqlarning madaniy hayotida muhim rol o'ynagan buyuk mutasavvuf olim, donishmand ulamo va ustoz sifatida shuhrat qozongan.

**MAHMUD QOSHG'ARIY** (XI asr) Markaziy Osiyo ilk o'rta asr madaniyatining buyuk namoyandalaridan biridir. U turkiy tillarni o'rganish sohasida keng shuhrat qozongan, XI asrda Movarounnahrda

somoniylar o'rnini qoraxoniylar sulolasi egallagan, turkiy adabiy til keng urf bo'la boshlagan davrda yashagan. Mahmud Qoshg'ariy Qashqarda tug'ilib o'sgan bo'lsa-da, turkiy o'lkalarning ko'pgina shaharlarida bo'lib, til sohasida boy material to'pladi.

**Asari:** «Devoni lug'atit turk». «Devon»da 7500 dan oshiq turkiy so'z va iboralar izohlangan. Qoshg'ariy kishilarni ilm o'rganishga da'vat etgan, jaholat, kibru havoni, molu dunyoga hirs qo'yish, baxillik va ochko'zlikni qoralagan, saxovat va himmat ko'rsatishni, ota-onani hurmat qilishni ulug'lagan. Olim bilimdonlikni ulug'lagan, o'z o'g'liga murojaat qilib, faqat bilimdon odamlar bilan muomala qilishni, ularning pand-nasihatlariga quloq solib, hikmatlarini o'rganishga chaqiradi.

Mahmud Qoshg'ariyning ma'naviy merosi jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan yuksak qadrlangan va u qiyosiy tilshunoslikning asoschisi deb tan olingan. Olimlarning yozishicha, «Devon»da dunyo xaritasi doira shaklida chizib ko'rsatilgan, uning markazida Markaziy Osiyo joylashgan.

**YUSUF XOS HOJIB** (taxminan 1019-20 yillarda tug'ilgan, vafoti noma'lum) XI asrning ko'zga ko'ringan shoiri va mutaffakiri, u Bolo-sog'un (Qirg'izistondagi To'qmoq) shahri yaqinida tug'ilgan.

**Asari:** «Qutadg'u bilig» doston («Baxtga eltuvchi bilim»). Asar Qashqar hokimi Sulaymon Arslon Qoraxonga bag'ishlangan (1069). Unga Xos Hojib, ya'ni buyuk xonning maxsus maslahatchisi degan unvon berilgan. Yusuf Xos Hojib insonning kamolotga erishish yo'llarini izlaydi. Uning fikricha, inson faqat jamiyatda, boshqa kishilar bilan o'zaro muloqotda, ijtimoiy-foydali mehnatda chinakam kamolotga yetishadi. «Insonga foyda keltirmaydigan inson o'likdir», deydi olim o'z asarlarida.

Xos Hojib davlatni boshqarishda hokimlarga adolatli bo'lishni maslahat bergan, ularni qonunsizlikka yo'l qo'ymaslikka chaqirgan, aks holda zulm, norozilik kuchayishini ta'kidlagan. Hokim dono bo'lsa, boshqaruvning negizini aql va adolat tashkil qiladi. Bu esa yalpi baxt-saodatga va farovonlikka olib keladi, deydi olim. Odam kimligidan qat'i nazar, inson bo'lishi lozim, chunki dunyoda faqat insoniylik abadulabad qoladi, ilm-fan, ma'rifat orqali jamiyatning axloqiy muhitini sog'lomlashtirish mumkin.

**ABDULHOLIQ IBN ABDUJAMIL G'IJDUVONIY** (1103—1179) Buxoro yaqinidagi G'ijduvon qishlog'ida tug'ilgan. G'ijduvoni o'z ustosi Xoja Yusuf Hamadoniya bag'ishlab ko'plab asarlar yozgan.

**Asarlari:** «Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniyy» («Xoja Yusuf Hamadoniyy fazilatları»); «Risolai shayx ush-shuyuk hazrati Xoja Abu Yusuf Hamadoniyy».

Abdulholih G'ijduvoniyy Yusuf Hamadoniyyning Buxorodagi to'rtinchi shogirdi (halifasi) hisoblangan. G'ijduvoniyy XIV asrda paydo bo'lgan «Naqshbandiya» tariqatining ma'naviy otasi va asoschisidir. G'ijduvoniyy Yassaviydan so'ng Hamadoniyy o'rniga o'tirib, ko'plab shogirdlarni tarbiyalab etishtirgan. G'ijduvoniyy o'z tariqatining qonun-qoidalarini mezonini ishlab chiqqan. Bu qoidalar «rashhalar», ya'ni qatra («tomchi»)lar deb ataladi.

**MAHMUD O'G'LI AHMAD YUGNAKIY** (XII asr oxiri — XIII asr boshlari) Samarqand yaqinidagi Yugnak shahrida dunyoga kelgan.

**Asari:** turkiyda yozilgan «Hibat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar tuhfası»). Asar axloqiy-didaktik yo'nalishga ega bo'lib, «yaxshilik urug'ini sepish» asosida yashash g'oyasini ilgari suradi. Dunyo bevafo, o'tkinchi, rohat-farog'atga intilish — befoydadir. Shuning uchun yaxshilik haqida o'ylash kerak, inson taqdiri yaratuvchiga bog'liq, lekin olloh dunyoviy hayotning ma'nosi va go'zalligini inkor etmaydi. Izzat va hurmat mehnat, bilim va aql yordamida qo'lga kiritiladi. Kamtarlik insonni ulug'laydi, kalondimog'lik uni yerga uradi.

Yugnakiy kishilarni saxovat va mehribonlik ko'rsatishga, sabr-toqatli bo'lishga, do'stni ehtiyot qilishga undagan.

**AHMAD IBN UMAR ABUL JANNOB NAJMIDDIN AL-KUBRO AL-XIVAQI AL-XORAZMIY** (1145—1221) Xiva shahrida dunyoga kelgan. U yoshlik paytidayoq ilm istab Misrga borgan. Musulmonlar sharqida keng shuhrat topgan mutafakkir va mutasavvuf olimlardan biri — Majiddin Bag'dodiy (Fariddin Attorning otasi) va Bahoviddin Valad (Jaloliddin Rumiyning otasi) kabi yirik mutasavvuf olimlar Najmiddin Kubroning shogirdlaridandir. Shayx Najmiddin Kubro mo'g'ul lashkarlariga qarshi Urganch qal'asini himoya qilishda bosh-qosh bo'lgan. 1221 yili u mo'g'ul bosqinchilari tomonidan vahshiyona o'ldiriladi.

Kubroviya tariqati musulmon sharqida keng tarqalgan. Undan firdavsiya (Hindiston), nuriya (Bag'dod), rukniya (Xuroson), hamadoniya (Kashmir); ig'tishoshiya (Xuroson); nurbaxshiya (Xuroson); ne'matulloiya (Eron, g'arbda va AQShda hozir ham faoliyat ko'rsatmoqda) kabi kichik tariqatlar kelib chiqqan.

**MAHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG‘MINIY** (XII–XIII) Xorazmda tug‘ilgan. Chag‘miniy o‘qishni Samarqandda davom ettirgan, astronomiya, riyoziyot, tabobat, jug‘rofiya va boshqa sohalar bilan chuqur shug‘ullangan, qomus tuzgan alloma sifatida shuhrat topgan. Chag‘miniy Xorazm ilmiy maktabining Abu Rayhon Beruniydan keyingi eng yirik olimi deb tan olingan.

**Asarlari:** «Mulaxxas fi-l-xay’a», «Saylanma», «To‘qqiz sonining riyoziyotdagi o‘rni haqida risola», «Merosni bo‘lish masalalarida riyoziyot usullariga sharh» va boshqalar. Chag‘miniy Quyoshni o‘zidan nur tarqatuvchi sayyoralarning markazi deb hisoblaydi: «Oy o‘z nuriga ega emas, uni Quyoshdan oladi». «Tabiat har qanday harakat va sokinlikning manbai». Chag‘miniy o‘sha davr astronomiyasini yangi pog‘onaga ko‘tardi.

**XOJA MUHAMMAD BAHOUDDIN NAQSHBAND** (1318–1389) Markaziy Osiyoda XIV asrda vujudga kelgan tasavvuf tariqatlaridan biri «Naqshbandiya»ning asoschisi bo‘lib, Buxoroning Qasri Orifon qishlog‘ida tug‘ilgan. Naqshband o‘z davrining buyuk olimi Muhammad Boboi Samosi qo‘lida tarbiya topgan, keyinchalik unga atoqli mutasavvuf olim Sayid Mir Kulol rahnamolik qilgan. Naqshband ta’limotining asosida ixtiyoriy ravishdagi faqirlik va «Dil ba yor-u, dast — ba kor» («Diling Ollohda, qo‘ling ishda bo‘lsin») degan g‘oya yotadi. Naqshbandiya tariqatining poklik, to‘g‘rilik, adlu insof, mehru shafqat, imondorlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi ilg‘or umumbashariy tamoyillari alohida ahamiyatga ega.

**SA‘DUDDIN TAFTAZONIY** (1322–1392) Ashxobod shahri yaqinidagi Taftazon qishlog‘ida tug‘ilgan. U islom falsafasi, kalom, mantiq, handasa, she‘riyat va arab tili grammatikasiga oid ko‘plab asarlar yozgan.

**Asarlari:** «Tahzib al-mantiq va-l-kalom» («Mantiq va kalomga sayqal berish»); «Maqosid fi ilm al-kalom» yoki «Maqosid at-tolibin fi usul ad-din» («Din asoslarini izlovchilarning maqsadlari»); «As-Sa’diya» (Kotibiyning mantiqqa oid «Ash-shamsiya» risolasiga yozilgan sharh); «Al-mutavval» («Keng talqin»); «Muxtasar al-ma’oniyy» («Qisqacha ma’nolar»); «Al irshod al-hodiy» («Yo‘l boshlovchi rahbar»); «Al-maqosid at-tolibin» («Tolibi ilmlarning maqsadlari»); «Risola fi zavoye al-musallas» («Uchburchakning burchaklari haqida risola») va boshqalar.

Taftazoniy qirqdan ortiq asar muallifidir. Olimning e’tiqodiga ko‘ra, xudo insonlarga xayrli ishlar qilishni buyurgan, g‘ayrisha’riy ishlar uchun

esa insonning o'zi javobgar bo'ladi. U islom falsafasi — kalomga mantiqiy xulosalar tadbqiq etib, uni boyitdi va ilohiyot fani rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi.

**ALI BINNI MUHAMMAD BINNI ALI HUSAYNI MIR SAID SHARIF JURJONIY** (1339—1413) Astrobod shahri yaqinidagi Tog'u qishlog'ida tavallud topgan. Temur Sherozni fath etgach, boshqa olimlar qatori Samarqandga kelgan. U o'z zamonasining yirik allomasi sifatida o'sha davr fanlarining barcha sohalarida faoliyat ko'rsatgan: islom falsafasi — kalom, mantiq, til, tabiatshunoslik, huquq va falsafaga oid risolalar, shuningdek, ko'plab olimlarning asarlariga sharhlar yozgan.

**Asarlari:** «Avsat dar mantiq» («Mantiqda o'rta xulosa»); «Dunyoni aks ettiruvchi ko'zgu» (risola); «At-ta'rifat» («Ta'riflar»); «Usuli mantiqia» («Mantiq usuli»); «Odob ul-munozara»; «Sug'ro» («Kichik dalil bo'la oladigan hukm»); «Kubro» («Katta dalil bo'la oladigan hukm»); Chag'miniy, Nasriddin at-Tusiy, Ibn Sino va boshqalarning asarlariga yozilgan sharhlar.

Jurjoniyy Samarqandda 20 yildan ko'proq samarali ijod etgan, Amir Temur vafotidan keyin Sherozga qaytib ketadi.

**MUHAMMAD BIN MAHMUD AL-HOFIZ AL-BUXORIY XOJA MUHAMMAD PORSO (XOJA PORSO)** (1348—1420) Buxoroda tavallud topgan. U — naqshbandiya maktabining eng ko'zga ko'ringan olimlaridan biri. Xoja Porso Qur'oni Karim, hadis, kalom kabi turli diniy ilmlarni chuqur o'rgangan donishmand («Porso»-dindor) edi. Porso Naqshbandning ikkinchi xalifasi bo'lgan.

**Asarlari:** «Risolai qudsiya («Xoja Bahovuddinning qudsiy kalimalari haqida risola»); «Az anfozi qudsiyai mashoyixi tariqat» («Tariqat mashoyixlarining qudsiy kalimalaridan»); «E'tiqodot» («E'tiqod haqida risola»); «Tahqiqot» («Tasavvuf istilohlari haqida risola»); «Tafsiri Qur'on» («Qur'on tafsiri»); «Al-hadis ul-arba'una» («Qirq hadis»); «Risola dar odobi murid» («Murid odoblari haqida risola»); «Sharhi «Fihi Kaydoniy» («Fikhi Kaydoniy» asarining sharhi»); «Fasl ul-xitob bivusuli-l-ahbob» («Do'stlar visoliga yetishishda oq ila qorani ajratuvchi kitob»); «Muxtasari ta'rixi Makka» («Makka shahrining qisqacha tarixi»); «Maqomoti Xoja Alouddin Attor» («Alouddin Attor maqomati»); «Maqomoti Xoja Bahovuddin Naqshband» («Xoja Bahovuddin Naqshband maqomati»).

Porsoning shariat va tariqat masalalariga bag'ishlangan va unga katta shuhrat keltirgan asari «Fasl ul-xitob bi-vusuli-l-ahbob» («Do'stlar visoliga yetishda oq ila qorani ajratuvchi kitobi») risolasidir.

**SALOHIDDIN MUSO IBN MUHAMMAD IBN MAHMUD QOZIZODA RUMIY** (XIV asr oxiri — XV asr boshi) Markaziy Osiyo madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan alloma bo'lib, hozirgi Turkiyaning Bursa degan joyida tug'ilgan. Otasi Xoji Afandi Bursaning qozisi bo'lgan. Salohiddinning tug'ilgan yili ma'lum emas. Tavalludi 1354-1364 yillar orasida degan taxminlar bor. U Samarqand shahriga ilm olish maqsadida kelgan. Keyinchalik Amir Temur ulamolari qatoridan munosib o'rin egallagan. Temurning saroy astronomi Mavlono Ahmaddan astronomiya va matematikadan tahsil olgan. Otasining qozilik lavozimi va rum (Kichik Osiyo)lik ekanligiga ishora qilib, u «Qozizoda Rumiylar» nomi bilan shuhrat qozongan.

Temur vafotidan so'ng u Ulug'bek bilan birgalikda Hirotga boradi, unga astronomiya, matematika sohasida ustozlik qilgan, bir necha vaqt Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida ishlagan, Jurjoniylar bilan ilmiy muloqot va munozaralar olib borgan, Ulug'bek rasadxonasidagi ilmiy tekshirishlarga boshchilik qilgan.

**Asarlari:** «Risola fi-l-hisob» («Hisob haqida risola»); «Sharhi mulaxxis fi-l-xay'a» («Astronomiya haqida qisqacha risolaning sharhi»); «Sharhi ashkol at-ta'sis» («Asoslangan jumalarga sharh»); «Risola al-jayb» («Sinus haqida risola»); «Dastur ul-amal va tashiq al-jadval» («Amal dasturi va jadvallarini tuzish»); «Mimsoha» («O'lchash»), «Risola fi ilm al-hay'a» («Astronomiya ilmi haqida risola»); «Risola fi rub' al-mujayab» («Sinus kvadrat haqida risola») va boshqalar.

**MIRZO ULUG'BEK** (1394—1449) bobosi Amir Temurning harbiy yurishi paytida Eronning g'arbida joylashgan Sultoniya shahrida tug'ilgan. U Shohruh Mirzoning to'ng'ich o'g'li, unga Muhammad Tarag'ay ismi berilgan. Shohruh to'ng'ich o'g'li Ulug'bekni 1411 yili Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlaydi.

Ulug'bekning ustozlari Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiylar bo'lgan. Ular Ulug'bekka astronomiya va matematikadan ta'lim berganlar. 1420 yili Samarqandda Ulug'bek madrasasi ochiladi. Unda Qozizoda, Ulug'bek, Koshiy va Ali Qushchilar (toliblarga) ta'lim berganlar. Tarixchi Davlatshohning yozganlariga qaraganda, Ulug'bek geometriya borasida Evklidga, astronomiya sohasida Ptolomeyga o'xshaydi. «Ulug'bek tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va siyosiy qarashlarida ungacha yashab kelgan, uning davrida etakchi maqom va ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillar ta'siri ostida Movarounnahr hukmdori hamda astronomiya fanining sultoni maqomiga erishdi». (Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. — Toshkent, Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. 2004, 192-b. )

**Asarlari:** «Ziji Ulug‘bek»; «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola»; «Risolayi Ulug‘bek»; «Tarixi arba’ ulus» («To‘rt ulus tarixi»). 1994 yilda Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan mamlakatimizda va chet ellarda katta tantanalar bo‘lib o‘tdi.

**SHARAFIDDIN ALI YAZDIY** (vafoti — 1454 yil) Eronning Yazd shahriga qarashli Taft mavzeida taxminan XIV asrning oxirgi choragida tug‘ilgan. Ali Yazdiy «Zafarnoma» degan mashhur asarning muallifi, «Sharaf» taxallusi bilan she‘rlar ham bitgan. Undan qolgan ilmiy-madaniy meros adabiyot va til uslubi, she‘riyat nazariyasi, ilmi nujum, falsafa, tasavvufning nazariy masalalariga oiddir. U Hirot, Samarqand shaharlarida yashagan.

**Asarlari:** «Hulal-i muttaraz dar muammo va lug‘az» («Muammo va topishmoqlar borasida bezakli joma»); «Mavotin yo manozir dar muammo» («Muammo fanida turar joy va manzaralar»); «Al-kitob fi ilm-i usturlob» («Usturlob ilmi bo‘yicha kitob»); «Devon-i Sharaf-i Yazdiy» («Sharafi Yazdiyning she‘rlar to‘plami»); «Sharhi Asamo-i Alloh» («Alloh ismlarining sharhi»); «Tuhfat ul-faqir va hadyat ul-haqir» («Faqirning tuhfası-yu, haqirning hadyasi»); «Munshaot» («Xatlar to‘plami»); Amir Temur tarixining she‘riy bayoni «Zafarnoma» («Fathnomayi Sohibqiron»).

**JAMSHID IBN MA‘SUD IBN MAHMUD G‘IYOSUDDIN AL-KOSHIY** (vafoti — 1429-yil) XIV—XV asrlarda yashagan eng mashhur siymolardan biridir. Uning bobosi Mahmud ibn Yah‘yo ibn al-Hasan al-Koshiy ziyoli bo‘lib, riyoziyot va astrologiyaga oid risolalar yozgan. Ulug‘bek 1416 yili Qozizoda Rumiyning maslahati bilan al-Koshiyni Samarqandga taklif etgan.

Koshiy «Miftih al-hisob» («Hisob kaliti») asari bilan mashhur bo‘lgan, asar riyoziyot qomusi deb tan olingan, unda o‘nli kasrlar to‘g‘risida fikr yuritiladi.

**Asarlari:** «Jizi Hoqoniy»; «Miftih al-hisob» («Hisob kaliti»); «Risola al-muhitiya»; «Sullam as-samovat» («Osmonlar narvoni»); «Nuzhad al-hadoyiq» («Bog‘lar sayri»).

**ALOUDDIN ALI IBN MUHAMMAD ALI QUSHCHII** (vafoti — 1474 yil) o‘z davrining mashhur allomasi bo‘lib tanilgan. Otasidan yetim qolgach, Ulug‘bek uni o‘z tarbiyasiga olgan, keyinchalik Ulug‘bek rasadxonasida ishlagan, unga boshchilik qilgan. Ali Qushchining targ‘ibotchilik faoliyati tufayli Markaziy Osiyo olimlari, xususan, Ulug‘bekning ilmiy ijodi Yevropaga keng tarqaladi.

**Asarlari:** «Risola fi-l-hisob» («Hisob haqida risola»); «Risolai kusur» («Kasrlar risolasi»); «Risola al-fathiya» («G'alaba risolasi»); «Risola al-Muhammadiya fi-l-hisob» («Hisob haqida»); «Risola fi halla ash-shakl al-hilol» («Hilolsimon shakllarni o'lchash haqida risola»); «Risola dar ilmi hay'at» («Astronomiya ilmi haqida risola»); forscha «Sharhi Ziji Ulug'bek» («Ulug'bek »Ziji»ga sharh); «Xitoyнома»; «Risolai mantiq»; «Risola al-Mufradiya» va boshqalar. Ali Qushchi Markaziy Osiyo madaniyati va fani taraqqiyoti tarixida alohida o'rin tutadi.

**XOJA UBAYDULLOH AHROR** (1404—1490) naqshbandiylik tariqatining yirik namoyandalaridan biri, Shosh — Toshkent viloyati muzofotlaridan Bog'iston (Bo'stonliq tumani)da tug'ilgan, 1490 yilda Samarqandda vafot etgan. Dastlabki ma'lumotni Toshkentda olgan bo'lajak olim 1428—1431 yillarda Hirotida tasavvuf ilmi asoslarini o'rgangan. Xoja Bahovuddin Naqshbandning shogirdi bo'lgan Ya'qub Charxiyga qo'l berib, undan ta'lim olgan. 1431—1432 yillar orasida Xoja Ahror Toshkentga qaytib, naqshbandiya tariqatini yanada rivojlantiradi. U dehqonchilik va tijorat ishlari bilan faol shug'ullangan.

**Asarlari:** «Fikrat ul-orifin» («Oriflar so'zlaridan parchalar» asari tasavvuf ilmiga bag'ishlangan), axloq-odob va insonning o'zini bilishga bag'ishlangan «Risolai volidiya» («Muxtasar»), «Ruqaot», «Risolai huroiya» (mashhur mutasavvuf shoir Abu Sa'id Abdulhayrning (XI asr) «Havro» (hurlar) so'zi bilan boshlanadigan ruboysiga sharhlar va boshqalar.

**ABDURAHMON JOMIY** (1414—1492) Nishopur yaqinidagi Jom shahrida ruhoniylar oilasida tavallud topgan. U o'z umrini asosan Hirotida o'tkazgan. Jomiy boshlang'ich ma'lumotini otasidan oladi. Hirotida yirik olimlar tarbiyasida o'z bilimini oshiradi. So'ngra u Samarqandga borib, Ulug'bek madrasasida Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi allomalarning ma'ruzalarini eshitish baxtiga muyassar bo'lgan.

Jomiy Shayx Sa'diddin Qoshg'ariydan tasavvuf ilmidan dars oladi. Tez orada unga qo'l beradi, so'ngra o'z pirining qiziga uylanadi. Alisher Navoiy Jomiyning o'ziga pir va ustoz deb hisoblagan.

**Asarlari:** «Nafahot-ul-uns»; «Lujjat ul-asror»; «Ashiat ul-lama-ot»; «Risolai musiqiy»; «Risolai muammo»; «Haft avrang» («Silsilat uz-zahab», «Tuhfat ul-asror», «Subhat ul-asror», «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Salamon va Absol», «Xiradnomai Iskandariy»)

Bulardan tashqari, u ko'plab she'riy devonlar tuzgan. Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega. U tasavvufning eng

yirik arbobi bo'lib, o'z qarashlarini quyidagi asarlarida bayon qilgan: «Naqshi fusus» («Ma'nolar naqshi»), «Shavohidi nubuv-va» — («Payg'ambarlikka dalillar»), «Naqshbandiy ta'limoti haqida risola», «Haj qilish yo'llari haqida risola» va h. k.

Jomiy she'riyat nazariyasiga oid ko'plab asarlar yozgan: «Risolai aruz», «Sharhi bayt», «Masnaviy», «Sharhi ruboiyot», «Risolayi qofiya», «Risolayi muammoyi manzum» va boshqalar shular jumlasidan. Musiqaga oid «Risolai musiqiy» asari shuhrat topgan. Shayx Sa'diy yo'lidan borib Abdurahmon Jomiy «Bahoriston» degan asar yaratgan.

**NIZOMIDDIN MIR ALISHER NAVOIY (1441—1501)** Hirot shahrida tavallud topgan. 1466—68 yillarda u Samarqandda yashagan, 1469 yili Husayn Boyqaro iltimosiga ko'ra Hirotga qaytgan. 1472 yilda Navoiyni Boyqaro vazirlik lavozimiga tayinlaydi. Hazrat Navoiy o'z zamonasining yetuk mutafakkiri, shoiri, davlat arbobi ekanligi tarixdan ma'lum.

**Asarlari:** «Badoye'-ul-bidoya» («Badiiylilik ibtidosi»); «Vaqfiya» (1481-yil); «Xamsa» (1483—1486 yillarda yozilgan) beshta dostonni o'z ichiga oladi: «Hayratul abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi»); «Farhod va Shirin»; «Layli va Majnun»; «Sab'ai sayyor» («Etti sayyora»); «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori»).

Bundan tashqari, A. Navoiyning quyidagi asarlari ham mashhur: «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar»); «Zubdat ut-tavorix» — («Tarixlar qaymog'i»); «Holoti Sayid Hasan Ardasher»; «Holoti Pahlavon Muhammad»; «Xamsat ul-mutahayyirin» («Besh hayrat»); «Majolis un-nafois»; «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi»); «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasini»). «Chor devon» nomi bilan ma'lum bo'lgan bu buyuk majmua 45 ming misraga yaqin she'rlarni o'z ichiga oladi. Uning tarkibiga quyidagi asarlar kirgan: «G'aroyib us-sig'ar» («Bolalik ajoyibotlari»); «Navodir ush-shabob» («Yigitlik davri nodirliklari»); «Badoye' ul-vasat» («O'rta yosh kashfiyotlari»); «Favoyid ul-kibor» («Keksalikdagi foydali mulohazalar»).

Navoiyning «Mufradot» risolasi, «Sittai zaruriya», «Fusuli ar-baa» turkum qissalari fors tilida yozildi. Ular 12 mingdan oshiq she'r va muammolardan iborat. Shoir «Foniy» taxallusi bilan alohida devon tuzdi. «Lison ut-tayr» (1499 yil); «Muhokamat ul-lug'atayn» (1499 yil); «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») asarlari ham Navoiy ijodida alohida o'rin tutadi.

**DAVLATSHOH AS-SAMARQANDIY IBN ALOUDDAVLA IBN BAXTISHOH AL-G'OZIY (1435—1495)** taxminan 1435 yilda yirik

harbiy xizmatchi oilasida tugʻilgan. U Shohruh va Husayn Boyqaroning harbiy yurishlarida ishtirok etgan.

**Asari:** «Tazkirat ush-shuaro» («Shoirlar tazkirasi»). Bu asar gʻoyat mashhur boʻlib, uni yaratishda muallif oʻnlab manbalardan foydalangan. Tazkira muqaddima, xotima va yetti qismdan iborat boʻlib, unda X—XV asrlarda Oʻrta Osiyo, Eron va Iroqda yashab oʻtgan turkigoʻy va forsigoʻy shoirlar, adiblar toʻgʻrisida, xotima qismida esa muallifga zamondosh boʻlgan 60 nafar yirik shoir va fuzaloning tarjimai holi haqida qisqacha maʼlumot berilgan. Bundan tashqari, asarda ularning ijodida oʻsha davrdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy, tarixiy voqealar ham aks etgan. Manguberdi va Temur Malik boshchiligidagi ozodlik kurashlari, Xurosondagi sarbadorlar harakati, temuriylar davlatining barpo boʻlishi kabilar toʻgʻrisida ham maʼlumotlar berilgan.

**KAMOLIDDIN BEHZOD** (1455—1537) Hirotida tavallud topadi. Hirotning mashhur musavviri Amir Ruhillo uni oʻz tarbiyasiga oladi. Behzodning buyuk musavvir, naqqosh boʻlib yetishishida Alisher Navoiyning roli katta.

**Asarlari:** Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»siga ishlangan miniatyuralar; Husayn Boyqaroning majlisleri tasvirlangan 40dan ortiq goʻzal miniatyura; Abdurahmon Jomiyning «Salamon va Absol» asariga ishlangan rasmlar; Amir Husrav Dehlaviyning «Xamsa»siga ishlangan 33 ta miniatyura; Saʼdiyning «Boʻston» asariga ishlangan rasmlar, «Guliston» asariga chizilgan miniatyuralar; Nizomiy Ganjaviyning «Panjganj»iga chizilgan miniatyuralar; Abdulloh Xotifiyning «Temurnoma» asariga chizilgan rasmlar; Abdurahmon Jomiy tasviri; Husayn Boyqaro tasviri; Shayboniyxon tasviri, Shoh Taxmasi tasviri; Shoir Abdulloh Xotifiy tasviri; Tuyalar jangi; Raqsi darvish (Darvishlar raqsi); Samarqandda madrasa qurilishi va boshqalar.

**GʻIYOSIDDIN MUHAMMAD IBN XOJA XUMOMMUDDIN IBN XOJA JALOLUDDIN MUHAMMAD IBN BURHONUDDIN — XONDAMIR** Hirotida tugʻilgan (1473—1534). U ilm-fanning koʻpgina sohalarini puxta egallab, oʻz davrining taniqli tarixchi olimi boʻlib yetishgan. Xondamirning olim boʻlib shakllanishida Alisher Navoiy katta rol oʻynagan. U Navoiy kutubxonasida xodim, keyinroq esa mudir boʻlib ishlagan.

**Asarlari:** ulugʻ siymolarning naqlari keltirilgan «Maʼosir ul-muluk» («Hamasr podshohlarining tarixi»); «Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-ahyor» («Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar

xulosasi»); «Makorim ul-axloq» («Oliyjanob xulqlar»); «Dastur ul-vuzaro» («Vazirlar uchun qo'llanma»); «Nomai nomi» («Atoqli nomalar»); «Habib us-siyar fi axbor afrod ul bashar» («Inson zoti xabarları va do'stning tarjimai holi»); «Humoyunnoma».

Xondamir «Nahiy» taxallusi bilan she'rlar ham yozgan.

**ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBUR** (1483—1530) Andijonda, Farg'ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida tug'ilgan. Bobur adib, shoir, olim, ayni vaqtda yirik davlat arbobi bo'lib, Hindistonda boburiylar sulolasiga asos olgan.

**Asarlari:** «Bobumoma»; «Mubayyin», «Xatti Boburiy»; «Harb ishi»; Aruz haqidagi risolalar; «Mubayn»; «Mufasssal».

**MAHDUMI A'ZAM-SAYYID AHMAD XOJAGI IBN SAYYID JALOLIDDIN KOSONIY DAHBEDIY.** (1463—1542) Farg'ona vodiysining Koson shahrida tug'ilgan. U yirik diniy va siyosiy arbob, naqshbandiya tariqatining rahnamosi va nazariyotchisi bo'lgan, ko'pgina sultonlar Mahdumi A'zamni o'zlarining piri deb bilganlar. U tasavvuf nazariyasi, amaliyoti, xususan, naqshbandiya ta'limotini rivojlantirib, 30 dan ortiq kitoblarni yozgan.

**Asarlari:** «Asror-un-nikoh» («Nikoh sirlari»); «Ganjnoma»; «Risolat-un-sam'iy-yatun» («Samo risolasi»), «Bayoni zikr» (Zikr bayoni), «Risolai silsilai Xo'jagon», («Xo'jagon silsilasi») «Sharhi g'azali Ubaydiy», («Ubaydiy g'azaliga sharh»), «Me'roj ul-oshiqin» («Oshiqlar me'roji»); «Risolai Naqshbandiyya», «Risolat-un-vujudiyyatun» va boshqalar.

**ABULG'OZIY BAHODIRXON** (1603—1664) Urganchda tug'ilgan. U Xiva xoni Arab Muhammadxonning o'g'li bo'lib, yigirma yil davomida Xivada hukmronlik qilgan. Tib ilmini ham yaxshi o'rgangan, maxsus tibbiy asar ham yozib qoldirgan. Abulg'ozixon yaxshi hunar egasi, she'riyatni yaxshi bilgan, turli tillarni egallagan, o'tgan podshohlar, ularning faoliyatlaridan yaxshi xabardor, bilimdon, ajoyib muarrix bo'lgan.

**Asarlari:** «Shajarai turk»; «Shajarai tarokima». («Turkmanlar tarixi»); «Manofeo ul-inson». Bu asar tibb ilmi bag'ishlangan.

**MUHAMMAD SHARIF BUXORIY IBN MUHAMMAD AL-HUSAYNIY AL-ALAVIY** (vafoti 1697) Movarounnahrning yirik mutafakkirlaridan biri, falsafa, tarix, she'riyat, huquq, tilshunoslik sohaslarini chuqur egallagan olim bo'lgan.

**Asarlari:** «Ar-risola ad-davriyya» («Davriylik haqida risola»); «Takammule-at-tatime» («Takmilning to'ldirilishi»); «Hoshiyai Mavlaviy Sharif bar sharhi tahzib» («Mavlaviy Sharifning tahzib sharhiga hoshiyasi»); «Kitobi favoidi hoqoniyya» («Hoqonga foydali maslahatlar kitobi»). Uning she'riy «Devon»i ham bo'lgan.

**TURDI FAROG'II** (XVIII asr) Jizzax hududidagi Farog' qishlog'ida tug'ilgan. Uning hayoti va ijodi haqida tarixiy manbalarda yetarli ma'lumotlar saqlanib qolmagan, u «Farog'iy» taxallusi bilan o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan.

**Asarlari:** Turdining adabiy merosi 18 she'rdan iborat bo'lib, ulardan 12 tasi g'azal, 5 tasi muxammas va bittasi fard turiga oiddir. Turdi she'rlarining aksariyat qismini Subhonqulixon to'g'risidagi mashhur hajviyalar tashkil qiladi.

**BOBORAHIM MASHRAB MULLA VALI O'G'LI** (1640—1711) Namanganda kosib-bo'zchi Valibobo oilasida dunyoga kelgan. Mashrab diniy ilm va falsafadan kuchli bilim sohibi bo'lgan. Uning asarlari tasavvufiy-axloqiy yo'nalishda bitilgan, ularda pir-murshidlar nomi hurmat bilan tilga olinadi.

**Asarlari:** «Mab dai nur», «Devoni Mashrab» («Devonai Mashrab»); shuningdek she'riy majmualar. Bu asarlar tasavvufiy-axloqiy yo'nalishda bitilgan.

Shu bilan birga, hayotiy ishq-muhabbat mavzui ham Mashrab ijodida g'azal, mustazod, murabba' va muxammas kabi nazmiy shakllarda aks etgan Mashrab ijodi she'riyatimizni yetuk asarlar bilan boyitdi.

**SO'FIY OLLOYOR** (1644—1724) Kattaqo'rg'on bekligiga qarashli Minglar qishlog'ida tavallud topgan. U dastlab Shayxlar qishlog'idagi diniy maktabda, so'ng Buxorodagi madrasalarda ta'lim olgan. So'fiy Olloyor tasavvufni puxta o'rganish natijasida shayxlik martabasiga ko'tarilgan.

**Asarlari:** «Maslak ul-muttaqiyyin», «Sabot ul-ojizin», «Murod ul-orifin», «Siroj ul-ojizin», «Mahzan ul-muti'n», «Najot ut-tolibin» kabilar.

So'fiy Olloyor tasavvuf rivojiga katta hissa qo'shgan. Uning asarlari o'zbek tilida yozilgan bo'lib, til tarixini o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**MAXTUMQULI** (1733—1793) 1733 yilda dunyoga kelgan, o'z ilmini oshirish uchun Xiva, Buxoro va Andijon madrasalarida tahsil

olgan. Maxtumquli tarqoq turkman qabilalarini birlashtirishni, yagona bir davlat barpo qilishni orzu qilgan.

Maxtumquli pandnomalarida insonni o'z mohiyati va qadrini bilishga, avlodlarning yaxshi xislatlarini egallashga da'vat etadi, takabburlik, dilozorlik, mol-davlatga hirs qo'yish kabi salbiy xislatlarni qoralaydi. Uning asarlari asosan axloqiy-didaktik yo'nalishga ega bo'lib, kishilarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Maxtumquli Ahmad Yassaviy, hazrat Navoiy ijodiga katta havas bilan qaraydi.

**JA'HON OTIN — UVAYSIY (1779—1845)** Marg'ilon shahrining Childuxtaron mahallasida dunyoga kelgan, o'qimishli oilada o'sib voyaga yetgan. Uning otasi to'quvchilik, kosibchilik bilan shug'ullangan, ayni vaqtda, o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan, onasi Chinnibibi esa o'z davrining o'qimishli ayollaridan bo'lib, maktabdorlik bilan shug'ullangan. Jahon otin xat-savodni oilada olgan, so'ng onasining yonida maktabdorlik ishlariga ko'maklashib tajriba orttirgan.

Shoira hayoti Marg'ilon va Qo'qon adabiy muhitida, iste'dodli adib va shoirlar davrasida o'tgan. Uvaysiy Mohlaroyim-Nodira bilan ijodiy hamkorlikda badiiy asarlar yaratgan, saroyda she'riyat ilmidan dars berib, ustozlik qilgan. 1842-yili Buxoro amiri Nasrulloxon Qo'qonni egallagach, u Marg'ilonga qaytib umrining oxirigacha shu yerda yashagan. Shoiraning 4ta devon tuzganligi ma'lum. Shoira o'z she'rlarida odamiylikni, vafodor yorni, muhabbatni, visolni kuylaydi.

**Asarlari:** «Devon»; «Shahzoda Hasan»; «Shahzoda Husan» (lirik-epik asarlar); «Voqeoti Muhammad Alixon» (tarixiy doston).

**MAHMUD MULLA SHERMUHAMMAD O'G'LI MAXMUR** (vafoti 1844-yil) XVIII asrning oxirgi choragida Qo'qon shahrida ziyoli oilasida dunyoga keldi. Otasi Mulla Shermuhammad o'zbek va tojik tillarida Akmal taxallusi bilan she'rlar yozib, ikkita devon tuzgan. U Umarxon saroyidagi ijodkorlardan biri bo'lib, she'r ixlosmandlari o'rtasida nom chiqargan edi.

Maxmur otasi tashkil etgan mushoiralarda, suhbatlarda ishtirok etgan. Maxmur Qo'qondagi Madrasai Mirza tahsil ko'rgan, fors tilini mukammal bilgan. Uning «Hafalak» she'ri xalq o'rtasida juda mashhur bo'lib ketgan.

**MUHAMMAD SHARIF GULXANIY** (XVIII asr oxiri — XIX asr birinchi yarmi) hayoti va ijodi to'g'risidagi ma'lumotlar deyarli yo'q.

U Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilib, o‘zbek badiiy nasri taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan. Amir Umarxon saroyidagi ijodkorlar bilan ijodiy hamkorlikda qalam tebratgan. Fazliy Namangoniy tuzgan «Majmuat-ush-shuaro» tazkirasida Gulxaniy asarlariga biroz o‘rin berilgan. Gulxaniy Jur‘at taxallusi bilan ham forsiyda she‘rlar bitgan.

**Asari:** «Zarbulmasal» o‘zbek adabiyoti tarixida masal janrida yozilgan mashhur asarlardan biridir.

**MUNIS XORAZMIY — AMIR AVAZBIY O‘G‘LI SHERMUMHAMMAD** (1778—1829) Xiva shahrida tug‘ilgan. U tarixiy asarlar yozgan, she‘riy devon tuzgan, tarixiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Pedagog sifatida «Savodi ta‘lim» nomli risola yozgan, umuman, badiiy ijodning ko‘pgina sohalarida samarali faoliyat ko‘rsatgan.

**Asarlari:** «Savodi ta‘lim»; «Munis ul-ushshoq» (devon); «Firdavs ul-iqbol» (tarixiy asar); Mirxondning «Ravzat us-safo» nomli tarixiy asarining birinchi jildini o‘zbek tiliga tarjima qiladi.

**OGAHIY — MUHAMMADRIZO ERNIYOZBEK O‘G‘LI** (1809—1874) Xiva atrofidagi Qiyot qishlog‘ida tug‘ilgan. Undan boy ijodiy meros qolgan.

**Asarlari:** «Bayozi mutafarriqai forsiy» (bayoz); «Riyozi ud-davla»; Jome‘ ul-voqeoti Sultoniy»; «Zubdat ut-tavorix»; «Gulshani davlat»; «Shohidi iqbol» (tarixiy asar); «Qasidai nasihat» (Feruzga bag‘ishlangan).

Ogahiy tarjima ishlari bilan ham shug‘ullangan. Sa‘diy Sheroziyning «Guliston», Nizomiyning «Haft paykar», Hiloliyning «Shoh va gado», Kaykovusning «Qobusnoma», Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», Jomiyning «Yusuf va Zulayho» kabi badiiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

**KOMIL XORAZMIY-PAHLAVON NIYOZ MUHAMMAD** (1825—1899) Xivada mudarris Abdulla Oxun oilasida tug‘ildi. Komil — shoirning adabiy taxallusi. U maktabni tugatgach, Xivadagi madrasalardan birida o‘qigan, musiqa va xattotlik san‘atini yaxshi egallaydi. Feruzxon (1865—1910) davrida mirzaboshi va devonbegilik lavozimlarida ishlagan. Uning ijodida ma‘rifatparvarlik g‘oyalari yetakchi o‘rinni egallaydi.

**Asarlari:** «Kamol»; «Dar bayoni ta‘rifi va tavsifi Toshkand»; «Tillo soat»; «Toshkent» (Qasida); birinchi bo‘lib «Tanbur chiziqlari» nomli notani yaratgan. «Rost» maqomining bosh qismini, «Murabba Komil», «Peshravi Feruz» singari kuylarni notaga solgan. «Alg‘iyos», «Zi bedodi

gardun», «Dod az dasti charxi dun» (forsiycha g'azallar), «Ta'mo», «Ro'za», «Millo imom» kabi asarlari bilan mashhur bo'lgan.

**AHMAD DONISH — IBN MIR NOSIR IBN YUSUF AL-XANAFI AS-SIDDIQIY AL-BUXORIY** (1827—1897) Buxoro shahrida tug'ilgan, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, badiiy yuksak asarlar yaratgan, astronomiya bilan, xattotlik va me'morchilik bilan mashg'ul bo'lgan. U ma'lum vaqt Buxoro amiri Amir Nasrulloh (1827-1860) saroyida xizmat qilgan, uch marta elchilar tarkibida Peterburgda bo'lib, g'arb madaniyati bilan yaqindan tanishgan.

**Asarlari:** «Majmuai hikoyati Ahmadi Kalla»; «Munozir al-Kavokib» («Yulduzlarni kuzatish»); «Risolat dar ilmi kurra» («Globus haqida risola»); «Iztig'roji bul va arzi balat» («Joylarning uzunligi va enini o'lchash»); «Navodir ul-vaqoye'»; «Risolai muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang'itiya».

**BERDAQ** — (1827—1900) qoraqalpoq xalqining mashhur demokrat shoiridir. U XIX asrda yashab ijod etgan. Berdaq xalq qo'shiqlari va dostonlarini qiziqib o'rgangan. U yoshligidanoq she'rlar yozib, ularga o'zi kuy bastalagan va xalq orasida baxshi sifatida tanilgan. Uning she'r va dostonlari xalq ommasi turmushini haqqoniy aks ettirgan. U adolatsizlikni qoralagan.

**Asarlari:** «Omongeldi», «Xalq uchun», «Aydosbiy», «Yaxshiroq», «Bo'lgan emas», «Ernazarbiy» asarlarida xalqning xonlarga qarshi kurashi, milliy-ozodlik harakati aks etadi. Berdaq «Izladim», «Xalq uchun», «Yaxshiroq», «Menga kerak» kabi she'rlarida halol mehnat sohiblarining faoliyatini ulug'laydi. «Ahmoq podsho» dostonida ayrim boylarning kirdikorlarini aks etdirib, buning oqibatida xalqning sabr kosasi to'lib toshganligini tasvirlagan. Uning ijtimoiy-falsafiy, siyosiy, diniy-axloqiy qarashlari negizini asl turkiy an'analar, tarixiy shajara, elati an'analari, yuksak ilmiy-falsafiy musulmon madaniyati, o'zbek va turkman mumtoz badiiy-falsafiy fikri, chig'atoy adabiyoti namoyandalari asarlarida ifodalangan g'oyalar tashkil etadi. Berdaq merosida insonparvarlik, mehr-shafqat, mustaqillik, haqiqat uchun kurash, mehr-muhabbat kabi umuminsoniy va milliy g'oyalar aks etgan.

**CHO'QON VALIXONOV CHINGIZ O'G'LI** (1835—1865) Qozog'istonning hozirgi Kustanay viloyatidagi Ko'chmurin degan joyda tug'ilgan. U chig'atoy, arab va boshqa tillarni chuqur egallagan. 1847 yili 12 yashar Cho'qonni otasi Omskdagi kadetlar korpusiga o'qishga

beradi, 1861—1862 yillarda Peterburg universitetining tarix-filologiya fakultetida o'qigan. Xitoy, Markaziy Osiyoga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalarda ishtirok etgan, sayohatlarda bo'lgan. Rossiya Fanlar akademiyasi va Rus jo'g'rofiya jamiyati ishlarida faol qatnashgan.

**Asarlari:** «Jung'ariya tarixi»; «G'ulja safari kundaligi»; «Qashqar safari kundaligi»; «Qirg'izlar»; «Xon Abiloy»; «Xitoy imperiyasining g'arbiy o'lkasi va G'ulja shahri»; «Ko'kitoy xonning oshi»; «Dala musulmonligi»; «Qozoqlar haqida yozmalar»; «Sud reformasi haqida».

**ABAY IBROHIM QO'NONBOYEV** (1845—1904) — XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan qozoq xalqining ma'rifatparvari, bastakori, faylasufi, badiiy adabiyot namoyandasi. U Semipalatinsk viloyatining Qashqabuloq degan joyida tug'ilgan.

**Asarlari:** «Mening elim — qozog'im»; «Adashganning oldi yo'q»; «Ilm topmay maqtanma»; «Yoshlikdagi ilm deb o'yladim»; «Boylar yurar molin ardoqlab»; «Internatda o'qiydi». Abaydan 300 ga yaqin she'riy asar meros bo'lib qolgan. Uning «Iskandar», «Ma'sud», «Azim hikoyasi», «Vadim» kabi dostonlari mashhur. Abay ma'naviyati kamol topishida uchta manba asos bo'lib xizmat qilgan. Bular, birinchidan, qozoq xalqining og'zaki ijodiyoti; ikkinchidan, Sharq she'riyatining an'analari, uchinchidan, rus hamda Yevropa adabiyoti namunalari. Uning ijodi nafaqat qozoq xalqi, balki, shu bilan birga, Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyati xazinasidan munosib o'rin egallaydi.

**MUHAMMAD RAHIMXON II-FERUZ** (1844—1910) Xivada tug'ilgan. U 1863 yildan Xiva xonligi taxtiga o'tirgan. Feruz o'z faoliyatida fan-madaniyat rivojiga katta ahamiyat bergan, o'zi ham she'rlar yozgan, ashulalar ijro etgan. Uning ustози Ogahiy bo'lgan.

Feruz xonlik qilgan davrda ilm-fan, madaniyat, adabiyot rivoj topgan. Feruz farmoni bilan Alisher Navoiyning «Chor devon», «Xamsa» singari asarlari ilk bor nashr ettirilgan. Feruz 1871 yilda yangi madrasa qurdirgan, bir necha kutubxona, darsxonalarni ishga tushirgan.

**Asarlari:** «G'azaliyoti Feruz»; «Bayozi Feruz»; «Devoni Feruz».

**SATTORXON ABDULG'AFFOROV** (1843—1901) Markaziy Osiyoda ijtimoiy tafakkurni rivojlantirishda katta rol o'ynagan mutafakkirlardan biri, Chimkent shahrida yirik mudarris oilasida tug'ilgan. Sattorxon 1876 yili aprel oyida Qo'qon shahriga qozi bo'lib, 1879 yili Qo'qon shahar bilim yurtining faxriy nazoratchisi qilib tasdiqlangan. U 1883 yilda «Turkiston viloyatining gazetiga» tarjimon bo'lib ishga

kirgan. 1884—1889 yillarda Toshkent o'qituvchilar seminariyasida o'zbek va fors tillaridan dars bergan. U rus tilini chuqur egallagan ma'rifatparvar bo'lgan. 1883 yilda Sattorxon Chimkentga kelib qozilik ishini davom ettirgan. Keyinchalik yana Toshkentga qaytgan va ma'rifatparvarlik faoliyati bilan astoydil shug'ullangan.

**Asarlari:** «Musulmon eshonlar»; «Rossiya istilosiga qadar Qo'qon xonligining ichki ahvoli haqida qisqacha ocherk». Sattorxon Chor Rossiyasining «ruslashtirish» siyosatini keskin qoralagan, o'zbek xalqining mustaqillik uchun olib borgan kurashlariga o'zining munosib hissasini qo'shgan.

**MUHAMMAD AMINXO'JA — MUQIMIY (1850—1903)** lirik shoir va zabardast hajvchi sifatida o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida alohida o'rin tutadi. Muhammad Aminxo'ja Qo'qonning Begvachcha mahallasida tug'ilgan. Dastlabki savodini mahalla maktabida chiqargan, keyinchalik shahardagi «Hokim oyim» madrasasida o'qigan. Muqimiy 1872—73 yillarda Buxoroga borib, «Mehtar oyim» madrasasida tahsil olishni davom ettirgan. Muqimiy Qo'qonda shoirlardan Muh'iy, Zavqiy, Nisbatiy, Furqat va boshqalar bilan yaqindan ijodiy hamkorlik qilgan.

**Asarlari:** «Sayohatnoma»; «Ey, chehrasi tobonim»; «Emdi sendek, jono, jonon qaydadir»; «Tokim, jono, jilva bunyod aylading»; «Tanobchilar»; «Voqeai ko'r Ashurboy hoji»; «Moskovchiboy»; «Saylov»; «Veksel»; «Urug'»; «Dodxohim»; «Asrorqul»; «To'y»; «Lyaxtin» va boshqalar. Vatanga sadoqat, ona xalqqa muhabbat va iftixor Muqimiy asarlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

**FURQAT ZOKIRJON XOLMUHAMMAD O'G'LI (1859—1909)** Qo'qon shahrida tug'ilgan, o'zbek demokratik adabiyotining yirik vakili, ma'rifatparvar, lirik shoir, publitsist sifatida shuhrat qozongan. Furqat yoshligidan adabiyotga, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiga katta mehr qo'ygan. Furqat ayni vaqtda tijorat ishlari bilan ham shug'ullangan, Yangi Marg'ilonga borib, tog'asining iltimosiga binoan savdo ishlarida faol qatnashgan, «Furqat, ya'ni, ayriliq» taxallusi bilan she'rlar ijod qilgan. Furqat Yangi Marg'ilonda ijodkor sifatida xalq hayoti bilan yaqindan tanisha boshlagan. Bu yerda yevropacha hayot tarzi, zamonaviy fan-texnika yangiliklari unga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Keyinchalik, Furqat bir necha vaqt «Turkiston viloyatining gazetida» xodim bo'lib ishlagan. Furqat 1893 yili martida uyg'ur o'lkasiga keladi, Yorkent shahrida turg'un bo'lib qoladi, shu yerda vafot etadi.

**Asarlari:** «Hammomi xayol» «Chor darvesh» hikoyasi (forschadan tarjima); «Nuh manzar» nomli she'riy to'plam; «Ilm xosiyati»; «Akt majlisi xususida»; «Vistavka xususida»; «Sayding qo'yaver, sayyod»; «Hajnoma»; «Adashganman»; «Kashmirda», «Bulbul»; . «Masarratnoma» (masnaviy); «Qasida»; . «Rumolik qiz hikoyati»; «Furqatning ahvoli» (nasriy asar). Furqat turkistonlik o'z zamondoshlarini o'rta asr qoloqligidan ilm-ma'rifatni egallash yo'li bilan qutulishlariga ishonch bildiradi.

**UBAYDULLO ZAVQIY** (1853—1912) Qo'qon shahrida mahsido'z oilasida tavallud topgan, «Madrasai Oliy», «Madrasai Chalpapak»da tahsil oladi. U o'z ijodiy faoliyatini g'azallar yozishdan boshlagan, ko'plab hajviy asarlar yaratgan, davr an'anasiga muvofiq ikki tilda — turkiy-o'zbek, fors-tojik tillarida asarlar ijod qilgan. Uninng ijodini 50dan ortiq turli janrlarda yaratilgan namunalar tashkil etadi. Zavqiyning ijodida shakllangan g'oyalar asl musulmoncha Sharq yo'nalishi, qashshoq oiladan chiqqanligining asoratlari bilan uzviy bog'lanib ketgan. U ijtimoiy adolatsizlikni, o'rta asr qoloqligini, hurofotlarni tanqid qildi, nafaqat mahalliy ijtimoiy tuzum, balki shu bilan birga, tug'ilib kelayotgan burjuacha hayotning illatlarini ham hajv ostiga oldi.

**Asarlari:** «Kajdor zamona»; «Ajab zamona»; «Abdurahmon shayton»; «Muncha ko'p»; «Yangiqo'rg'on qishlog'i»; «Suv janjali»; «Shohimardon sayohati»; «Eshon»; «Veksel»; «Ahli rasta»; «Shoh Inoyat qo'rboshi haqida hajv»; «Obid mingboshi haqida hajv»; «Voqeai qozi saylov»; «Ajab ermas»; «Ta'rifi kalish»; «Otim»; «Fonus»; «Sigirim»; «Pashshalar»; «Talading baring» va boshqalar.

**MAHMUDXO'JA BEHBUDIY** (1875—1919) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniylar oilasida tavallud topgan. Otasi Behbudxo'ja Solixxo'ja o'g'li Ahmad Yassaviyning avlodlaridan bo'lgan. 1899 yilda Behbudiy haj safariga, 1903—1904 yillarda Rossiyaga boradi. Behbudiy yangi maktablar uchun darsliklar yozgan ma'rifatparvardir. 1913 yildan Behbudiy matbuot sohasida keng faoliyat ko'rsata boshlagan. «Samarqand» degan gazeta, «Oyna» jurnalini chiqargan. Behbudiy milliy mustaqillik uchun kurashgan, shu yo'lda o'z jonini qurbon qilgan yirik jamoat arbobi, mutafakkir, ma'rifatparvar sifatida xalqimiz tarixida mu-nosib o'rin tutadi.

**Asarlari:** «Risolai asbobi savod»; «Risolai jug'rofiyai umroniy»; «Risolai jug'rofiyai Rusiy»; «Kitobat ul-atfol»; «Amaliyoti islom»; «Tarixi islom»; «Padarkush» dramasi; «Xotiralar» (Yaqin Sharqqa sayohat

yakunlari); «Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir»; «Ikki emas, to'rt til lozim» (maqola) va boshqalar.

**MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV** (1878—1931) Toshkentda ziyoli oilada tug'ilgan, dastavval Toshkentdagi Yunusxon madrasasida, so'ng Buxoroda o'qigan. 90-yillarda u jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan. 1901 yilda Toshkentda «Usuli jadid» maktabini ochgan. Munavvarqori 1906 yildan chiqa boshlagan «Taraqqiy» gazetasining asoschilaridan biri bo'lgan. O'sha yili Munavvarqori o'zi «Xurshid» gazetasini chop eta boshlagan. U «Sadoyi Turkiston» (1914—15)ni nashr etishda katta tashabbus ko'rsatgan. 1917 yil martida «Najot» gazetasini nashr qilib, ayni vaqtda «Kengash» jurnaliga muharrirlik qilgan. Munavvarqori yoshlarning chet elda o'qib kelish, jahon madaniyati va ma'rifati boyliklaridan bahramand bo'lish g'oyasini targ'ib qilgan.

**Asarlari:** «Adibi avval», «Adibi soniy» (alifbo va xrestomatiya), «Tavjid al-Qur'on» («Qur'on qiroati»), «Yer yuzi» («Geografiya») qo'llanmalari.

**ABDULLA AVLONIY** (1878—1934) o'zbek milliy madaniyatining yirik namoyandasi, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jumalist, olim, davlat va jamoat arbobi Toshkentda tug'ilgan. Maktabda, so'ng madrasada tahsil olgan, arab, fors, rus tillarini chuqur egallagan. Avloniy jadidchilik harakatining faollaridan bo'lib, yangi usulda maktablar ochgan, ularda o'zi dars bergan, darsliklar, o'quv qo'llanmalari yozgan. U «Taraqqiy», «Shuhrat» (1907), «Osiyo» (1908), «Turon» (1917) gazetalarini nashr etgan, 1913 yilda «Turkiston» teatr truppasini tuzgan, O'zbekistonda zamonaviy teatr san'ati shakllanishiga katta hissa qo'shgan. 1930-34 yillarda O'rta Osiyo davlat universitetida kafedrani boshqargan.

**Asarlari:** «Birinch muallim»; «Ikkinchi muallim» (o'quv kitobi); «Turkiy Guliston yohud axloq» (darslik); «Maktab gulistoni»; «Mardikorlar ashulasi»; «Sabzavor» tazkisasi; «Hurriyat marshi» she'ri, «Afg'on sayohati»; «Advokatlik osonmi?» dramasi; «Pinak» komediyasi; «Biz va siz»; «Ikki sevgi» (fojiyaviy asar).

**AVAZ O'TAR** (1884-1919) Xiva shahrida tug'ilgan. Sakkiz yoshidan boshlab maktabda, so'ngra madrasada tahsil ko'radi. Yosh shoir o'zining ijodiy qobiliyati bilan tezda Xiva xoni Feruz nazariga tushadi, uni o'z saroyiga taklif qiladi. Avaz O'tar g'oyat iste'dodli shoir bo'lib, adabiyotning deyarli barcha janrlarida asarlar yaratgan. Uning ma'rifatparvarlik g'oyalari she'rlarida o'z ifodasini topgan.

**Asarlari:** «Til», «Maktab», «Xalq», «Fidoi xalqim», «Topar ekan qachon»; «Hurriyat», «Sipohiylarga», «Ulamolarga» (kelajak, ozodlik va baxtli hayot haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan); «Hurriyat» (1917); «Saodat ul-iqbol».

**ABDURAUUF FITRAT** (1884—1938) Buxoroda tavallud topgan. Fitrat — Abduraufning taxallusi bo'lib, «tug'ma iste'dod» degan ma'noni bildiradi. U «Mirarab» madrasasida tahsil olgan, fors va o'zbek tillarini chuqur bilgan, arab tilini mukammal o'rgangan. U Turkiyaning Istambul shahrida o'z bilimini oshirgan. Yevropa fan-madaniyati yutuqlari bilan yaqindan tanishish uning dunyoqarashiga chuqur ta'sir etgan. U diniy aqidaparastlikka ko'r-ko'rona taqlid qilishni keskin tanqid qilgan. Ayni vaqtda, maktab-maorifni va Turkistondagi boshqarish usulini isloh etish g'oyalarini ilgari surgan.

**Asarlari:** «Sayha» («Bong» 1910 yilda Istambulda nashr qilingan); «Hind sayyohining qissasi» (Istambul 1912); «Uchqun» (to'plam). «Chin sevish» — drama; «Hind itilofchilari» — fojia (1920); «Abulfayzxon» — fojia (1924); «Arslon» (pesa); «Qiyomat» (1924); «Shaytonning tangriga isyoni» (1924); «Ro'zalar»; «Me'roj»; «Zayd va Zaynab»; «Zaynabning imoni»; «Qiyshiq eshon».

**SADRIDDIN AYNIIY** (1878—1954) Buxoro viloyatining G'ijduvon tumaniga qarashli Soktare qishlog'ida tug'ilgan. Boshlang'ich tahsilni otasidan olgan, keyin Buxoro madrasalaridan biriga borib o'qishni davom etdirgan, adabiyotni chuqur o'rganib, badiiy ijod sirlarini egallagan, dastlabki asarlaridayoq amirlik tuzumi chiriganini, uning boshqarish usulini yangilash zarurligini, demokratik isloliotlar o'tkazish, xalqqa ma'rifat berish lozimligini anglab yetgan. Ayniy yosh buxoroliklar harakatiga qo'shilgan. U yangi usuldagi maktablar ochishda tashabbuskorlardan biri bo'lgan. 1909 yilda «Tazhib us-sibiyon» («Bolalar tarbiyasi») degan o'qish kitobini chop etadi.

**Asarlari:** «Guli surx», «Bazm», «Yoshlarga murojaat», «Hasrat»; «Na o'ldi, yorab»; «Moziy va hol», «Yerni yana sotmang» she'rlari; «Har bir millat o'z tili ila faxr etar» (maqola); «Sudxo'ring o'limi» (qissa); «Qullar», «Doxunda» (romanlar).

**HAMZA HAKIMZODA NIYOZIIY** (1889—1929) Qo'qonda tabib oilasida tug'ilgan. U xalq o'rtasida ma'rifatparvar sifatida shuhrat topgan, Marg'ilon va Qo'qon shaharlarida maktablar ochgan, bolalar uchun

darslik va o'quv qo'llanmalari yaratgan. Hozirgi zamon o'zbek badiiy adabiyoti, musiqasi, teatr san'ati rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Hamza asarlarida XX asr boshlarida O'zbekistonda yuz bergan o'ta murakkab voqealar o'zining badiiy ifodasini topgan.

**Asarlari:** «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi» (1915-1917); «Zaharli hayot» (1916); «Paranji sirlari» (1927); «Maysaraning ishi» (1929) kabi dramatik asarlar; «Devon» (1905); «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi» (1914-1915) kabi darsliklar; «Yangi saodat» (povest); «Gul» turkumidagi ashulalar to'plami; «Feruzaxonim», «Ilm hidoyati», «Loshman fojiasi» (drama — komediyalar); «Zaharli hayot» (drama); «Turkiston muxtoriyatina» va boshqalar.

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston» 1998.
- Karimov I. A.* Istiqlol va ma'naviyat. — T.: «O'zbekiston», 1994.
- Karimov I. A.* Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: «O'zbekiston», 1997.
- Karimov I. A.* O'zbekiston ma'naviy yuksalish yo'lida. — T.: «O'zbekiston» 1998.
- Karimov I. A.* O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. — T.: «O'zbekiston» 1999.
- Karimov I. A.* Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlash-tirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. — T.: «O'zbekiston» 2005.
- Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «O'zbekiston», 2001.
- Abdullayev M.* Madaniyatshunoslik asoslari. — Farg'ona, 1998.
- Boboyev H., Alimasov V.* Madaniyatshunoslik. — T.: «Yangi asr avlodi», 2001.
- Gulmetov E., Mavkulov A.* Madaniyatshunoslik (ma'ruzalar matni) T., 2001.
- Karimov I. A.* Ma'naviyat, falsafa va hayot. — T.: «Fan», 2001.
- Madaniyatshunoslik. O'zbekiston respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tavsiya etgan o'quv qo'llanmasi. — Farg'ona, «Farg'ona» nashriyoti, 1997.
- Mannopov S.* O'zbek xalq musiqa madaniyati. — T.: «Yangi asr avlodi», 2004.
- Mahmudov T.* Mustaqillik va ma'naviyat. — T.: «Sharq», 2002.
- Murodov M., Qoraboyev U., Rustamova R.* Etnomadaniyat. — T.: Adolat, 2003.
- Mo'min S.* Muloqot mezonlari. — T.: «Yangi asr avlodi», 2004.
- Nazarov Q.* Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. — T.: Ma'naviyat, 1998.
- Saifnazarov I.* Ma'naviy barqarorlik va siyosiy madaniyat. — T.: «Sharq», 2001.

- Umarov E., Abdullayev M.* Ma'naviyat asoslari. — T.: «Sharq», 2005.
- Sher A.* Axloqshunoslik. (Ma'ruzalar matni). — T., 2000.
- Shermuhamedov S., Ochildiyev A.* Madaniyat va sivilizatsiya. — T.: «Yangi asr avlodi», 1999.
- Xayrullayev M.* O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davri madaniyati. — T.: «Fan», 1994.
- Falsafa asoslari. — T.: «O'zbekiston», 2005.
- Ergashev I.* Siyosat falsafasi. — T.: Akademiya, 2004.
- Erkayev A.* Ma'naviyat — millat nishoni. — T.: «Ma'naviyat», 1997.
- Qoraboyev U.* O'zbek xalqi bayramlari. — T.: «Sharq», 2002.
- Ахмедова Е., Габидулин Р.* Культурология. Т.: Изд-во АХ., 2001.
- Введение в культурологию. — М.: «Владос», 1996.
- Умаров Е., Абдуллаев М., Хакимов Е.* Культурология. — Т.: «Yangi asr avlodi», 2004.
- Хайруллаев М.* Культурное наследие и история философской мысли. — Т., «Узбекистан», 1985.
- Халилов Е.* Правознание в структуре общественной жизни. — Т.: «Узбекистан», 1998.

## MUNDARIJA

|                                                        |   |
|--------------------------------------------------------|---|
| Kirish .....                                           | 3 |
| Madaniyatshunoslikning bahs mavzui va vazifalari ..... | 5 |

### ***Birinchi bob. MADANIYATNING IJTIMOIIY MOHIYATI***

|                                                                                     |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Madaniyat tushunchasi, uning mazmuni, rivojlanish omillari<br>va funksiyalari ..... | 16 |
| Madaniyat to'g'risida ilmiy-nazariy qarashlar .....                                 | 30 |
| Madaniyat va tabiat .....                                                           | 36 |
| Madaniyat va jamiyat .....                                                          | 43 |
| Madaniyat va sivilizatsiya .....                                                    | 48 |
| Madaniyat va shaxs .....                                                            | 53 |

### ***Ikkinchi bob. MADANIYATNING ASOSIIY SOHALARI***

|                                                           |     |
|-----------------------------------------------------------|-----|
| Siyosiy madaniyat .....                                   | 63  |
| Iqtisodiy madaniyat .....                                 | 68  |
| Axloqiy madaniyat .....                                   | 74  |
| Estetik madaniyat .....                                   | 81  |
| Fan .....                                                 | 86  |
| Din .....                                                 | 94  |
| San'at .....                                              | 101 |
| Ilova. Madaniyatimiz tarixining buyuk namoyandalari ..... | 111 |
| Adabiyotlar .....                                         | 140 |

# **MADANIYATSHUNOSLIK ASOSLARI**

Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun qo'llanma

«Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006.

|                          |                       |
|--------------------------|-----------------------|
| Muharrir                 | <i>N. Usmonova</i>    |
| Texnik muharrir          | <i>T. Smirnova</i>    |
| Musahhih                 | <i>N. Safarova</i>    |
| Kompyuterda sahifalovchi | <i>E. Kim</i>         |
| Muqova dizayneri         | <i>A. Skladchikov</i> |

**Madaniyatshunoslik asoslari. O'quv qo'llanmasi. — T.:**  
nashriyoti, 2006.—144-b.

Mazkur risolada madaniyatshunoslik fanining predmeti, madaniyatning mohiyati va mazmuni, uning funksiyalari, ijtimoiy mohiyati va tarkibiy qismlari haqida fikr yuritiladi.

Bosishga 26.06.2006 y.da ruxsat etildi. Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.

«Tayms» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli b. t. 8,37. Nashr b. t. 10,0. Adadi 500 nusxa. 19-buyurtma.

«MaxiGraf Plus» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, gv. pol. Xo'jayev ko'chasi, 2.